Fe’l gapda kesim bo’lib kelganda hol bilan ega, makon va zamon kengaytiruvchisi bilan o’rin va payt joylashish holi mos kelishi yuqorida ta’kidlangan edi. Kechqurun Komila xonasida achchig’idan akasiga ushbu ayanchli maktubni qizil rangli qalam bilan yozdi gapida ana shunday holatni ko’rishimiz mumkin. Markazi «yozdi» fe’li bilan ifodalangan ushbu gapda 11 so’z ishtirok etib, barchasi markaz tarkibiga kiruvchi kengaytiruvchilar hisoblanadi. Bunda: Rayhona, kechqurun, xonasida so’zlari ayni bir paytda gap kengaytiruvchilari (ega, payt, o’rin holi), shuningdek, «yozmoq» fe’lining foili, zamoni va makoni kabi so’z kengaytiruvchilari hamdir.

Lekin bu o’rinda bevosita maqolaning mavzusiga aloqador bo’lgan gap bo’laklarining funktsionallik va nofunktsionalligi nuqtai nazaridan baholanishiga ham alohida e’tibor qaratilishini ta’kidlash lozim. Bunday vaziyatda misol tariqasida keltirilgan jumla tarkibidagi ikkinchi darajali bo’laklarni funktsionallik va nofunktsionallik jihatidan talqin etish fikrimizga yana aniqlik kiritadi. Buni berilgan chizma va undagi gap bo’laklarining ierarxik bog’lanishi orqali yanada yaqqolroq ko’rish hamda ularni funktsional va nofunktsional gap bo’laklari sifatida ajratsa bo’ladi. Bu masalani chizmada quyidagacha ko’rsatamiz:



Bu chizmadan ayonki «Yozdi» gap markaziga to’g’ridan to’g’ri bog’lana olish imkoniga ega bo’lgan Komila, maktubni, akasiga, kechqurun, achchig’idan, xonasida, qalam bilan kabilar funktsional gap bo’laklari sanalsa, gap markaziga bilvosita tortilib turuvchi ushbu ayanchli, rangli, qizil kabi ikkinchi darajali bo’laklar nofunktsionallik kasb etgan. Bu boradagi gap bo’laklarining maxsus

tadqiq ishi tadqiqotchi R.Abdusamatov ishida yana ham aniqlashtirilgan edi. Biroq gap bo'laklarini funktsionallik va nofunktsionallik asosidagi talqini gap kesimini sistem talqin qilishga bir oz bo'lsa-da, yordam bergan bo'lsa ham bu ularning to'liq tavsifi degani emas. CHunki gap kengaytiruvchisi va so'z kengaytiruvchisi talqinlari kesimning tarkibidagi atov birlik va kesimlik ko'rsatkichlari ma'noviy bog'lashuvlari asosida talqin etilganda mukamallik kasb eta oladi.

Xullas, keyingi yillarda tilshunoslikda taraqqiy etib borayotgan sistemaviy yo'nalish gap bo'laklari, xususan, ikkinchi darajali bo'laklarni ham eng kichik gap qurilish asosining kengayishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni taqozo etadi. Kengayish imkoniyatlariga tayanib olib borilgan kuzatuv, funktsionallik va nofunktsionallik natijalari ko'rsatadiki, akniqlovchi va to'ldiruvchining gap qurilishidagi mavqei ma'lum so'zlarni kengaytirishga xizmat qiluvchilik, hamrohlik xususityatiga ko'ra belgilanadi. To'ldiruvchi, aniqlovchi va uning turlari mohiyatini aniqlashda so'z kengaytiruvchilari nuqtai nazaridan yondashish katta samara beradi. Holning muayyan turlari gap kengaytiruvchilari, ba'zi turlari esa so'z kengaytiruvchilari mavqelarida keladi. SHu bilan birga kesimga bevosita aloqador bo'lmagan bo'laklar, ya'ni ikkinchi darajali predikatsiya tarkibida qo'llanuvchi so'zlar esa gapda nofuntsional gap bo'laklari sifatida ta'riflanadi. SHuningdek, hollar so'z va gap kengaytiruvchilari munosabatlarida oraliq uchinchi mavqeini ham hosil qiladi. Gapning tarkibiy qismlariga [WRm] - kesim nuqtai nazaridan yondashish to'ldiruvchi va holning o'zaro farqlanishi hol - to'ldiruvchi sifatidagi binar oppozitsiyada emas, balki hol – hol-to'ldiruvchi - to'ldiruvchi kabi darajali (gradual) oppozitsiyada ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Nurmukhamedova, L. S. (2023). Specific characteristics of education of children with disabilities in a family. Oriental Journal of Education, 3(03), 66-73.

2. Nurmukhamedova, L. S. (2022). The uniqueness of family relations to a child who needs special help. Oriental Journal of Education, 13-19.

3. Nurmukhamedova, L. S., & Jalilova, M. F. (2022). Study of school and family cooperation in educating students with special needs. Oriental Journal of Education, 6-12.

4. Нурмухамедова, Ш. З. (2023). Архитектурное наследие Узбекистана: эволюция типологических и стилевых особенностей. Central asian journal of arts and design, 191-197.

5. Nurmukhamedova, S. (2021). On typological characteristic of funerary architecture of uzbekistan in the ancient period. Academicia: an international multidisciplinary research journal, 11(1), 1287-1296.

6. Нурмухамедова Ш. Вклад галины анатольевны пугаченковой в историю изучения архитектуры Средней Азии. infolib: информационно-библиотечный вестник Учредители: Общество с ограниченной ответственностью с участием иностранного капитала» E-Line Press», (1), 54-57.

РЕЗЮМЕ

Maqolada avvalgi tadqoqtlardan farqli o'laroq o'zbek tilshunosligida gap bo'laklarining o'zaro bosh bo'lakka nisbatan ierarxik talqin qilinishiga doir masala xususida fikr yuritiladi. Mazkur ishda gap bo'laklarining, ayniqsa to'ldiruvchi va hol bo'laklarining valentlik aspektida ierarxik talqini yuzasidan ma'lumot beriladi.

РЕЗЮМЕ

В статье отличие от предыдущих исследований этого вопроса в узбекском языкознание, основывашихся, главным образом, и речевых явлениях, разрабатываются критерии определения и выделения второстеренных члени предложения в структуре узбекского предложения. Здесь констатируется, что новое понимание статуса дополнения и обстоятельства в структуре предложения – результат оследовательного и постепенного изучения лингвистами валентных особенностей языковых единиц и минимальных моделей предложения.

SUMMARY

In the article, unlike previous studies of this issue in Uzbek linguistics, based mainly on speech phenomena, criteria are developed for determining and highlighting secondary members of a sentence in the structure of an Uzbek sentence. It is stated here that a new understanding of the status of the object and the circumstance in the sentence structure is the result of a consistent and gradual study by linguists of the valence features of language units and minimal sentence models.

TALABALARNING INGLIZ TILINI MUSTAQIL O`ZLASHTIRISHLARIDA BLENDED LEARNING IMKONIYATLARI

Shirinova F.
Pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori PhD,
O`zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Tayanch so'zlar: uzluksiz ta`lim, masofaviy ta`lim, intensiv ishlash, individuallashgan yondashuv, umumsohaviy, autentik.

Ключевые слова: непрерывное образование, интенсивная работа, индивидуальный подход, аутентичное.

Key words: continuing education, intensive working, individual approach, educational, authentic.

Kirish. Ma`lumki, bugungi kunda rivojlanayotgan mamalakatlarning dunyo bozoriga chiqishi va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning yaxshilanishi, xalqaro munosabatlarning faollashishi kadrlarning saviyasi va mahoratiga ham bog`liq. Biroq turli sohalar bo`yicha mutaxassislarni tayyorlashda nofillologik ta`lim yo`nalishi bitiruvchilari mutaxassislik fanlaridan yetarli bilim, ko`nikma va malakaga ega bo`lganlari holda ulardagi chet tilini bilish darajalarining pastligi mamlakatning ichki va tashqi infratuzilmalarini rivojlantirishda katta to`siq bo`layotgani kuzatilmoqda. Xususan, nofillologik ta`lim yo`nalishi talabalarining til ko`nikmalari darajasi bu talablarga to`liq javob beradi deya olmaymiz. Turli soha mutaxassislarining jahon bozoriga chiqishini qiyinlashtiradigan omillardan biri ularning sohaviy chet tilini bilish darajasining pastligidir.

Material va tadqiqot usullari. Nofilologik talim yo'nalishi moassasalari birinchi bosqich talabalaring chet tilidan bilim darazhasi nutq faoliyat turlari bo'yicha ta'hlil qilinganda aksariyatining chet tili bilish darajasi A1 va A2 oralig`iga mos kelishini ko`rsatmoqda. Bu holat ingliz tilidan turli bilim darajasiga ega bo'lgan talabalarni yagona bitta davlat dasturi asosida o'qitishda kattagina muammo hosil qilib, nofilologik ta'lim muassasalardagi kasbiy-sohaviy yo'nalishlarning xilma-xilligi ular uchun alohida yondashilgan darsliklar va o'quv-qo'llanmalarni ishlab chiqish masalasini ham o'rtaga qo'ymoqda.

Darslik va o’quv-qo’llanmalarni shakllantirishda turli yo’nalishlarning kasbiy-sohaviy, ijtimoiy yangilanishlarni, talabalarning ehtiyojlarini, bilim darajalarini va buyurmachining talablarini ham e’tiborga olish taqozo etiladi. Biroq nofilologik yo’nalishlarda ingliz tilidan ajratilgan soatning yetarli emasligi bu o’rinda mustaqil ta’lim uchun ajratilgan soatlardan, eng kamxarj hisoblanadigan masofaviy ta’limdan unumli foydalanish kerakligini ko’rsatmoqda. Shu bois masofaviy ta’lim va an’anaviy ta’lim tizimi shakllarini birgalikda qo’llash usullarini ishlab chiqish pedagogikaning asosiy mazmun-mohiyatiga, masofaviy ta’lim vositasida talabalarning mustaqil o’quv-biluv faoliyatini tashkil etish esa pedagogik zaruratga aylandi.

Nofilologik ta’lim yo’nalishlarda ingliz tilini bilish darajasi turlicha bo’lgan talabalarning tahsil olishi chet tili mashg’ulotlarni differentsiallashgan, individuallashgan, korporativ (jamoaviy) va kolloborativ (juft) ta’lim tamoyillariga asoslanib tashkil qilish, talabalarning mustaqil o’quv-biluv faoliyatiga ham shunday yondashishni taqozo etadi. Bunday vaziyatda pedagog ta’limga individuallashgan yondashuv asosida talabalar darajalarini uzluksiz va intensiv ishlash orqali tenglashtirib borishi kerak bo’ladi.

Shuni ham qayd etish kerakki, talabalarning o’zaro fikr almashinishi ularda bahamjixatlik, birdamlik, bir-biridan o’rganish, bir-birini qo’llab-quvvatlash xislatlarini ham tarbiyalaydi. O’zaro fikr almashinish jarayonida talabalar pedagog bergan ma’lumotlarni to’plash barobarida boshqalarning yangi fikr va g’oyalaridan foydalanish imkoniyatiga ega ham bo’ladilar. Shu jarayon ularda sohalari bo’yicha hosil qilgan mustaqil fikrlarini tahlil qilish qobiliyatlari ham o’sib boradi. Biroq bunda talabalarning o’zaro va o’qituvchilar bilan hamkorligi bir muncha chegaralangan bo’ladi. Demak, masofali ta’limning ham o’ziga xos qiyinchiliklari, salbiy tomonlari bor. O’qituvchi va talaba o’rtasidagi o’zaro muloqot, bilim va ko’nikmalarni amalda namoyon qilish, motivatsiya, raqobat kabi jihatlarning shakllanishida an’anaviy ta’limning imkoniyatlari katta ekanligi ham ko’rindi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Ayni vaqtda masofaviy ta’limning istiqboli va samaradorligi internet tarmoqlariga bog’liq bo’lib, uning sekin ishlashi masofaviy ta’limning barcha imkoniyatlaridan to’liq foydalanishga to’sqinlik qiladi. Hatto ba’zi hollarda o’qituvchilarning o’zlari masofadan turib o’qitish deganda faqat o’z ma’ruzalarini yoki testlarini internet tarmog’iga qo’yilsa yetarli deb tushundilar. Shu bois onlayn rejimga to’liq o’tish ta’lim sifatiga kadrlarni sifatli tayyorlashga biroz putur yetkazdi.

An’anaviy ta’limda talabalarning auditoriyadan tashqarida mustaqil ishlashlari talab darajasida emasligi, uning nazorati to’g’ri va ob’ektiv olib

borilmagani talabalar tomonidan ham e'tirof etildi [1,c.121]. Shu tufayli ilg'or mamlakatlarning ta'lim muassasalari ham aralash ta'lim - Hybrid Educationni tanladilar.

Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarida sirtqi bo'limlar, xodimlarning malakasini oshirish kurslari va eksternat usulida ta'lim oluvchilar uchungina onlayn ta'lim tanlandi, kunduzgi ta'limda esa faqatgina mustaqil ta'lim masofadan ishlashga qulay ekanligi ko'rindi. Ayni vaqtda shart-sharoit natijasida yuzaga kelgan vaziyat ta'lim jarayonini isloh qilishga, pedagoglarning ham, talabalarning ham ta'lim jarayoniga munosabatini tubdan o'zgartirishiga olib kelmoqda. Doim parda ortida qolib ketayotgan mustaqil ta'lim olish, egallanayotgan bilimlarga ijodiy yondashish, talabalarning har biri bilan individual ishlash majburiy holatga o'tib, ta'lim jarayonining asosiy tamoyiliga aylandi.

Nari Kim ta`kidlaganidek, an'anaviy ta'limni onlayn ta'lim bilan aralash olib borilishining sezilarli ta'siri shundaki, ko'plab onlayn kurslar talabalar jamoaning bir qismi sifatida ishlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan va taqdimot, loyihalar, muammoli vaziyatlar, hisobotlar, munozaralar kabi vazifalarni bajarishlari orqali jamoaviy baholanishni ham o'z ichiga oladi [4, c.162].

Aralash ta'lim vositasida o'qituvchi dars jarayonida ulgurilmayotgan materiallarni bir qismini talabalarga mustaqil ish sifatida bajartirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayon talabalar bilan individual ishlashni taqozo etilishi, aynan chet tili bilimi va til ko'nikmalari darajasi past bo'lgan talabalar bilan alohida ishlash, ularga qaysi til ko'nikmasi bo'shroq bo'lsa, shular ustida ishlashga doir topshiriqlar berish imkoniyati ham yuzaga keladi.

Cem Balcikanli ham ko'plab ilmiy izlanishlar yakka/juft holatida ishlatish orqali talabalarni o'quv materiallaridan foydalanishga jalb qilish, turli yondashuvlar orqali auditoriya mashg'ulotlari va uy vazifalarining xilma-hilligi ta'minlashga, talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni yuzaga keltirishini ta'kidlaydi [1, c. 142]. Demak, bunday vaziyatda mustaqil ishlarning salmog'i ortib va tobora individuallashib boradi. Albatta, bu talabalarda ham ta'lim olishga intilishni, qiziqishni oshiradi. O'qituvchi bilan yakkama-yakka muloqotga kirishish, o'ziga nisbatan alohida e'tiborni his qilish talabani ruhan ko'taradi va ulardagi ichki motivlarni ishga tushiradi.

I.A.Popova fikricha, nofilologik yo'nalishdagi muassasalarda ingliz tili o'qitishning o'ziga xos xususiyati, maxsus sohaviy maqsadlarni maksimal darajada hisobga olishning sohaviy tushuncha va terminlar, ularning leksik-sintaktik va grammatik xususiyatlari, muayyan professional maqsad va

vazifalarga yo’naltirilgan og’zaki va yozma tekstlari, vaziyatli topshiriqlar beriladi. Zamonaviy kasbiy muammolar va ularni amaliy hal qilish usullarini aks ettiradigan mavzular shunga mos tanlangan grammatik materiallarga asoslanishi, shu bilan birga chet el vakillari bilan yuzaga kelishi mumkin bo’lgan muloqot holatlarni e’tiborga olishi zarur .

Nofilologik yo’nalishda talabalarning mustaqil ishlarini tashkillashtirishda fanlararo aloqadorlikni e’tiborga olish maqsadga muvofiq. Xususan, xorijiy til fanini mutaxassislik fanlar hisoblangan farmakognoziya, farmatsevtik kimyo, dori turlari texnologiyasi va ijtimoiy fanlar bilan integratsiyalash talabalarda til o’rganishga bo’lgan motivni uyg’otadi. Talaba motivatsiyasidagi bunday o’sishlar ayniqsa taqdimotlarni tayyorlashda va talabaning guruhlarda ishlash holatida sezilarli bo’ladi. Birgalikda olib borilgan ijodkorlik faoliyati talabalarni birlashtiradi va raqobat sharoitida hamkorlikda ishlashga o’rgatadi. Shuningdek, bu talabalarning katta auditoriya oldida nutq so’zlash, kishilarga o’zlarining fikr-mulohazalarini yoki tanqidiy qarashlarini bildira olish layoqatini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, ingliz tilida nutq so’zlashda o’ziga bo’lgan ishonchning mustahkamlanishiga olib keladi. Albatta, bunday talablar chet tilidan sayoz bilimga ega bo’lgan 1-bosqich talabalari uchun qiyinchilik tug’diradi. Masalan, 1-bosqich talabalari uchun yangi ma’lumotlarni to’plash agar ona tilida bo’lsa qiyin bo’lmasligi mumkin, lekin chet tilida ma’lumotlarni to’plash va ularni tahlil qilish qiyinlik qiladi va ayni vaqtda fanga bo’lgan motivatsiyani ham sustlashtiradi.

Nofilologik yo’nalishda talabalarning mustaqil ishlarini tashkillashtirishda fanlararo aloqadorlikni e’tiborga olish maqsadga muvofiq. Masalan, tibbiyot-farmatsevtika xorijiy til fanini mutaxassislik fanlar hisoblangan farmakognoziya, farmatsevtik kimyo, dori turlari texnologiyasi va ijtimoiy fanlar bilan integratsiyalash talabalarda til o’rganishga bo’lgan motivni uyg’otadi. Mustaqil ishlarni tashkil qilishda esa hayotiy misollar bilan boyitilgan autentik materiallardan foydalanish, mustaqil ishlash uchun talabalarda boshlang’ich ko’nikmalarni shakllantirish dastlabki muhim masalalardan hisoblanadi. Keyingi o’rinda esa talabalarni hamkorlikda ishlashga o’rgatish, ishlab chiqarish muhiti bilan tanishtirish, ijtimoiy-sohaviy mavzularda jamoaviy rolli o’yinlarni namoyish qilish, shifoxona, dorixona, zavod va tashkilotlarga borib intervyular tayyorlash samarali bo’ladi. Tibbiyot-farmatsevtika talabalaridagi bunday mustaqil faoliyatning shakllanishi ingliz tilini samarali o’rganishlari bilan birga ularning kasbiy kompetentligini shakllanib borishiga ham yordam beradi.

Insonning ta’lim sohasidagi imkoniyatlarini yanada kengaytirib yuborgan masofaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va ta’limni tubdan isloh qilish maqsadida ko’plab ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda. I.V. Sokolova fikricha, masofaviy ta’lim insonning tahsil olishi va ma’lumot olish huquqini amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan bo’lib, yetakchi universitetlar, institutlar, malaka oshirish markazlari, qo’shimcha ta’lim markazlari va boshqa o’quv muassasalarining ilmiy va ta’lim salohiyatidan yanada faol foydalanish orqali ta’lim olish uchun keng imkoniyatlar bilan ta’minlaydi. Masofaviy ta’lim nazariy darslar sonini qisqartirishga va materialni mustaqil o’zlashtirishga e’tiborni kuchaytirish orqali o’quvchini shaxs sifatida rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratilishiga olib keladi. Masofaviy mashg’ulotlar ta’lim oluvchilarning yangi muhitga tez o’rganish, masofada turib bir-biri bilan o’zaro aloqaga kirishish, vazifalarni intensiv bajarish, o’rganilmagan materiallarni o’rganish, o’z qiziqish doirasini cheklamasdan yangi sohalar bo’yicha ham o’z bilimini oshirib borishga yetarli shart-sharoit yaratib beradi [2, c.98].

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalar uchun har semestr yakunida o’tilgan fanlar yuzasidan beriladigan mustaqil ishlarning tashkiliy jihatlariga o’zgartirishlar kiritib borish davr talabi hisoblanadi. Xususan, tibbiyot-farmatsevtika yo’nalishida ingliz tilini o’qitishda talabalarning mustaqil o’quv-biluv faoliyatini masofaviy ta’lim vositasida loyihalashtirishda talabalarning bilim darajasini ko’tarishga qaratilgan zamonaviy metodik kontseptsiyalar, o’qituvchining yaratuvchan va ijodkorligini namoyon qilishga imkon beruvchi, talabalarning qiziqishlarini inobatga oluvchi, autentik materiallar bilan boyitilgan metodik tavsiyalar asos bo’lib xizmat qildi. Ta’limda bunday masofaviy ta’lim platformalaridan foydalanish nofilologik oliy ta’lim muassasalari talabalarida ingliz tilini shaxsiy-sohaviy maqsadlarda egallab, kelajakda o’z bilim, ko’nikma va malakalarini nutq faoliyatining barcha turlarini faol qo’llagan holda o’z sohalarida yetuk mutaxassis ekanliklarini namoyon qila oladilar.

Tadqiqotimiz jarayonida talabalarni ingliz tilidagi sohaviy terminologiya bilan chuqurroq tanishtirish sohalariga taalluqli bo’lgan terminlarni yozma va og’zaki nutq jarayonlarda to’g’ri qo’llay olishlari talabalardagi sohaviy leksikani boyishiga yordam berdi.

Xulosalar. Mustaqil ta’limning samaradorligini oshirish uchun avvalo mustaqil ta’lim soatlarini axborotlashtirish va didaktik loyihalash va uning metodik ta’minotini ishlab chiqish kerak. Bunda loyihani tuzishda qaysi o’rinda qanday bilim egallanishi, bu jarayonda didaktikaning qaysi qonun-qoida va tamoyiliga amal qilinishi, o’quv jarayonida qaysi dars turi va

bosqichlari, qanday usullar, axborot texnologiyalari va didaktik materiallardan foydalanilishi aks ettirilishi kerak bo'ladi. Loyihalashning asosiy maqsadi talabaga tayyor bilimlarni emas, ammo bilimlarni muvaffaqiyatli egallash va boyitib borish uchun pedagogik sharoit yaratilib berishdir. Ammo ushbu shart-sharoitlar didaktik shakllantirilgan, uning dizayni uchun mohirona yondashuv qo'llanilgan, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning axborot texnologiyalari bilan integratsiyalashuvi ta'minlangan bo'lsagina kerakli natijani beradi.

Adabiyotlar:

1. Батунова И.В. Процесс обучения иностранному(английскому) языку в неязыковых вузах: кан.пед.наук...дисс.:–Красноярск. 2017.– 121 с.

2. Попова И.А. Обучение иноязычному профессионально ориентированному чтению студентов-медиков: На материале английского языка: кан.пед.наук...дисс.:– Волгоград., 2005.– 67 с.

3. Рахимов О.Д. ва б. Замонавий таълим технологиялари (ўқув қўлланма).– Т., Фан ва технология., 2013.– Б. 200.

4. Рубин Ю.Б. Развитие как предпосылка становления интегрированного обучения на российском рынке образовательных услуг: кан.пед.наук...дисс. – Россия., 2008.– С 162.

5. Maqolalarga havolalar:

6. Balcikanli. Learner autonomy in language learning: student teachers` beliefs / Ж. Academic Research.– №56.– Австралия., 2010.– 142 p.

7. Соколова И.В. Проектирование дистанционного курса в оболочке Moodle для школьников, интересующихся математикой / Ж. Знание. Понимание. Умение.– №7. – М., 2018.– 98 с., 134 с.

8. Яркко Ламписелькы. Таълимни рақамлаштириш / "Финляндия тажрибасини ўрганиш: Таълимда баҳолаш" бўйича онлайн семинар материаллари. 2021 йил 4 май marita.harmala@karvi.fi

9. Kitoblarga havolalar:

10. Dainty P. Phrasal Verbs in context. UK., Scotland. Book with CD. 2010. P. 95.

11. David L. Chiesa., Azizov U., Khan S., Nazmutdinova K., Tangirova K. Reconceptualizing Language Teaching: An in service teacher education course in Uzbekistan. – T., Baktria Press., 2020. P. 95-103.

12. Diaz-Gilbert M. English for Pharmacy Writing and Oral Communication. Book. USA., Philadelphia., 2009. P. 411.

13. Internet-nashrlariga havolalar:

14. Kuz.uz сайти. https://islaminstitut.uz/18202

15. Nari Kim. Assessment in Online Distance Education: A Comparison of three online Programs at a University. / J. General and Professional Education.–№9. – USA., 2008.– 171 p.

16. European Framework for CLIL Teacher Education/J.ECML/CELV.–№4. UK.,2011https://clilcd.ecml.at/EuropeanFrameworkforCLILTeacherEducation/tabid/2254/language/en-GB/Default.aspx

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada nofilologik ta`lim yo`nalishidagi talabalarning mustaqil faoliyatinin tashkillashtirishda pedagogik sharoitlarni inobatga olgan holda aralash ta`lim muhitini yaratish bilan ta`lim samaradorligini oshishi va talabalarning ingliz tilini o`rganishlariga keng imkoniyatlar ochib beradi. Talabalarning ingliz tilini o`rganishlaridagi mustaqil o`quv-biluv faoliyatini rivojlantirishda to`g`ri tashkillashtirilgan aralash ta`lim muhitining imkoniyatlari yoritilgan. Talabalarning mustaqil o`quv – biluv faoliyati sohaviy chet tili ko`nikmalarini tabaqalashtirilgan umumsohaviy, autentik, differentsial – ijodiy, integrativ – faoliyatli, nofilologik yo`n`lishdagi kontentlar bilan muvofiqlqshtirib tuzish taklifi berilgan. Aralash ta`lim sharoitida talabalarning mustaqil o`quv-biluv faoliyatini rivojlantirish modeli kasbiy kompetentlik va chet tillari ko`nikmalarini loyihalash mexanizmlarini individual, mustaqil,

ta`lim subyektlarining manfaatlariga adaptiv sinxronlashtirish asosida takomillashtirishga qaratilgan takliflar ham o`rin olgan. Ijtimoiy soha, hususan, ta`lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish, ta`lim tizimining uzluksizligini yanada takomillashtirish maqsadida sifatli ta`lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayorlash asosiy vazifalarimizdandir. Jumladan, nofilologik yo`nalishida masofaviy ta`limga o`tish va uning an`anaviy ta`lim bilan integratsiyasini ta`minlash orqali aralash ta`lim (Blended Learning) ni takomillashtirish, oliy ta`limning yagona standartini yaratish va xalqaro diplomlarni tan olish, talabalar va o`qituvchilar mobilligini yo`lga qo`yish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

РЕЗЮМЕ

В данной статье обсуждается необходимость повышения эффективности образования путем создания инновационной среды, с учетом педагогических условий организации самостоятельной деятельности студентов высших учебных заведений и инновационного подхода к изучению иностранных языков у студентов. Смешанное обучение служит ключевым инструментом в развитии самостоятельной учебной деятельности студентов медико-фармацевтического направления в изучении области английского языка. Предлагается согласовывать самостоятельную учебно-познавательную деятельность студентов с содержанием дифференцированного общечеловеческого, аутентичного, дифференциально-творческого, интегративно-деятельность и нефилологического содержания. Внесены предложения, направленные на совершенствование модели развития самостоятельной учебной деятельности студентов в условиях смешанного обучения, основанной на механизмах проектирования профессиональной компетентности и владения иностранным языком, на основе индивидуальной, самостоятельной, адаптивной синхронизации с интересами. учебных предметов. Нашими основными задачами являются развитие социальной сферы, особенно образования и науки, повышение преемственности системы образования, повышение возможностей качественных образовательных услуг, подготовка высококвалифицированных кадров в соответствии с современными потребностями рынка труда. В частности, совершенствуя смешанное обучение путем перехода на нефилологическое дистанционное образование и обеспечения его интеграции с традиционным образованием, создания единого стандарта высшего образования и признания международных дипломов, проводятся научные исследования в связи с установлением мобильности обучающихся и учителей.

SUMMARY

In this article is described some samples for organizing students independent learning in pedagogical circumstances, it is also mentioned to increase educational efficiency and motivate students learning English which related to their profession with forming innovative atmosphere. Blended learning plays an important role to improve learning English independently for the students. It is proposed to coordinate the students' independent learning-cognitive activity with the content of differentiated universal, authentic, differential-creative, integrative-active, and non-philological content. There are proposals aimed at improving the model of the development of students' independent educational activities in the conditions of mixed education, based on the design mechanisms of professional competence and foreign language skills, on the basis of individual, independent, adaptive synchronization to the interests of educational subjects. Definitely, developing the social sphere, especially education and science, to improve the continuity of the education system, to increase the possibilities of quality education services, and to train highly qualified personnel in accordance with the modern needs of the labor market.

XALQ OG‘ZAKI IJODIDA MIQDORIY MA’NO

Mamadjanova M. N.
Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi
Mahmudova N.
Qo‘qon DPI o‘qituvchisi, PhD

Tayanch so’zlar: maqol, son, zidlanish, emotsionallik, ko‘plik, miqdoriy qiyoslash.
Ключевые слова: пословица, число, оппозиция, эмоциональность, множество, количественное сравнение.
Key words: proverb, aims, developing language structure, being model, significant in terms.

Kvantitativlik-mazmuniy maydon. Chunki turli sathlarda o‘sha sath birliklari vositasida ifoda qilinadigan, barcha sathlarda mavjud bo‘ladigan univesal mazmuniy birliklar maydonni tashkil qiladi. Morfologik sathda miqdoriylik leksik hamda morfologik yo‘l bilan hosil qilinadi va ayrim mustaqil so‘zlar, affikslar orqali namoyon bo‘ladi.Miqdor tushunchasi, birinchi navbatda, son turkumi bilan uzviy bog‘liq. Sonlar predmet va ish-harakatning miqdorini, sanog‘ini, bajarilish tartibini ifodalovchi so‘zlardir. Arifmetik amallarda miqdor tushunchasi mavhumlik kasb etadi. Bunda predmet ko‘rsatilmaydi: ikki o‘n besh-bir o‘ttiz. Ko‘rinadiki, sonlar boshqa turkumdagi so‘zlar bilan birikma hosil qilgandagina aniq miqdor tushunchasiga ega bo‘ladi. Son turkumiga oid birliklarning qator xususiyatlari barchaga ma’lum: yigirma ikkita faol qo‘llanuvchi tub sonlar asosida murakkab sonlar hosil qilinadi; yozuvda sonlar harf yoki raqam bilan ifodalanadi; sonlar otlashishi mumkin; jamlik, taxmin, taqsim kabi miqdorga xos ma’no ko’rinishlarini ifoda etishi mumkin. Shunga ko‘ra, sonlar ma’no turlariga ajratiladi. Olmosh va ravish turkumlarida ham miqdoriy belgi kuzatiladi. Lekin ulardagi miqdoriylik son ifodalaydigan miqdoriylikdan farqlanadi. Olmosh miqdorni bevosita bildirmaydi, balki unga ishora qiladi. Olmoshga xos muayyan ma’no matn orqali bilinadi. Kishilik olmoshlarining men, sen, u shakllari birlik, biz, siz, ular shakllari ko’plikni anglatadi. I, II shaxsda birlik va ko‘plik alohida so‘zlar vositasida bildiriladi. III shaxsda ko‘plik ma’nosi birlik shakliga -lar ko‘plik qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilinadi. Sen olmoshiga -lar qo‘shimchasi qo‘shilganda

esa so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan bepisandligi ko‘rsatiladi. Kishilik olmoshlari o‘zaro oppozitsiyani tashkil etadi. Bu oppozitsiyaning bir qutbida birlik son, ikkinchisida ko‘plik son turadi: men—biz, sen—siz, u—ular. Bu oppozitsiya kishilik olmoshlariga shaxs-son qo‘shimchalari qo‘shilishi bilan yanada murakkablashadi: menman—bizmiz, sensan—sizsiz, udir—ulardir. Barcha xalqlar va madaniyatlar hayoti sonlarga “kodlashtirilgan”.

Maqol mantiqiy fikrlashning namunasi sifatida o‘zida odob va axloqning umume’tirof etilgan muhim qoidalarini mujassam etgan, inson ongi hamda shuuriga tezda yetib borish, oson singib ketish xususiyatlariga ega bo’lgan xalq donoligining yorqin namunasidir. Maqollar turmushning barcha jabhalarini qamrab olgan nasihat, maslahat, bilimlar jamlanmasi bo’libgina qolmasdan, illatlarni qoralovchi va hajv qiluvchi , xavf-xatardan ogohlantiruvchi, umuman aytganda, kishilarni to’g’ri yo’lga boshlovchi vositalardan biri sanaladi. Har bir maqol insoniyatning minglab yillarni qamrab oluvchi hayotiy tajribasi, tabiat hamda jamiyat haqida, borliq voqea-hodisalari haqida olib borgan mulohazalari, chiqargan xulosalari asosida vujudga kelgan.

Maqol hajman kichik bo’lishiga qaramasdan, chuqur ma’no kasb etadi. Unda har bir so’z o’z o’rnida qo’llaniladi, biror so’zni olib tashlash yoki boshqa so’z bilan almashtirishning hojati yo’q.

Maqollarning oziga xos til xususiyatlari, qurilish qoliplari mavjud. Xususan, maqollarda ishlatilgan so’zlarning leksik xususiyatlarini talqin qilinganda, ko’pincha, antonim so’zlarga murojaat qilinishi, obrazlilikni ta’minlash maqsadida ko’chma ma’noli so’zlardan foydalanish ko’zga tashlansa, sintaktik jihatdan maqollar tahlili shuni ko’rsatadiki, aksariyat maqollar bog’lovchisiz qo’shma gap, shuningdek, shaxsi umumlashgan sodda gap shaklida bo’ladi.

Miqdor ma’nosini anglatuvchi yoki miqdorga ishora qiluvchi vositalar ham maqollarni shakllantirishga, ularning shaklan lo’nda va puxta bo’lish barobarida mazmunan teran, purhikmat bo’lishini ta’minlashga xizmat qiladi. Maqollarda qo’llanilgan miqdor anglatuvchi unsurlarni maydon sifatida o’rganadigan bo’lsak, maydon markazida son so’z turkumiga oid bo’lgan leksemalar turadi. Aksariyat hollarda, oppozitsiya hosil qilish orqali narsalar, hodisalar, belgilar qiyoslanadi. Oppozitsiyaning bir tomoniga ijobiy, ikkinchi tomoniga esa salbiy belgilar qo’yiladi. Ba’zi sonlar maqollar tarkibida boshqa sonlarga qaraganda ko’proq qo’llaniladi. Bir, yetti, o’n, qirq, yuz, ming sonlari maqollarda ishtirok etuvchi faol sonlar sirasiga kiradi. Maqollarda qo’llanilgan sonlar,albatta, kvantitativ belginigina ifodalab kelmaydi. Son leksik-grammatik guruhiga kiruvchi so’zlar ijobiy yohud salbiy ottenkalar , uslubiy bo’yoq berishi, mahalliy koloritni aks ettirishga xizmat qilishi mumkin.

Bir soni o’zbek tilidagi ko’plab nutqiy vaziyatlarda, asosan, harakat, holat, hajm, vaqt va boshqa o’lchovlarning oz miqdorini anglatish maqsadida qo’llaniladi: bir daqiqa sabr qiling (ozgina sabr qilmoq); bir marta quloq soling (shu safar quloq solmoq); bir dona berdi(kam bermoq) kabi. Ammo bir so’zi ayrim kontekstlarda kvantitativ jihatdan ko’plik tushunchasi uchun ham ishlatilishi kuzatiladi: bir/biir gaplashaylik (rosa, astoydil, ko’p vaqt gaplashmoq), bir baqirdi (qattiq, kuchli ovozda baqirmoq), bir o’ynadi, bir o’ynadi (ko’p vaqt yoki juda chiroyli o’ynamoq). Birni kessang, o’nni ek; yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi; bir tup tut eksang, yuz yil gavhar terasan; bir kattaning gapiga kir, bir kichikning; bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak; bir kun tuz ichgan joyga yuz kun salom qil; bir mayizni qirq kishi baham ko’radi; birniki mingga, mingniki tumanga; bilagi zo’r birni yiqar, bilimi zo’r mingni; bir yigitga qirq hunar ham oz; yetti o’lchab, bir kes; ish bilganga bir tanga, til bilganga ming tanga kabi maqollar ko’zdan kechirilganda shu narsa ma’lum bo’ladiki, bir-yetti, bir-o’n, bir-yuz, bir-ming sonlari oppozitsiya hosil qilmoqda. Bu oppozitsiya oz-ko’p ma’nolarini zidlash uchun xizmat qiladi. Maqollarda ishlatilgan sonlar, ko’p hollarda, hisob so’zlari bilan qo’llanilgan. Maqollar tarkibida qo’llanuvchi miqdoriy so’zlar orasida “yarim” ma’nosini beruvchi birliklarning hamda “ikki” sonining o’ziga xos alohida o’rni mavjud. Oyning o’n beshi qorong’u bo’lsa, o’n beshi yorug’ bo’ladi; yaxshi niyat—yarim davlat singari maqollarda “yarim” so’zi qiyoslash uchun xizmat qilmoqda. Bir qozonda ikki qo’chqorning boshi qaynamaydi; ikki qayiqning boshini tutgan g’arq bo’ladi; qars ikki qo’ldan chiqadi maqollarida “ikki” so’zi miqdor jihatdan o’z ma’nosida qo’llanilgan.

Maqollarda miqdoriy ma’no ifodalovchi vosita sifatida ravishlar ham ishtirok etadi: Gapni oz so’zla, ishni ko’p ko’zla; ko’pdan quyon qochib qutulmas; oz so’zla— soz so’zla. Miqdoriy oppozitsiyaning a’zolari sifatida oz va ko’p so’zlari qatnashadi. Bu so’zlar noaniq miqdorni ifodalaydi.

Maqollardagi morfologik jihatdan birlik sonda turgan otlarning hamda otlashgan so’zlarning ko’pchiligi miqdoriy ko’plikni ifodalaydi:Tog’ning ko’rki tosh bilan, odam ko’rki bosh bilan; odam olasi ichida; bola aziz, odobi undan aziz; onaning ko’ngli bolada, bolaning ko’ngli dalada; arslon izidan, yigit so’zidan qaytmaydi; odam taftini odam oladi; izlagan imkon topadi; qidirgan qir oshar; intilganga tole yor; mehnat bilan topganing—qand-u asal totganing; yazshi topib gapirar, yomon—qopib; yaxshining so’zi—qaymoq, yomonning—to’qmoq; yaxshi yetar murodga, yomon qolar uyatga. Yuqoridagi maqollarda ishlatilgan tog’, odam, bola, ona, yigit, izlagan, qidirgan, intilgan, topganing, yaxshi, yomon so’zlari umumiylik, ko’plikni anglatmoqda.

Xullas, xalq og'zaki ijodining noyob janri hisoblangan maqollarda miqdoriy ma'no ifodalovchi birliklar ko'pchilikni tashkil etadi. Leksik-grammatik tarkibi jihatdan ular quyidagicha: son turkumiga oid so'zlar, ravish turkumiga oid so'zlar, ot, otlashgan so'zlar. Shaklan miqdor anglatuvchi ayrim so'zlar maqol tarkibida qo'llanib, uslubiy vosita vazifasini bajaradi , shuningdek, emotsional-ekspressivlikka xizmat qila oladi. O'z odatiy qurshovida miqdor bildirishga xoslanmagan ba'zi birliklar esa maqollarda miqdoriy belgini ifoda qilishi mumkin. Bunday qo'llanish nafaqat o'zbek tili, balki, boshqa til sistemalarida ham kuzatiladi. Xususan, rus tilida bunday imkoniyat juda keng.

Maqollar hamda iboralar tarkibida miqdoriy darajalash, miqdoriy qiyoslashning ishlatilishi ko'p hollarda so'zlovchining maqsadini aniq anglashga, fikrni qisqa ifodalashga, obrazli bayon uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Jabborov N. Badiiy matn tahririning xos xususiyatlari. "O'zbek adabiyotshunosligida talqin va tahlil muammolari" mavzusidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari.-Toshkent: Mumtoz so'z, 2014, -B.28.

2. Karimov G'.K. O'zbek adabiyoti tarixi. 3-kitob.-Toshkent: O'qituvchi, 1987-yil.

3. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1974-yil.

4. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov S. MIlliy uyg'nish davri o'zbek adabiyoti.-Toshkent : Ma'naviyat, 2004-yil.

5. K.Imomov va boshqalar. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -Toshkent, 1990. -B.23.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada o'zbek xalq maqollarida miqdor bildiruvchi birliklarning qo'llanilish darajasi, ular bajargan vazifalar yoritilgan. Shuningdek, maqola maqollarning til qurilishini shakllantirishda, o'zbek maqollarininig obrazli hamda lo'nda, mazmundor bo'lishida kvantitativ so'zlarning ahamiyati haqida ma'lumot beradi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются объём и функции квантитативных единиц в составе узбекских народных пословиц. А также, статья даёт сведения о роли квантитативных слов в формировании лингвистической структуры пословиц, в образовании пословиц как образного жанра устного народного творчества , которые имеют глубокий смысл.

SUMMARY

In this article, the usage of identity in our Uzbek national proverbs and their aims mentioned. In addition, the article gives us the information about the importance of words in a process of developing language structure and being model, brief and significant in terms of Uzbek proverbs.

SOMATIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Kurbonova M. S.
Andijon davlat chet tillari instituti erkin tadqiqotchisi

**Tayanch so`zlar:** frazeologik birliklar, somatizm atamasi, inson tana a`zolari, tom ma`noli komponentlar, frazemalar, struktur-semantik tuzulish.

Ключевые слово: фразеологизмы, термина соматизма, части тело человека, значимые компоненты, фраземы, структурно – семантическая структура.

Key words: phraseological units, thr term somatism, human body parts, literal components, phrasemes, structural – semantic structure.

Kirish. Frazeologik birliklar tilning o`ziga xos birliklari sifatida XX asr boshlarida tilshunoslarning diqqat markaziga tushdi va ushbu so`z birikmasi ilmiy tadqiqot obyektiga aylandi. Frazeologik birliklar ma`lum bir tilda so`zlashuvchi xalqning madaniy til boyligini aks ettiradi va ularning dunyoqarashining o`ziga xos xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi.

Bizga ma`lumki, hozirda «frazeologiya» atamasi tildagi frazeologik birliklar to`plamiga yoki ularni o`rganayotgan lingvistik bo`limga murojaat qilish uchun ishlatilmoqda. Shubhasiz, olimlar ushbu birliklarga turli xil ta`riflar va ularni tasniflash uchun turli mezonlarni taqdim etishgan. Yuqoridagi keltirilgan ta`riflarga tayangan holda, biz ham ingliz va o`zbek tillari somatik frazeologik birliklarning ishlatilishini ko`rib, tahlilga tortmoqchimiz.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikda ilk bor somatizm atamasini frazeologik olim F.Vakk inson tana a`zolariga nisbatan qo`llagan edi. U o`zini somatizmlarga bag`ishlab yozgan dissertatsiyasida somatizmlar frazeologizmlarning qadimgi ko`rinishlari qatoriga kirishini va eston tili frazeologik fondining anchagina qismini tashkil etishini ta`kidlagan edi .

Yana bir tilshunos olim E.M.Mordkovichning “Семантика – тематические группы соматических фразеологизмов” nomli dissertatsiyada «Somatik frazeologizm» atamasi inson tana a`zolari nomlari bilan bog`liq bo`lgan frazeologizmlarni tadqiq etgan .

Somatik frazeologizmlarni bir til doirasida o`rganish ishlarini 1964 yilda F.Vakk o`zining nomzodlik dissertatsiyasida boshlab berdi. U zamonaviy eston

badiiy tilidagi somatik frazeologizmlarni o`rgandi va «somatizm» atamasi mohiyatini keng planda yoritib berdi.

Bu kabi tadqiqotlar o`zbek tilshunoslarini ham chetda qoldirmadi. Ular tildagi frazeologik birliklarning shakllanish tamoyillari, ularning o`zbek nutqi funktsional ko`rinishlarida yashash shart-sharoitlari, uslubiy imkoniyatlari, jumladan, badiiy-publitsistik matnlardagi emotsional-ekspressiv vazifalari borasida sezilarli tadqiqotlarni amalga oshirdilar. Bu kuzatishlar nafaqat bir til, balki bir necha tillarni qiyoslash asosida ham olib borildi. A.Isaev, O.Nazarov, Sh.Usmonova, Sh.Nazirova, H.Alimovalar tomonidan somatik frazeologizmlarni o`rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar o`zbek tilidagi frazeologik birliklarning lingvistik va ontologik tabiatini o`rganishga muhim hissa bo`lib qo`shildi.

Somatik frazeologizmlar deganda esa, frazeologizmning tom ma`noli komponentlari, ya`ni inson tana a`zolaridan birining nomini tushuniladi. Tilshunos olim A.Isaevning «O`zbek tilida somatik frazeologizmlar» nomli nomzodlik dissertatsiyasiga somatik frazeologik birliklar haqida atroflicha to`xtab o`tilgan va olim o`zbek tilida “ko`z”, “og`iz”, “qo`l”, “yurak” komponentlari eng ko`p qo`llaniladigan somatizmlar ekanligini ta`kidlab o`tgan. Bundan ancha yillar oldin himoya qilingan mazkur dissertatsiyada asosiy urg`uni o`zbek tilidagi somatik frazemalarning komponent tahlili hamda qardosh turkiy tillar bilan o`xshash va farqli jihatlarini aniqlashga qaratganligi, qadimgi turkiy tillar yozma manbalarida uchraydigan somatizmlar jadval asosida umumlashtirilgani bilan ahamiyatlidir. Olim dissertatsiyasida jadvallar orqali 41 ta frazeologik ibora tarkibida qo`llangan somatizmlardan til (29 marta), bosh (28), ko`z (27) va qo`l (22) yuqori o`rinni egallashligi haqida xulosalar keltirib o`tgan.

Yana bir tilshunos olim Sh.Usmonovaning«O`zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini ham keltirishimiz mumkin. Ushbu tadqiqot o`zbek va turk tillaridagi somatik frazeologizmlarning leksik-semantik, grammatik va qiyosiy tadqiqiga bag`ishlanganligi, unda bu ikki tildagi somatik frazeologizmlarning miqdori va ular tarkibida faol qatnashgan somalarning aniqlanganligi; bu tillardagi somatik frazeologizmlar struktur-semantik jihatdan tasniflanganligi; har ikki tildagi birikmaga va gapga teng frazemalar muqobil va nomuqobil iboralar guruhlariga ajratilganligi, ularning shakliy-mazmuniy o`xshashlik va farqli tomonlari yoritib berilganligi bilan ilmiy qimmatga egadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy chog`ishtirma,differentsial-semantik va komponentli tahlil, shuningdek, distributiv usullardan foydalaniladi.

Tahlillar va natijalar. Somatik komponentli frazemalar paradigmasini aksariyat hollarda ikki komponentli ot+fe`l tuzilishiga ega bo`lgan fe`l iboralar tashkil etadi: qo`l bermoq, qo`lga olinmoq, qo`lga kirmoq, qo`lga olmoq, qo`lga tegmoq, qo`lga tushmoq, qo`ldan bermoq, qo`ldan ketmoq, qo`ldan chiqmoq kabi. Bunda fe`l grammatik tayanch komponent vazifasini o`tasa, qo`l so`zi semantik tayanch komponent bo`lib, frazemalarning mantiqiy asosini belgilaydi.

Ko`z komponentli frazemalar insonning cheksiz va turli-tuman his – hayajonini, fiziologik jarayonlarini ifodalashga xizmat qiladi, ularning asosiy qismi struktural jihatdan ot+fe`l tuzilishiga ega bo`lgan ikki hamda uch komponentli fe`l iboralardir: ko`ziga ko`rinmoq, ko`zi tushmoq, ko`zdan qochirmoq, ko`zga tashlanmoq, ko`z yugurtirmoq, ko`zdan yo`qolmoq, ko`z(i)ga issiq ko`rinmoq, ko`z(i)ga yaqin ko`rinmoq, ko`z(i)ga sovuq ko`rinmoq, ko`z(i)ni to`rt qilmoq kabi.

Ko`z somatizmini ikki komponentli somatizmlarda ifodalanishiga e`tiborni qaratsak: O`zbek tililida: Ko`zi ko`r, qulog`i kar- hech narsadan behabar

“Karim-halol yigit”,-dedi Muratatali. Ko`zing ko`r, qulog`ing karmi?!-Qodirov cho`g`ni bosgan kishiday sapchib o`rnidan turdi.-Oltinsoy sha`niga isnod keltirganini bilasanmi, hammaning og`zida duv-duv gap,” - Sh.Rashidov, Bo`rondan kuchli [6].

Agar o`zbek tilida keltirilgan misollarga e`tibor qaratadigan bo`lsak, misolda ikkita somatizmni bitta iborada qo`llanilganligini ko`ramiz, ya`ni ko`z somatizmi bilan quloq somatizmi birga qo`llangan holda, bitta iborani ifodalayapti, iborani ma`nosi esa hech narsadan habari yo`q, daragi yo`q ma`nosida qo`llanilyapti.

Ingliz tilida: eye to eye- bir ko`zi bilan qarash, qarashlarda, fikrlarda birlashish

“Wall Street liberal” he saw eye to eye with Rooseveit on many phases of domestic and foreign policy (W. Foster. The history of Communist Party of the United States.Ch, 27)

Ingliz tilidagi eye to eye- somatik frazeologik birligining ma`nosi ko`z ko`zga ma`nosida emas, aksincha bir ko`z bilan qarash, ya`ni qarashlarda, fikrlarda birlashish ma`nosini anglatyapti.

O`zbek tilida: Besh barmog`(i)ni og`z(i)ga tiqmoq - ikki qo`lni og`ziga tiqmoq

Besh panja(si)ni og`z(i)ga tiqmoq - ikki qo`lni og`ziga tiqmoq

Ikki komponentli somatik frazeologik birliklardan barmoq somatizmi og`iz somatizmi bilan qo`shilib, boshqa ma`nodagi frazeologik birlikni ifodalayotganini guvohi bo`lishimiz mumkin. Ma`nosi esa hamma narsaga ega bo`lish xohishi bor ma`nosida qo`llanilyapti.

on the fingers of one hand- barmoq bilan sanash mumkin ma`nosida qo`llanyapti, mazkur ikki komponentli frazeologik birlik juda oz miqdorda ma`nosiga to`g`ri kelyapti.

Can be counted on the fingers of one hand (you can or could count them on the fingers of your hand) – можно пересчитать по пальцам;

Dushmanlar, raqiblar barmoqlarini tishlab qolsalar, maqsadga yetishgan bo`lardim.Oybek, Nur qidirib. Nega barmog`ingni tishlaysan, Berdi? Qizig`ida bosilmagan temirni bolg`a bilan bukib bo`ladimi? I.Rahim, Ihlos [11];

To keep a civil tongue one`s head-помалкивать, отличаться молчаливости; держать язык за зубами;

I`ll tell you what I know, because I believe you can keep a still tongue in your head if you like. (G.Eliot, `Adam Bede`,ch. XXIII);

To keep one`s tongue between one`s teeth-держать язык за зубами, прикусить язык.

Yana bir o`zbek tilida misol: Tilni tishlamoq- o`zini gapirmaslikka majbur qilmoq; O`xshash: labini tishlamoq;

Bu gap qayoqdan chiqdi deganda, zinhor-zinhor tilingizni tishlanglar. Bo`lmasa, eshoni pirmining duoyi ba`diga qolasizlar. Said Ahmad, Hukm.

Endi esa ingliz va o`zbek tillari paremiyalarining tarkibiy-semantik hususiyatlarini, shuningdek, ingliz va o`zbek tillari dunyosining paremiologik rasmining xususiyatlarini “OG`IZ” kabi somatik komponentli frazemalarni tahlil qilish asosida aniqlaymiz.

O`zbek va ingliz tillaridagi “Og`iz” leksemali somatik frazeologik birliklar harakat predmeti sifatida fe`l birikmalarini hosil qiladi va odamning holatini, og`riqni og`izdan kechirishini, og`iz harakatini tasvirlashi, ba`zi jismoniy ta`sirlarga duchor bo`lishi mumkin.

“Og`iz” leksemasining qator frazemalarida bu somatizm metonimik ma`noda qo`llanishi mumkin, bunda bu somatizm shaxsning aqliy qobiliyatlarini, uning ongi, intellektini aks ettiradi.

Masalan: O`zbek tilidagi og`zi bo`shning ishi bo`sh frazeologik birikmasi.

O`zbek va ingliz maqollarida metonimik ma`noda “OG`IZ” kishining fikrini, g`oyasini anglatishi mumkin. Bundan ko`rinib turibdiki, og`iz insoniy kommunikativ munosabatlarni anglatadi.

Masalan:

O`zbek tilida: Ey...og`zim bor deb har nasani gapiraveradimi odam degani... Инглиз тилида:

“Take the words out of someone`s mouth” ёки “Bad –mouth (someone or something)” tarzida og`ziga kelganini gapirish ma`nosida qo`llaniladi [9].

Dunyoning inglizcha rasmida aql, birinchi navbatda, dunyoviy aql bilan bog`liq.

Ingliz frazemalarida hayvonning og`zi salbiy ma`noga ega bo`lgan holatlar topilgan; bu hayvonlarda ongning yetishmasligi bilan bog`liq. Masalan Ingliz tilida, ”Cat gets ones tongue” - uyalib gapirolmaslik ma`nosida keladi [9].

Ingliz frazemalarida erkak va ayol o`rtasidagi munosabatlar aks ettirilishi mumkin, bu erda ayolning erkak ustidan kuchi ramziy ma`noda ifodalanadi. Masalan ingliz tilida, “Loudmouth” ayollarga nisbatan ko`p ahmoqona gapiruvchi; “Have a big mouth” g`iybatni sevuvchi ko`p gapiruvchi; “Lower one`s mouth” erkaklarda esa, sekin va hotirjam gapirish ma`nolarida qo`llaniladi.

Xulosalar. Yuqorida keltirilgan ta`riflarimizdan kelib chiqqan xolda, somatik frazeologik birliklar odatda tadqiqqa tortilgan ikkala tilda, ya`ni ingliz va o`zbek tillarida ham izomorf, ham allomorf tomonlari borligini guvohi bo`ldik. Ularning o`xshashlik tomonlari ikkala tida ham somatizmlar borligi va ularning frazeologik birliklarda ishlatilishi, ammo somatik frazeologik birlik bo`lib kelganda, ma`nosi butunlay o`zgarib ketishi bo`lsa, noo`xshash tomonlari esa tildagi strukturaviy tuzulishi har xil ekanligini ko`rishimiz mumkin. Biroq ikki tilda ham somatik frazeologik birliklarning bir komponentli, ikki komponentli va undan ko`proq komponentli birliklarni ko`rishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax, Sangzor,2006.

2. Nazarov O. Sopostavitelьnыy analiz somaticheskix frazeologizmov russkogo i turkmenskogo yazыkov: Avtoref. diss. ...kand.filol.nauk. – Ashxabad, 1973. – S.16-17; Isaev A. Somaticheskie frazeologizmы uzbekskogo yazыka. Diss…kand. filol.nauk. – Tashkent, 1976. –.196 c;

3. Usmonova Sh.R. O`zbek va turk tillarida somatik iboralar. Filol. fan. nomz. diss. ... – Toshkent, 1998. –162 б;

4. Nazirova Sh.O. Семантическая структура и сочетаемость соматизмов в английском, узбекском и русском языках. Дисс…канд. филол.наук. – Ташкент, 2004. – 145 с;

5. Alimova X.Z. Dariy tilida somatizmlarning struktur va semantik tasnifi : Filol.fan.nomz. diss. ... – Toshkent, 2005. –. 139 б.

6. Вакк Ф. О соматической фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореф. дис. канд. филол.наук. –Таллин, 1964. 23 с.

7. Орѐл М.В. Соматическая фразеология среднеобских старожильчиских говоров (к вопросу о компонентном составе и функционально-семантической направленности) // Вопросы языкознания и сибирской диалектологии. Вып.7. –Томск. Изд-во Том. гос. ун-та, 1977. с. 96-103

8. Куницкая Н.В. Соматические фразеологизмы в современном молдавском языке: дис. …канд. филол. наук. –Кишенев, 1985. -190

9. Kunin A. V. Large English-Russian Phraseological Dictionary: About 20,000 phrases. units .. - 6th edition, corrected. - M.: Living language, 2005. – p.942

10. Прожилов А.В. Соматические состояния человека и их языковая онтология в современном немецком языке: дис. …канд. филол. наук. –Иркутск, 1999. -208 с.

РЕЗЮМЕ

Ma`lumki, hozirda «frazeologiya» atamasi tildagi frazeologik birliklar to`plamiga yoki ularni o`rganayotgan lingvistik bo`limga murojaat qilish uchun ishlatilmoqda. Tilshunoslikda somatizm atamasini ilk bor lingvist olim F.Vakk tana a`zolariga nisbatan qo`llagan edi. Bu kabi tadqiqotlar o`zbek tilshunoslarini ham chetda qoldirmadi. O`zbek tilshunos olimlari tildagi frazeologik birliklarning shakllanish tamoyillari, ularning o`zbek nutqi funktsional ko`rinishlarida yashash shart-sharoitlari, uslubiy imkoniyatlari, jumladan, badiiy-publitsistik matnlardagi emotsional-ekspressiv vazifalarini o'rganish borasida sezilarli tadqiqotlarni amalga oshirdilar. Bu kuzatishlar nafaqat bir til, balki bir necha tillarni qiyoslash asosida ham olib borildi.

РЕЗЮМЕ

Известно, что термин «фразеология» употребляется для обозначения совокупности фразеологических единиц в языке или лингвистического отдела, изучающего их. В языкознании термин соматизм впервые употребил лингвист Ф. Вак для обозначения частей тела. Не остались в стороне от такого исследования и узбекские лингвисты. Узбекскими лингвистами проведены значительные исследования принципов образования фразеологизмов в языке, условий их существования в функциональных формах узбекской речи, методологических возможностей, в том числе изучение их эмоционально-экспрессивных функций в художественных и публицистических текстах. Эти наблюдения были сделаны на основе сравнения не только одного языка, но и нескольких языков.

SUMMARY

It's known that the term «phraseology» is used to refer to the collection of phraseological units in a language or to the linguistic department that studies them. In linguistics, the term somatism was firstly used by linguist F. Vack to refer to body parts. Uzbek linguists were not left out of such research. Uzbek linguists have carried out significant research on the principles of formation of phraseological units in the language, their conditions of existence in the functional forms of Uzbek speech, methodological possibilities, including the study of their emotional and expressive functions in artistic and journalistic texts. These observations were made based on the comparison of not only one language, but also several languages.

БАДИИЙ ОБРАЗ ВА ПСИХОЛОГИК ТАСВИР

Дилмуродова Н.
Алишер Навоий номидаги ТошДЎТАУ
мустақил тадқиқотчиси,
Тошкент молия институти доценти

Таянч сўзлар: ҳикоя, қисса, роман, архитектоника, ретроспекция, бадиий-эстетик мотив, сюжет, миллий адабиёт, жаҳон адабиёти, поэтик сўз, киритма эпизод, тарихий ҳақиқат, характер, поэтик маҳорат.

Ключевые слова: рассказ, повесть, роман, архитектоника, ретроспекция, художественно-эстетический мотив, сюжет, национальная литература, мировая литература, поэтическое слово, вступительный эпизод, исторический правда, персонаж, поэтическое мастерство.

Key words: short story, novel, architectonics, retrospection, artistic and aesthetic motive, plot, national literature, world literature, poetic word, introductory episode, historical truth, character, poetic skill.

Бугунги кунда бадиий ижод кўнгил иши бўлиб қолгани, китоб мутолааси кенг маънода маънавий эҳтиёжга айланиб бораётгани биринчи даражали эстетик ҳодиса деб баҳолайди.

Адиб моҳиятан ўзгармас ҳаётий омил бўлган, дил ва руҳ ҳақиқатининг асосий унсурлари ҳисобланган эътиқод, ростгўйлик ва адолат намоён этадиган қудратга суянади, ижодий изланиш жараёнида турфа ҳаётий мушоҳадалар ва образлар, ҳиссиётлар ва изтироблар нинг пўртанали оқимлари ҳамда гирдобларини бошқача тахлитда тасвир этишни истайди, яъни уларни кўнгил иқлимида поэтиклаштирган ҳолда қайта жонлантириш учун сарфлайди. Адиб эстетик идеал баҳонасида поэтик фикр айтиш билан кифояланиб қолмайди, эстетик идеали кишилар маънавий дунёсига чуққурроқ етиб бориши учун бор маҳоратини ишга солади.

Ижодий эркинлик, руҳий ҳурлик тамойиллари асосида изланаётган адиб амалиёт билан назарий билимларни қовуштириш муваффакият гарови эканлигини яхши англайди. Шу боис кузатувлари, бирламчи, адабий-назарий масалалар муаммоси, иккиламчи, ижодий жараён завқи-қий-

ноғи, сўз санъатига хос бадиий-эстетик ва фалсафий омиллар, ижодкор дунёси, жасорати ва иродаси миқёсига бориб тақалади.

Асад Дилмурод йил 12 ой гўзал табиат манзаралари билан кишини ўзига мафтун қиладиган Зарафшон тоғ тизмалари бағрида жойлашган Қоратепа қишлоғида 1947 йил ёз палласида таваллуд топган. Туғилган заминининг гўзаллигиданми ёки онасининг ука ва сингилларига айтган аллаларининг таъсириданми болалигидан шоиртабиат бўлиб ўсди. Мактабда ҳам адабиёт унинг энг севимли фани бўлди. Илк ёзган шеъри мактабдаги деворий газетада босилиб чиққан эди.

Кейинчалик туркум ҳикоялари туман газетасида, матбуотда чоп этила бошланган. Болаликдан ўта ростгўй, зеҳни ўткир, ҳақиқатпарвар бўлиб вояга етган дадам бир умр ўз қарашларга содиқ қолганлар. Мен болалигимдан дадамни яхши кўриб, ҳурмат қилиб, улар билан доим фахрланиб катта бўлганман. Улар – тўғрисўзлиги, ҳалоллиги, яқинларга ғамхўрлиги, ақллилиги билан доим менга ибрат бўлиб келганлар. Улар бутун умр ўз виждонларига қарши иш қилмаганлар. Дадажоним имон-эътиқоди бутун инсон эдилар. Биз фарзандларини ҳам тўғрисўз, ҳалол, виждонли, имон-эътиқодли қилиб тарбия қилганлар. Мана шу инсоний фазилатлар ҳам асарларидаги қаҳрамонларга кўчганлиги шубҳасиз.

Бадиий адабиёт ўз олдига замон ва макон қиёфаси, жамият ва шахс муносабатлари, инсон маънавий дунёси ва руҳиятининг жами мураккаб ва эътиборга лойиқ қирраларини бадиий-эстетик тафаккур тамойиллари асосида инкишоф этиш вазифасини қўяди, аниқроқ айтганда, бадиий адабиёт яшовчанлиги, бадиий-эстетик ва маънавий-маърифий қудратини, эски қолипларни парчалаб, шаклан ва мазмунан янгиланиб бориш орқали намоён этади.

Мустақиллик даврида миллий адабиётимиз, хусусан, романчиликда намоён бўлган ўзгаришлар, жанрнинг шаклий-мазмуний такомилида халқ оғзаки ижоди, Шарқ мумтоз адабиёти, ўзбек романчилик мактаби ҳамда жаҳон романчилиги поэтик тажрибаларидан ижодий фойдаланиш йўсинларини холис ўрганиш, юксак бадиият мезонлари асосида текширишга кенг йўл очилди.

Чинакам сўз санъати, моддий ва руҳоний дунё, табиат, жамият ва инсон моҳиятини кузатар экан, биринчи навбатда, бадиий-эстетик тафаккур мезонларига суянади, инсон кўнгли ва руҳий оламини тадқиқ этиш баробарида ақлу идрокимиз ва сезгиларимизга фаол тарбиявий таъсир ўтказувчи гўзаллик яратади.

Халқимизнинг адабий-эстетик эҳтиёжини қондириш йўлида самарали меҳнат қилган истеъдодли, камтар ва камсуқум носирларимиздан бири – Асад Дилмурод ижоди ўзига хослиги билан ажралиб туради.

Сўз санъати сирларини пухта эгаллаб, бадиий маҳоратини ошириш ва истеъдодини тарбиялашга интилган адиб, публицистика захматини чекиш баробарида, халқимиз ўтмишига ҳурмат билан қаради, яъни машаққатли олис йўлни босиб ўтган мозийга ихлос боғлади. Натижада дастлаб тарихга оид маърифий бадиалар устида тер тўкди, шулар заминида “Шердор” номли илк тарихий ҳикояси туғилди, сўнгроқ ўша ҳикоя асосида иншо этилган қисса ўқувчилар қўлига тегди.

“Шердор” қиссасида XVII аср ўрталаридаги Самарқанд ҳаётига доир кескин ижтимоий зиддиятлар, турли тоифадаги инсонлар қисмати, сарой билан фуқаро ўртасидаги муносабатлар ва икки ёшнинг изтиробларга тўла самимий муҳаббати муаззам обида қурилишини тасвирлаш жараёни билан алоқадорликда ишонарли кўрсатиб берилади.

Адиб ижодида тарих билан замон руҳи ўзаро синтезлашиб, таҳсинга лойиқ бадиий манзара намоён қилади, бинобарин, “Нон”, “Оғир кун”, “Ҳукм”, “Хуфтон”, “Харсанг” каби ҳикоялари, “Тош бургут” ва “Сирли зина” каби қиссалари шакли ва мазмунида шундай ҳолат кузатилган эди.

Мана шу усулни юксалтириш учун қўллаган ижодий тажрибалари самараси бўлган “Мулк”, “Гириҳ”, “Интиҳо” қиссалари жиддий бадиий-эстетик салмоғига биноан қизғин баҳслар қўзғади. Бир-бирини мантиқан тўлдирувчи бу асарлар замирида халқимиз кўксини жароҳатлаган улкан фожиалар силсиласининг бадиий муқоясаси ётади. Муҳими, уларда йигирманчи аср аввали ва ундан кейинги турғунлик йилларида, муқаддас миллий мерос бўлган моддий ва маънавий ёдгорликлар қаторида, қўли гулу имони бутун бегуноҳ халқ усталари чеккан чегарасиз хорлигу зорлик ва даҳшатли азиятлар теран ёритилади, ҳунар аҳли руҳиятини ағдар-тўнтар қилган сохта шону шараф, зўрлигу мунофиқлик, фитна ва хусумат илдизлари ҳаётий далиллар воситасида очилади.

Истиқлол арафасида адиб миллий қаҳрамонимиз Маҳмуд Торобий тақдири ва қўзғолони тарихи билан қизиқди, “Яроғдаги битик” ҳикоясини ёзгач, шу мавзу билан атрофлича шуғулланди. Қадимий манбалар билан бирга, Ойбек ва Миркарим Осим меросини ўрганди. Устоз Ойбек алоҳида маҳорат билан яратган драматик достондан руҳланиб қалам тебратди ва ижодида алоҳида ўрин тутувчи “Маҳмуд Торобий” романи дунё юзини кўрди.

Роман бетакрор бадиий буёқлари билан диққатни тортади, асарни ўқир экансиз, Маҳмуд Торобий кўз ўнгингизда эътиқоди мустаҳкам, нияти холис индивидуал шахс – руҳан ва жисман ҳурриятга интилувчи халқпарвар ҳамда жасур раҳнамо тарзида қад ростлайди. Сюжетда озодлик, эзгулик ва руҳий покликка етишиш тимсолига айланган ғазавот – жангу жадал суронлари чуқур қамраб олингани бадиий-эстетик ва ғоявий-фалсафий салмоқ юқори бўлишини таъминлайди.

Адабий жамоатчилик ва мухлислар илиқ қаршилаган “Паҳлавон Муҳаммад” романи адиб самарали изланаётгани, мозий бағрига чуқурроқ кириб бораётгани нишонасидир.

Шаксиз, роман марказида Алишер Навоий томонидан миллат қуёши ва қуёш каби нур сочувчи зот деб таърифланган, Куштигир тахаллуси билан шеърлар битган, Паҳлавони олам унвонига эришган Паҳлавон Муҳаммад образи туради.

Адиб мумтоз маданиятимиз осмонини ёритган заковатли зот руҳиятини кузатар экан, баҳонада XY аср Ҳиротининг ҳалига қадар сирини тўласинча очмаган мураккаб ижтимоий турмуш тарзига, кўп жиҳатдан ибратли маданий ва маърифий иқлимига, қолаверса, Алишер Навоий, Сайид Ҳасан Ардашер, Султон Ҳусайн Бойқаро, Хадичабегим, Дарвеш Муҳаммад каби маълуму машҳур кишилар психологик дунёсига кириб боради ва сизни изидан эргаштиришга муяссар бўлади.

Адиб миллатимиз фахру ифтихори – Амир Темур шахсини ўрганиш ва англашни ижодий бурч ҳисоблайди. Шунинг учун ҳам Соҳибқирон образини ишлашда катта куч сарфлади.

Ҳазрат Соҳибқирон маънавий оламини безаган адолатпешалик ва шижоаткорлик, камтарлик ва талабчанлик фазилатларини бадиий талқин қилиш “Хилват” ҳикоясида етакчи бадиий-эстетик мотив даражасига кўтарилди. 2007 йилда “Шарқ юлдузи” журналида босилган ва 2008 йилда китоб ҳолида нашр этилган “Мезон буржи” қиссасида эса Туроннинг буюк ҳукмдори, ўша давр шарт-шароити тақозосига кўра, қийноқлару изтироблар оғушида яшаган, ҳар бир инсон тақдири учун масъул эканини теран тушунган улуғ саркарда, катта ҳарбий салоҳият эгаси, ниҳоят, бошқалар ва ўзи шажарасини холис ниятлар билан муҳофаза этувчи жонкуяр ва оддий ота сифатида гавдаланади.

Адиб услуби анъанавий ва ноанъанавий реализм учун хос эстетик унсурлар воситасида шаклланган ва шу асосда ўзига хос жиҳатларини кўрсатганини алоҳида таъкидлаш мақсадга мувофиқдир. Дастлабки айрим ҳикоя ва қиссалари, “Маҳмуд Торобий” романи қурилмаси маълум

даражада шундай уйғунликдан озиқлангани сезилади. Тажриба тўплаш ва изланиш жараёнида “Оқ аждар сайёраси қиссаси, “Аланқува” , “Хаёл чўғланиши”, “Қўнғироқ”, “Нарвон”, “Масофа”, “Оқбадан париваш нигоҳи” каби янгича йўлдаги ҳикоялари туғилдики, уларнинг сюжет чизиғида сирли хаёлот жозибаси бевосита фаол иштирок этади, инсон ботини ва зуҳури фантазия сеҳри кўмагида чуқур текширувдан ўтказилади.

Олам ва одамни янгича идрок этиш орқали янгича фикрлай бошлаган адиб модернистик адабиётга хос онг ости оқими, хусусан, тасаввуфий фантазия сеҳрини “Фано даштидаги қуш” романи мағзига теран сингдиришга интилди. Романда тасаввуф таълимоти имкониятларини, ғайб ҳикматларига йўғирган ҳолда, поэтик тасвирга кўчириш, пировард натижада романтик бўёқлар билан сайқалланган рамзий образлар яратиш, мажоз тили заминидаги мантиқ воситасида олам ва одам моҳиятини теран эстетик талқин этиш асосий мақсад қилиб қўйилади.

2013 ва 2016 йилларда дунё юзини кўрган, машаққатли изланиш самараси бўлган “Ранг ва меҳвар” ҳамда “Заррадаги олам” романлари ҳам мухлислар томонидан қизғин кутиб олинди. Мазкур романлар ҳам, “Фано даштидаги қуш” каби, миллий адабиётимиз ва жаҳон адабиёти тажрибалари асосида ёзилгани эътиборга лойиқдир.

Муҳими шундаки, адиб “Ранг ва меҳвар”да моддий борлиқ, инсон ва жамият манзараларига ўзига хос бадиий тафаккур билан ёндошади. Роман архитектоникасини тутиб турган полифония, яъни кўп қатламли тасвир ўқувчини ижтимоий ҳаёт мураккабликлари хусусида фикрлаш, мушоҳада юритишга ундайди. Роман бош қаҳрамон – рассом Комрон Вали руҳий эврилишлари воситасида санъаткор имон ва эътиқодга суяниб яшаши, ижодий жараёнда ҳақиқат ва адолатни ҳимоя қилувчи фидойи жангчига айланиши, акс ҳолда, истеъдодини ёвузлик, жаҳолат, хушомад, нафс ва ёлғонга қурбон қилишга мажбур бўлиши очиб берилади ва шу фалсафий хулоса билан тўйинган, бинобарин, эзгулик ва ёвузлик ўртасидаги муросасиз курашга даҳлдор бир неча моҳиятан долзарб адабий-эстетик концепциясини илгари суради.

Адабиётшунос олим Ислом Ёқубов “Бадиий матн ва эстетик талқин” рисоласида “Ранг ва меҳвар” романи бадиий-эстетик моҳиятини кузатар экан, уни миллий адабиётимизда илгари кузатилмаган ўзига хос адабий тажриба сифатида баҳолайди. Бундан ташқари Ислом Ёқубов Россиянинг Белгород шаҳрида бўлган халқаро илмий-назарий конференция илмий тўпламида инглиз тилида “Марсель Пруст ва Асад Дилмуроднинг бадиий-эстетик концепцияси” мақоласини чоп эттирди.

“Заррадаги олам” романида Асад Дилмурод бадиийлик мезони салмоғини янада ошириш, бетакрор характерлар яратиш, тасаввуф таълимоти ва мажозийлик имкониятларидан самарали фойдаланиш борасида яна ҳам илгарилаб кетгани кузатилади. Романда ифодаланган заррадаги оламга дахлдор собит фалсафасида муайян даражада анъанавийлик, Шарқона фикрат кенгликларига талпиниш туйғуси мужассамдир. Романда қадрдон ва даъваткор ўша ҳис-туйғу кўнгил ва ватан аталмиш узвий туташ манзил (макон) да амал қилади. Адиб эпизоддан-эпизодга ўтган сари мутафаккирона қалбини очиб, китобхоннинг самимий суҳбатдоши, инсон ва инсоният, замин ва самовотнинг яқин ҳамдаму ҳамрозига айлана боради.

Романда эътиқод ва имон, меҳру оқибат ва муҳаббат моҳияти Қурама чўли манзаралари билан чамбарчас боғлиқ ҳолда тасвирланади. Натижада бутун жисм ва жонга чуқур сингиб кетган Қурама тасвирлари Ватан муҳаббатини, моддийлашган ёрга бўлган ишқ талқинлари эса эътиқодий муҳаббатни тамсиллаб келади. Натижада ёзувчи ғами, орзу-армони ва изтиробларини ўзликни излаш ва шаффоф маъволар соғинчидан ибтидо топади. Китобхон романни ўқиш асносида Қурама чўли тарихида муҳим ўрин тутган турфа риёзат босқичларидан ўтиб боради ва ўша риёзат оғушида нафас олади.

Асад Дилмурод ўзига хос трилогия ҳисобланган учала ноананъавий романида ҳам замондан ортга қайтиш (ретроспекция) усулидан самарали фойдаланиш, сюжетдан ташқари ривоятлар, киритма эпизодлар, мушоҳадаю тафсилотларни бадиий матнга сингдириш ҳисобига асар “бадиий вақт”ини “параллел вақт” ҳисобига кенгайтиришга эришади. “Заррадаги олам” тўла ривоятлар асосига қурилиши, кураш жараёнлари кескин қутбланти рилиши ўзида ўлишу ўзида тирилиш – қайта ташкилланиш концепциясининг мукаммаллашуви ва оқибатдан сабабга қараб борилиши ёзувчи ижодий изланишларида янги бир қадам экани билан эътиборлидир.

Роман замирида ҳаётий мувозанатни бузувчи хиёнаткорлик, лоқайдлик, ҳасадгўйлик, бебурдлик, баднафслик, иғвогарлик, бекорчилик, товламачилик ва бошқа барча яроқсиз маслакларни аждодларимиз изи ва ҳатто бўйи қолган отамакон, она юртни қадрлаш орқалигина бартараф этиш мумкин деган эстетик идеал мужассамдир. Бундан ташқари адиб ҳаёт ғилдирагини ортга айлантиришга замин яратувчи иллатлар, бинобарин, разолат ва манфурлик йўлларини маърифат орқали тўсиш лозимлигини уқтиради ва айнан шу концепциясини эзгулик ва эътиқод тимсоли бўлган Шифо дарёси ва Ниҳон каби мажозий образларда гавдалантиради.

Хулоса қилиб айтганда, Асад Дилмурод қаламига мансуб ҳикоя, қисса ва романлар бетакрор бадиий-эстетик хусусиятлари туфайли халқимиз, айниқса, ёшларни она Ватанимизга чинакам садоқат руҳида тарбиялаш, улар қалбига эзгулик, гўзаллик, олижаноблик, мардлик ва ҳалоллик ғояларини сингдиришда самарали хизмат қилиши шубҳасиздир.

Адабиётлар:

1. Дилмурод А. Осмоннинг бир парчаси. Ёш гвардия. – Тошкент, 1978.
2. Дилмурод А. Сирли зина. Ёш гвардия. – Тошкент, 1981
3. Дилмурод А. Танланган асарлар 2-жилд. ШАРҚ – Тошкент, 2012.
4. Дилмурод А. Оқ аждар сайёраси. Ўзбекистон НМИУ. – Тошкент, 2012.
5. Дилмурод А. Хаёл чўғланиши. Янги аср авлоди. – Тошкент, 2015.
6. Дилмурод А. Паҳлавон Муҳаммад. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2016.
7. Дилмурод А. Хилват. Янги аср авлоди. – Тошкент, 2017.
8. Ёқубов И. “Бадиий матн ва эстетик талқин” рисоласи Тошкент, “Фан ва технология”, 2013.

РЕЗЮМЕ

Мақолада ёзувчи Асад Дилмурод (1947-2019) насрий асарлари архитектоникасида поэтик сўз фаол ҳаракат қилиши, бадиий-эстетик мезонлар ва фалсафий қатламларни кенг қамраб олиши асосланади. Шунингдек, адиб нутқининг фалсафий-эстетик замини бевосита ижодий жараён билан туташ эканлиги, олам ва одамни идрок этиш, характер яратиш, конфликтни кучайтириш, руҳий тебранишларни талқин қилишда муаллиф нутқи санъат талаблари даражасида сафарбар этилгани ёритилади.

РЕЗЮМЕ

В статье обосновано на том, что поэтическое слово активно выступает в архитектуре прозаических произведений писателя Асада Дильмурода (1947-2019), охватывает широкий спектр художественно-эстетических критериев и философских пластов. Также поясняется, что философско-эстетическая основа писательской речи непосредственно связана с творческим процессом, что авторская речь мобилизуется на уровне художественных требований в восприятии мира и человека, создании характера, укреплении конфликта, интерпретация психических колебаний.

SUMMARY

The article substantiates that the poetic word actively appears in the architecture of the prose works of the writer Asad Dilmurod (1947-2019), covers a wide range of artistic and aesthetic criteria and philosophical layers. It is also explained that the philosophical and aesthetic basis of the writer’s speech is directly related to the creative process, that the author’s speech is mobilized at the level of artistic requirements in the perception of the world and man, the creation of character, the strengthening of conflict, the interpretation of mental fluctuations.

CHET TILLAR (NEMIS)NI O'QITISHDA MUAMMOLI VAZIYAT

Begasheva Sh. N.
Termiz davlat universiteti, roman-german tillari kafedrasi, katta o'qituvchisi

Таянч сўзлар: chet tillar, muammoli o'qitish, mustaqil fikrlash, muammoli vazifalar, muammoli vaziyatlar, shaxsiy yondashuv.

Ключевые слова: иностранные языки, проблемное обучение, самостоятельное мышление, проблемные задания, проблемные ситуации, личностный подход.

Key words: foreign languages, problem teaching, independent thinking, problem tasks, problem situations, personal approach.

Atrofdagi dunyoni bilish va muloqot qilish vositalaridan biri sifatida chet tili o'zining ijtimoiy, kognitiv va rivojlanish funktsiyalari tufayli zamonaviy ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Dunyoda nemis tilining xalqaro aloqaning yetakchi vositasi sifatidagi mavqei tobora kuchayib borayotgani va bu jarayonni to'xtatish yoki sekinlashtirishning jiddiy tendensiyalari mavjud emasligini inobatga olib, bu borada samarali usullarni qo'llash muammosi qo'yilmoqda. Zamonaviy ma'noda o'quv jarayoni o'quvchilarni ma'lum bilim, ko'nikma, qobiliyat va qadriyatlar bilan tanishtirish uchun o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayoni sifatida qaraladi. Har bir o'qitish usuli organik ravishda o'qituvchining o'quv ishini (taqdimot, yangi materialni tushuntirish) va talabalarning faol o'quv va kognitiv faoliyatini tashkil qilishni o'z ichiga oladi. Ya'ni, o'qituvchi, bir tomondan, o'quv materialini o'zi tushuntirsa, ikkinchi tomondan, o'quvchilarning o'quv va bilish faolligini rag'batlantirishga intiladi (ularni fikrlashga, mustaqil xulosalar tuzishga undaydi.

Respublikamizning hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin olish uchun ma'naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, ularni XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun yoshlarimiz dunyoqarashini o'zgartirish, ularning bilim va ma'naviyatlarini jahon andozalari darajasiga ko'tarish zarur. Bugun jamiyat maktab oldiga: maxsus qobiliyatini ularning mustaqil bilishlarini maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirishni vazifa qilib

qo’ydi. Ana shu vazifalarni hal etishda muammoli ta’lim texnologiyasi etakchi o’rinni egallaydi. O’qituvchi rag’barligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko’nikma va malakalarni ijodiy o’zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta’lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. Shuningdek, muammoli o’qitishning mohiyatini o’qituvchi (pedagog) tomonidan talabalarning o’quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o’quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o’zlashtirish bo’yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o’zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi. Muammoli vazifalarni tashkil qilishdan oldin talabalarning sabab-oqibataloqalarini o’mata olish usullarini egallaganligiga ishonch hosil qilish, talabalarning muammoli vaziyatni tahlil qila olish darajasini otrganish shartdir. Shuningdek, o’qituvchi talabalar e’tiboriga faqat ular uchun qulay bo’lgan muammolarni qo’ymasligi ham mumkin. Shu bilan birgalikda muammoning echilishi uni to’g’ri g’o’ya bilishga ko’p jihatdan bog’liq ekanligini unutmaslik zarur.

Muammoli ta’limning asosini o‘quvchilarning yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida ijodiy ishtirok etish imkoniyatlarini ta’minlovchi o‘zaro bog‘liq usul va vositalar yig‘indisi tashkil etadi. Muammoli vaziyat va o’quv muammosi muammoli o’rganishning asosiy tushunchalari hisoblanadi. Muammoli vaziyat - fikrlashning boshlang’ich momenti, o’rganishga bo’lgan kognitiv ehtiyojni faollashtiradi, yangi bilim va faoliyat usullarini faol o’zlashtirish uchun ichki sharoitlar yaratadi. Muammoli vaziyatni kognitiv vazifa sifatida ham tavsiflash mumkin, u mavjud bilim, ko’nikma, munosabat va talablar o’rtasidagi qarama-qarshilik bilan tavsiflanadi.Boshqacha aytganda, muammoli vaziyat - yangi bilimlarni izlashni talab qiladigan intellektual qiyinchilik holati. va uni olishning yangi usullari. Hozirgi vaqtda chet tillarini o‘qitish metodikasi va amaliyotida muammoli o‘qitish texnologiyasi keng qo‘llanilmoqda. O‘qituvchi chet tilini o‘qitishning asosiy va asosiy maqsadi – o‘quvchilarning chet tilining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishga intiladi.Ingliz tili o‘qituvchisi sifatidagi o‘qituvchilik faoliyatimning boshida men o‘quvchilarning chet tilidagi sinfda o’z fikrlarini chet tilida shakllantirish qiyin. Til, birinchi navbatda, ularning aksariyati uchun so’zlarni, iboralarni va grammatik qoidalarni eslab qolishdir. Ammo bu ingliz tilini bilish emas. O’quvchilar tilni muloqot vositasi sifatida ishlatishning haqiqiy qiymatini tushunmaydilar. Umumiy og’zaki nutq va uning ajralmas qismi sifatida nutq global axborot makonida, yagona ta’lim makonini yaratish va Rossiyaning Boloniya ta’lim tizimiga kirishi sharoitida birinchi o’ringa chiqishi kerak.

Nemis tili darslarida turli mavzularga oid osondan murakkabga qaratilgan har xil topshiriqlarni ishlab chiqish mumkin. Bu topshiriqlar talabani zerktirmasligi, uni fanga bo'lgan qiziqishini orttirishi hamda topshiriqlar o'tilgan mavzular bo'yicha bo'lishi kerak. Darslarda lug'atlardan samarali foydalanish kerak. Topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish talabani lug'atdan foydalanishga majbur qiladi. Agar talaba notanish so'z tarjimasini o'zi izlab topsa, bu so'zni u xotirasida uzoq vaqt saqlaydi. Chunki u lug'atdan o'sha so'znig tarjimasini topguncha beixtiyor shu so'zning yozilishiga bir nechabor qaraydi va takrorlaydi. Bu esa o'sha so'zning yodda qolishiga sabab bo'ladi. O'qituvchining galdagi vazifasi esa shu so'zni qisqa gaplarda va matnlarda qo'llashni o'rgatishdir. O'qishni, yozishni, gaplar va matnlar tuzishni oson o'zlashirayotgan har qanday o'quvchining tilga bo'lgan ishtiyoqi yanada ortadi. Endi u o'zi xohlab o'qituvchidan topshiriqlarni so'raydi. So'ngra esa o'zi mustaqil ravishda vazifalarni bajaradi. Avvalo talabalarga yil fasllarining nemis tilidagi nomlari, yil fasllarining o'ziga xosliklari tushuntirilgan va o'tilgan bo'lishi kerak. Boshida ularga turli rasmlar va shu rasmlarni ifodalovchi gaplar beriladi. Ular mustaqil ravishda qaysi gap qaysi rasmga tegishli ekanini topishadi. O'qitvchi savolga javob olishi bilanoq to'g'ri va noto'g'ri javoblarni baholamasligi, balki talabalardan savollarga har tomonlama javob talab qilishi, noto'g'ri javoblarni esa to'g'risini aytmasdan ularni to'g'rilash imkonini berish kerak. Talabalar lug'atdan foydalangan holda vazifalarni bajarishi lozim.

Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasibo'lmish tilni tabiiy muhitda ya'nioilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rgatiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan o'quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rganadilar. Ushbu tillar maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til, va chet til. Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o'taydigan birinchi til hisoblanadi. Ikkinchi til haqida so'z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo'shnilar tili sifatida qaraladi.

O'quv jarayoni murakkab jarayon bo'lib, u birinchi navbatda o'qituvchining o'zaro faoliyati va o'quvchilarning faolligini o'z ichiga oladi. Zamonaviy sharoitda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, ularning bilim ehtiyojlari va qiziqishlarini rivojlantirishga katta e'tibor berish kerak. Qo'llanma sifatida o'qitish o'qituvchi tomonidan ma'lum bilimlarni taqdim etish, muloqot qilish va uni sinfning barcha o'quvchilari tomonidan o'zlashtirish jarayonini boshqarishni o'z ichiga oladi.

Dastlab, chet tilini o'rganishda biz an'anaviy o'qitish usullari mavjudligini taxmin qilamiz, chunki standart yordam o'rgatilgan bo'lib, tilni samarali o'rganish uchun mo'ljallangan klassik metodologiyadan foydalanishni taklif qiladi. Yillar davomida asosiy dasturga yangi texnikalar kiritildi, mashg'ulotlarga eski, kam samarali yondashuvlar yo'q qilindi.Ta'limning hozirgi bosqichida zamonaviy o'qituvchi chet tilini o'rganishda yuqori samaradorlikni ko'rsatadigan taniqli innovatsion usullardan foydalanishni afzal ko'radi. O'qitishning yangi shakllaridan foydalangan holda o'qituvchi talabaning qiziqishini va kognitiv masalada o'qishni davom ettirish istagini oshiradi, har birini batafsil ko'rib chiqadi va o'rganish xususiyatlarini aniqlaydi. Hozirgi kunda chet tillarini o'qitishning butun dunyoda qo'llaniladigan, lekin ular haqida kam odam biladigan to'rtta asosiy turini qayd etishimiz mumkin

Muayyan vaziyatli muammolarni hal qilish orqali o'rganishga asoslangan muammoli vaziyatni faol tahlil qilish usuli. Bu metodining mohiyati: guruhlarga bo'lingan talabalar vaziyatni tahlil qilib, amaliy yechim ishlab chiqishlari kerak; jarayonning yakuni - taklif qilingan algoritmlarni baholash va ularni muammo kontekstida umumiy muhokama doirasida muhokama qilish. Ushbu uslub klassik ta'limda chet tili darslarida qo'llaniladi, bunda o'quvchilar mavjud bilimlar, amaliy tajriba va sezgi asosida hal qilishlari kerak bo'lgan hayotiy muammoli vaziyat taqdim etiladi. Har qanday vaziyatning bir nechta yechimlari bo'lganligi sababli, barcha mumkin bo'lgan yechimlar muhokama qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, nemis tili darslarida o'qitishda muammoli vaziyata innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi.Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi. Ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimizimiz bilan o'z xissamizni qo'shishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. M.M. Hamidov, T.R. Hamidova - DEUTSCH Toshkent 2014 Central asian research journal for interdisciplinary studies (CARJIS) ilmiy jurnali bilan hamkorlikda.

2. H.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madiyarova, E.U. Eshchanov - Pedagogik texnologiyalar va pedagogic maxorat. Toshkent - 2009

3. Saloydinov, S. Q. (2021). Paxta tozalash zavodlarida energiya sarfini kamaytirishning texnik-iqtisodiy mexanizmini yaratish. «Academic research in educational sciences», 2(9), 886-889. https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-9-886-889

4. Saloydinov, S. Q. (2021). Creation of feasibility studies to reduce energy costs in ginneries. «Экономика и социум», 9(88), 147-149.

5. Koryakovtseva, N.F. Chet tili talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy usullari. – M.: ARKTI, 2002 yil

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada chet tillar (nemis tili) o'qitishda muammoli vaziyata o'qitishni tashkil etish, o'qitishning samarali usullaridan foydalanish, ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash haqida so'z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится об организации обучения в проблемной ситуации при обучении иностранному языку (немецкому языку), применении эффективных методов обучения, применении интерактивных методов, педагогических и информационных технологий в учебном процессе.

SUMMARY

This article talks about the organization of teaching in a problematic situation in foreign language (German) teaching, the use of effective teaching methods, the use of interactive methods, pedagogical and information technologies in the educational process.

СОЦИАЛ СТЕРЕОТИПЛАР ТИЛ СОЦИАЛЛАШУВИ ОМИЛИ СИФАТИДА

Ҳасанова Д. О.
Қўқон ДПИ доценти

Таянч сўзлар: социал стереотиплар, тафаккур, психолингвистика, социолингвистика, когнитив лингвистика, лингвокультурология, метафорология, социаллашув, гендер.

Ключевые слова: социальные стереотипы, мышление, психолингвистика, социолингвистика, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, метафорология, социализация, гендер.

Key words: social stereotypes, thinking, psycholinguistics, sociolinguistics, cognitive linguistics, linguoculturology, metaphorology, socialization, gender.

Инсон тафаккури ва унинг нутқи нафақат руҳий омиллар, балки социал омиллар билан ҳам чамбарчас боғлиқ. Бошқача айтганда, тилнинг шаклланиши ва ривожланишини белгилашда социал омилларнинг ўрни ва роли катта. Руҳий ва социал омилларни, албатта, бири-биридан айрича тушуниш кўпам тўғри эмас. Тилда руҳий ва ижтимоий омилларнинг ўрни ва роли юқори экан, демак, ўз ўзидан маълумки, психология ва социология – бошқа ижтимоий фанларга нисбатан тилшуносликка кўпроқ яқин ва кўмакдош.

Тилнинг инсон психикаси ва ижтимоий омиллар билан боғланиши социал стереотипларнинг шаклланиши ва уларнинг лисоний ифодаланишида яққол кўзга ташланади.

Когнитив ва лисоний захира асосида фикрлаш ва унинг маҳсули стереотип ҳисобланади. Стереотип – мантиқий фикрлаш кўринишларидан бири. Ўзлаштирилаётган янги ҳодисани тафаккурдаги эски қолипга солиш – стереотипик амал хусусиятларидан бири.

Дастлаб типографияда шаклланган стереотип тушунчаси клише, қолип сингари нарсаларга нисбатан тушунилган. “Шаблон”, “янги”, “қиёс”, “хулоса” – стереотипнинг асосий очқич унсурлари. Стереотип – типографияда ҳам, тафаккурда ҳам – қувватни тежаш воситаларидан бири. Киши кузатилаётган ҳодисани онгда муқимлашган ва унга ўхшаган ҳодиса билан қиёслайди ва мавжуд ҳамда янги тушунчалар орасида метафорик

“битим”ни шакллантиради. Метафора эса, эмоционаллиги ва бўёқдорлиги билан характерланади. Ҳар қандай метафора – стереотипик тафаккур маҳсули. Стереотипик тафаккурда кузатилаётган нарса/ҳодисанинг бирор яққол белгиси ажратиб олиниб, онгдаги шунга ўхшаган белгига эга “эски” (мавжуд) нарса билан қиёслаш амалга оширилади. Янгига мос келувчи эски қолип ахтарилади ва ниҳоят топилади.

Эски нарса, ҳодиса имплицит тарзда мавжуд бўлади. Масалан, Болага иш буюр ва орқасидан ўзинг югур мақолига тажриба ва ўгитлар асосида болага ишонмаслик стереотипи асос бўлган. Умуман олганда, барча мақол, ҳикматлар борлиқни баҳолаш стереотиплари ҳисобланади.

Стереотиплар – ахборотни қайта ишлаш ва сақлашнинг бир шакли, инсон онгининг когнитив фаолияти натижаси. Стереотип мураккаб когнитив қурилма, аммо бу мураккаблик борлиқни содда, оддий тарзда идрок этишга хизмат қилади.

Социал стереотиплар дастлаб психологиянинг ўрганиш объекти сифатида намоён бўлган. Кейинчалик бу объектдан кўплаб фан йўналишлари – социология, политология, маданиятшунослик – ўз ўрганиш предметларини ажратиб ола бошладилар. Натижада стереотипнинг мураккаб категория мазмунига эга ўлароқ янгидан-янги қирралари очила бошлади. Тилшунослик ҳам бошқа ижтимоий-гуманитар фанлар билан ҳамкорлик қила бошлашиданоқ, стереотип тушунчаси билан ҳам шуғулланишга, уни тил ифодаларига боғлаб ўрганишга киришди. Бугунги кунда стереотип социал ва психотилшуносликнинг, лингвокогнитологиянинг терминларидан бирига айланиб, расмий оммалашди. Бироқ мазкур ҳодисанинг тилшуносликда ўрганилишини ҳали давр талаблари даражасида деб бўлмайди. Бу ҳодиса когнитив тилшунослик, лингвокогнитология йўналишларининг илк ватани бўлган АҚШда маълум даражада ўрганилган бўлса-да, Ўзбекистонда унинг тадқиқи масаласини ҳали очилмаган қўриқ дейиш мумкин. Зеро, тил борлиқ нарса, ҳодисаларини онгда қайд этишнинг муҳим ва етакчи воситаси, номлаш ва қайта номлаш эса тилшуносликнинг асосий вазифаларидан бири экан, фанимизда метафоранинг асоси бўлган стереотип категориясини илмий тадқиқ қилиш ва ундан амалий фойдаланиш муаммосини ўрганиш даври ўтиб кетмоқда. Бунинг учун тилшуносликнинг қуйидаги соҳаларига алоҳида эътиборнинг қаратилиши тақозо этилади:

– психолингвистика;
– социолингвистика;
– когнитив лингвистика;

– лингвокультурология;
– метафорология.

Стереотипларнинг хусусияти – барқарорлиги ёки беқарорлиги стеротип эгаси онгининг ривожланганлик даражаси, қайси сатҳда фаол воқеланиши, аниқроғи, унинг қамрови билан боғлиқ. Масалан, айрим кишиларда стереотиплар юзаки белгиларга асосланган ҳолда шаклланган бўлса, бошқасида мустаҳкам белгиларга асосланиши ҳам мумкин. Бу стереотип эгасининг савиясига боғлиқ. Шу билан бирга, айрим стереотиплар фақат индивидуал бўлса (бу кўпроқ мустақил тафаккур соҳибларида учрайди, зеро улар борлиқни андозаларсиз, эргашувчанликсиз кўради), бошқаларида гуруҳий табиатли бўлиши мумкин. Шу билан бирга, илмий стереотиплар ҳам нисбатан оммавий характерли бўлади. Масалан, ўзбек тилидаги келишиклар сони шу соҳа билан шуғулланувчи мутахассислар ва, шунингдек, талабалар онгида социаллашган стереотипга мисол бўлади.

Билим даражаси қанчалик юқори бўлса, стереотиплар ҳам шунчалик кенг, чуқур, ҳаракатчан, унинг замиридаги умумлашма ва барқарор клишелар қайишқоқ ва ривожланувчан бўлади. Борлиқ доимий ва муттасил ривожланишда бўлганлиги сабабли, унга мос равишда у ҳақдаги стереотиплар ҳам доимий ҳаракатда бўлади. Догматик стереотиплар борлиқни объектив равишда баҳолашга тўсиқ бўлади. Тафаккурнинг провинциаллиги ва эргашувчанлиги стереотипларнинг сўниқлигига, догматиклигига, тор ва юзакилигига олиб келади. Кўринадики, бошқа ўрганиш объектлари каби, стереотиплар ҳам турлича, уларни таснифлаш бўйича талай ишлар амалга оширилган. Психолог Л.Гуслякова стереотипларни баҳолаш асосида ўзига хос таснифни тақдим этади. Унингча, стереотипнинг бир нечта кўриниши бўлиб, уларнинг мантиқий асослари қуйидагилар:

1) объективлик даражасига кўра: ҳақиқий ёки алдамчи (сохта) стереотип;
2) шаклланиш хусусиятига кўра: онгли ёки стихияли стереотип;
3) соҳибига кўра: индивидуал, гуруҳий ёки умуммиллий стереотип;
4) воқеланишига кўра: фикрий ёки хулқий стереотип;
5) ўзгарувчанлик даражасига кўра: ўзгармас ёки ҳаракатчан стереотип;
6) борлиқни акс эттириш даражасига кўра: ҳиссий; фикрий ёки амалий;
7) вазифасига кўра: бунёдкор ёки вайронкор стереотип;
8) мазмунига кўра: умумий ёки шахсий стереотип.

Социал стереотиплар таснифнинг учинчи тури асосида ажратилади.

Ташвиқот-тарғибот аслида стереотипларни ўзгартириш учун кураш-дир. У турли йўл ва воситалар билан амалга оширилади. Хусусан, таълим

ҳам стереотипларни у ёки бу даражада ўзгартиришни мақсад қилиб қўйган бўлади. Бадиий адабиёт, ОАВ турли социал гуруҳ ва типларнинг манфаатларини ифода этади. Ҳар хил партиялар фаолияти ҳам социал йўналтирилганлиги билан характерланиб, муаммоларининг қўйилиши, мақсад ва вазифаларининг белгиланишида социал стереотиплардан унумли фойдаланади. Шунингдек, жамиятдаги бир умумий муаммо турли социал типлар томонидан турлича идрок этилиши, ҳар хил баҳоланиши мумкин ва бу ранг-баранглиқда социал типларнинг стереотиплари муҳим роль ўйнайди..

Социал психологияни тадқиқ қилишнинг асосида социал стеротипларни ўрганиш ҳам ётади. Социал стереотипларнинг замирида социал тафаккур тарзи ва социал манфаатлар мавжуд. Социал муаммоларга муносабатда ана шу социал манфаатлар муҳим роль ўйнаб, улар социал стереотиплар сифатида намоён бўлади.

Социал стеретотип бир вақтнинг ўзида социал маданият ҳамдир. У узоқ давр мобайнида шаклланиб, вақтлар ўтиши билан, шахснинг социал "кўзойнаг"ига айланиб қолади. Стереотиплар борлиқ ҳодисалари билан айнан мос келмаслиги ҳам мумкин. Бунинг учун унинг социал муносабат асосидаги социал маданият мезонларига мувофиқ мавжуд бўлиши етарли. Социал типнинг онгига таъсир қилиш уларнинг ана шу социомаданий стеретотипларини тўғри англаш ва аниқ баҳолаш асосида амалга оширилгандагина. тўғри самара беради.

Албатта, социал типларнинг онгидаги ёки онг остидаги миллий, этник, социал қадриятлар, концептлар, тасаввурлар ва ҳар хил ассоциатив боғланишлар асосида янги боғланишларни, концептуал майдонларни яратиш асосида уларнинг тафаккури мақсадли йўналтирилади. Масалан, Америка Қўшма Штатлари кўп йиллар давомида шаклланиб, бугунги кунда сиёсий ва иқтисодий етакчи давлат, дунёга таҳдид солувчи кучли мамлакат стереотипи сифатида аксарият бу мамлакатдан ташқаридаги кўпчилик социал типлар онгидан ўрин олган. ОАВ лари бу стеретотипларнинг қайси жиҳатини кучайтириш, қайси жиҳатини ҳаспўшлашни мақсад қилиб қўйган бўлса, социал онгдаги ўша жиҳатга урғу беради ёки уларни четлаб ўтишга ҳаракат қилади. Натижада социал онгдаги юклар мувозанати ўзгаради. Социал стереотипларни ўзгартиришда ташвиқот ва тарғибот, ахборот беришнинг аҳамияти катта. Бу узоқ давом этадиган, кучи ўрнашган стереотипдан оғирроқ бўлган қувват таъсирида амалга ошириладиган жараён. Шу боисдан кўзланаётган мақсаддан келиб чиққан ҳолда, стереотипнинг

қайси жиҳатига эътибор бериш муҳим. Шу билан биргаликда, социал типнинг яна икки хусусиятига диққат қаратилади:

-стеротип зоҳирий аломатларга таянганлиги ёки чуқур илдизлилиги;

-стереотип соҳибининг барқарор руҳий хусусиятлари.

Зоҳирий аломатлар асосидаги стереотипни ўзгартириш чуқур асосли далиллар билан, чуқур илдизли стереотиплар эса, кўплаб зоҳирий аломатлар уюми билан таъсир остига олинади. Шунингдек, стереотипларнинг барқарорлиги унга таъсир қилиш имкони билан тескари пропорционалдир.

Социал стереотипларни ўзгартириш ёки улар асосида таъсир қилиш айнан шу социал типга хос жиҳатларни ажратиб олиш йўлидан бориб, амалга оширилади. Дейлик, ёш авлод кўпроқ зоҳирбин, катта авлод ботинбин бўлиши билан характерланади. Шунингдек, эмоционаллик – ёш қавмга хос стереотипларнинг асосий хусусиятларидан бири. Эмоционаллик эса тез қўзғалувчанликни келтириб чиқаради.

Социал стереотипларнинг замирида зотий ва орттирилган социал роллар ётади. Социал роль шахснинг маълум бир социал системада қарор топган социал вазифаларни бажаришга хосланган фаолиятидир. Бу роллар табиатан мавжуд ёки жамият томонидан ўрнатилган бўлиб, инсон бу рольларни бажаришга ихтисослашган ёки ўз ихтиёри ёхуд мажбурий равишда бажаришга мослашган бўлади. Масалан, хотин социал ролини олайлик. Табиатан ато этилган жинс шахснинг ушбу ролни бажариши учун асос бўлади. Биринчи роль кейинги ролнинг пойдеворидир. Кейинги роль эса навбатдагисига асос бўлиб хизмат қилади:

1.1) қиз→аёл→кампир;

1.2) аёл→хотин→она;

2.1) ўғил→эркак→чол;

2.2) эркак→эр→ота.

Қатордаги биринчи роллар инсон учун ихтиёрсизлиги ва кейингилари ихтиёрий/мажбурийлиги билан характерланади. Чунки кейинги рольларни танлаш ихтиёрийлиги мавжуд. Аммо уларнинг замирида ҳам зотий мажбурийлик ётади ва унга кўникиш истак-хоҳиш даражасида бўлиши ҳам мумкин. Аёл бўлиш қиз учун мажбурий, у бу мажбуриятни ўзгартира олмайди, яъни у эр бўлиши мумкин эмас, бироқ бунга у истак асосида ёндашиши мумкин. Демак, уни онг ости мажбурияти ва онг усти ихтиёрийлиги сифатида баҳолаш мумкин.

Айтилганлар асосида тўхтамга келиш мумкинки, роллар рольларни келтириб чиқаради. Роллар тақсимланишида узвий кетма-кетлик мавжуд,

аммо буни ҳар доим ҳам бирдай амал қиладиган қонуният сифатида қабул қилиш тўғри эмас. Бу ҳолат барча роллар учун бирдай амал қилавермайди. Юқорида келтирилган қаторларда кетма-кетликнинг барқарорлиги ва киши хоҳиш-иродасидан ташқари бўлса, қуйидаги қаторларда бунинг "юмшаган" кўринишига гувоҳ бўламиз:

1.1) ўқувчи→талаба→ўқитувчи;

1.2) аскар→зобит→ветеран;

2.1) мурид→муршид;

2.2) шогирд→устоз.

Социал ролнинг асосий хусусияти унинг жамият томонидан қабул қилинганлиги, муайян социал мавқедаги шахс (ёки шахслар) учун шартлилиги ҳамда меъёрлашганлигидир. Ҳар қандай социал роль хулқий меъёрлар модели – қолипидир. Бу қолипнинг туғма, инстинктив асослари устига ижтимоий унсурлар юкланиб, улардан янги социал роллар пайдо бўлади ва ҳар бир шахс серқирра социал тип сифатида намоён бўлади. Қуйида аёл социал типи асосида шаклланган ҳосил типик сифатларга эътибор қаратамиз:

Аёл	ёш/ўрта/қари
	хотин/она
	отин/муаллима
	ҳамшира ва ҳ.

Ҳосила роллар ҳеч қачон дастлабки модел доирасидан ташқарига чиқиб кетмайди. Ҳар қандай алоҳида кишининг муайян ролдаги хулқи қанчалик индивидуал бўлмасин, ўзи мансуб социал тип доирасидан ташқарига чиқиб кета олмайди – соф ҳолдаги мутлақ индивидуал социал роль ва унга мувофиқ социал хулқ бўлиши мумкин эмас. Албатта, унинг ўзи мансуб социал типнинг умумлашма ролини хусусийлаштириши, умумийлик доирасида хусусийликни вужудга келтириши натижасида такрорланмас роль ва бетакрор социал хулқ вужудга келади.

Демак, кўринадики, шахс ўзи мансуб социал тип ролига хос хусусият, вазифаларни ўзлаштириш баробарида, унга ишлов бериб, ўзига хос такрорланмас ролни ҳам вужудга келтириб боради – социалллик асосида янада социаллашиб боради.

Социаллашув жараёнида киши ўзи мансуб социал тип хусусиятларини ўзлаштириб, уни жузъийлаштириб социал профессия ёки фаолият турини эгаллаш йўлидан боради. Янги социал сифатлар касб этади. Орттирилган

социал роллар мутлақ ва нисбийлик хусусиятларидан бирига эгалиги билан характерланади. Гендер социал роль мутлақлиги билан характерланса, она ёки ҳамшира социал роли бошқа роллар билан боғлиқ равишда содир бўлади. Фарзанд ва ота/она социал роллари ҳақида ҳам шундай дейиш мумкин. Шахслараро роллар шахслараро муносабатлар асосида вужудга келади. Бу муносабатлар ўзгариши билан, роллар ҳам барҳам топади. Масалан, никоҳ бузилиши натижасида эр/хотинлик социал роли барҳам топади – шахс олдинги социал типига қайтади. Олдинги социал типга қайтиш орттирилган социал типларнинг барчаси учун умумий бўлган хос сифатдир.

Орттирилган социал типларнинг ролли тарбияси катта аҳамиятга эга. Муҳит ва тарбия орттирилган социал ролларнинг эгалланишида туғма ёки генетик омиллардан кам бўлмаган аҳамиятга эга. Тарбия натижасида шахс жамиятга уйғунлашиб, умумий социалликнинг ажралмас унсурига айланиб боради.

Бу роллар шахсдан маълум бир куч ёки интилишларни талаб этмайди. Шахсларнинг бу ролларга хос устунлик даражаси уларнинг ўзига боғлиқ бўлмайди.

Ўзлаштириладиган социал роллар ҳаёт давомида яшаш учун кураш тезиси асосида субъектнинг жидду жаҳди, сайъ-ҳаракатлари натижасида эгалланади ва бундаги даражали фарқлар шахсларнинг ирода кучи билан белгиланади.

Адабиётлар:

1. Красных, В.В. Когнитивная база vs культурное пространство в аспекте изучения языковой личности (к вопросу о русской концептосфере) / В.В. Красных // Язык, сознание, коммуникация. – М., 1997. – Вып. 1. – С. 128–144.

2. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – М., 1996. – С.177.

3. Табалова Н.Г. Социальные стереотипы как форма категоризации действительности в лингвистическом, психологическом и социологическом аспектах // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В. В. Красных, А. И. Изотов. - М.: МАКС Пресс, 2003. - Вып. 23. - 124 с. – С.1-6.

4. Меренков А. В. Социология стереотипов. Екатеринбург, 2001. – С. 30.

5. Гуслякова Л. Что такое стереотип и надо ли с ним бороться? // Покушение на незыблемое или…?: Стереотипы социально-политического сознания и перестройка / Под ред. Т. Шмелевой. Барнаул, 1990.

6. Ядов В. А. Социальный стереотип // Философская энциклопедия. М. 1970

7. Коробов В. К. Теоретико-методологические основы стереотипов образа жизни // Образ жизни в условиях перестройки. М., 1992; Ванина О. Н. Исследование феномена социального стереотипа: социально-психологический и социологический подходы. Самара, 1997.

8. Семендяева О. Ю. Стереотип как социальный и социально-психологический феномен: Дис. … канд. соц. наук. – М., 1986. – С. 78.

РЕЗЮМЕ

Социал стереотиплар дастлаб психологиянинг ўрганиш объекти сифатида намоён бўлган. Кейинчалик бу объектдан кўплаб фан йўналишлари – социология, политология, маданиятшунослик – ўз ўрганиш предметларини ажратиб ола бошладилар. Натижада стереотипнинг мураккаб категория мазмунига эга ўлароқ янгидан-янги қирралари очила бошлади.

РЕЗЮМЕ

Социальные стереотипы впервые появились как объект изучения в психологии. Позже многие отрасли науки — социология, политология, культурология - стали отделять свои предметы от этого объекта. В результате стали открываться новые аспекты стереотипа со сложным категориальным содержанием.

SUMMARY

Social stereotypes first appeared as an object of study in psychology. Later, many branches of science - sociology, political science, cultural studies - began to separate their subjects from this object. As a result, new aspects of the stereotype with a complex category content began to open.

НЕКОТОРЫЕ ТРУДНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ ПО МЕДИЦИНСКОЙ СПЕЦИАЛЬНОСТИ

Халмуратова М. Т.
Ташкентский государственный стоматологический институт
PhD доцент

Tayanch so'zlar: kommunikativ kompetentsiya, muloqot qobiliyatlari, ilmiy uslub, kasbiy til, tibbiy atamalar.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, коммуникативные навыки, научный стиль, профессиональный язык, медицинские термины.

Key words: communicative competence, communication skills, scientific style, professional language, medical terms.

Сегодня владение иностранным языком – не роскошь, как это было когда-то, а жизненная необходимость. Изучение иностранного языка в современном мире – это один из самых важных составляющих моментов в жизни современного, успешного человека. Иностранный язык необходим не только для того, чтобы эффективно взаимодействовать в науке и политике, культуре и искусстве, экономике, но в медицине и других важных областях нашей жизни.

Владея иностранным языком, студент-медик может изучать различную медицинскую литературу, посещать сайты, писать научные статьи, вести исследовательские работы на иностранных языках, вести беседы с использованием медицинских терминов, составлять и переводить медицинскую документацию с описанием болезней, выбрать возможные методы, способы лечения заболевании, процедуры, препараты, манипуляций и т.д. Помимо всего этого, знания иностранного языка важно и в общении с пациентами, носителями языка.

Формирование коммуникативных навыков является самой важной целью при изучении иностранных языков. Основная же цель обучения студентов языковым дисциплинам в медицинских вузах – научить грамотно пользоваться языком не только как средством коммуникации, но и как одним из средств овладения будущей специальностью.

Современный компетентностный подход к изучению языков включает развитие коммуникативной компетенции, подразумевающей способность эффективно использовать изучаемый язык как средство общения в познавательной деятельности, а также языковой (лингвистической) компетенции, направленной на овладение языковыми средствами в соответствии с темами и сферами общения и умение оперировать ими в коммуникативных целях.

Главной целью обучению иностранным языкам студентов медицинских вузов - освоение языка будущей специальности, языка профессионального медицинского общения. Профессиональный язык медика сильно отличается от обиходного, обычного. Основное и очень заметное отличие – это огромное количество специальных слов и выражений, богатая и широко разветвлённая терминология.

При обучении профессиональному языку важно методически так организовать занятия, чтобы изучаемые языковые единицы были максимально использованы студентами в реальной учебно-профессиональной и собственно-профессиональной коммуникациях.

Формирование и развитие коммуникативных навыков студентов – это, прежде всего, развитие устной речи на изучаемом языке. В связи с целевыми установками каждого из этапов обучения студентов-медиков стоматологического направления приоритетными видами устной речи становятся как устная диалогическая, так и монологическая речь.

Для эффективного обучения иностранным языкам и формирования навыков профессиональной речи на занятиях используются различные инновационные методы: синквейн, ассоциативный ряд, ключевые термины, лингвистические карты, лингвистическая аллюзия (намек), ИНСЕРТ (интерактивная система записи для эффективного чтения и размышления).

Обучение языку специальности на основе монологической речи предполагает обогащение словарного запаса студентов общенаучной и терминологической лексикой, характерными для научного стиля синтаксическими конструкциями, дальнейшее развитие и совершенствование умений и навыков извлечения основной информации из учебно- научных текстов, передача её в устной и письменной форме, а также развитие навыков и умений в различных видах речевой деятельности.

Таким образом, овладение студентами-медиками профессиональной речью поможет успешному осуществлению коммуникации и адаптации их в будущей сфере деятельности.

Литература:

1. Маталова, С.И. Интенсивное обучение профессиональной речи иностранных студентов-медиков при языковой подготовке к клинической практике [Текст]: /С.И.Маталова // Вестник РУДН, 2008. - № 3. - С. 28

Бугунги кунда давлатимизнинг бош мақсадларидан бири ёш авлодни маънавий етук, билимли, мустақил фикрловчи инсонлар қилиб вояга етказишдир. Бундай эзгу мақсад устоз ва мураббийлар зиммасига ғоят масъулиятли вазифаларни юклайди. Шунинг учун ҳам бугунги замонавий таълимга ўзига хос, янгича ёндашув талаб қилинмоқда. Маълумки, дарсликлар, ўқув-услубий қўлланмалар нашр эттириш, ахборот технологияларини таълимга кенг жорий этиш, ёшларга таълим-тарбия бериш соҳасидаги инновацион ёндашувлар таълим-тарбия самарадорлигини оширишнинг муҳим омилидир. Таълим-тарбиянинг узвий боғлиқлиги, бу жараёнларнинг ҳар томонлама камол топган инсонни шакллантиришга йўналганлиги янги ижтимоий қадриятларни шаклланишига ҳам кучли туртки бўлмоқда. Бу борада Ислом фалсафасининг инсонни маърифат ва камолотга етаклаш йўлидаги буюк инсонпарварлик моҳиятини тушунтириш, ёшлар қалби ва онгига жамиятдаги инсоний фазилатларни, меҳр-оқибат, ор-номус каби қадриятларни сингдириш катта аҳамият касб этади. Таълим ислоҳатининг муҳим талабларидан бири ҳам ёшларни маънавий-ахлоқий жиҳатдан етук инсонлар қилиб тарбиялашдир. Ёш авлодни халқимиз яратган қадриятлардан, маънавий мерос дурдоналаридан баҳраманд этиш уларни маънавий етук шахс сифатида тарбиялашга асос бўлади.

Бугунги кунда мамлакатимизда 130 дан ортиқ миллат ва элат вакиллари тинч-тотув ҳаёт кечирмоқда. Диний бағрикенглик туфайли турли ди-

ний ташкилотлар фаолият юритмоқда. Ислом цивилизация маркази, Имом Бухорий ва Имом Термизий номларидаги халқаро илмий-тадқиқот марказлари, Ислом академияси каби илмий муассасалар фаолияти йўлга қўйилди. Ҳадисшунослик, ислом ҳуқуқшунослиги, тасаввуф, калом ва ақида илми каби диний-маърифий йўналишларни ўрганиш бўйича махсус мактаблар ташкил этилди. Биз аждодларимизнинг донишмандлик анъаналарига амал қилган ҳолда, қатъий ислоҳатларни амалга оширмоқдамиз ва мамлакатимизнинг янги қиёфасини шакллантирмоқдамиз. "Марказий Осиё ҳудуди Шарқ Ренессансининг йирик марказларидан бири сифатида бутун дунёга маълум ва машҳур бўлган",- дейди Президентимиз Ш. Мирзиёев ўз маърузаларида. [1.208]

Ёш авлод тарбияси ҳар бир миллат, ҳар бир халқ мутафаккирлари, йўлбошчиларини ўйлантирадиган абадий муаммога айланган. Ижтимоий ҳаёт тажрибаларидан маълумки, агар инсон ўз шахсий манфаатини кўзлаб ўқиса, ўрганса, ўз устида тинмай шуғулланса у олий маълумот олиши, ҳатто олимликка даъвогарлик қилиши мумкин. Лекин, ҳақиқий камолот эгаси бўлиши учун у таълим ва маълумотдан ташқари юксак инсоний фазилатлар асосида тарбияланган бўлмоғи лозим.

Ҳозирда динга ва диндорларга муносабат ҳам янгича мазмун касб этмоқда. Динга эскилик сарқити эмас, балки инсонни баркамолликка, эзгуликка даъват этувчи ғоят кучли мафкуравий қурол, илмий ва кўп қиррали маданий меросимизнинг бир қисми сифатида қаралмоқда. Бирор бир мутафаккир олим йўққи, тарбияга беъэтибор қараган бўлса. Ўтмиш мутафаккирларининг илм-маърифат, таълим-тарбия соҳасидаги фикрлари, ахлоқий қарашлари бугунги тараққиёт учун ҳам, ёш авлод камолоти учун ҳам аҳамияти беқиёсдир.

Мусулмон Шарқи ахлоқий тарбиясида инсон ҳаёти учун дастурилмал қўлланма вазифасини ўтаган пандномалар, чунончи, Кайкавуснинг «Қобуснома», Юсуф Хос Ҳожибнинг «Қутадғу билиг», Абдулла Авлонийнинг «Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ», Абу Наср Фаробийнинг «Фозил одамлар шаҳри» каби асарлар шулар жумласидандир. Ушбу асарлар халқнинг дунёқарашини, онгини шакллантирган, оммани ахлоқий жиҳатдан тарбиялашда улкан мактаб вазифасини ўтаган.

Биз бетакрор тарихга эга бўлган, дунёни ҳайратга солган улуғ мутафаккирларнинг ворисларимиз. Тарихимизни эсласак, бизнинг миллатимиз табиатида олийжаноблилик, меҳр-оқибат, бағрикенглик хусусиятлари устун бўлиб келган. Эндиликда қадриятларни янгича тафаккур асосида идрок этиш ва чуқур мушоҳада этиш талаб қилинмоқда. Тарихимиз ойдинлашгани сайин, ота-боболаримиз яратган маънавий мерос сарчашмалари янада

мукаммаллик касб этмоқда. Ўтмишда ота-боболаримиз фарзанд ўстирар эканлар, уларнинг хулқ-атворига катта эътибор берганлар.

Ўзбек халқининг пайдо бўлиш тарихи қанчалик узоққа бориб тақалса, унинг миллий анъаналари, урф-одатлари, маросимлари ҳам шунчалик теран тарихий илдизга эга. Ўтмиш инсон учун тарих мулкига айланган даврлардангина иборат эмас, балки аҳамиятини ҳеч қачон йўқотмайдиган таг замин, ўқ илдизимиздир. Ўтмишини севган, у билан фахрланадиган, уни кўз қорачиғидай асраб-авайлайдиган, ундан доимо сабоқ, ўгит олиб турадиган халқ ва миллатни тарих улуғлайди.

Қуръони Каримда «Одам боласини ҳамма нарсада мукаррам этдим» дейилади. Бу буюк инсоний шарафнинг қадрига етмоқ керак. Ўзбек халқида ҳам авлодлар тарбиясига таъсир этувчи, инсонларни эзгуликка чорловчи "Халқ дорилфунунлари" бўлганлигини эътироф этмоқ керак. Айниқса ота-боболаримиз учун Қуръони карим ва Муҳаммад алайҳиссалом ҳадислари тарбиянинг ишончли манбаи бўлиб хизмат қилган ва қилмоқда. Маълумки, ҳадис илмида ватандошимиз Имом Бухорий алоҳида нуфузга эга зот. Буюк бобокалонимизнинг тўплаган ҳадислари Қуръони Каримдан кейинги иккинчи манба эканлиги ва биз буюк алломанинг набиралари эканлигимиздан ҳақли равишда фахрланмоғимиз керак.

Эндиликда ушбу қадриятларни ҳар томонлама ўрганиш, уни таълим-тарбия тизимига тадбиқ этиш мақсадга мувофиқ. Дарҳақиқат, ҳозирги кунда жаҳон маданияти билан маорифининг илғор ғояларидан оқилона фойдаланиш билан бирга, бир неча асрлик тарихга эга бўлган қадриятлардан фойдаланиш, дунёвий тарбия билан диний тарбиянинг маълум жиҳатларини уйғунлаштириш орқали иймонли, эътиқодли, пировардида комил инсонларни тарбиялаш мумкин. Комил инсон ғояси миллий, умумбашарий моҳиятга эга бўлган, одамзотга хос энг юксак маънавий ва жисмоний баркамолликни мужассам этган, уни ҳамиша эзгуликка ундаган олийжаноб ғоядир. Бу ғоя нафақат алоҳида шахсларни, балки бутун-бутун халқларни юксак тараққиёт сари етаклаган.

Диний экстремизм, терроризм, гиёҳвандлик, "оммавий маданият" каби таҳдидлар оғир кулфатлар олиб келмоқда. Ғаразли мақсадини амалга оширмоқчи бўлган кимсалар ҳали онгу тафаккури тўла шаклланиб улгурмаган ёшларни ўз ота-онаси, ватанига қарши қўйиб қўймоқда. Улар авлоддан-авлодга ўтиб борадиган ибратли анъаналардан йироқ, носоғлом оилаларда ўсган, омади юришмаган, жамият эътиборидан четда қолган ёшлардир.

Инсон жиноятчи ёки тарбиясиз бўлиб туғилмайди. Зеро, барча эзгулик деб аталмиш хисларнинг митти уруғлари бола қалбига оилада, оила муҳитида ташланади. Агар оилада, мактабда тарбияга мустаҳкам пойдевор қўй-

илган бўлса, турли салбий таъсирларга берилиш холлари камайиши табиий. Шунинг учун ота-оналар, устоз-мураббийлар бу масалада ҳушёрлик ва огоҳликни янада ошириб, буюк маърифатпарвар бобомиз Абдурауф Фитрат айтганидек, бу дунё ҳақиқатдан кураш майдонига, соғлом тан, ўткир ақл ва яхши ахлоқ эса бу курашнинг қуролига айланиб бораётганини чуқур англаб, жаҳолатга қарши маърифат асосида иш олиб боришимиз зарур. Бугунги кунда тарбия бу-инновация, янгича онг, янгича тафаккур ва амалий ҳаракат демакдир.

Агар биз таълим-тарбия жараёнида қадриятлардан фойдалана билсак, ҳеч муболағасиз айтиш мумкинки, бу соҳада мувоффақиятга эришиш мумкин. Жамият тараққиёти учун аҳоли сони эмас, балки унинг сифати муҳимдир. Сифатнинг бош мезони бу– маънавиятдир. Бугунги кунда маънавий-маърифий ишларни юксак даражага кўтариш орқали баркамол авлодни вояга етказиш масалаларига алоҳида эътибор берилмоқда. Ўзбекистонда мустақиллик йилларида маънавий-маърифий ишларни амалга ошириш давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланди. Ёш авлод тарбиясини тўғри йўлга қўйиш жамият келажагини таъминлайди. Шундай экан, келажак авлодни руҳан ва қалбан покланишга даъват этувчи, буюк мақсадлар сари сафарбар этувчи – маънавиятни юксалтириш даркор. Маънавий-маърифий ишларда керакли бўғин ва нуқтани топиб, уни жонлантириш керак.

Ўқувчиларда ҳаётга нисбатан тўғри муносабатни тарбиялаш, ҳаётий мазмунни топишда кўмаклашиш, эзгу мақсад сари интилишни тарбиялаш жуда муҳим. Бу эса уларни беҳуда адашишдан асрайди ҳамда уларнинг маънавий юксалишларига ёрдам беради.

Дунёда инсондан улуғ хилқат йўқ. Шунинг учун инсон гўзал хислатлар, яхши фазилатлар, покиза умидлар билан комилликка интилиб яшаши керак.

Комилликни орзу қилмаган, баркамол авлодларни вояга етказиш ҳақида қайғурмаган халқнинг, миллатнинг келажаги йўқ. Бу борада Ислом фалсафасининг инсонни маърифат ва камолотга етаклаш йўлидаги буюк инсонпарварлик моҳиятини тушунтириш, ёшлар қалби ва онгига жамиятдаги инсоний фазилатларни, меҳр-оқибат, ор-номус каби қадриятларни сингдириш катта аҳамият касб этади.

Ҳозирги кунда ёшларнинг қалби ва онги, соғлом тафаккури учун кураш борасида кўплаб ишларни амалга оширишни давримизнинг ўзи тақозо қилмоқда. Ахлоқ қоидалари, шарқ халқларининг панд-насиҳатлари, ҳадисларни чуқурроқ ўрганиб ҳаётга татбиқ этиш ҳозирги давр ижтимоий ҳаётимизда катта аҳамиятга эга. Ҳадислар баркамол авлодни шакллантиришга самарали таъсир кўрсатувчи энг халқчил ижтимоий педагогик омиллардан бири бўлиб, у жамиятимиз ва ёшлар ҳаётини йўлга қўйишда, соғлом эъ-

тиқодни тарбиялашда аҳамияти беқиёсдир. Ҳадисларда дунёвий, диний масалаларни ҳал қилишга асқотадиган муҳим фикрлар, йўл-йўриқлар бор. Ҳамма гап уларни тўғри тушуниш, тўғри тарғиб қилиш ва қўллай билишдадир. Демак, ҳадислар диний манбагина эмас, у ҳозирги кунда умуминсоний қадриятга айланган юксак ахлоқий фазилатлар мажмуаси ҳамдир. Ҳадис илми шахсни ҳар қандай вазиятлардан оқилона чиқишига, ўз мақсадларини ҳаёт мазмунига мослаштира олишига, теварак-атроф муҳит билан муомала қилишга, ўз ҳаётини мустаҳкам қура олишга, ҳар бир қадами учун жавоб бера олишга ундайди.

Ўқувчи қалбининг туб-тубига кира олиш, унинг ички дунёсини ўрганиш, қийин вазиятларда қўллаб-қувватлаш, уларни руҳан-маънан юксалтириш, қийинчиликларда сабр-тоқатли бўлишга ўргатиш, ҳаётда тўғри йўл топа олиш ва қарор чиқара олиши, ўзига ишониши каби сифатларни тарбиялаши лозим.

“Киши баданида бир парча гўшт бор, агар у тузалса, аъзоларнинг барчаси тузалғайдир, агар у бузулса, аъзоларнинг барчаси бузулғайдир. У қалбдир”- дейилади ҳадис илмида. [3.26] Жамият ҳаётидаги маънавий бўшлиқ маънавий инқирозга нисбатан ҳам хатарлироқдир. Бир маънавий эътиқодга ишончини йўқотган кишилар, янги маънавият ва мафкура қалбида томир отмаганлиги сабабли сохта, юзаки, чуқур асосланмаган ғоялар таъсирига тушиб қолиши ҳам мумкин.

Ҳадислар маънавий таскин, руҳий мадад, қийинчиликларни енгишда сабоқ вазифасини ўтайди. Ҳадислар инсонда эътиқод ва ирода каби хислатларнинг шаклланишига кучли тарбиявий замин ҳозирлайди. “Оллоҳ таоло қайси бандасига савоб ато этмоқни ихтиёр қилса, уни дин борасида фақиҳ (динни теран тушунгувчи, дин билимдони) қилур”,- дейилади ҳадисда.

Ҳа, инсон моҳияти жуда мураккаб. Инсон шахсининг камолоти учун ахлоқий баркамоллик ўзак вазифасини ўташи лозим. Ғайриодатий хатти-ҳаракатлар юзага келмаслиги учун ахлоқ ижтимоий тарбиянинг негизи бўлиб қолиши шарт. Чунки, ахлоқ бўлмаса инсон ижтимоий шахс сифатида шаклланмайди. Фақат етук ахлоқ кишиларда ҳаётнинг мазмуни ва мақсади тўғрисида ҳақ тушунчаларни ҳосил қилади. Ахлоқ инсоннинг ўз-ўзини идора қилиш мейъёрларни, муомала маданиятини, ҳалол ишлаб тўғри турмуш кечириш мезонларини белгилаб беради. Аждодларимиз қолдирган маданий меросда барча даврлар учун керак бўлган илғор фикрлар борки, булар бугунги тараққиёт учун ҳам ўз аҳамиятини йўқотгани йўқ. “Дарҳақиқат, сизларнинг яхшингиз- хулқи яхшингиздир”- дейилади ҳадисда. Яна бир ҳадиси муборакда шундай дейилади: “Қўли билан ва тили билан ўзгаларга озор бермаган киши мусулмондир”.

Ҳадис илми ижтимоий маънавий-ахлоқий манба сифатида инсон камолотига хизмат қилиши керак. Шундай экан,

- маънавий меросимизнинг асоси бўлган ҳадис илми ўзига хос ижтимоий-педагогик тизимга эга бўлиб, соғлом эътиқодни тарбиялашга асос бўлади;
- ҳадис илмининг асл моҳиятини тўғри тушуниш ва талқин қилиш ёшларнинг турли диний экстремистик таъсирлардан ҳимоя қилиш ва мафкуравий иммунитет яратиш йўлларидан биридир;
- миллий-маънавий онгни шакллантиришда ўтмиш аждодлар тажрибаси, халқнинг бой тарихи ва маданиятини ўрганиш мақсадга мувофиқ;

Адабиётлар:

1. Ш.М.Мирзиёев. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. –Т.: “Ўзбекистон”, 2019 йил

2. Имом ал- Бухорий. Ҳадис. 1-жилд. –Т.: “Қомуслар бош таҳририяти”, 1991 йил

3. Имом ал- Бухорий. Ҳадис. 2-жилд. –Т.: “Қомуслар бош таҳририяти”, 1996 йил

4. Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. –Т.: “Ўқитувчи”, 1992 йил

5. Э. Юсупов. Инсон камолотининг маънавий асослари. Т.: «Университет» , 1998 йил

6. К.Ҳашимов, С. Нишонова. Педагогика тарихи. -Т.: “Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти”, 2005 йил

7. Б.Х.Ходжаев. Умумий педагогика назарияси ва амалиёти. –Т.: «Сано-стандарт» нашриёти, 2017 йил

8. Замонавий таълим. Илмий-амалий оммабоп журнал. №6 (91) 2020 йил

9. Д.С.Камбарова. Ахлоқий ўзликни англаш-соғлом руҳият асоси. –Т.: “Муҳаррир нашриёти”, 2018 йил

10. Ж. Фозилов, Р. Султонов, Ҳ.Саидов Ўқувчи маънавиятини шакллантириш. –Т.: «Шарқ” нашриёт –матбаа концерни бош таҳририяти, 2000 йил

РЕЗЮМЕ

Мақолада ҳадислар баркамол авлодни шакллантиришга самарали таъсир кўрсатувчи ижтимоий педагогик омил сифатида соғлом эътиқодни тарбиялаши ва инсонни маънавий юксалишига ёрдам бериш воситаси эканлиги баён этилган.

РЕЗЮМЕ

В статье констатируется, что хадисы являются социально-педагогическим фактором, оказывающим действенное влияние на формирование совершенного поколения, воспитывающим здоровую веру и являющимся средством, помогающим духовному росту человека.

SUMMARY

In the article, it is stated that hadiths are a social pedagogical factor that has an effective influence on the formation of a perfect generation, that educates a healthy faith and is a means of helping a person’s spiritual growth.

“O’ZBEKISTON TABIIY GEOGRAFIYASI” KURSIDA “O`ZBEKISTONNING TABIATINI MUHOFAZA QILISH” MAVZUSINI O’RGANISHDA TANQIDIY FIKRLASH KO’NIKMALARINI KLASTER METODI ORQALI SHAKLLANTIRISH

Atabayeva M. R.
UrDU akademik litseyi geografiya fani o’qituvchisi

Таянч сўзлар: tanqidiy fikrlash, klaster, metodika, pedagogika, geografiya , tabiiy geografiya, pedagogic texnologiya.

Ключевые слова: критическое мышление, кластер, методология, педагогика, география, физическая география, педагогическая технология.

Key words: critical thinking, cluster, methodology, pedagogy, geography, physical geography, pedagogical technology.

Kirish. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik tehnologiyalarni qo’llash borasida imkoniyat yaratilmoqda.Ta’lim muassasalarida keng qo’llanayotgan klaster metod - ta’lim-tarbiya jarayonini bir butun holatda amalga oshirishda muammolarni yechishda dars jarayonini oqilona tashkil qilishda, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirishda, o’quv materialini kichik-kichik bo’laklarga bo’lib, ularning mazmunini ochishda, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, loyiha, rolli o’yinlar kabi metodlarni qo’llashda amaliy mashqlarni mustaqil bajarishda biror faoliyat yoki muammo o’zaro muloqot, o’zaro bahs-munozarada fikrlashda hamjihatlik bilan masalalarning yechimida o’z samarasini ko’rsatadi. Bu usulning afzalligi shundaki, talabani mustaqil fikrlashga o’rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O’qitishning klaster usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o’quv muassasasining o’quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o’qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi.

Klaster metodi deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida bo’lgan ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi o’qitish

jarayoni davomida faol ishtirok etadi. Ushbu jarayonda ta’lim oluvchilar o’qib-o’rganishni yuqori darajada bo’lishini, egallagan bilimlarni maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirishda tashabbuskorligi va mas’uliyat, qo’llab-quvvatlash amalda bajarish orqali fikr-mulohazalar qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

O’qitish jarayonida klaster metodlardan foydalanish o’ziga hos hususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan klaster metodi talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to’g’ri yechimini topishga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Klaster metodi orqali talabalarning bilim, ko’nikma, malakalari, ijodkorligini va faolligi nazariy va amaliy mu’ammolarga bo’lgan qarashlari rivojlanadi. «Klaster» metodini o’tkazish tehnologiyasini amalga oshirishda- talaba nimani o’ylagan bo’lsa, shuni qog’ozga yozadi. U o’z fikrlarining sifati to’g’risida o’ylab o’tirmay, ularni shunchaki yozib boradi. Yozuvining orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e’tibor bermaydi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to’xtamaydi. Agar talaba ma’lum muddat biror-bir g’oyani o’ylay olmasa, u holda qog’ozga biror narsaning rasmini chiza boshlaydi. Bu harakatni yangi g’oya tug’ilgunicha davom ettiradi. Ma’lum bir tushuncha doirasida imkon qadar ko’proq yangi g’oyalarni ilgari surish hamda ular o’rtasidagi o’zaro aloqadorlik va bog’liqlikni ko’rsatishga harakat qiladi. G’oyalar yig’indisining sifati va ular o’rtasidagi aloqalarni ko’rsatish cheklanmaydi. «Klaster» metodi puxta o’ylangan strategiya bo’lib, undan ta’lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg’ulotlar jarayonida amalga oshiriladi.

Klaster inglizcha so’z bo’lib (kluster) – bir butun holatda ma’lum mavzu bo’yicha erkin va ochiq fikrlashning notekis shaklidni namoyon etadi. Klaster metodini amalga oshirishda yangi mavzuning asosiy tushunchasi aylanma shaklidagi chizma ichida yoziladi. Masalan yangi mavzu pedagogik qobiliyatlar bo’lsa talabalar u haqida o’z oldiga kelgan fikrlarni yozish taklif etiladi. Bunda talabalar tomonidan yozilgan fikrlar umumlashtirib aytib beriladi. Bu fikrlarni doskada bo’r yoki plakatda flomasterlar bilan yozish mumkin. Yangi mavzu o’rganishda darsni mustahkamlash bosqichida talabalarga quyidagi topshiriq beriladi. Qizil rangli ruchkalarini (yashil, qora bo’lsa ham bo’ladi) olib yangi o’rganilgan tushunchalar bilan boyitiladi. Talabalar yozilganlarni (o’qib) aytib beradilar. Doskada (boshqa rangli bo’r bilan) yoki plakatda boshqa rangli flolmasterlar bilan aytilgan fikrlari yozib boriladi.

Klaster metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli sifatida ta’lim oluvchilarga muammo (mavzu) lar hususida ihtiyoriy, erkin, ochiq o’ylash va fikrlarni bemalol bayon etish imkoniyatini yaratadi.Mazkur metod turli xil

g’oyalar o’rtasidagi aloqalarni fikrlash, aniqlashda amalga oshiriladi. Ushbu jarayonlar ta’lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puhta o’zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo’lishini ta’minlashga hizmat qiladi. Dars mashg’ulotlarida ushbu metod talabalar tomonidan bildirilayotgan g’oyalarning majmui tarzida nomoyon bo’ladi. Chunki, ushbu jarayonda har bir talaba tomonidan ilgari surilayotgan g’oyalarni uyg’unlashtirish hamda ular o’rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi. O’qituvchi ularning fikrlarini umumlashtiradi qo’shimcha adabiyotlardan foydalangan holda klasterga yana qo’shimcha kiritishi uning mahoratiga bog’liq.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ushbu samarali vositalardan biri - amerikalik o’qituvchilar J. Steele, K. Meredit, Ch. Templ va S. Uolter tomonidan ishlab chiqilgan o’qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik texnologiyasidir.

Ushbu metodlar haqida Hayitov A., Boymurodov N., Mavlonova R, To’raeva O, Xoliqberganov K., Yo’ldoshev J. G’., Usmonov S.A., Vahobov H., Zaynutdinov A. Tolipov O’, Usmonboeva M.lar o’zlarining pedagogik faoliyati davomida yaratgan ilmiy asarlarida batafsil to’xtalib o’tib bu metodlarning afzalliklari, qanday foydalanish kerakligi haqida aytib o’tganlar. Bu texnologiyada olib borilgan darslarning ahamiyati shundaki, ular o’qituvchiga talabalar uchun zarur bo’lgan umumiy ta’lim va ko’nikmalarni shakllantirishga va boshqa maktab fanlarinio’rganishga, «o’rganishni o’rgatishga» imkon beradi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi taklif – anglash – tahlil qilish sxemasi bo’yicha darsni tashkil qilishni taklif qiladi va bir qator texnika va strategiyalarni taklif etadi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun maxsus uslubiy vositalarni yaratish va qo’llash kerak.

Natijalar va muhokama. “Klaster” metodi - erkin fikrlashning asosiy omili hisoblanadi.»Klaster» metodi talabalarga biror-bir mavzu to’g’risida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu metod ko’p variantli fikrlashni o’rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea)lar o’rtasida aloqa o’rnatish malakalarini rivojlantiradi. Quyida “O’zbekiston tabiiy geografiyasi” kursida “O`zbekistonning tabiatini muhofaza qilish” mavzusida klaster metodidan foydalanishning samaradorligini ko’rib chiqamiz.

Darsning blok sxemasi:

Darsning qismlari	Belgilangan vaqt.
Tashkiliy qism	3 daqiqa
O`tilgan mavzuni takrorlash	12 daqiqa
Yangi mavzu bayoni	14 daqiqa
Mustahkamlash	12 daqiqa

Baholash	2 daqiqa
Uyga vazifa	2 daqiqa

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: O`quvchilarga O`zbekiston tabiati qanday omillar ta`sirida ifloslanishini tushuntirib berish

Tarbiyaviy maqsad: O`quvchilarga ekologik tarbiya berish, Vatanimizga mehr-muhabbat tuyg'usini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad:O`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish, nutq madaniyatini o`stirish, o`z-o`zini boshqarishga yo`naltirish, hozirjavoblik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish.

Dars turi: Ta'lim beruvchi, interfaol.

Dars o`tish metodi: Bahs-munozara,klaster metodi.

Dars jihozi: Globus, dunyo tabiiy kartasi, 7-sinf darsligi, atlasi, yozuvsiz xaritasi, jadvallar, tarqatma materiallar,

Texnik jixozlar:Kompyuter, multimedia, slaydlar.

I. Tashkiliy qism. 1.O`qituvchining kirish so`zi. Davomatni aniqlash. O`quvchilarni darsga hozirlash

II. O`tgan mavzuni so`rab baholash. O`tilgan mavzuni klaster metodi asosida savol-javob qilib so`rash

III. Yangi mavzu bayoni.

Inson tabiatdan oladigan barcha moddiy boyliklar - yerosti boyliklari, suv, havo, tuproq, o'simliklar, hayvonot olami va boshqalar tabiiy resurs (boylik) hisoblanadi.O'zbekiston tabiati va tabiiy boyliklarini muhofaza qilish -inson uchun zarur bo'lgan qazilma boyliklardan oqilona foydalanish,suv va havoni toza saqlash, tuproqni eroziyadan saqlash, o'simlik va hayvonot dunyosini tabiiy holicha asrab qolib, qayta tiklashni hamda xushmanzara joylar (sharshara,shovva, ajoyib manzaralar, buloq va boshqalar)ni tabiiy holicha saqlash kabilarni o'z ichiga oladi.

Lekin hozir tabiatga inson xo'jaligi faoliyatining ta'siri natijasida respublikamizning ba'zi okruglari (Orolbo'yi, Surxon vodiysi, Quyi Zarafshon va Quyi Amudaryo)da ekologik holat yomonlashib bormoqda. O'zbekiston havosining ifloslanishida energetika, neft-gaz sanoati, transport, kimyo sanoati, metallurgiya sanoati, maishiy-kommunal xo'jalikning hissasi katta. O'sha korxonalar chiqarayotgan zararli birikmalarni 100 foiz desak, ular quyidagicha taqsimlangan: O'zbekistonda sanoat tarmoqlari va transportdan yiliga 2000 tonna atrofida iflos chiqindi (birikma)lar chiqarilib, uning 1300,1tonnadan ortig'i transport hisobiga to'g'ri keladi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona,


Andijon kabi katta shaharlar havosi ifloslanishining 80 foizi avtotransport hissasiga to'g'ri keladi. Yirik sanoat obyektlari joylashgan shaharlarda havoning ifloslanishida sanoatning hissasi katta. Natijada, Olmaliq, Angren, Navoiy, Andijon, Farg'ona, Toshkent kabi shaharlar havosi oltingugurt, azot oksidlari, ammiak, vodorod ftorid va boshqa gazlar bilan ifloslangan.

Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlari havosi Tojikistonning Tursunzoda shahridagi aluminiy zavodidan chiqqan zaharli ftor gazi bilan ifloslangan.

Natijada, tumanlarda bolalar o'limi ko'paymoqda, uzum va mevali daraxtlarning bargi sarg'ayib, qoramollar kasallanib, tishi to'kilib



1-Rasm. O'zbekiston tabiatini ifloslovchi manbalar klasteri.




2-Rasm. Tabiiy resurslar klasteri.

ketmoqda. Respublikamiz havosini toza saqlash uchun korxonalarda zamonaviy tozalovchi inshootlar qurish zarur. Bunda havoni ifloslovchi moddalarni ushlab qolib, ulardan qayta foydalanish imkoniyati vujudga keladi. Respublikamiz daryolari sanoat korxonalari, maishiy xizmat ko'rsatish, sog'lomlashtirish tashkilotlari, parrandachilik majmuyi va chorvachilik fermalaridan chiqqan suvlar hamda zovur suvlari bilan ifloslanmoqda.



3-Rasm. O'zbekiston tog' tabiatiga oid manbalar klasteri.



4-Rasm.O'zbekistonda muxofazaga olingan hududlar klasteri.




5-Rasm.O'zbekiston tabiiy boyliklarini muxofaza qilish klasteri.

Suvboyliklariniтозасаqlashdagi asosiy vazifa o'sha korxonalardan chiqayotgan iflos suvlarni tozalab, zararsizlantirib, so'ngra suv havzalariga tashlashga erishishdan iborat. O'zbekistonning tuproq qatlamini eroziyadan saqlash, uning unumdorligini tiklash uchun kurashish kerak. Buning uchun ekinlarni sug'orish qoidasiga rioya qilish, sug'orishning ilg'or usullaridan foydalanishga o'tish zarur. Ekinlarning hosildorligini oshirish uchun ko'proq organik o'g'itlar (go'ng) dan foydalanib, qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi biologic usul bilan kurashishga erishish zarur.


Respublikamiz havosining musaffo, xushmanzara yerlarining ko'p bo'lishi, avvalo, yashil o'simliklarga, ayniqsa, o'rmonlarga bog'liq. Aholining o'rmonlarga, ayniqsa, mevali (yong'oq, pista, bodom, do'lana va hokazo) va dorivor (zira, piyoz, anzur, qoraqand, oqqayin, yetmak va boshqa) o'simliklarga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lishi tufayli ular kamayib ketmoqda.

Shu sababli dam oluvchilar, sayyohlar, o'quvchilarga o'simliklarni nobud qilmaslik, ularning mevasini, urug'ini ruxsatsiz yig'maslik kabi tushuntirish va targ'ibot ishlarini keng olib boorish zarur. So'nggi


yillarda insonning xo'jalik faoliyati ta'sirida (yerlarni haydash, yangi turar joylar barpo etish, yaylovlardan noto'g'ri foydalanish, noto'g'ri ov qilish) hayvonlar soni va turi kamayib ketmoqda. Chunonchi, oqquyruq, jayron, laylak, xongul, arxar, burama shoxli echki (morxo'r), qirg'ovul, kaklik miqdori keskin kamayib ketdi. Ba'zi hayvonlar, jumladan, Turon yo'lbarsi butunlay yo'qolib ketdi. O'zbekiston tabiatining ko'rkamligi uning hududida nodir tabiat go'shalari (ajoyib soy, jilg'a, buloq, sharshara, shovva, noyob daraxtlar, har xil jinslar, ochilib qolgan qoyalar, g'orlar, korizlar, sardobalar va hokazolar)ni tabiiy holicha saqlab qolishga bog'liq.



6-Rasm. O'zbekiston Chotqol-biosfera qo'riqxonasi klasteri.



7-Rasm. O'zbekiston Zarafshon qo'riqxonasi klasteri.



8-Rasm. O'zbekiston Qizil kitobi klasteri.

O'zbekistonda turi, soni kamayib borayotgan noyob o'simlik va hayvonlarni hisobga oluvchi ikki jildli «O'zbekiston Qizil kitobi» nashr etilgan. Uning birinchi jildiga noyob o'simlik turlaridan Korovin shirachi, Turkiston yovvoyi noki, yovvoyi anor, Zarafshon piyozi, tog'piyoz, O'zbekiston lolasi, yovvoyi anjir, Omonqora va Buxoro astragali, yovvoyi uzum, chinnigul, mingdevona, sumbul, chilonjiyda, Chimyon lolasi, guli salim kabi o'simliklar kiritilgan.

“Qizil kitob”ning ikkinchi jildidan shalpangquloq ko’rshapalak, ko’k sug’ur, katta qo’shoyoq, qo’ng’ir ayiq, Turkiston qunduzi,sirtlon, qoplon, gepard, xongul, jayron, Ustyurt qo’yi, Buxoro qo’yi,arxar, oq va qora laylak, qizil g’oz, lochin, burgut, oq turna,echkemar, kapcha ilon kabilar o’rin olgan.

O’zbekiston tabiatini muhofaza qilishda qo’riqxona, milliy bog’ va buyurtmaxonalarning ahamiyati juda katta.

Adabiyotlar:

1. Abdiyeva Z.A. Geografiya fanida noan’anaviy dars usullaridan foydalanish. -Navoiy., 2003. - 108 b.

2. Vahobov H., Zaynutdinov A. Geografiya o‘qitish metodikasi. 1-qism Ma’ruzalar matni. -T.: Universitet, 2000.

3. Ro‘ziyeva D., Usmonboeva M., Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. T.: TDPU, 2013.

4. Hayitov A., Boymurodov N. Ta’limda noan’anaviy darslar va interfaol usullaridan foydalanish. -T.: YAngi asr avlodi, 2006.

5. Загашев И., Заир-Бек. Танқидий фикрлаш: ривожланиш технологияси [матн]/ И.Загашев Заир-Бек. - Санкт-Петербург.: «Скифия» ва «Алванс Дельта», 2003. - 284 б.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada “O’zbekiston tabiiy geografiyasi” kursida “O’zbekistonning tabiatini muxofaza qilish” mavzusini o’rganishda tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini klaster metodi orqali shakllantirish haqida so’z yuritiladi. O’zbekiston tabiiy geografiyasi kursini o’zlashtirishda klaster metodining ahamiyati haqida ma’lumot berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассказывается о формировании навыков критического мышления посредством кластерного метода при изучении темы «Охрана природы Узбекистана» в курсе «Физическая география Узбекистана». Дана информация о значении кластерного метода в освоении курса физической географии Узбекистана.

SUMMARY

This article talks about the formation of critical thinking skills through the cluster method when studying the topic «Opposition to the nature of Uzbekistan” Physical geography of Uzbekistan» course. Information about the importance of the cluster method in mastering the course of physical geography of Uzbekistan is given.

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI O‘QITISHDA INKLYUZIV TA’LIMNING SAMARADORLIGI VA OLIMLARNING ILMIY QARSHLARI

Raxmonova S. M.
Buxoro davlat universiteti doktaranti
Negmatova M. M.
Turkiston Yangi Innovatsiyalar universiteti magistranti

Tayanch so‘zlar: ta’lim, tarbiya, inklyuziv, individual, kompleks yondashuv, rivojlanish, takomillashuv, ijodiy yondashuv, maxsus ta’lim.

Ключевые слова: образование, воспитание, инклюзивное, индивидуальное, комплексный подход, развитие, совершенствование, творческий подход, специальное образование.

Key words: education, education, inclusive, individual, comprehensive approach, development, improvement, creative approach, special education.

“Inklyuziv ta‘lim” atamasi inglizcha “inclusive”- so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “o‘z ichiga oladi” deb tarjima qilinadi. Inklyuziv ta’lim bu - ta’lim tashkilotlari uchun barcha bolalarga ta’lim berish imkoniyatidir. Barcha bolalarning teng huquqli munosabatini ta’minlovchi umumiy ta’limning rivojlantirish jarayoni va bolalarga nisbattan kamsitilishni istisno qiladigan ta’lim turidir. Ushbu ta’lim insonning asosiy huquqi sifatida tushunishga asoslanadi. Inklyuziya- bu kishilar jamiyat hayotida ishtirok etish jarayondagi shart sharoitni yaxshilash va ayni paytda natijaga erishishdir. Inklyuziv ta’lim jarayonida va jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalarning to‘siqlarga duch kelmasliklari uchun choralar qabul qilishni anglatadi.

Alohida ehtiyojga ega bolalarga g‘amxo‘rlik qilish va ularga birinchi navbatda inklyuziv ta’limni joriy etish orqali sifatli ta’lim olishlari uchun zurur shart-sharoitlarni yaratishdir. Alohida ehtiyojli bolalar uchun yuqori sifatli ta’lim olish, tengdoshlari qatori ta’lim resurslaridan erkin foydalanish hamda o‘zaro aloqa qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi alohida ehtiyojli bolalarni qo‘llab quvvatlash va inklyuziv ta’limni rivojlantirishga doimiy e’tibor qaratib kelmoqda. “Biz xammamiz boshqachamiz, ammo barchamiz tengmiz” ushbu aqida maktabgacha ta’lim tizimining asosiy mezonlaridan biridir.

Inklyuziv ta'lim bu tabiiy jarayon bo'lib, pedagogik xodimlar va ota-onalar tomonidan ta'lim jarayoniga ijodiy yondashuvni o'zida aks ettiradi. Har bir bola o'ziga individual yondashuvni talab qiladi, barcha ta'lim olish va jamiyatda o'z imkoniyatlarini to'la namoyon qilish huquqiga ega.

Inklyuziv ta'lim amaliyotidan barcha bolalar yaxshi foyda oladilar. Odatda alohida ehtiyoji bor bolalar rivojlanayotgan tengdosh bolalar bilan bir guruhda bo'lishi ularga taqlid qilishga, ular bilan muloqot qilishga, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi. Sog'lom bolalar alohida ehtiyojli bolaga duch kelgan muammolarni tushunib boradilar va farqlarni yaxshiroq anglaydi. Bu bilan bir vaqtning o'zida ikki xil ehtiyojli bolaning rivojlanishi shakllanib borishini ta'minlaydi.

Inklyuziv ta'limni o'rganish pedagogika va psixologiya fanida yangi, eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Muammoga doir tadqiqot ishlarini o'rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish asosida ma'lum bo'ldiki, imkoniyati cheklangan yoshlarning tarbiyaviy muhiti hamma vaqt yaxshi, mo'tadil bo'lishi, hamisha alohida e'tiborda tutilishi, kattalarning nazaridan chetda qolmasligi lozim.

G'arbiy Evropa mamlakatlari va AQSH da inson psixologik xususiyatlari bilan bog'liq tajribalarga asoslangan ilmiy nazariya va yo'nalishlar vujudga keldi. Odam psixik tabiatini turlicha talqin qilinishiga qaramay, bu nazariyalar ma'lum darajada imkoniyati cheklangan bolalarning pedagogik psixologiyasining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bu borada, Dj.Bruner, J.Piaje, A.Vallon, S.Xoll, E.Meerman, K.Byuler, E.Dyurkgeym, D.Lokk va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin. Angliyalik olim Djok Lokk dunyoga kelgan yangi chaqaloq bolaning ruhini "top - toza taxtaga" o'xshatadi. Uning fikricha, "Bolaning "top - toza taxta" tarzidagi ruhiyatiga nimalar yozish kerakligi, bu kattalar ixtiyoridadir, bolaning qanday inson bo'lib yetishishi, unda qanday shaxsiy fazilatlarning tarkib topishi, bola hayotdan oladigan tajribaga, o'zgalar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlarga bog'liqdir" deb ta'kidlaydi.

J.Bruner o'z ilmiy qarashlarida ancha dalil g'oyalarni ilgari surgan. Uning taxminiga ko'ra "Har qanday fanni har qaysi yoshdagi bolaga samarali o'rgatish mumkin. Bunda faqatgina har bir yosh bosqichida bola olamni o'ziga xos tarzda ko'rish va tushuntirishni e'tiborga olish hamda o'rgatiladigan narsani bolaning qarashlariga monand talqin etish talab qilinadi", deydi.

Inklyuziv ta'limning asoschisi Vigotskiy (1896-1934) o'z ilmiy qarashlarida ilgari surgan ko'plab g'oyalar bevosita bolalarning psixik rivojlanishiga oiddir. Uning oliy psixik funksiyalar shakllanishi haqidagi qonuni bolalar tarbiyasi

va ta’limni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. L.S. Vigotskiy madaniy-tarixiy konsepsiya ishlab chiqqan. Bu konsepsiya shaxsning psixik rivojlanishi haqidagi nazariyadir. Olimning ilmiy qiziqishlari markazida, bolaning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi masalasi turadi. L.S.Vigotskiyning ilmiy izlanishlari oliy bilish psixik xususiyatlari: ixtiyoriy xotira, diqqat, tafakkur, mantiqiy fikrlash, irodaviy harakatlarini bevosita miyaning faoliyati bilan tushuntirib bo‘lmasligini, ushbu funksiyalarning mohiyatini tushuntirish uchun, ularning ildizlarini organizmdan tashqaridagi ijtimoiy muhitdan izlash lozimligini ta’kidlaydi. Demak, bolaning tarbiya va o‘quv faoliyatida orqada qolishi, psixik funksiyalarning o‘zlashtirmaganlik natijasidir deydi.

Ta’lim muassasalarida nuqsonli bolalarga ta’lim-tarbiya berish, oilada nogiron farzandni tarbiyalashning psixologik va padagogik xususiyatlari ularning nuqsonlarini korreksiyalash va inkluziv ta’lim muammolarini G‘.B.Shoumarov, R.Shomahmudova, A,Berdiyeva, O.U.Ablayev kabi olimlar tomonidan ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadbiq etib, muhim xulosalari maxsus ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o‘rganildi.

Mamlakatimizda bu ta’lim tizimi yani inklyuziv ta’lim rivojlangan bo‘lib, imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlar ta’limini davr talabi darajasida samarali takomillashtirishga davlatimiz tomonidan katta etibor berilib, davlat qonunlarida o‘z ifodasini topgan. Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalar nuqson turiga ko‘ra maxsus maktab, maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim olishi tashkil qilingan. Ushbu ta’lim muassasalarda bolalarni o‘qitish uchun qulay sharoitlar yaratilgan va tibbiy psixologogik pedagogik yordam mutaxassislar tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalarning normal rivojlanishiga halaqit berish, nogironlikdan ham og‘irroq holatlarga olib kelishi mumkin. Juda ko‘p olimlarnng ilmiy-tadqiqot ishlarida bu nihoyatda muhim masala sifatida ilmiy asoslanganligini, tadqiq etilganligini ko‘rish mumkin va inklyuziv ta’lim u bilan bog‘liq muammolarda kompleks yondashuv tamoyiliga tayanish maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Inklyuziv ta’lim - alohida ehtiyojga ega bolalarni muammolarini to‘liq bartaraf etish emas, hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishini, o‘z imkoniyatlaridan keng foydalanishni, boshqacha qilib aytganda o‘zini anglashni ta’minlovchi insonparvar ta’limdir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qarori PQ-4312 08.05.2019 y

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi qarori -4860 13.10.2020 y

3. Maktabgacha ta’limda ta’lim jarayonini individuallashtirish. Alohida ehtiyojli bolalar inklyuziyasi. Metodik qo‘llanma. Toshkent: 2020 y.

4. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . – Казань, 2013 y

5. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010 y

6. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011 y.

7. D.S.Qaxarova “ Inklyuziv ta’lim texnologiyasi” o‘quv va metodik qo‘llanma 2014-yil

8. R. Shomaxmudova Maxsus va inklyuziv ta’lim. Xalqaro va milliy tajribalar. T.: “Chashma print”, 2011 y

9. G.A. Sodiqova, D.A. Nurkyeldiyeva Rivojlanishi orqada qolgan bolalar diagnostikasi (ma’ruzalar matni) T., 2001 y

10. S.T. Turg‘unov va boshqalar. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. T.: “Sano-Standart”, 2012 y

11. S.M. Raxmonova Didactic possibilities of improving the methodology for preparing future educators of the preschool educational organization for innovative professional activities. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 | Volume 2 No. 12 https://literature.academicjournal.io 16.12.2022 y.36-40 bet.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada hozirgi kunda imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitishda inklyuziv ta’limning samaradorligi, ularning ta’lim-tarbiya olishlari uchun olib borilayotgan ishlar, inklyuziv ta’lim tizimining takomillashuvi, imkoniyati cheklangan bolalarga o‘z tengdoshlari qatorida ta’lim berish va shu bilan bir vaqtda ularning ehtiyoji hamda qobiliyatlariga qarab individual yondashuv, kompleks yondashuv, inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish maqsadi va vazifalari, olimlarnng ilmiy qarashlari, ilgari surilgan g‘oyalar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается эффективность инклюзивного образования в воспитании детей с ОВЗ, работа, проводимая по их воспитанию, совершенствование системы инклюзивного образования, воспитание детей с ОВЗ среди сверстников и в то же время, в соответствии с их потребностями и возможностями предоставляется информация об индивидуальном подходе, комплексном подходе, целях и задачах развития системы инклюзивного образования, научных взглядах ученых, выдвигаемых идеях.

SUMMARY

In this article, the effectiveness of inclusive education in the education of children with disabilities, the work being done for their education, the improvement of the inclusive education system, the education of children with disabilities among their peers and at the same time, according to their needs and abilities, information is provided about individual approach, complex approach, goals and tasks of inclusive education system development, scientific views of scientists, ideas put forward.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHINING MA’NAVIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Mamajonov O‘. T.
Andijon davlat universiteti, Pedagogika fakulteti o‘quv ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari

Tayanch so‘zlar: kompetentlik, krativlik, pedagogik jarayon, induvidual ta’lim, ekstremal kompetentlik, kompitensiya, kasbiy rivojlanish, psixologik ta’lim, didaktik malaka.

Ключевые слова: компетентность, креативность, педагогический процесс, индивидуальное образование, экстремальная компетентность, компетентность, профессиональное развитие, психологическое образование, дидактическая компетентность.

Key words: competence, creativity, pedagogical process, individual education, extreme competence, competence, professional development, psychological education, didactic competence.

O‘qituvchi shaxsiyati ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lishi, ko‘pgina badiiy va ilmiy asarlarni o‘qigan va dunyo hamjamiyatida amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardor bo‘lishi lozim. Mana shularga tayangan holatda o‘qituvchi o‘zining ma’naviy bilimlarini kompetentliklar asosida o‘z o‘quvchilariga namoyish etadi. “Kasbiy kompetentlik mutaxasis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxasislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axbborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi”. Avvalo o‘qituvchi shaxsiyatini tarbiyalash borasida oliy ta’lim muassasalarida bugungi kunda amalga oshirilayotgan ishlar rivoji bilan tanishsak. Bunda, talablarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, qolaversa ularning o‘rganayotgan bilim natijalarini amaliy tajribada sinash maqsadida maktablar bilan hamkorlikni uzviy aloqaga qo‘yish borasida ko‘p ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, joriy yilda respublikamizda 4+2 ta’lim tizimining amalda qo‘llanilishi ham oliy ta’lim o‘qituvchilari ya’ni bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘rganilayotgan bilim va o‘zlashtirilgan salohiyat, ko‘nikmalarini amaliy ravishda tajribadan o‘tkazishlari uchun maktab ta’limi ya’ni to‘rt kun oliy ta’lim muassasasida hamkorlik, ikki kun esa maktab

muassasalarida o‘rganilgan bilimning amaliyotini amaliyotchi talaba sifatida o‘zlashtirishlari amalda qo‘llashlari mumkin. Bu asosan bo‘lajak kadrlarni tayyorlashda ularning turli xil vaziyatlar, moddiyatlar va holatlarda o‘zlarini sinashlari uchun katta imkon yaratadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Haqiqatdan ham ma’naviy kompetentlik kishining yurish-turishi nutq odobi, axloqi, dars tizimida yoki o‘zining kundalik hayotida ham namoyon bo‘ladi. Kompetentlikni rivojlantirish turli xil ko‘nikmalar asosida amalga oshirilishi haqida gapirib o‘tdik. Endi kompetentlik va kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning ommabop usullari haqida turli xil holatlarda samarali foydalanish, yuqori darajadagi o‘zlashtirilgan malaka, tajribalardan kasb muhitida foydalanish bu lozim bo‘ladi. Kompetentlik inglizcha tildan olingan bo‘lib, qobiliyat, o‘zlashtirilgan degan ma’nolarda ifodalanib, kishining kundalik faoliyati, natijasida orttirilgan bilimlarini nazariy yoki amaliy jihatdan foydalanishiga, ularning yuqori natijalarni berilishini sarf qilinishiga kompetentlik deyiladi. Endi ma’naviy kompetentlik esa o‘qituvchi shaxsiyatidan o‘z bilim darajalarini imkon qadar rivojlantirish, odob axloq, tarbiya qonuniyatlari va ma’naviy jihatdan yuksak salohiyatlilikni tashkil etishi bu katta natijalarni berishi bilan farqlanadi. Pedagog o‘zida qanday qobiliyatlarni shakllantirishi kerak, yoki kompetentlikning sifatlari qanday holatda tashkil etilishi kerak va mana shu negizda qanday holatda ish faoliyatini qanday holatda amalga oshirib borishi bu yaxshi, albatta. Bu haqida ma’lumotlar turli xil davrlarda, turli xil yilnomalarda va olimlarning ijodiy ilmiy salohiyatida ko‘rsatilgan va bu bugungi kunga qadar bosqichma bosqich tarzida rivojlanishga olib keldi.

Kompetentlik va kasbiy kompetentlik tushunchalarining mohiyati turlicha bo‘lib, kasbiy kompetentlik amaliyotda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarning o‘z kasbini amalga oshirishda erishgan yutuqlari va mana shu yutuqlarga erishilish davomida orttirilgan bilim yoki malakalarning amalda yuqori darajada qo‘llay olishi kasbiy kompetentlikda namoyon bo‘ladi. Kompetentlikning o‘zi esa umumiy bilimlar majmuasi bo‘lib kasbiy kompetentlik yo‘naltirilgan bilimlar asosida kompleks tarzida amalga oshadi. Kasbiy kompetentlikning ma’naviy kompetentlik bilan aloqadorligi mavjud, chunki har bir kishi tug‘ilganidan boshlab bilim olar ekan, maktabda oliy o‘quv yurtlarida tahsil olganidan so‘ng u o‘z faoliyatida kasbida qo‘llay boshlagan bilimlari kasbiy kompetentlik asosida amalga oshadi. Turli holatlarda bu asosan o‘z ifodasini ko‘rsatadi. Buni aytishimiz mumkinki, bo‘lajak o‘qituvchining kelajakdagi maktab faoliyati bilan umumiy olganda o‘quv dars faoliyati bilan amaliyotini qo‘llaganda murakkab jarayonlarda mana shunday holatlar yuzaga kelib, noaniq bo‘lgan ma’lumotlar, holatlar yoki kechinmalarda o‘zini tutishi, o‘quvchilarni

to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirilishi yoki axborot va manbalarning to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalanishiga, izohlanishiga munosabat bildirishi bilan ham shakllanib keladi. “Kompetentlik quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- Har qanday muayyan vaziyatda, uning turli xil jihatlarini hisobga olgan holda bilimlarni o‘z o‘rnida va tezkorlik bilan to‘g‘ri qo‘llay bilish;
- Qarorlarni qabul qila bilishga qodirlik va tayyorlik, shu bilan birga, mazkur vaziyat uchun eng maqbul qaror variantini tanlay olish;
- Ijtimoiy harakatlarni tashkil etish va buning uchun barcha imkoniyatlarni ishga sola bilish;
- Faoliyat doirasida boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarni aniq maqsadlarni ko‘zlagan holda va maqsadga muvofiq, maqbul tarzda o‘rnata olish imkonini beradigan kommunikativ ko‘nikmalar” lozim.[2]

Ta’lim tizimida shunaqangi bir rivojlanish sistemasida ishlash lozimki, bunda kasbiy kompetentlik ma’naviy kompetentlik bilan amaliyotga qo‘llaniladi. Va ma’naviy kompetentlikda qanday qilib rivojlantirish mumkin degan savolga quyidagicha javob berish mumkin. O‘z bilimlarining doimiy ravishda oshirilib borilishi ya’ni bilimlarning orttirilishiga erishish; bunda o‘qituvchilardan yoki bo‘lajak o‘qituvchilardan qotib qolmaslik; yangi islohotlar kashfiyotlar bilan ilmiy bashoratlari bilan doimiy tanish bo‘lish va o‘z dars tizimiga samarali qo‘llash bunda kuzatiladi. Yangi axborotlarni o‘zlashtirish, bilamizki dars tizimida siyosiy axborotlar davri mavjud bunda darsda o‘qituvchi zamonda mana shu vaqt va makonda amalga oshirilayotgan islohotlarni birmuncha ma’lumotlar nazarida berib o‘tadi. Ya’ni o‘qituvchi ma’naviy kompetentligini mana shu axborotlarning yangilanishi bilan belgilab borishi kerak. Chunki, tarix o‘zgarishlarga uchragandan so‘ng ta’lim tizimida yangiliklar bo‘lishi bu tabiiy albatta. Bunda novatsion holatlar yoki fanlararo integratsiya mana shunday vaziyatlar ko‘zga tashlanadi. Davr talablarini chuqur anglash bo‘lajak o‘qituvchining ma’naviy kompetentligi davr talablarini chuqur anglash bilan belgilanib boriladi. O‘quvchilar o‘zlari istagan holatda bilim olishiga imkoniyat yaratish, ya’ni o‘quvchilarning bilim olishlari uchun noodatiy muhitni shakllantirish, ular bilan turli tamoyillarda dars tizimini tashkil qilish bunda tengdosh tengdoshga, yoki o‘qituvchi o‘quvchi, ona bola, opa-singil, opa-uka tarzida muomala madaniyatlarining amalda qo‘llanilishi bu ma’naviy kompetentlikning oshkor bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Shuni unutmaslik kerakki, bo‘lajak o‘qituvchi ma’naviy kompetentlikni rivojlantirish barobarida faqat dars ta’lim tizimida axborot beruvchi sifatidagina qotib qolmasdan u yo‘naltiruvchi sifatida ham xizmat qilishi kerak. Bunda o‘zaro obyekt va subyekt munosabatida yo‘naluvchi va yo‘naltiruvchi o‘rtasidagi munosabatda turli xil sohalar

amalga oshiriladi va o‘qituvchi turli sohalar yo‘naltiruvchi sifatida ma’naviy bilimlarini ishga soladi. Shuni aytish lozimki, birgina soha asosida o‘z bilim va ko‘nikmalari bilan qotib qolmasdan turli davrning axborot, ilm-fan yangiliklari, yangi bilimlarning talabalar talab doirasidagi axborotlar bilan tanishib borishi ham bu katta natijalarni berib dars sifatini oshirishga albatta xizmat qiladi. Yangi bilimlarni izlab topish, bunda bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetentligi kasbiy kompetentlik bilan amalga oshirilib o‘z kasbi doirasida yoki mavzu doirasidan chetlashmagan holatda ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullanish nazarda tutiladi. Ilmiy ijodiy qobiliyatlarning o‘zaro fikr almashinish, tadqiq qilish, isloh qilish kabi qonuniyatlar bilan amalga oshirilishi bu o‘quvchilarda ham o‘qituvchining naqadar bilim salohiyatining kuchli ekanligidan darak beradi. O‘qituvchi ma’lum bir vaqtlar davomiyligida o‘z bilgan bilimlarini ya’ni kompetentlik qobiliyatlarini qayta ishlash kerak. Bu o‘z amaliy faoliyatidan samarali qo‘llanilishni ta’minlovchi asosiy-dasturiy vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Buni aytmoqchimizki, ma’lum bir vaqtlar davomida chorakliklar yoki yarimyilliklar davomiyligida o‘z bilimlarining qayta rekonstruksiya qilinishi, olinishi ma’naviy bilimlarning ma’naviy kompetentlikni oshirishga xizmat qiladi. “Pedagoglarning kompetentligini baholash quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lgan tizimdir:

- pedagoglarning malaka darajasi - baholash uchun etalonga mos mezonlar ishlatiladi;
- mehnat unumdorligi va ish sifati;
- shaxsiy xususiyatlarning ta’lim yo‘nalishiga muvofiqligi;
- qo‘shimcha ko‘nikmalar mavjudligi;
- shaxsiy o‘sish va kasbiy rivojlanish istagi. Pedagoglarning kompetentligini baholashda xatti-harakatlarning ko‘rsatkichlariga tayanib ish tutish samaralidir. Aynan shu narsa kompetensiya va kompetentlik orasidagi farqlar nimani anglatishini aniq ko‘rsatib beradi”.[3] Kasbiy kompetentlik ma’naviy kompetentlik bilan o‘zaro aloqadorlikni tashkil etib, turli xil sifatlarni yuzaga keltiradi. Bu holatlar asosan quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik
2. Maxsus kompetentlik

a) psixologik kompetentlik
b) metodik kompetentlik
c) informatsion kompetentlik,
d) kreativ kompetentlik
e) innovatsion kompetentlik
f) kommunikativ kompetentlik

g) shaxsiy kompetentlik
h) texnologik kompetentlik
i) ekstremal kompetentlik

Kompetentlikning turli holatlar bilan shaxsiy yoki maxsus vositalar bilan tarkibiy asoslari birlashishi ijtimoiy kompetentlikda ko‘proq namoyon bo‘ladi. Bu asosan, individual rivojlanish bilan bog‘liq. O‘qituvchining ma’naviy kompetentligini oshirish individual ta’lim tizimi bilan bog‘liq. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash borasida turli islohotlar amalga oshirilayotgani yuzasidan shuni aytish mumkinki, metodik jihatdan ularni ilmiy izlanishga o‘rgatish, ularni individual tarzda bilim salohiyatlarini rivojlantirish pedagogik kompetentlikning bosh omillaridan va tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shaxsiy kompetentlik individuallik bilan birgalikda izchil ravishda o‘z kasbining salohiyat darajasini o‘sishi va mana shunday yangiliklarga erishish natijalarini qo‘lga kiritishda shaxsiy tajribalar va orttirilgan tajribalarning umummilliy dastur asosida birlashtirilishiga olib keladi. Kasbiy kompetentlik o‘z faoliyatida ichki imkoniyatlarni ham namoyish etishi, ularning nazariyasi qator tadqiqotlarda amalga oshiriladi. Va mana shu holatlarga amal qilingandagi holati milliy-ma’naviy kompetentlikning oshirilishiga erishish mumkin. Bu borada Makrova va Nazarovalar ham o‘z munosabatlarini bildirgan. O‘z tadqiqot ishlarida Makrova pedagoglarning turli holatlarida o‘zlarini tutish qonuniyatlari kasbiy kompetentligini tarkibiy qismlar asosida rivojlantirishga belgilab beruvchi qonuniyatlarni belgilab bergan. Bunda asosan, bosqichlar mavjud. O‘qituvchi o‘z ijtimoiy faoliyatini kundalik tahlildan boshlashi kerak. Bunda ish faoliyatining dastlabki yillaridagi tahlil, o‘ziga o‘zi nisbatan kelgusi yillardagi tahlil, yoki atrofdagilarga nisbatan tahlil asosida berilishi bu taqqoslilik va sog‘lom muhitni rivojlantirishga yordam beradi va ma’naviy jihatdan o‘z-o‘zini baholashni belgilab, kompetentlikning turli yutuq va kamchiliklari ham mana shunda namoyon bo‘ladi. Ikkinchisi, o‘z yutuqlarini boyitish uchun harakatlarining maxsus dastur asosida amalga oshirilishi va kamchiliklarning bartaraf etilishi yuzasidan ma’lum va belgilangan ijroviy qarorlarni belgilab olish bu asosan o‘zining kelgusida qo‘ygan rejalari va mana shu rejalar asosida erishiladigan yutuqlar, yutuqlarga borish davomiyligidagi bosqichlar, davomlarni belgilash va mana shu yutuqlarni erishishga halaqit beruvchi holatlardan chetlashish, ulardan voz kechish o‘z ustida ishlash, individuallik bilan ham amalga oshirilib, ma’naviy jihatdan islohotlardan o‘qituvchi o‘z oldida namoyon bo‘ladi. Galdagisi xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka intilish. Bu ham yaxshi natija berib o‘quvchilar bilan o‘zaro bo‘lajak o‘qituvchilarning munosabatlarini belgilash bo‘lajak o‘qituvchilarning

amaliyot jarayonida alfabet kiritgan yutuqlarni boyitish kamchiliklarini esa bartaraf etish munosabatini yo‘lga qo‘yish nazarda tutiladi. “Funksiyalarni to‘g’ri bajarish uchun pedagog kompetentlik va kompetensiya tushunchasini bilishi, har tomonlama rivojlanib, kasbiy o‘sishi uchun qaysi yo‘nalishda harakatlanishini bilishi kerak. Professionallik va kompetentlik bir-biriga o‘xshash bo‘lsada, har xil ma’noga ega bo‘lgan atamalardir. Professionallik deganda nafaqat ma’lum bilimlar, balki mehnatga bo‘lgan munosabat, ishning o‘ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional pedagog o‘z ko‘nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiharadi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi”.[4]

Galdagisi esa xato kamchiliklarni takrorlamaslikka intilish bu ham yaxshi natija berib o‘qituvchilar bilan o‘zaro munosabatlarini belgilash bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliyot davomiyligida qo‘lga kiritgan yutuqlarini boyitish, kamchiliklarini esa bartaraf etish munosabati anglashiladi. Bunda o‘zaro pedagogik munosabatlarning yo‘lga qo‘yilishi anglashiladi. Bo‘lajak o‘qituvchining o‘zi ustida amalga oshiriladigan qarorlari, induvidual qarorlarini bajarishda doimiy nazorat qilish orqali amalga oshiriladi. Bu bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatiga nisbatan dankasalikdan qochish, turli minimal bosqichlarda o‘zini normada tutib tura olish pedagogning o‘z ustida ishlash qobiliyati bilan aloqadorlikni tashkil etadi. Bu borda turli drarajadagi bosqichlarni rivojlantirishda kompetentlikni yo‘lga qo‘yadi. Ushbu holatlarning umumiyligi nuqtai nazaridan olib qaraganda aytish mumkinki pedagog o‘z ustida ishlashi komponentlik bilan aloqadorlikni yuzaga keltiradi. Ma’naviy kompetentlikning aniq va ravshan tarzda namoyon bo‘lishida orttirilgan bilimlarning nko‘nikmalar bilan ifidalanishi asosida o‘z bilimlarining atrof muhit va jamiyatda xizmat qilayotgan kishilarning malakalarini oshirishga yordam berish va qolaversa, orttirilgan malakani o‘rtoqlashish bilan natijalarga erishish mumkin. Ma’naviy jihatdan egallangan bilimlarning doimiy ravishda tadqiq qilinishi izlanuvchanlik qobiliyatining shakllanishi tadqiqot ishlarini olib borishga imkon yaratadi. Bularning barchasi esa ma’naviy kompetentlikning rivojlanishi uchun rivojlanishi, kasbiy kompetentlikning rivojlanishi uchun ham o‘ziga xos vosita bo‘lib xizmat qiladi. Haqiqatdan ham, psixologik kompetentlik hamda ekstremal kampetentlik kabilar bu borada o‘z natijalarini beribgina qolmasdan salbiy odatlardan voz kechishga yordam beradi. Kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish kamoetentlik asosida o‘z qobiliyatlariga erishgan holda uning shaxsiy faoliyatda rivojlantirishga ibodiy jihatdangina yondashish

bilan cheklanib qolmasdan kasbiy nuqtai nazardan ham rivojlanishga erishish borasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish lozim. Bunda asosan o‘qituvchilarning malakalarini oshirish bilim yurtlarida xizmat faoliyatlarini yuritayotgan shaxslar bilan pedagoglarning murosaga kirishishi ijtimoiy holatlar bilan ham amalga oshiriladi. Ma’naviy kompetentlik mehnatsevarlik xususiyatlarning rivojlantirilishida hamda o‘z o‘ziga nisbatan talabchanlikning yuzaga kelishida namoyon bo‘ladi. Pedagoglarning yoli pedagogik sohada ishlashni niyat qilgan kishilarning ham o‘z ustida ishlashi ham bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Eng muhimi erishilayotgan va kutilayotgan natijalarning asos qism vazifalarida belgilanadigan holatlarda o‘z ahamiyatini namoyon etadi. Shuningdek, boshlanlich sinf o‘quvchilarida ma’naviy kompetentlikning yuzaga kelishida psixologik kompetentlik rioyaviyligini ham inobatga olish keram. Bunong sababi, ma’naviyat jihatdan yuksak salohiyatga ega bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchi psixologik jihatdan ham kuchli bo‘lishi lozim, chunki u o‘quvchilar, atrof jamiyat bilan bevosita munosabat bog‘layotganda asosan psixologik jihatdan sog‘lom muhit yarata olishi, o‘quvchilar bilan har tomonlama muomala madaniyatiga kirisha olishi lozim. Bu borada aksariyat holatlarda yuz beradigan sinf o‘quvchilarining turli xil kayfiyati, xarakter xususiyatlari bilan yaqindan tanishish, ularning salbiy psixologik holatlarda ziddiyatlarga kirishmasligini ta’minlab berishi ham kompetentlikning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanishi mumkin. Pedagogik kompetentlik esa metodik kompetentlikni aloqadorlikka chorlaydi. Metodik kompetentlik ma’naviy kompetentlik bilan o‘zaro aloqadorlikni tashkil etib, faoliyat ishlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri bajarilishida hamda qisqa muddatda yuqori natijalarga erishish, atrofdagi kishilarni jalb etish borasida metodik kompetentlik yuqori natijalarni berishi bilan boshqalaridan farqlanadi, xarakterlanadi.

Kompetentlik bilan o‘zaro bog‘liqlikda qo‘llanoluvchi kreativlik nomli tushuncha bo‘lib, kompetentlikda kreativlik yuqori arajada baholanib, o‘z ijtimoiy faoliyatiga nisbatan kundalik hayotiga o‘zgacha qarashlar ya’ni, tanqidiy, ojodiy yondashish bilan birgalikda pedagoglarning ijodiy malakalarining ham o‘sib borishiga yordam beradi. Bu holat esa krativlik kompetenti bilan aloqadorlikni tashkil etadi. Kreativlikning ham bosh omili ma’naviyatga borib taqaladi. Ma’naviy kampetentlikning ahamiyati asosan manashunday holatlarda namoyon bo‘ladi. Endi shaxsiy kompetentlikning ichki o‘sib borishda yoki texnologik kompetentlik bilan aloqadorligini belgilashda ekstremal kampetentlik ham favqulotda vaziyatlarda o‘qituvchi va o‘quvchi munosabati ham o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi. Ekstremal vaziyatlarda o‘qituvchilar o‘zilarini tuta olishi, boshqaruvchanlik

qobiliyatini yo‘qotmasligi, o‘quvchilarni yo‘naltira olish majburiyati va shu kabi holatlar kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida O‘zbekiston Respublikasida belgilangan milliy o‘quv dasturning yetakchi g‘oyalaridan biri sifatida belgilanadi. Texnologik kompetentlik esa ma’naviy kompetentlik bilan aloqadorlikda bilim va malakalarni boyitishda ilg‘or texnologiyalardan foydalanish muhimdir. Haqiqatdan ham, bugungi zamonaviylashdan dunyoda ta’lim tizimiming moderenizatsiya qilinishi konpetentlikning qator yo‘nalishlari bilan aloqadorlikda amalga oshiriladi. Shuning uchun, bo‘lajak o‘qituvchilarning zamonaviylashgan texnologiyalar bilan ishlashi, texnik - texnologik savodxonlik, ilmiy pedagogik mahorat kabilarni umummilliy tarzda baholash, birlashtirish asosida yaxlitlikni o‘zaro shakllantirishda bosh omil vazifasini bajarishi ham katta natijalarni yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N., Usmonboeva M., Sayfurov D., To‘rayev A. Pedagogikaning pompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent: - 2015

2. Rahimov Sobir Toshtemirovich. “Pedagogik kompetentlik ta’lim jarayoni rivojlanishining muhim omili sifatida” maqola. Zamonaviy ta’lim - 2019

3. Tojiboyeva Gulmira arifovna, Pulatova Dildora Turgunovna. “Pedagogik kompetentlik: Nazariya va amaliyot” maqola. Academic research in educational sciences scientific journal - 2020

4. Egamberdiyev Oyatillox Alisher o‘g‘li, Turdaliyev Abror Yigitali o‘g‘li, Maxamadjonov Jaxongir Zokirjon o‘g‘li. “Kasbiy kompitentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari” maqola. “Science and Education” Scientific Journal - 2021

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola bo‘lajak o‘qituvchining ma’naviy kompetentligini rivojlantirish yo‘llari xususida so‘z yuritilgan bo‘lib, yurtimizda ta’lim sohasida amalga oshirilyotgan ishlar yuzasidan qarashlar mavjud. Shuningdek, kompetentlikning turli yo‘nalishlar asnosida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahorati shakllanishida ma’naviy kompetensiya, informatsion kompetensiya, kreativ va innovatsion kompetensiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘z ifodasini topgan. Maqolada ma’naviy kompetentlikning pedagogik jarayondagi o‘rni va ahamiyati yuzasidan qarashlar mavjud.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о путях развития духовной компетентности будущего педагога, а также представлены взгляды на работу, проводимую в сфере образования в нашей стране. Также специфические характеристики духовной компетентности, информационной компетентности, творческой и инновационной компетентностей выражаются в формировании педагогических умений будущих учителей в различных областях компетентности. В статье содержатся взгляды на роль и значение духовной компетентности в педагогическом процессе.

SUMMARY

This article talks about the ways of developing the spiritual competence of the future teacher, and also presents views on the work carried out in the field of education in our country. Also, the specific characteristics of spiritual competence, information competence, creative and innovative competence are expressed in the formation of pedagogical skills of future teachers in various areas of competence. The article contains views on the role and importance of spiritual competence in the pedagogical process.

MAKTAB O'QITUVCHILARINING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOIY XUSUSIYATLARI

Jumayeva G. T.
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent v.b.

Tayanch so'zlar: kasbiy madaniyat, kasbiy faoliyat, aks ettirish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash, psixologik, pedagogik.

Ключевые слова: профессиональная культура, профессиональная деятельность, рефлексия, самоконтроль, самооценка, психологическая, педагогическая.

Key words: professional culture, professional activity, reflection, self-control, self-assessment, psychological, pedagogical.

Jahon pedagogik amaliyotida mutaxassis kadrlarning kasbiy madaniyati va ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish orqali ularning o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tendentsiya so'ngi vaqtlarda xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan "pedagogik dunyoqarash" (pedagogical worldview) muammosiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Darhaqiqat, jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va madaniy tabiatining doimiy o'sish va o'zgarishda ekanligi zamonaviy mutaxassislardan, xususan, pedagog-o'qituvchilardan o'z kasbiy qadriyatlari va shaxsiy e'tiqodlariga ega bo'lishni, nafaqat o'zining, balki o'zga madaniyatni ham qabul qila bilishni, ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq pedagogik dunyoqarashi va qobiliyatlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohani modernizatsiya qilish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarini joriy etish, xalqaro standart asosida yuqori malakali, "kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar" sifatida belgilangan. Bu esa, oliy ma'lumotli

mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Kasbiy madaniyat, pedagog xodimlarning bilimini, kasbiy va axloqiy madaniyatini oshirib borish muammosi Vatanimiz va qator xorijlik olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish haqida gap ketganda, eng avvalo, "madaniyat" tushunchasining mohiyatini aniqlab olish zarur. Madaniyat tushunchasi Sharq allomalarining adabiy meroslarida hamda pedagog-psixolog olimlar tomonidan quyidagicha talqin qilingan: "Madaniyat" so'zi zamonaviy nutqda juda keng qo'llaniladi. "Madaniyat" so'zi lotincha "cultural" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "tarbiyalash, o'stirish, rivojlanish, e'zozlash" degan ma'noni anglatadi.

Kasbiy madaniyatga oid qarashlar qadimgi qo'lyozmalarda, diniy va didaktik manbalarda o'z aksini topgan. Jumladan, "Avesto"da kasb-hunarga hurmat, kasbga sadoqat, mehnatsevarlik, xushmuomalalikka undovchi hikmatlar, Islom dini ta'limotida mehnat qilish va uning ortidan topilgan boyliklardan zakot berilishi, har bir musulmon kishi o'z kasbining orqasidan halol yo'l bilan rizq topishi kerakligi haqidagi o'gitlar odamlarda kasbiy madaniyat rivoji odob-axloq qoidalariga bog'liq ekanligi asoslangan.

XV asrda yashab, ijod etgan mutafakkir Kamoliddin Husayn Voiz al-Koshifiy bola tarbiyasida maktab va muallimning alohida o'rni borligi hafida gapirib, muallimlar dono, bilimli, shirinsuxan, adolatli bo'lishi zarur, deb hisoblaydi. Alloma murabbiylar to'g'risida "Axloqiy Muhsiniy" asarida quyidagi fikrni keltiradi: "O'qituvchi bolaga nasihat va ta'lim berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida o'quvchiga pand berish yaramaydi, balki xilvat joyda bolaga nasihat qilish zarur. Agar murabbiy nasihat berishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim, chunki bizning zamonamizda muloyim va xushfe'l bo'lish maqsadga muvofiqdir".

Buyuk allomalardan Abdurahmon Jomiy o'z asarlarida tarbiyachi muallim faoliyatiga quyidagicha ta'rif beradi: "muallim bilimli, aqlli, adolatli, o'zida butun yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi lozim. O'zini nomunosib tutgan odam hech vaqt o'quvchilarga bilim va odob bera olmaydi".

"Muallimning yuksak sifati uning aqli, ilmi, fikri, so'zi, axloqu-odobidadir, - degan edi taniqli murabbiy , maktabshunos olim Hikmatulla Abdullaev o'zining "Yashil daftar hikmati" asarida, - O'qituvchining yuz qarashlari ham, gapirishlari ham, qalbi ham, ko'rinishi ham, yurish-turishi ham, kiyinishi ham chiroyli va ibrat namunasi bo'lsin. Ayniqsa, uning nutqi tushunarli, ravon, ta'sirli bo'lishi darkor. U muloqotda bamisoli so'z zargari ekanligini ko'rsata olishi

muhimdir. Shunga erishish kerakki, odamlar, ayniqsa, ota-onalar va o'quvchilar uni rostgo'y, halol, pokiza, sog'lom fikrli, shafqatli va muruvvatli, insonparvar kishi sifatida e'tirof etsinlar". Ta'lim-tarbiya birligi va axloq masalalariga yetuk tarbiyashunos olim sifatida yondashgan olim Abu Rayhon Beruniy o'zining pedagogika va psixologiyaga oid qimmatli fikr-mulohazalarini va ma'rifiy-didaktik qarashlarini bayon etib, ilm hamda ma'rifat sari intiluvchi tolib va muallimlarga deydiki: "Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko'r qilib qo'yadigan nafs va turli buzg'unchi holatlardan, qotib qolgan turli eski urf-odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko'zlikni quli bo'lishdan ozod bo'lmog'i darkor" .

Alisher Navoiy yosh avlod tarbiyasini har qanday tasodifiy murabbiyga ishonib topshirib bo'lmasligini aytib, o'qituvchi shaxsiga nisbatan yuksak talablarni qo'yadi. Navoiy o'zining "Mahbub-ul qulub" asarida ta'limiy-tarbiyaviy fikrlari hamda o'qituvchi shaxsi, uning ma'naviyatiga doir qarashlarini keltirib o'tadi. Navoiyning fikricha: "O'qituvchi faqatgina dars beruvchi, bilim beruvchi emas, balki mahoratli tarbiyachi bo'lishi lozim. Muallim nodonlikdan, mutaasiblikdan, johillikdan yiroq bo'lishi, haqiqiy muallim olimlar orasida eng sara "malak qiyofali" kishi bo'lishi, ya'ni sof ko'ngilli, pok qalbli, insofli, karam-muruvvatli, odobli, vafoli, kishilikning eng yaxshi va oliyjanob hislatlarini o'zida aks ettiruvchi bo'lishi kerak" .

G'.G'ofurov, N.Hakimov va B.Alievlar o'zlarining "Madaniyat va jamiyat" kitobida "madaniyat" tushunchasining quyidagi o'ziga xosliklarini ta'kidlab o'tishadi: "Madaniyat tushunchasida moddiy va ma'naviy boyliklar hamda inson ruhiy olami ifodalanadi. Shu bois madaniyat tarkibida uch asosiy qatlam mavjud:

1) insoniyatning muntazam aqliy va jismoniy faol ijodiy faoliyati;

2) moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqish, iste'mol qilish (foydalanish) va asrash;

3) qadriyatlar, axloqiy tushunchalar, huquqiy amallarning hayotga tadbiq etuvchi ijtimoiy tuzilmalar.

Madaniyat – faol ijodiy faoliyatdir. "Inson faol ijodkorlik orqali rivojlanadi va taraqqiyotga erishadi. Ijodkorlik – inson ma'naviy-ruhiy faoliyatining chegaralarini kengaytiradi. Inson ijodiy ko'nikmalar, aqliy va jismoniy mehnat orqaligina ijodkorlik maqomiga ega bo'ladi".

Pedagog olima Oynisa Musurmonovaning ta'kidlashicha esa, "Madaniyat jamiyat taraqqiyoti darajasini xarakterlovchi, ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida mujassam bo'ladigan tizim bo'lib, shaxsning ijtimoiy va ma'naviy mazmunini tashkil etadi. Bunda madaniyat shaxs va uning faoliyati o'rtasidagi

o’zaro ta’sirga doir qonuniyatlar, shu jumladan shaxs va jamiyatning borliqqa bo’lgan madaniy munosabatlarining paydo bo’lishi, rivojlanishi, shaxsning talabi, qiziqishi, xohishiga mos ravishda uning madaniy faoliyatini tashkil qilish yo’llari, ma’naviy madaniyatning o’ziga xos xususiyatlari tizimi, shaxsning ma’naviy rivojlanishi va ma’naviy madaniyatini shakllantirish qonuniyatlari majmuidan iborat”.

Yuqoridagi ta’riflardan ma’lum bo’ladiki, madaniyat - bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma’naviy

boyliklar majmuigina bo’lib qolmay, ayni paytda u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalaydi, ya’ni, jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig’indisi madaniyatda gavdalanadi. Umumiy bir soha sifatida madaniyatga tizimli yondashuv bir-biriga ta’sir etuvchi turli madaniyat sohalarining o’ziga xos xususiyatlarini qismlarga bo’lib emas, balki ularni yaxlit tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Tizimli yondashuv tadqiqotning juda ko’p uslublaridan foydalanishga imkon yaratadi. Ya’ni, ayrim bir uslublar bilan olingan natijalarni boshqalariga qarama-qarshi qo’ymasdan xulosa chiqarishga asos bo’ladi.

Kasbiy bilimlar o’qituvchi kasbiy madaniyatini rivojlantirishda asosiy hisoblanadi. O’qituvchining bilimi, bir tomondan, o’zi o’qitadigan fanga, ikkinchi tomondan, talabalarga qaratiladi. Kasbiy bilimlar mazmunini o’quv fani hamda uni o’qitish metodikasi, psixologik va pedagogik jihatdan tashkil qilinadi. Kasbiy pedagogik bilimlarning o’ziga xos jihatiuning majmuaviyligi hamda integrativligidan iborat. Kasbiy bilimlar asosida o’qituvchining harakatlari, odatlari, o’z faoliyatiga asoslangan qonuniyatlari va tamoyillarini belgilab beruvchi pedagogik tafakkuri shakllanadi.

Pedagog-mutaxassis kadrlarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish va ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish orqali ularning o’zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu tendentsiya so’ngi vaqtlarda xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan “pedagogik dunyoqarash” (pedagogical worldview) muammosiga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlarning ko’payishiga sabab bo’lmoqda. Darhaqiqat, jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va madaniy tabiatining doimiy o’sish va o’zgarishda ekanligi zamonaviy mutaxassislardan, xususan, pedagog-o’qituvchilardan o’z kasbiy qadriyatlari va shaxsiy e’tiqodlariga ega bo’lishni, nafaqat o’zining, balki o’zga madaniyat turlarini ham qabul qila bilishni, madaniy an’analar va ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq pedagogik dunyoqarashi va qobiliyatlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Maktab o’qituvchisining kasbiy-shaxsiy jihatdan o’z mavqeini o’zi belgilashi, o’z-o’zini tarbiyalash, o’z-o’zini takomillashtirish, o’z-o’zini rivojlantirish

va “o’z-o’zini mukammal darajadagi mutaxassis” sifatida uning mohiyati va ahamiyatini anglash, pedagogik mahoratning serqirra usullarini egallash muhim vazifasi ekanligiga alohida e’tibor berilgan. Bu o’qituvchilarning kasbiy madaniyatini oshirib borishdagi murakkab va og’ir yo’ldagi birinchi, lekin oxirgi qadam emas. U o’qituvchining o’z-o’zini tarbiyalashi, o’z-o’zini mukammallashtirishi va o’z-o’zini rivojlantirishiga asos bo’ladi.

Maktab o’qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus pedagogik- ularning birinchisida o’qituvchilarni kasbiy professiogramma bilan tanishtirish, keyingi ikkitasida kasbiy madaniyat mazmuni bilan bog’liq muhim pedagogik-psixologik xislatlar va jarayonlarni rivojlantirish ishlarini amalga oshirish ko’zda tutilgan. Mashg’ulotlar kichik 12-15 kishilik guruhlarda o’tkazilishi tavsiya qilinadi.


Maktab o’qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirishda “kasbiy madaniyat” va “kasbiy madaniyatni rivojlantirish” tushunchalariga mualliflik nuqtai nazaridan quyidagicha ta’riflar keltirildi: “Kasbiy madaniyat – bu mutaxassisning kasbiy o’z-o’zini aniqlash, kasbiy motivatsiya, kasbiy yo’nalganlik, kasbiy tajriba va mahoratning yuqori darajada rivojlanganligini belgilab, mustaqillik, erkinlik, ijodiy faollik, qabul qilinayotgan qarorga nisbatan mas’uliyat, o’quvchilarga nisbatan hurmat ko’rsatish hamda samarali pedagogik faoliyatni tashkil etish uchun zarur axloqiy sifat va fazilatlar bilan bog’langan”.

Kasbiy madaniyatni rivojlantirish – pedagogik faoliyat rivojining muhim tavsifini o’zida ifoda etib, ta’lim jarayonida pedagogik yondashuv, strategik maqsad va vazifalarni to’g’ri belgilash, qarorlar qabul qilish, ta’lim jarayonini loyihalashtirish, innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish, ta’limni boshqarish hamda boshqaruv usullari, metodlari va tamoyillaridan samarali foydalanish orqali shaxs faolligini oshirish, o’z – o’zini namoyon etish imkoniyatini kengaytirish, jamiyat talablariga muvofiq faol harakatlanish va samarali muloqot ko’nikmalarini o’zlashtirish, egallagan bilim, ko’nikma va malakalarini amaliyotga tadbiq eta olish qobiliyatidir.

Kasbiy madaniyatni rivojlantirish jarayoni insondagi motivlar bilan bevosita bog’liq bo’lib, uning mohiyati - inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchada ifodalanadi. Motivatsiya esa “xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni” bo’lib, unga tashabbus, yo’nalganlik, tashkilotchilik, qo’llab-quvvatlash kiradi.

Maktab o’qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish bilan bog’liqlikda motivlar birinchidan, kasbiy muvaffaqiyatga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo’l va usullar tanlashga yordam beradi. Kasbiy

madaniyatni rivojlantirish xususiyatlari bilan bog’liqligini inobatga olgan holda maktab o’qituvchilarining ham kasbiy motivlari turli yosh davrlarida turlicha bo’ladi.



Kasbiy madaniyat pedagogik faoliyatning asosiy manbai bo’lib, o’qituvchining ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Kasbiy madaniyatni rivojlantirish – jamiyat va millatning ichki hayoti va idrokini mujassamlashtiruvchi qudratli kuch, inson va jamiyat rivojlanishining asosi sifatida umuminsoniy madaniyatning asosiy negizi sifatida iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o’zgarishiga kuchli ta’sir etadi.

O’qituvchi kasbiy madaniyatining shakllanishi ularda kasbiy mahorat, ijodkorlik ko’nikmalarini hosil qilish, muomala madaniyatini tarkib toptirishdan iborat bo’lib, kuzatuvchanlik, ijodkorlik, ilg’or pedagogik tajribalarni mustaqil o’zlashtirish, o’qish va o’qitish jarayonida diqqatni taqsimlash, psixik holatlarini

boshqara olishni ta’minlaydi. Maktab o’qituvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirish jarayonining rivojlanganlik darajasini aniqlashga yo’naltirilgan pedagogik faoliyat tashkil etilgan. Ko’zda tutilgan maqsadga erishishda o’qituvchilar faoliyatini pedagogik kuzatish, suhbat, anketa so’rovlari, shuningdek, o’quv va ma’naviy-ma’rifiy ishlar mohiyatini yorituvchi hujjatlarni o’rganish kabi metodlardan foydalanilgan. Bularning barchasi tadqiqotning asosiy yo’nalishi va dasturini muayyan darajada aniqlashtirilgan;

Kompetentsiyaviy yondashuv asosida maktab o’qituvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning tashkiliy-funktsional modeli hamda texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan maxsus kurs-dasturlariga binoan ta’limiy tajriba-sinov ishlari olib borilgan. Bunda o’qituvchilar va o’quvchilar faoliyatini bevosita va bilvosita pedagogik kuzatish, ular ishtirokida refleksiv-rivojlantiruvchi texnika mashqlarini bajarish, hamkorlikda o’qitish, maxsus pedagogik-psixologik trening mashg’ulotlarining yo’lga qo’yilishi, o’z-o’zini baholash kabi metodlar yordamida o’qituvchilarda kasbiy madaniyatga doir sifatlarning rivojlantirilishiga katta ahamiyat qaratilgan. Nazariy tadqiqotlar natijasida aniqlangan ilmiy yechimlar modulli ishlanmalar yaratishda amaliy qo’llanilgan va aniqlashtirilgan. Kasbiy madaniyat pedagogik faoliyatning asosiy manbai bo’lib, o’qituvchining ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.

2. Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat (Ibratli so’zlar). Toshkent: Fan, 1993. – 248 b.

3. Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. Asarlar. 15-tom. – Toshkent: Fan, 2005. – 244 b.

4. Akbarov N. Texnika oliy o’quv yurtlari talabalarida kasbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari. Ped.fan.nomzod....dis. – T.: 2008. – 6 b.

5. Jumayeva G. T. Psychological-pedagogical characteristics and structural components of the development of professional culture among school teachers web of scientist: international scientific research journal 213-222 p. ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 5, May, 2023. https://wos. academiascience. org/index.php/wos/article/view/3931

6. Jumayeva.G.T. Maktab o’qituvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogic tizimini takomillashtirish. Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi, 3/(2022), 378-380b.

7. Jumayeva G.T. Maktab o’qituvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish: Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi . – Termiz., 2022. – 30 б.

8. Jumayeva G.T. Maktab o’qituvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari va tarkibiy komponentlari. Ta’lim, fan va innovatsiya. Jurnal, 2-son.2022. esijournal.uz. T. 76-80 b.

9. Mahkamov U.I. Yuqori sinf talabalarida axloqiy madaniyatni shakllantirishining pedagogik asoslari. Ped.fan. doktori. ... diss. – T.: 1998. –B. 28.

10. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. Ped. fan. dok. ...diss. avtoref. – T.: 1993. –B.48.2.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish muammosining dolzarbligi va nazariy asoslari, maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish jarayoni, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zini o'zi qadrlash, reflektiv va ijodiy fikrlash, qiymat-gnoseologik va faoliyat-ijodiy tahlil qilinadi. tuzilmalar, tarkibiy qismlarning mazmuni ta'kidlangan. Maqolada, shuningdek, maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari va tarkibiy qismlari ko'rsatilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье анализируются актуальность и теоретические основы проблемы развития профессиональной культуры педагогов, процесс развития профессиональной культуры педагогов школы, самоконтроль, самооценка, рефлексивно-творческое мышление, ценностно-гносеологические и деятельностно-творческие структуры содержимое компонентов подсвечивается. Также в статье представлены психолого-педагогические особенности и компоненты развития профессиональной культуры школьных учителей.

SUMMARY

This article analyzes the relevance and theoretical foundations of the problem of developing the professional culture of teachers, the process of developing the professional culture of school teachers, self-control, self-esteem, reflective and creative thinking, value-epistemological and activity-creative structures, the content of the components is highlighted. The article also presents the psychological and pedagogical features and components of the development of the professional culture of school teachers.

РАҚОБАТБАРДОШЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА ТАЪЛИМ МУАССАСАСИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ БЕЛГИЛАШДА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАР

Ботиров Ҳ. Х.
А.Авлоний номидаги педагогларнинг касбий ривожлантириш ва янги методикаларга ўргатиш миллий-тадқиқот институти
Doctor of Philosophy (PhD)

Таянч сўзлар: асосий ва қўшимча фаолиятлар, баҳолаш, илм-фандаги муаммолар ва ечимлар.

Ключевые слова: основная и дополнительная деятельность, оценивание, проблемы и решения в науке.

Key words: main and additional activities, assessment, problems and solutions in science.

Ҳар доим ҳам таълим муассасаларининг сер даромадли бўлиши уларнинг таълим бозорида рақобатбардошлигини билдирмайди. Хусусан айрим таълим муасссалари йиллар давомида де-юре рабақотбардош бўлиб келган бўлса, дефакто монополистик кўринишда таълим муассасси сифатида фаолият юритган, бунга юридик, ҳарбий таълим йўналишлари мисол була олади. Йиллар давомида ушбу таълим муассасаларини битирганлар давлатнинг яхши лавозимларида ёки ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ишга жойлашганлиги сабабли мазкур таълим йўналишлари аҳоли учун жозибадор бўлиб келган.

Таълим муассасасининг фаолият турлари технологик ёндашувга мувофиқ икки гуруҳга бўлинади - асосий (таълим, битирувчиларни ишга жойлаштириш, кадрларнинг малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш) ва ёрдамчи (ўқитишнинг инновацион технологияларини ишлаб чиқиш, ўқув дастурларини режалаштириш, ўқитувчилар таркиби, молиялаштириш).

Таълим муассасасига нафақат барча фаолиятларнинг йиғиндиси сифатида, балки ўзаро боғлиқ фаолиятлар тизими сифатида ёндашишимиз керак. Агар айрим фаолиятлар ўзгартирилса, қайта кўриб чиқилса ёки ҳатто баъзи фаолият турларини бекор қилинса, тизимда рақобат муҳитини яратиш ёки ривожлантириш мумкин. Рақобат муҳитининг тўғри йўлга қўй-

илганлиги таълим муассасасида фаолият яхши ташкил этилганлиги билан кўринади.

1. Таълим муассасасининг асосий ва қўшимча фаолият турлари

Асосий фаолият турлари	Ўқитиш технологиясини ривожлантириш (янги методикаларни қўллаш)	**Қўшимча фаолият турлари**	Педагог-кадрларни малакасини ошириш
	Ўқув жараёнини замонавий технологиялар билан таъминлаш		Маънавий-тарбиявий ишларни даврий олиб бориш
	Профессионал педагог-кадрларни ўқув жараёнига жалб этиш		Таълим муассасасининг инфратузилмаси яхшилаш
	Консалтинг ва маркетинг		Битирувчиларни ишга жойлаштириш

2. Таълим муассасасини баҳолашнинг умумий кўриниши

Жамият ва давлатнинг баҳоси	**Таълим муассасаси фаолиятининг қиймати**
Истеъмолчи (ўқувчи, талаба) баҳоси	
Иш берувчиларнинг баҳоси	
Рақибларнинг баҳоси	

Таълим муассасасининг фаолияти қуйидаги мажбурий талабларга эга бўлиш керак:

истеъмолчиларнинг талабини жамиятнинг ижтимоий, иқтисодий манфаатларига мос равишда қондириш;

истеъмолчилар эҳтиёжини қондирадиган янги таълим хизматлари ва дастурларини яратиш имкониятларини излаш;

истеъмолчилар манфаатларига зид бўлган таълим дастурларидан воз кечиш;

таълим муассасасининг ёки мамлакатнинг ижтимоий ривожланишига манфаатларига хизмат қиладиган таълим дастурларини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиши;

доимий равишда ахборот ва билимларни олиш, қайта ишлаш ва жорий этиш технологияларини излаб топиши.

Таълим муассасасининг рақобатбардошлиги нафақат асосий қадриятлари бўлган ўқув фаолияти билан, балки ихтиролар, ижодкорлик, илм-фан-

ни тижоратлаштириш муваффақияти билан белгиланади. Бу ҳам таълим муассасасининг рақобатбардошлигига бўлган янги ёндашув ҳисобланади.

Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви ва янги технологик ривожланиш жараёнида дунё бозорларида рақамли технологияларни жорий этиш ва аҳолининг ижтимоий-иқтисодий, ўсиб бораётган муаммоларини ҳал қилиш усулларида тобора рақобатнинг кучайишига олиб келмоқда. Ушбу масалаларнинг асосий ечими илм-фан ва инновациялар соҳасида ривожланган мамлакатлар тажрибасини ўрганиш, халқаро рақобатбардошликка эришиш, тўпланган институционал муаммоларнинг янги ечимларини излаб топишдан иборатдир.

Илм-фан соҳасида рақобатбардошликни таъминлаш учун зарур бўлган қуйидаги асосий муаммолар мавжуд:

давлат учун устувор бўлган тадқиқотлар эмас, балки амалиёти етарли даражда синалмаган тадқиқот ишаларнинг аниқ якуний натижа (маҳсулот) олиш имконини бермайдиган функционал вазифалар доирасидаги молиялаштирилади;

ички ҳамда жаҳон бозорларига илмий ишланмалар ва янги технологияларни татбиқ этиш ишлари самарали даражада эмас;

инновацион йўналишларни ташкил этиш юзасидан тажриба ва кўникмалар тўлиқ шаклланмаган;

илм-фанни натижаларнинг иқтисодий таҳлили тўлиқ йўлга қўйилмаган. Илмий ташкилотларнинг раҳбарияти илмий тадқиқот натижаларини тижоратлаштириш, рағбатлантириш бўйича етарли кўникмаларга эга эмас;

илмий салоҳиятни ривожлантириш бўйича хусусий илмий-тадқиқот институтларини очишда расмий тақиқи бўлмасада, амалда рухсат беришмайди. Илм-фанга хусусий сектор маблағларини жалб қилиш бозорларда рақобатбардошликка эришиш ва уни сақлаб қолишнинг асосий омили;

ўқувчи-ёшларни илм-фанга жалб этиш ишлари суст ташкил этилган, фан ва таълим тизими ўртасида интеграция даражаси паст, тадқиқотчилар меҳнатининг моддий, ижтимоий ва маънавий жиҳатдан етарли даражада қўллаб-қувватланмайди;

интеллектуал фаолият натижаларини хўжалик айланмасига киритишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий механизмлари ривожланмаган. Тадбиркорларнинг интеллектуал фаолият натижаларини жорий этишдан манфаатдорлиги юқори даражада эмас;

илм-фан ва илмий фаолиятга молиявий ресурсларнинг етарли даражада йўналтирилмаётган. Ҳозирги кунда илм-фан ва илмий фаолиятга

йўналтирилаётган маблағ мамлакат ялпи ички маҳсулотининг атиги 0,2 фоизини ташкил қилади;

илмий ташкилотлар ва олий таълим муассасалари, умумий ўрта таълим муассасалари ўртасидаги алоқаларнинг сўст, таълим, фан ва ишлаб чиқаришнинг мустаҳкам интеграцияси таъминланмаган;

илмий-тадқиқот ишлари натижаларини тижоратлаштириш даражасининг юқори эмас;

олий таълимдан кейинги таълим, квота тизими ва илмий даража беришда аттестация жараёнларида бюрократик тўсиқлар оқибатида юқори малакали илмий кадрлар тайёрлаш талаб даражада эмас;

илмий ташкилотларнинг асосан пойтахт атрофида марказлашган ва ҳудудларда замонавий илмий лабораторияларнинг мавжуд эмас. Деярли 90 фоиз илмий-тадқиқот лабораториялари Тошкент шаҳрида шаклланган;

илмий базани технологик жиҳатдан жиҳозлаш даражасининг юқори эмас;

илмий ташкилотлар ўртасида рақобатнинг ривожланмаганлиги, уларнинг миллий рейтинги ва йиллик баҳолаб бориш тизими тўлиқ жорий этилмаган. Аксарият илмий ташкилотлар фан йўналишларида монополист сифатида фаолият юритади, илм-фан йўналишларида рақобатчи сифатида намоён бўла олмаяпти;

мустақил илмий экспертлар жамоаси шаклланмаган. Илмий-техник кенгашлардаги «манфаатлар тўқнашуви» лойиҳаларга берилаётган хулосаларнинг холислиги ва сифатига салбий таъсир қилмоқда;

илм-фандаги ютуқларнинг етарли даражада тарғиб қилинмайди;

олимларнинг жаҳоннинг нуфузли маълумотлар базаларида индексациядан ўтган юқори импакт факторли жаҳон журналларида мақолалар чоп этиш даражаси паст.

Таълим тизимлари ва ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш соҳаларининг ўртасида рақобат билан боғлиқлик мавжуд. Бир томондан ривожланишни стратегик соҳалар амалга оширса, иккинчидан томондан инновацион фаолиятни таълим муассасалари томонидан амалга оширилади. Шундай қилиб, ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш соҳаларнинг рақобатбардошлиги таълим муассасаларининг рақобатбардошлиги билан инновацион ривожланиш стратегиясига боғлиқдир.

Таълим хизматлари бозорида рақобат тенденцияларининг оқибатлари бор, уларни айрим вазиятларда уларни ўзгартириш қийин. Бозор иқтисодиёти талабларига ҳар бир шахс, компания, таълим муассасаси ва жамият мослашиши, унга бўйсуниши керак.

Агар таълим муассасалари фаолияти маълум муддат тўхтаб қолса ёки кечикса ёки янгиликдан заифроқ бўлса, улар ортда қолиб, рақобат муносабатлари кириша олмайди. Бундай оқибатлар таълим муассасалари, биринчи навбатда, мамлакат учун тўғридан-тўғри хавф туғдиради, чунки ривожланган мамлакатлар таълим муассасалари камида 30 йил давомида материаллар, янги биотехнологиялар, ишлаб чиқариш, ахборот ва коммуникациялар соҳасида илмий ва технологик инқилоблар таъсири остида бўлган. Замонавий илмий ва технологик кашфиётлар ҳар бир инсон тақдирига таъсир кўрсатадиган улкан ўзгаришларнинг бошланиши ҳисобланади. Улар янги жамият-ахборот асрининг туғилишига асос бўлиб, у бутун кучини иқтисодий ўсишга сарфлайди. Жамият инновацион бўлиши керак ва бу таълим муассасалари ва ишлаб чиқариш ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг калитидир.

Глобаллашув хусусийлаштиришни талаб қилади, барчаси хусусий сектор назорати остида бўлади – ишлаб чиқариш корхолари, банклар, суғурта компаниялари, касалхоналар, мактаблар, университетлар, маданият. Хусусийлаштириш мамлакатларнинг моддий ва номоддий ресурсларидан бозор талаблари манфаатларида энг самарали фойдаланиш имконини беради.

Агар таълим муассасалари рақобатбардош бўлмаса, унда улар глобал, технологик ва тижорий курашда рентабилик имкониятига эга бўлмайди, чунки бошқа ҳар қандай рақобатбардош таълим муассасаси уни бозордан чиқариб юбориши мумкин. Бозорда кўпроқ даромад олиш учун биринчи рақамли рақобатчи керак. Рақобатбардошликка бўлган эҳтиёж чекланмаган ва бутун жаҳон таълим тизимига тааллуқлидир.

Яқин вақтгача таълим муассасалари ўртасидаги тақлид рақобати одат тартибнинг бир қисми эди. Бугунги кунда, энди тақлид қилиш эмас, балки ўз мавқеини эгаллаш учун кураш тенденциясидир, бунда мактаблар ва университетлар молиялаштириш, айниқса, хусусий молиялаштириш учун бир-бири билан рақобатлашиши керак.

Таълим хизматлари ёки илмий кашфиётлар бозорида уларнинг иккита асосий функциясига таъсир қилади: тадқиқот ва ўқитиш.

Табиийки, ишлаб чиқариш ташкилотлари билан алоқалар нафақат бугунги кунда зарур, балки таълим муассасаларининг кейинги ҳаёти учун асосдир. Бундан ташқари, фан ва технологияларнинг илмий интенсивлиги ошганлиги сабабли ташкилотларда тадқиқотлар билан шуғулланишга зарурат пайдо бўлади.

Бундай алоқаларни ташкил этишда қуйидагилар муаммолар мавжуд:

мамлакатимиз тадбиркорлик субъетлари самарадорлик ва маҳсулдорликни оширишда илм-фаннинг ўрни ҳақида етарлича маълумотга эга эмас;

корхоналарининг аксариятида янги технологияларни ишлаб чиқиш ва жорий этиш учун сармоявий имкониятлари юқори эмас;

таълим муассасаларининг корхоналар билан ҳамкорликка асосланган ривожланиш стратегияси мавжуд эмас;

таълим билан ишлаб чиқаришни интеграциялаштирган тадбиркорлик субъетлари учун солиқ қонунчилигида имтиёзлар назарда тутилмаган.

Кўп жиҳатдан, таълим муассасалари ва корхоналарнинг ўзаро муносабатларига уларнинг бир қанча муаммоларининг мавжудлиги тўсқинлик қилади. Моддий база ачинарли, ташқи кўриниши жозибали эмас, кенг кўламли тадқиқотлар ўтказишга шароит йўқ, ўқитиш сифати паст. Хусусий тадбиркорлар давлат таълим муассасалари билан ўзаро ҳамкорлик қилишни исташмайди, чунки давлат таълим муассасалари уларни асосан ҳомий сифатида кўради.

Табиийки, бу муаммоларнинг барчаси таълим муассасалари автономиясига таъсир қилади. Бу таъсир давлат таълим муассасаларини бошқаришда яққол намоён бўлади.

Таълим муассасаларида докторлик диссертацияларининг кўпайиши билан уларлар сифатининг ўсиши ҳақида эмас, балки илмий даража мақомининг жозибадорлиги таъсир этади. Айрим педагогларнинг назария билан чегараланади, улар инсон капиталини ва ижтимоий қадриятларни ишлаб чиқиш ва давлат иқтисодиётининг ўсиш стратегиясини усули ҳақида ҳеч қандай тасаввурга эга бўлмайди. Бу ҳолат мамлакат иқтисодиёти учун кенг кўламли мутахассисларни тайёрлашда таъсирини олиб келиши мумкин.

Дарҳақиқат, кўпгина таълим муассасалари юқори технологиялар, энергетика, телекоммуникация, автоматлаштириш, информатика, тиббиёт, оғир ва енгил саноат соҳасига кўпроқ эътибор қаратиш лозим.

Эҳтимол билимларни сотишнинг энг самарали усули ишлаб чиқарииш ва улар билан боғлиқ технологияларни бажариш натижасида пайдо бўлади. Технология жаҳон бозорида компанияларнинг рақобатбардошлигига хизмат қилиш учун ишлатилади. Фикримизча таълим корхона ва ташкилотларнинг рақобатбардошлиги учун хизмат қилиши керак. Қолаверса, бу бутун мамлакатнинг ягона мақсади ва сиёсати бўлиши керак.

Бутун дунёдаги таълимни модернизация қилиш жараёнининг асосий мақсади - юқори малакали инсон ресурсларини шакллантиришдан иборат

бўлиб, улар кўпчилик ривожланган мамлакатлар компанияларига зарур бўлиб, уларнинг асосий вазифаси жаҳон бозорларида рақобатбардошлигини оширишдир. Мамлакат иқтисодиёти ва корхоналар эҳтиёжлари тобора мослашиб, ўз мақсадлари ва мазмунини доимий равишда янгилаб борадиган таълим муассасалари билан бир хил узвий боғланиши керак. Шу аснода таълимини модернизация қилиш глобаллашув жараёнининг долзарб муаммоларига ва зиддиятлари билан боғлиқдир.

Хулоса қилиб айтганда, таълимда глобаллашув, таълим ташкилотининг рақобатга қобилияти, кадрлар салоҳияти, ўқув ва тадқиқот фаолиятлари, таълим ташкилотлари билан корхоналар интеграцияси, таълимни хусусийлаштириш каби муҳим масалалар таълим соҳасида рақобат муҳитини яратиш ва ривожланишига хизмат қилади.

Адабиётлар:

1. Бурда М. Институты рынка труда и экономические реформы в Центральной и Восточной Европе. // Безработица, структурная перестройка экономики и рынок труда в Восточной Европе и России. М.: Инфра-М. 1995. С. 240.

2. Дадаев, Я.Э. Коммерциализация новых знаний и понятие «академический капитализм» / Я.Э. Дадаев, З.М.Закриева // Вестник Тверского государственного университета. Серия: Экономика и управление. – 2021. – № 2(54). – С. 227–239.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги ПФ-6097-сон Фармони билан тасдиқланган Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси, 2-боб.

4. Hogan A., Thompson G. Commercialization in education. In: Oxford research encyclopedia of education / G.W. Noblit (ed.). Oxford University Press, United Kingdom, 2017, p. 1–19.

РЕЗЮМЕ

Рақобатбардошликни таъминлашда таълим муассасасининг асосий ва қўшимча фаолиятлари таҳлил қилинган, таълим муассасасини баҳолашда умумий кўринишнинг ўзига хос хусусиятлари очиб берилган. Илм-фандаги муаммолар ва ечимларни рақобат муҳитини яратиш билан боғлиқ вазиятлар ўрганилган.

РЕЗЮМЕ

Анализируются основная и дополнительная деятельность образовательного учреждения в обеспечении конкурентоспособности, выявляются особенности общего представления в оценке образовательного учреждения. Исследуются ситуации, связанные с созданием конкурентной среды для задач и решений в науке.

SUMMARY

The main and additional activities of an educational institution in ensuring competitiveness are analyzed, the features of the general presentation in the assessment of an educational institution are revealed. Situations related to the creation of a competitive environment for tasks and solutions in science are investigated.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ ФАННИ ЎРГАНИШГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШ МЕТОДИКАСИ

Машрабжонов У. А.
Қўқон давлат педагогика институти, ўқитувчиси

Таянч сўзлар: ппсихология, педагогика, гипотеза, функция, нейтрал.
Ключевые слова: психология, педагогика, гипотеза, функция, нейтральность.
Key words: psychology, pedagogy, hypothesis, function, neutral.

Ўқитишга оид қонуниятлар талабаларнинг ўрганишга бўлган қизиқишларини ошириш масаласини амалий ҳал қилиш учун хизмат қилади. Муҳим умумий қонуният эса ўқувчиларнинг билим олишга қизиқишлари уларнинг билим даражасига ва ўқувчиларнинг ақлий фаолият усулларини шаклланишига боғлиқдир. Таъкидлаб ўтиш жоизки, билим мустаҳкамлигини таъминлаш дидактика талабларидан биридир. Гуманитар фанлар ихтисослиги учун математика бўйича дастур устида ишлашда тарих, психологик, педагогика, филология факультетларининг биринчи ва иккинчи курс талабаларининг билим ва кўникма даражалари ўрганилди.

Олиб борилган тажрибадан кўзланган асосий мақсад ўқувчиларнинг математик фикрлаш даражасини, мактабда олинган математик билимларни ҳамда умуммаданий қобилиятларини текшириш ва баҳолаш; Математик билим даражаси мазкур масала таҳлили учун тўлиқроқ маълумот олиниши керак бўлган бир неча ҳолатларга боғлиқ.

Ижтимоий-гуманитар фанлар факультети талабаларининг математик тайёргарлик даражасини ўрганиш бўйича олиб борилган тажрибада билимларни таҳлил қилишнинг қуйидаги воситаларидан фойдаланилди: тестдан ўтказиш, сўровнома ҳамда суҳбат натижалари таҳлили.

Е.В. Шикинанинг фикрича, “талабаларни тест-синови ва сўровномадан ўтказиш (турли шаклда) талабалар ва ўқитувчи ўртасида норасмий муносабат ўрнатишнинг самарали воситаси бўлиб чиқди. Қоида бўйича, талабалар томонидан берилган жавоблар холис ва бевосита хусусиятга эга бўлади, гарчи баъзида мутлақо кутилмаган ҳолатлар ҳам учраши мумкин”.

Гуманитар фанлар факультети талабалари математика фанидан кириш имтиҳонларини топширмайди, шунинг учун биринчи машғулотларда билим даражасини аниқлаш учун фан бўйича кўникма ва малакалар назорат қилинади.

Талабаларга умум-ўрта таълим мактабда ўқитиладиган математика фанининг турли бўлимларидан бир нечта топшириқларни ўз ичига олган, шахсни ҳар томонлама тарбиялашда муҳим аҳамиятга эга бўлган топшириқлар берилади.

Умумтаълим мактабининг математика фани ўқув дастури ичидан масалалар ечишда қўлланадиган саволлар танлаб олинди. Назорат ишида мураккаб саволлар берилмади, барча таклиф қилинган савол-топшириқлар оддий мактаб ўқув дастури даражасида эди.

Тажрибада жами бўлиб 213 нафар талаба қатнашиб, булардан тарих факултетининг 1-курсидан 76 нафар, филология факультетининг 2-курсидан 70 нафар, психология ва педагогика факултетининг 1-курсидан 67 нафар талаба синовлардан иштирок этди.

Психология-педагогика факультетида математика фанидан ўтказилган назорат иши натижалари 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал

Психология-педагогика факультетида математика фанидан ўтказилган назорат иши натижалари

Баҳо	аъло	яхши	қониқарли	қониқарсиз	Жами
Талабалар сони	11	18	20	18	67

Ушбу тўпламнинг танланмасининг миқдорий хусусиятини топамиз.

Формуладан фойдаланиб, олинган маълумотларнинг ўрта арифметик қийматини ҳисоблаймиз:

Қуйидаги формула ёрдамида тасодифий миқдор дисперсиясини ҳисобланг:

Дисперсия танланмасини ҳисоблаш учун биз ҳисоблаш жадвалини тузамиз.

2-жадвал

5	11	1,67	2,789	30,679
4	18	0,67	0,449	8,082
3	20	-0,33	0,109	2,180

2	18	-1,33	1,769	31,840
Жами	67			72,781

Д=72,781/67=1,086

3-жадвал

Тарих факультетининг назорат иши натижалари

Баҳо	аъло	яхши	қониқарли	қониқарсиз	Жами
Талабалар сони	26	13	14	23	76

Ушбу маълумотларнинг ўртача арифметик қиймати:

Тасодифий миқдор дисперсиясини ҳисоблаш учун 4-ҳисоблаш жадвалини тузамиз.

4-жадвал

5	26	1,45	2,1025	54,665
4	13	0,45	0,2025	2,6325
3	14	-0,55	0,3025	0,0915
2	23	-1,55	2,4025	55,2575
Жами	76			112,6465

Д=112,6465/76=1,4822

5-жадвал

Филология факультетининг назорат иши натижалари

Баҳо	аъло	яхши	қониқарли	қониқарсиз	Жами
Талабалар сони	21	16	19	14	70

Ушбу тўпламдан олинган танланманинг миқдорий хусусиятини топамиз.

Формуладан фойдаланиб, олинган маълумотларнинг ўрта арифметик қийматини ҳисоблаймиз:

Тасодифий миқдор дисперсиясини ҳисоблаш учун 6-ҳисоблаш жадвалини тузамиз.

6-жадвал

5	21	1,37	1,8769	39,415

4	16	0,37	0,1369	2,1904
3	19	-0,63	0,3969	7,5411
2	14	-1,63	2,6569	37,1966
Жами	70			86,3431

Тасодифий миқдор дисперсиясини топамиз:

Д=86,3431/70=1,2335

Барча факултетлар кесимида назорат ишлари натижалари 7-жадвалда келтирилган.

7-жадвал

Талабаларнинг математик тайёргарлик даражасини ўрганиш бўйича ўтказилган тажрибанинг миқдорий натижалари

Талабалар сони	**Баҳо**				**Жами**
	аъло	**яхши**	**қониқарли**	**қониқарсиз**	
Иштирокчилар (фоизларда)	58 (27,23%)	47 (22,07%)	53 (24,88%)	55 (25,82%)	213

“Аъло” баҳо олган ўқувчилар сони 27,23%, “яхши” – 22,07%, “қониқарли” – 24,88% ва “қониқарсиз” – 25,82%.ни ташкил қилади. Билим сифати 49,3 фоизни ташкил этади.

Турли ижтимоий-гуманитар фанлари факультети талабаларининг математик тайёргарлигининг унчалик катта бўлмаган даражада фарқланишидан иборат нол гипотезани (фараз) текшириб кўрайлик. Тўплам танланмаларини жуфт-жуфт қилиб таққослаймиз. Илгари сурилган фараз (Гипотезани) текшириш учун биз тасодифий миқдорнинг умумий тўпламини иккита ўртача қийматини солиштириш учун тахминий мезондан фойдаланамиз. (1)

Ҳажмлари мос равишда *н=67* ва *м=76* га тенг бўлган иккита мустақил танланма учун ўртача танланма 3,33 ва 3,55, танланманинг тасодифий миқдор дисперсиялари Д= 1,086 ва Д= 1,4822 деб топилди.

0,05 қийматлилик даражасида нол гипотезани текширамиз:

$Х_0$:*М(Й)=М(Й)*

Рақобатдош гипотеза шаротида:

М(Х)>М(Й).

Тахминий текширувларнинг кузатилган қийматини ҳисоблаш учун мавжуд маълумотларни формула (1) га қўйиб, қуйидагиларни ҳосил қиламиз: кузатилган қиймат

Критик соҳа тенгламанинг ўнг томонида жойлашган. Критик нуқтани тенглик орқали топамиз:

Лаплас функцияси жадвалига кўра, қуйидагиларни ҳосил қиламиз:

<бўлгани учун, 1,5754<1,64- нол гипотезани рад этиш учун ҳеч қандай сабаб йўқ. Бошқача айтганда, танланманинг ўртача қиймат унчалик фарқ қилмайди.

Қўлланилаётган мезон тахминий бўлгани учун биз гипотезани Пирсон корреласияси мезони ёрдамида текширамиз.

бўлиб, (2), унда

$ф_1$ ва $ф_2$ - биринчи ва иккинчи саралаш частоталари,

$н_1$ ва $н_2$ – саралаш ҳажми.

Бизнинг ҳолатда, танланма ўлчамлари 67 ва 76 га тенг.

Тақсимотнинг критик нуқтаси жадвалига кўра 0,05 қийматлилик даражаси ҳамда уч даражадаги эркин тақсимот критик нуқтаси 7,8 га тенг.

Кузатилган қиймат жадвалдаги қийматдан камроқ, яъни. 1,97<7,8, шунинг учун нол гипотезани рад этиш учун ҳеч қандай сабаб йўқ. Бинобарин, таққосланаётган факультет талабалари билимлари сезиларли даражада фарқ қилади.

Энди нол гипотезани 0,05 қийматлилик даражасида ҳажмлари мос равишда 70 ва 76 га тенг бўлган иккита мустақил танланмада текширамиз.

Найдены выборочные средние, равные 3,63 и 3,55, выборочные дисперсии -

Д=1,4822ХД=1,2335. 3.63 ва 3.55 га тенг бўлган танланмаларнинг ўртача қийматлари топилди, танланманинг тасодифий миқдор дисперсиялари Д=1.4822ХД=1.2335 эди.

Қуйидаги нол гипотезани кўрамиз: *М(Х) > М(Й)* рақобатдош гипотезага кўра $Х_0$: *М(Х) = М(Й)*.

Бизнинг ҳолатимизда тахминий мезоннинг кузатилган қийматини ҳисоблаб, қуйидагни ҳосил қиламиз:

Критик соҳа тенгламанинг ўнг томонида жойлашган. Критик нуқтани тенглик орқали топамиз:

Лаплас функцияси жадвалига кўра, қуйидагиларни ҳосил қиламиз:

<, яъни 0,415<1,64, иккала танланма ҳам бир хил умумий тўпламга тегишли деган хулосага келдик.

Гипотезани Пирсон мезони ёрдамида текширамиз. Бунинг учун (2) формуладан фойдаланамиз.

Жадвалга кўра, 0,05 қийматлилик даражаси ва уч даражадаги тақсимот эркин критик нуқтаси 7,8 ни ташкил қилади. 0,86<7,8 бўлгани учун кузатилган қиймат жадвалдагидан кичик, ноль гипотезани рад этиш учун ҳеч қандай сабаб йўқ.

Нол гипотезани ҳажмлари мос равишда 67 ва 70 га тенг бўлган иккита мустақил танланмада текширамиз.

Танланманинг ўртача арифметик қийматлари мос равишда 3.33 ва 3.63 ҳамда унинг тасодифий миқдор дисперсияси Д= 1.086 ва Д=л.2335 экани аниқланди. 0,05 қийматлилик даражасида ноль гипотезани текширамиз:

М(Х) > М(Й) рақобатдош гипотезага кўра X_0*: М(Х) = М(Й).*

Тахминий мезоннинг кузатилган қийматини ҳисоблаш учун топилган миқдорий хусусиятларни формула (1) га алмаштириб, қуйидагини ҳосил қиламиз:

Лаплас функцияси жадвалидан критик қийматни топамиз: . <бўлгани учун, 1,5754<1,64- нол гипотезани рад этиш учун ҳеч қандай сабаб йўқ. Яъни, иккала танланманинг танланмавий ўртача қийматлари бир-биридан катта фарқ қилмайди.

Пирсоннинг “хи-квадрат” аломати ёрдамида (2) формуладан фойдаланиб, нол гипотезани текширамиз:

тақсимотнинг критик нуқтаси жадвалига кўра, критик нуқта 7,8 га тенг.

Кузатилган қиймат жадвалдаги қийматдан камроқ, шунинг учун нол гипотезани рад этиш учун ҳеч қандай сабаб йўқ.

Олинган натижалар таҳлили гуманитар факультетларнинг турли ихтисослиги бўйича таҳсил олаётган талабаларининг математик тайёргарлиги сезиларли даражада фарқ қилади деган хулосага келишга имкон беради.

Курсни амалга оширишда юзага келган жиддий қийинчилик ижтимоий-гуманитар фанлари факултетининг баъзи талабаларининг математика фанига бўлган салбий муносабати билан боғлиқ.

“Гуманитар йўналишда ўқиётган талаба билан тўғридан-тўғри мулоқот қилишда эътибордан четда қолдириб бўлмайдиган бир ҳолат бор. Бу унинг математика фанини ёқтирмаслигидир”, – таъкидлайди,Е.В. Шикин (211, 36). Талабанинг ушбу фанни ўрганишга бўлган иштиёқи ҳақида фикр билдириш учун биринчи дарс-машғулотларида унинг ўрганилаётган фанга нисбатан муносабатини аниқлаш тавсия этилади.

Шу мақсадда ижтимоий-гуманитар фанлар факультетларида талабаларнинг мазкур фанни ўрганишга бўлган муносабатини аниқлаш мақ-

садида сўровнома ўтказилди. Талабаларга қуйидагича сўровномалар берилди (1-илова). Сўровнома саволларига берилган жавоблар иштирокчиларнинг педагогик ва психологик хусусиятларини баҳолашга ёрдам берди. “Маълумки, ўқув жараёнига у ёки бу тарзда ихтиёрсиз жалб қилинган ҳар бир талаба ўз хоҳиши билан у ерда қолмайди. Талабаларнинг таклиф этилаётган фанларга ва олинган маълумотларни қайта ишлашга бўлган муносабати ноаниқ ёки бир хилда эмас” (211, 65).

Дарҳақиқат, талабаларнинг математика фанини ўрганишга нисбатан муносабати хилма-хилдир.

Сўровнома натижалари қуйидагича хулоса чиқаришга асос бўлиб хизмат қилди:

Тарих факультетида талабаларнинг 32,8 фоизи математика фанини ўрганишга нисбатан ижобий, 43,4 фоизи нейтрал, 23,8 фоизи эса салбий муносабатда экани маълум бўлди.

Филология факултетида талабаларнинг 54,3 фоизи фанни ўрганишга нисбатан ижобий, 25,7 фоизи нейтрал, 20 фоизи салбий муносабатда бўлган.

Психология ва педагогика факултетида талабаларнинг эса 26,9 фоизи математика фанига нисбатан ижобий, 53,7 фоизи нейтрал, 19,4 фоизи салбий муносабат билдирган. Талабалар ўртасида ўтказилган сўров натижалари 8-жадвалда келтирилган.

8-жадвал

Талабалар томонидан берилган жавобларнинг миқдорий кўрсаткичлари

ОТМда фанни ўрганишга нисбатан талабаларнинг муносабатлари	**факултет**			
	Тарих факультети	**Филилогия факультети**	**Психология-педагогика факультети**	
Ижобий	25 (32,90%)	38 (54,29%)	18 (26,87%)	81 (38,03%)
Нейтрал	33 (32,90%)	18 (25,71%)	36 (53,73%)	87 (40,84%)
Салбий	18 (23,68%)	14 (20%)	13 (19,40%)	45 (21,13%)

Ижтимоий-гуманитар фанлар бўйича сўровномада иштирок этган талабаларнинг умумий сонидан 38,03 фоизи талаба мазкур фанга нисбатан

ижобий, 40,84 фоизи нейтрал, 21,13 фоизи эса салбий муносабат билдирган.

Олинган натижалар таҳлили шуни кўрсатадики, сўровномада қатнашган барча талабаларнинг бешдан бир қисмидан кўпроғи математика фанини ўрганишга нисбатан салбий муносабат билдиради. Талабаларнинг бу қисми математика фанига нисбатан иккинчи даражали фан сифатида қарайди, айрим ҳолларда ушбу фанни инкор этади.

Адабиётлар:

1. Галиной Ивановной Щукиной.Проблема познавательного интереса в педагогике. -М., Педагогика, 1971. - 351 с.

2. Mashrabjonov, U. (2022). Improving students'educational activities through case studies. Open Access Repository, 8(11), 213-216.

3. Mashrabjonov, U. (2023). The importance of competence during the process of education. Gospodarka i Innowacje., 33, 387-390.

4. Mashrabjonov, U. (2022). Development of cognitive activity of students on the branch of humanitarian education. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(11), 286-290.

5. Mashrabjonov, U. (2022). Development of students'interests in the field of humanities education. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 4, 533-537.

6. Mashrabovich, J. A. Z. (2023). Aholini turmush darajasi hamda dunyoning ayrim davlatlarida aholini hayot darajasi haqida. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 15, 52-54.

7. Mashrabovich, J. A. Z. (2023). Global iqlim o'zgarishi sharoitida farg'ona vodiysida suv resurslaridan foydalanish. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 15, 49-51.

8. Mashrabovich, Z. A. On the Status of Studying Carbot and Tomato Agrotsenoses Insects in Central Asia and Uzbekistan.

9. Mashrabovich, Z. A. On the Status of Studying Carbot and Tomato Agrotsenoses Insects in Central Asia and Uzbekistan.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада олий таълим муассасалари талабаларнинг фанни ўрганишга бўлган муносабатини тадқиқ этиш бўйича фикр мулоҳазалар келтирилган ва амалда исботланган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлены и подтверждены на практике взгляды на исследование отношения студентов вузов к изучению науки.

SUMMARY

In this article, the opinions on researching the attitude of students of higher education institutions to learning science are presented and proved in practice.

PEDAGOGIKA KOLLEJLARIDA DUAL TA'LIM SHAKLI ASOSIDA TA'LIM OLUVCHILARGA "BOLALAR ADABIYOTI VA IFODALI O'QISH" FANIDAN PEDAGOGIK AMALIYOT UCHUN BERILADIGAN TOPSHIRIQLAR VA ULARNING BAJARILISHI

Raximova F. I.
Bag'dod pedagogika kolleji o'quv va tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

Таянч сўзлар: professional ta'lim, o'rta professional ta'lim, kollej, pedagogika, dual ta'lim, ta'lim dasturlari, maxsus fan, pedagogik amaliyot, amaliy topshiriqlar.

Ключевые слова: профессиональное образование, среднее профессиональное образование, колледж, педагогика, дуальное образование, образовательные программы, специальный предмет, педагогическая практика, практические задания.

Key words: vocational education, secondary vocational education, college, pedagogy, dual education, educational programs, special subject, pedagogical practice, practical assignments.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmonining 16-bandida 2021/2022 o'quv yilidan amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini joriy etish maqsadida professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim tizimi joriy etilishi va dual ta'lim tizimi asosida ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan o'quvchilarga ish beruvchi bilan tuzilgan muddatli mehnat shartnomasiga muvofiq ish haqi to'lanishi belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi 163-son qarori bilan Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida nizom tasdiqlandi.

Dual ta'lim – ixtisoslashgan ta'lim turi bo'lib, talaba nazariy bilimlarni ta'lim muassasasida, amaliy ko'nikmalarini esa bevosita ish joyida, ya'ni tashkilotda olish imkoniyatini yaratib beradi. Dual ta'limining asosiy maqsadi ta'lim muassasasi va ish beruvchilarning sa'y-harakatlari amaliy mashg'ulotlarning asosiy omili sifatida birlashtirib, talabalarning kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishdan iborat.

Professional ta’limda dual ta’limi tizimini joriy etishdan asosiy maqsad o‘quv va ishlab chiqarish jarayonlarini birlashtirish orqali mutaxassislarni tayyorlashda amaliy yo‘nalishni kuchaytirishga asoslanadi, bu esa o‘quv muassasalari bitiruvchilarining kasbiy harakatchanligini sezilarli darajada oshiradi. Dual ta’lim tizimi samarali va moslashuvchan mexanizm bo‘lib, turli soha korxonalari tomonidan bozor iqtisodiyotining zamonaviy sharoitlarida talab yuqori bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi.

Bu yerdagi dual ta’limning o’ziga xos tomoni shundaki, ta’lim muassasasida olingan nazariy bilimlarni ayni vaqtda ish joyida amalda sinab ko’rish imkoni mavjud.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan ishlashda bolalar adabiyoti katta o’rin tutadi. Bolalar ertaklar, she’r, hikoyalar eshitishni yaxshi ko’radilar. Bolalar adabiyoti, avvalo o’zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go’zalligi, tilning ifodaliligi, she’riy so’zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta’sir ko’rsatadi. Badiiy adabiyotning qimmati bolaning har tomonlama o’sishiga ta’sir ko’rsatadi. Badiiy adabiyot bolaga jonajon o’lka tabiatini, kishilarning mehnati va hayotini, ularning qilayotgan ishlari va ko’rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqealar, bolalarning o’yinlari, ermaklari va qilayotgan mehnatlarini hikoya qilib beradi. Kishilarning ichki dunyosini yoritib, ularning xarakterlari, his-tuyg’ulari, xatti-harakatlarini, shuningdek, tasvirlangan hodisalarga yozuvchining munosabatini ko’rsatib, badiiy adabiyot asarlari bolalarda hayajonlanish, asar qahramonlariga achinish yoki salbiy qahramonlarni qoralash kabi shaxsiy munosabatlarini ifodalashni uyg’otadi. Eng yaxshi badiiy adabiyot asarlari bolalarda biror narsaga yaxshi-yomon, adolatli-adolatsiz, to’g’ri-noto’g’ri deb, o’zlariga xos baholashga yordam beradi.

Ma’lumki, pedagogika kollejlarida dual ta’lim asosida tashkil etilgan guruhlar o’quv jarayoni jadvali bo’yicha haftaning 3 kunida ta’lim muassasasida nazariy bilimlarni egallashsa, haftaning uch kunida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogic amaliyot o’taydilar. Bundan kelib chiqadiki, bitta guruhning bir o’quv yili uchun o’quv yuklamasi umumiy 1440 soat (36*40) bo’lsa shundan 720 soati nazariy fanlar, 720 soati esa pedagogik amaliyotni tashkil etadi. Demak, har bir fan uchun o’quv rejada ajratilgan soat miqdori bilan shu fandan amaliyot uchun ishlab chiqilgan topshiriqlar soati teng bo’lishi kerak.

“Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi” kasbi bo’yicha mutaxassis tayyorlashda “Bolalar adabiyoti va ifodali o’qish” fani muhim ahamiyatga ega. “Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi” kasbining amaldagi o’quv-

me’yoriy hujjatlari, shuningdek, ta’lim dasturlarida “Bolalar adabiyoti va ifodali o’qish” fani uchun 60 soat ajratilgan. Demak, pedagogik amaliyot uchun 60 soatlik amaliy topshiriqlar ishlab chiqish kerak. Pedagogik amaliyotning kunlik 6 soat o’tilishini hisobga olib (60/6=10) 10 ta amaliyot uchun topshiriqlar ishlab chiqilishi lozim.

Quyida pedagogika kollejlarida dual ta’lim asosida “Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi” kasbi bo’yicha mutaxassis tayyorlashda “Bolalar adabiyoti va ifodali o’qish” fanidan pedagogik amaliyot o’tash uchun amaliy topshiriqlar berilgan.

t/r	Amaliy mashg’ulot mavzusi	Amaliyot natijasi
Bolalar adabiyoti va ifodali o’qish		
1	MTTlarda bolalarni xalq og’zaki ijodi janrlari bilan tanishtirish	Mavzuviy rejalashtirish asosida maqol, topishmoq va tez aytishlar yodlatadi, mazmunini tushuntiradi va bolalarga yod oldiradi (vatan,mehnat odob-ahloq haqida maqollar), janrlar asosida kitobcha tayyorlaydi.
2	Turli yosh guruhlarda syujetli-rolli o’yin va dramalashtirish markazida o’zbek xalq ertaklarini sahnalashtirish bo’yicha jihoz va niqoblar tayyorlash	Mavzuviy rejalashtirish asosida berilgan ertaklarni sahnalashtirish uchun jihozlar va niqoblar tayyorlash ko’nikmalari shakllanadi. O’zbek xalq ertaklari asosida bolalarga syujetli-rolli kitobcha-taqdimot tayyorlash. (Zumrad va Qimmat, Tulki bilan turna)
3	Turli yosh guruhlari uchun rus va jaxon xalq ertaklarini tanlash, asar ustida ishlash va sahnalashtirish	Syujetli- rolli o`yinlar uchun jihozlar tayyorlaydi va o’tkazadi Rivojlanish markazi uchun mavzu bo’yicha ko’rgazmalar, jihozlar tayyorlay oladi.(Sholg’om, Bo’g’irsoq va Qizil shapkacha ertagi)
4	Turli guruhlarda bayram ertaliklariga tayyorgarlik ko`rish.	Hafta mavzusi bo’yicha bolalar bilan ishlashda tarbiyachiga yordam beradi. Tarbiyachi bilan birgalikda kastyum va maskalar tayyorlaydi, dastur ssenariysini bolalar bilan takrorlaydi.

5	Bolalar uchun yaratilagan badiiy asarlar, sherlar va ularning mualliflari haqida ma'lumot. (Quddus Muhammadiy, Zafar Diyor, Ergash Raimov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Farhod Musajon…)	Mavzuiy rejalashtirish asosida berilgan topshiriqlar bo'yicha Q.Muhammadiyning "Dum" she'ri, Zafar Diyorning "Gunafsha" she'rini yod oladi va bolalarga yodlatadi.
6	Katta va tayyorlov guruhlarida Alisher Navoiy ruboiylaridan ifodali o'qib berish va yod oldirish	Mavzuiy rejalashtirish asosida berilgan ruboiylarni ifodali o'qib beradilar va yod oladilar .(A.Navoiy "Bo'lmas emush")
7	O`zbek bolalar shoirlari Anvar Obidjon va Tursunboy Adashboyevning bolalar uchun yaratilgan she'rlaridan ifodali o'qish va yod olish	Mavzuiy rejalashtirish asosida berilgan "Novvot", 'Mayiz", "Bog'chadagi sevgi" sherlarini ifodali o'qish va yod oldirish.
8	Bolalar uchun yaratilagan badiiy asarlar, sherlar va ularning mualliflari haqida ma'lumot	Bolalar uchun yaratilgan she'rlar, mayda va yirik motorikani rivojlantiruvchi harakatli she'rlardan yod olish va ifodali o'qish
9	Jahon bolalar adabiyoti- Sharl Perro, H.K.Andersen, Aka-uka Grimmlar ertaklari bilan tanishish	Syujetli- rolli o`yinlar uchun jihozlar tayyorlaydi va o'tkazadi Rivojlanish markazi uchun mavzu bo'yicha ko'rgazmalar, jihozlar tayyorlay oladi.(Qizil shapkacha ertagi asosida kitobcha tayyorlash)
10	Ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish. Oila qadriyatlarini o`rganish.	Bolalar bilan "Mening onam..." mavzusidagi suhbatga onalarni taklif qiladi, o`tkazadi. Ota-onalarga farzand tarbiyasi bo'yicha tavsiyalar beradi, savolnomalar o'tkazadi, natijasini tahlil qiladi.

Bolajak tarbiyachilar haftada 3 kun ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni egallashsa, 3 kun maktabgacha ta'lim tashkilotida yuqorida ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida amaliyot olib borishadi.

Ushbu berilgan topshiriqlar bolajak MTT tarbiyachilariga bolalarni badiiy adabioytni sevishga o'rgatish, badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi «Umumiy o’rta, o’rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PF-5313-sonli Farmoni.

2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 avgustdagi “O’zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang’ich, o’rta va o’rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”gi 466-sonli qarori.

3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi 163-sonli qarori.

4. Xo’jaqulov S. Ta’limni modernizatsiyalash sharoitida dars berish sifatini takomillashtirish. Toshkent 2015 y.

5. Xolmuxamedov M. “Yuqori texnologiyalar sari intilgan mamlakat”. Sputnik O’zbekiston muxbiriga bergan intervьyusi, 2018 y.

6. Muslimov N.A. va bosh. Innovatsion ta’lim texnologiyalari– T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015 y.

7. Ro’zieva D. va bosh.Interfaol metodlar: mohiyati va qo’llanilishi, Met.qo’ll. – T.: TDPU, 2013 y

8. Dual ta’lim: O‘quv reja va o‘quv jarayoni grafigini ishlab chiqish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar: O‘.Alijonov. Toshkent 2021

9. Pravila organizatsii dualnogo obucheniya. AO “Almatinskiy texnologicheskiy Universitet” 2019

10. Das duale System der Berufsausbildung unter dem Einfluss der europäischen Berufsbildungspolitik. Entwicklungsprozesse und Herausforderungen. Bonn 2017

11. Metodicheskie rekomendatsii po oformleniyu i zapolneniyu dnevnika dualnogo obucheniya. Belgorod-2014

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada respublika professional ta’lim muassasalari pedagogika kollejlarida Dual ta’lim asosida qabul qilingan guruhlar o’quvchi va o’qituvchilari uchun “Bolalar adabiyoti va ifodali o’qish” fanidan pedagogik amaliyot uchun beriladigan amaliy topshiriqlar va ularning bajarilishi yuzasidan ualubiy tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлены практические задания и рекомендации по педагогической практике по предмету «Детская литература и выразительное чтение» для студентов и педагогов групп, принятых на основе дуального образования в педагогические колледжи профессиональных образовательных учреждений республики и их рекомендации. представлено дано

SUMMARY

This article presents practical tasks and recommendations on pedagogical practice in the subject «Children’s Literature and Expressive Reading» for students and teachers of groups accepted on the basis of dual education in pedagogical colleges of professional educational institutions of the republic and their recommendations. presented given.

O'QUVCHI -YOSHLARDA MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI RIVOJLANTIRISHDA OILANING ROLI

Mamaraimova Z.
Termiz davlat universiteti
"Pedagogika va ijtimoiy ish " kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: milliy iftixor tuyg'usi, bag'rikenglik, milliy qadriyatlar, milliy mafkura, oila, urf-odatlar.

Ключевые слова: чувство национальной гордости, толерантности, национальных ценностей, национальной идеологии, семьи, традиции.

Key words: a sense of national pride, tolerance, national values, national ideology, family, traditions.

Oila tarbiyasi - oilada otaona, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch - oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash. Oila qanchalik tartibli, uning a'zolari o'rtasidagi munosabat samimiy bo'lsa, Oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi. Oila tarbiyasida ota-ona obro'si, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo'ylikdan iborat bo'lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko'p qismi oilada o'tadi. Shu boisdan mavjud an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida bola asta-sekin kamol topib boradi. An'ana va marosim Oila tarbiyasining qudratli qurolidir. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Oila tarbiyasida yutuklarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egaligi, Oila tarbiyasi bo'yicha tajribalar alma-shishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga ham bog'liqdir.

Har bir ota-ona Oila tarbiyasida o'zlarining burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Normal oilaviy muhit, bolani kitob o'qishga, mehnat qilishga

oʻz vaqtida jalb etish ham Oila tarbiyasining muvaffaqiyati garovidir. Oilada ota yoki onaning yoʻqligi yoki ulardan birining ketib qolishi Oila tarbiyasiga katta zarar yetkazadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta'sir kuchi yoʻqoladi, Oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qat-tiq jarohatlanadi, u tajang, serjaxl, qoʻpol, dagʻal boʻlib qoladi, kattalarga ishonmay qoʻyadi, oʻqishi pasayib ketadi. Oila tarbiyasida otaning obroʻsi katta ahamiyatga ega. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan bog'lamasdan muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun Oila tarbiyasida maktab va ota-onalar oʻrtasidagi ta'limtarbiyaga oid birgalikdagi ishlari katta ahamiyatga ega. Otaonalarning oʻqituvchilar bilan boʻlgan uchrashuvlarida aytilgan fikrlar, ayniqsa qimmatlidir. Chunki ular oʻz farzandlari toʻgʻrisida koʻproq narsalarni bilib oladilar. Shuning uchun bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-ona oila bilan maktab oʻrtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi.

Bola maktabni tamomlagunga qadar otaona maktab bilan yaqin aloqa oʻrnatishi, farzandining darslarini oʻzlashtirishi, xulq-atvoridan xa-bardor boʻlib turishi, tarbiya masalalarida oʻqituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan soʻng nima bilan mashgʻulligi haqida oʻqituvchi va sinf rahbarini xabardor qilib turishi lozim. O'z navbatida oʻqituvchi va sinf rahbari ham bolaning oʻqishi, odobi, xulqi, maktabda oʻzini tuta bilishi haqidagi ma'lumotlarni ota-onaga yetkazishi, zarurat tugʻilganda paydo boʻlgan muammolarni birgalikda hal qilishi zarur. Farzandi maktabga borgan ota-ona maktab jamoasining a'zosi boʻlib qolishi kerak. Oʻqituvchi va sinf rahbari ham oʻz oʻquvchisining oilasi bilan mustahkam ham-korlikni yoʻlga qoʻymogʻi lozim. Oila tarbiyasida ota-onalarning mahalla faollari, mehnat faxriylari bilan hamkorliklari ham muhim. Oila tarbiyasi farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatli boʻlishi mumkin. Oila tarbiyasida har bir oila oʻziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

Barchamizga ma'lumki mustaqillik, milliy mafkura, milliy taraqqiyot kabi muqaddas qadriyatlarni xalq keng va teran idrok etmoqda. Qisqa vaqt ichida mamlakatimiz hayotida olamshumul oʻzgarishlar yuz berdi. Oʻzbekiston Respublikasining nomi xalqaro maydonda mustaqil davlat sifatida e'tirof etildi. Bu oʻzgarishlar odamlarning ongi va tafakkuriga ham ijobiy ta'sir etmoqda. Binobarin, oʻsib kelayotgan yangi avlod dunyoqarashida milliy iftixor tuygʻusi tarzida namoyon bo'lmoqda. Bu tuygʻuni rivojlantirish, barqaror e'tiqodga aylantirish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir.

Milliy iftixor tuygʻusining shakllanishiga asos boʻluvchi omil milliy oʻz-oʻzini anglashdir. Milliy oʻz-oʻzini anglash millatning rivojlanish va taraqqiyot tarixini yaxshi bilish, taraqqiyotning turli bosqichlarida erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlar asosini toʻgʻri talqin eta olish, milliy qadriyatlar mohiyatini

anglay olish, ijobiy milliy-mental xususiyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo’lish, salbiy xislatlar (masalan, mustaqil fikrga ega bo‘lmaslik, ota-ona yoki yaqinlarga tobe bo‘lib yashash, o‘ta andishalilik, qat’iyatning yetishmasligi)ni ko‘ra olish, milliy madaniyatning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rnini yetarli darajada baholash, Vatan taqdiri uchun befarq bo‘lmaslik, uning istiqboli uchun kurashish demakdir.

O‘zbekistonda ta’lim tizimining asosiy maqsad va mohiyatidan kelib chiqib shuni e’tirof etish mumkinki, yoshlar ongiga mustaqillikni mustahkamlash, xalqi bilan faxrlanish, milliy iftixor tuyg‘ularini singdirishda “pedagog-o’quvchi”, ”tarbiyachi-tarbiyalanuvchi” munosabatlarida mamlakatda ozod va obod Vatanni, erkin va farovon hayotni barpo etish bevosita o’quvchi-yoshlarga ham bog‘liqligini tushuntirishdir. Buni amalga oshirish uchun esa ta’lim jarayonida ularning jamiyat taraqqiyoti va ravnaqini ta’minlash,shuningdek, yoshlar tomonidan dunyoviy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi fanlar asoslarini o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj hamda qiziqishini qaror toptirishga e’tibor qaratish lozim. Yana bir muhim jihat shundan iboratki, yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda balandparvoz gaplar, quruq nasihatgo‘ylikdan qochish kerak. O’quvchilarning “kattalik hissiga” tayanib, Vatan va el-yurt taraqqiyotida ularning bevosita mas’ul ekanliklari, tarixda ota-bobolarimiz hayoti yuksak ma’naviyat egasi ekanligimizga asos bo‘lishini jiddiy turib, ularning shaxsiy fikrlariga qo‘shilgan holda, bo‘lajak ma’lum kasbkor egalari sifatidagi bilimlarini o‘rgangan tartibda yondashish kerak bo‘ladi. O’quvchi-yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda o’quvchi-yoshlar quyidagilarga e’tibor qaratsa maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

– o‘quv mashg‘ulotlarini olib borishda o’quvchilarning yoshi, tafakkuri, dunyoqarashi va qiziqishlarini hisobga olish;
– ta’lim-tarbiyaning ilg‘or, ta’sirchan vositalaridan, zamonaviy o‘qitish texnologiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish;
– ayrim tushunchalarni haddan ziyod soddalashtirish, ta’limning eskicha uslub va tamoyillarini qo‘llash natijasida fanning qadrsizlanishiga yo‘l qo‘ymaslik;
– ta’lim jarayonida tazyiq o‘tkazmasdan ma’rifiy asosda ish tutish, yoshlarning mustaqil va erkin fikrlash, bahs-munozara yuritish ko‘nikmalarini oshirishga e’tibor qaratish;
– o‘qituvchi va tinglovchilar o‘rtasida o‘zaro hamfikrlik va hamkorlik muhitini shakllantirish, mavzuning tushuncha va tamoyillarini sharhlashda hayotiy misollar, bugungi dunyoda ro‘y berayotgan voqealar tahlilidan, matbuot materiallaridan keng foydalanish;

– yoshlarda g‘oyalar o‘z ma’no-mohiyatiga ko‘ra; bunyodkor yoki vayronkor bo‘lishi haqidagi hayotiy va haqqoniy tasavvurlarni shakllantirish;
– milliy istiqlol g‘oyasining insonparvarlik mohiyatini ko‘rsatish asosida mustaqillik biz uchun eng oliy qadriyat, uni asrab-avaylash esa har birimizning muqaddas burchimiz ekanini o’quvchilarning qalbi va ongiga singdirish. Shu ma’noda, o’quvchi-yoshlar ongiga milliy iftixor tuyg‘usini singdirish masalasi millatning yutuqlari, obro‘-e’tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o‘z eliga, millatiga jonkuyar bo‘lish; o‘z millatining moddiy, ma’naviy merosini asrab-avaylash; xalq odatlari, an’analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o‘z millatiga mehr-muhabbatini amalda namoyon qilish; o‘zga millatlarni hurmat qilish; ajdodlar xotirasi oldida vorislik mas’uliyatini his qilish kabi tarbiya jarayonining jiddiy va kechiktirib bo‘lmas vazifalari bilan bog‘liq.

Masalan, Yaponiyada o’quvchilar xalq tarixi, adabiyoti, madaniyati, musiqasi, o‘ymakorlik san’atiga doir har qanday savolga bemalol javob qaytara olar ekanlar. Chunki shu sohalar maktabdanoq boshqa predmetlar qatori o‘qitilar ekan. Bolalar yoshlik paytidan e’tiboran o‘z xalqi tarixiga aloqador narsalarni ko‘proq bilishlari kerak.

Shunda ular boshqa xalqlar tarixini ham oson o‘zlashtiradi.Yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda asosan ular o‘qiydigan, o‘rganadigan barcha turdagi ma’lumotlar (kitoblar, ommaviy-axborot vositalari, muloqot jarayonlari, bevosita ularga o‘qitiladigan fanlar) – shakllanadigan yangicha tasavvurlar, yangicha tarbiya va yangicha dunyoqarash uchun zamindir.Oliy ta’lim muassasalari o’quvchilarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish nafaqat professor-o‘qituvchilarimizning, balki bevosita ota-onalarning savodxonligi, ularning tarbiyalanganlik darajalari bilan ham bog‘liqdir. Shaxs ma’naviyati, tarbiyasi, dunyoqarashi - asosan oiladan boshlanadi. Milliy iftixor tuyg‘usi dastlab farzandlarimizga bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mehri orqali singdiriladi.

Oilasini sevgan, yaqinlarini e’zozlagan tarbiyalanuvchi shaxs hyech qachon Vataniga qarshi bo‘lmaydi, uni sevadi, ardoqlaydi, kelajagi uchun kurashadi. Milliy iftixortuyg‘usi, avvalambor, o‘zbek oilasidagi tarbiya an’analari va ularni takomillashtirish, milliy qadriyatlarimizni turmush tarzining ajralmas bo‘lagiga aylantirish, o‘zaro muloqotda Sharqona madaniyat va zamonaviy shakllarni uyg‘unlashtirish, xalqimizga ota-meros mehnat tarbiyasi, uning farovon hayotning asosi sifatida qadrlanishiga erishishorqali shakllanib boradi. Ota-ona oilada bolaning nima ish bilan shug‘ullanishi,qanday kitoblarga qiziqishi, qanday filmlar tomosha qilishi, qanday musiqaga qiziqishi, kasb tanlashdagi intilishlari kabi harakatlarini kuzatib, ularni nazorat qilib, maslahatlar berib borishi lozim

bo‘ladi. Zamonamizning yana bir unchalik e’tibor qaratilmayotgan, lekin e’tibor berishni talab qiladigan tomoni shundaki, hozir o‘zbek oilalarida avvalgiday ko‘p bolalilik an’anasi kamayib bormoqda. Avval ko‘proq bolalar aka-ukalari, opa-singillari bilan yaqin bo‘lib, tarbiyada ularning ta’siri ko‘proq sezilgan bo‘lsa, hozirgi kunda asosan, ota-ona bitta yoki ikkita farzandining yaqin maslakdoshi bo‘lib qolmoqda. Bu o‘rinda, ayniqsa, ota-onaning savodxonlik darajasi ham inobatga olinishi kerak bo‘ladi. O‘zbek oilalarida tarbiyaning yana bir muhim jihati shundaki, bobolar va buvilar bola tarbiyasida bevosita ishtirok etadilar. O‘zbek farzandiga kattalarni hurmat qilish kerak, degan gap kam aytiladi, chunki unga ota-onasining o‘zidan kattalarga muomalasi, qariyalarni tashlab qo‘ymaslik, kasallarning holidan xabar olish, chorasizlarga yordam berishni jonli misollarda har kun ko‘radi. Bu xislatlar bizga ota-bobolarimizdan meros va bizning milliy iftixorimizdir. Tarixda ham, masalan, Amir Temur shahzodalarning tarbiyasi bilan yoshi ulug‘ buvilari shug‘ullanishlarini lozim topgan, Shohruh Mirzoning, nabiralari Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug‘bek Mirzolarning tarbiyasi bilan Saroy Mulk xonim shug‘ullanganlar. Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish joizki, o’quvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish jarayonida bu muammoning psixologik jihatlarini o‘rganish, yoshlarning dunyoqarashlari, qiziqishlari, iqtidorlarini inobatga olib, tarbiyachi va ota-onalarning ta’sirini kuchaytirish orqali harakat qilinsa, kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Xalq so‘zi.- 1995.-6 iyun; «Ma’rifat». - 1995. -7 iyun.
2. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 2018.
4. Тишков В. Очерки теории и политики этничности в России. - М.:
Институт этнологии и антропологии РАН, 1997, - С.165-166.
5. Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat (Ibratli so’zlar). Toshkent: Fan, 1993. - 248 b.
6. Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. Asarlar. 15-tom. - Toshkent: Fan, 2005. - 244 b.

РЕЗЮМЕ

Maqola o’quvchi-yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini rivojlantirishda oilaning roli masalalariga bag‘ishlangan. Muallif o‘zbekona milliy qadriyatlar negizini ifodalovchi o‘zbek xalqi fazilatlari turkumi bag‘rikenglikni ifodalovchi omillardan biri ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.

РЕЗЮМЕ

Статья посвящена роли семьи в воспитании у учащихся чувства национальной гордости. Автор подчеркивает, что набор качеств узбекского народа, лежащий в основе узбекских национальных ценностей, является одним из факторов толерантности.

SUMMARY

The article focuses on the role of the family in instilling a sense of national pride in students. The author emphasizes that the set of qualities of the Uzbek people, which is the basis of Uzbek national values, is one of the factors of tolerance.

SAVOD O'RGATISH DAVRIDA O'QUVCHILARNING INTELLEKTUAL BILISH FAOLIYATINI DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANIB TAKOMILLASHTIRISH

Karimova B. X.
TerDU Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasi
dotsenti v.b, p.f.b.f.d (PhD)

Tayanch so'zlar: Alifbo darsi, intellektual, bilish, faoliyat, didaktik o'yin, e'tibor, samara, maqsad, o'qituvchi, dolzab, tushuncha, bo'g'in, tovush, mas'uliyat, vazifa.

Ключевые слова: урок Азбуки, интеллектуальный, познание, деятельность, Дидактическая игра, внимание, эффект, цель, учитель, актуальность, понятие, слог, звук, ответственность, задача.

Key words: Alphabet lesson, intellectual, knowledge, activity, didactic game, attention, effect, goal, teacher, dolzab, concept, syllable, sound, responsibility, task.

Bugungi kunning dolzab masalalaridan biri bu o'quvchilarning savod o'rganish darajasi va ularni bilimli komil inson etib voyaga yetkazishdan iborat sanaladi. Shunday ekan ushbu maqsadlarning ilk tamal toshi Alifbo darslarida qo'yiladi. Bugungi dolzarb masalalardan biri ham Alifbo darslarining sifat samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bu borada boshlang'ich sinflar oldida mas'uliyatli vazifalar turadi.

Buning uchun mavzuda mo'jassam bo'lgan tushunchalarni tahlil qilish joiz. Ya'ni mazkur maqolada ham mavzu tushunchalarini izohlashga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, Aifbo darsi, intellektual, bilish, faoliyat, didaktik o'yin kabilar.

Avvalo ilk tushuncha mazmunini quyidagicha keltiramiz. Ya'ni Alifbo darsi mazmuni. Alifbo fani. Bu fan 31-dekabrgacha davom etib, unda o'quvchilar alifbodagi barcha unli va undosh tovush-harflar bilan tanishtiriladi. O'quvchilarning tovush va harfni yaxshi tanishlari, elementar o'qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun bo'g'inga bo'lish, bo'g'in chegarasini aniqlash, bo'g'indan tovushni ajratish, tovush va harf munosabatini aniqlash, kesma harflardan bo'g'in tuzish va o'qish, bo'g'in-tovush, tovush-harf tahlili kabi mashqlardan foydalaniladi.

Shuningdek, harf birikmalari ng, sh, ch, 2 tovushni ifodalaydigan j, tutuq belgisi (’) va jo‘ja, jurnal, jirafa, tong, so‘ng, bodring, choynak, shudring va shu kabi so’zlarni o’qishga o’rgatiladigan bosqich. Yuqoridagi kabi so’zlarni o’qish bilan bo’g’inlab o’qish malakasi takomillashadi: o’quvchilar talaffuzi va yozilishida farqlanadigan so’zlarni ham to’g’ri o’qishga o’rganadilar.

Savod o’rgatish mashqlarining asosiy turlari quyidagicha:

Tovush ustida ishlash.

Tovush savod o’rgatishning asosi bo’lib xizmat qiladi. Savod o’rgatish davrida so’z va bo’g’inlarni tovush tomonidan analiz va sintez qilish, tovush va ularning artikulyatsiyasini analiz qilish mashqlari o’tkaziladi, diktsiya (ravshan, burro gapirish).

I. Analiz mashqlari.

1. Nutq (gap)dan so’zni ajratish; so’zni aniq talaffuz qilish;

– bo’g’inlarga bo’lish va bo’g’inlarni aniq talaffuz qilish, urg’uli bo’g’inni ajratish va uni boshqa bo’g’inlardan farqlab, kuchli talaffuz qilib o’qish, maxsus tovushni ajratgan holda so’zni bo’g’inlab o’qish (aaaa-na, nooon, iiin, sssa-na, ki-yyyik, iiish).

2. Darsda o’rganiladigan yangi tovushni ajratish. Bunday tovushni birinchi marta ajratishning bir necha usuli bor:

– Bu jarayonda Omonashvili ishlab chiqqan usuldan ham foydalanish mumkin. Bunda tovush emas, harf asos qilib olinadi. O’quvchilar o’rganilgan harflar ichidan notanishini topadilar, so’ng uning o’qilishi va fonetik belgilari ustida ishlanadi:

Darsda yangi tovush birinchi marta ajratib, talaffuz qilingandan so’ng, odatda, shu tovush so’z boshida, o’rtasida, oxirida kelgan va aniq talaffuz qilinadigan so’zlar tanlanib, o’quvchilarga talaffuz qildiriladi.

3. So’zdagi tovushlarni sanash va ularning nomini tartibi bilan aytish, sonini aniqlash, bo’g’inlarni sanash: Olma - ol-ma; o-l-m-a - to’rtta tovush, to’rtta harf, ikki unli tovush, ikki undosh tovush, ikki bo’g’in. Bu usuldan o’quv yilining ikkinchi yarmida va keyingi sinflarda ham fonetik tahlil sifatida foydalaniladi.

II. Sintez mashqlari.

1. Tovush tomonidan analiz qilingan so’zni yoki bo’g’inni talaffuz qilish va uni kesma harfdan tuzish (yozish); shu so’z yoki bo’g’inni o’qish.

2. O’rganilgan undosh yoki unli bilan (na, ni, no; la, lo, li; ay, uy, oy, ...) bo’g’in jadvalini tuzish; bo’g’in jadvalini kitobdan yoki matndan o’qish.

Xulosa qilganda, faqat analiz yoki faqatgina sintez bilan kifoyalanib bo’lmaydi, ammo tafakkur faoliyatining u yoki bu turi yetakchi o’rin tutadi. O’quvchi so’zni analiz qilish bilan uni leksik ma’noga ega bo’lgan bir butunlik

sifatida anglaydi, bu - sintezdir; so'z sintez qilinganda uning tovush tarkibiga diqqat jalb etiladi, bu esa analizdir.

Umuman, savod o'rgatish jarayonida analitik-sintetik ishlar tizimi bolaning faol fikrlashini ta'minlaydi. Analitik-sintetik ishlar usuligina o'quvchilarning bilish mustaqilligini ta'minlaydi, "muammoli" vaziyat yaratadi, bolalarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni o'stiradi.

Tovush-harf tomonidan analiz va sintezni yengillashtiradigan foydali vositalar sifatida kesma harflar, kesma bo'g'inlar va harf terish taxtasi, shuningdek, abak (harakat qiladigan lentali ko'rgazma), kadoskop va shu kabi texnik vositalardan ham foydalaniladi; tovushlarning talaffuzi ustida ishlash uchun, shuningdek, yozib olingan ifodali nutqni (asosan, badiiy asarni) takroriy eshittirish uchun magnitafon yoki lingofon kabineti xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish uch yo'nalishda: so'z ustida ishlash, so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan.

Savod o'rgatish darslarida ham yuqoridagi uch yo'nalish bo'yicha ish olib boriladi.

Bolalar bu davrda, birinchidan, kiyim-kechak, ish qurollari, mevalar kabi predmetlar bilan tanishish yordamida so'zni ongli ishlatishga; ikkinchidan, turli sodda yig'iq gap (Bolalar yuguryaptilar), sodda yoyiq gap (Lola do'konga bordi), uyushiq bo'lakli gap (Anvar o'qidi va yozdi) tuzadilar. Ular bu ko'nikmalarni amaliy-mashqlar yordamida egallaydilar.

O'qish darslarida o'quvchilar rasmga qarab kichik hikoyacha tuzadilar, o'qituvchi savoliga to'liq javob berishga o'rganadilar. Alifbedagi rangli chiroyli rasmlar tevarak-atrofdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o'simliklarning nomini idrok etishga, bilib olishga yordam beradi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilarning talaffuzi ustida ishlash ham katta ahamiyat kasb etadi, chunki ko'pgina bolalar talaffuzida kamchiliklar bo'ladi: bir tovush o'rniga boshqasini (sh o'rniga s, r o'rniga l) talaffuz qiladilar, chuchuk til bilan duduqlanib gapiradilar, so'zdagi ayrim tovushni tushirib yoki boshqa bir tovush qo'shib talaffuz qiladilar, tovushlar o'rnini almashtirib qo'yadilar. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun logopedlar maxsus mashqlardan foydalanadilar. O'qituvchi ham har bir darsda va darsdan tashqari vaqtda o'quvchilar talaffuzini kuzatib borishi, kamchiliklarni aytib, to'g'ri talaffuz namunasini ko'rsatishi lozim.

Savod o'rgatish davrida o'quvchining intellektual bilish faoliyatiga alohida e'tibor qaratish lozim. Yani:

Bolalik - bu bolaga atrofdagi voqelik bilan tanishish imkoniyatini beradigan barcha aqliy jarayonlarning intellektual rivojlanish davri. Bola idrok etishni, fikrlashni, gapirishni o'rganadi; u ob'ektlar bilan harakat qilishning ko'plab usullarini o'zlashtiradi, muayyan qoidalarni o'rganadi va o'zini nazorat qila boshlaydi. Bularning barchasi xotira ishini o'z ichiga oladi. Bolaning rivojlanishida xotiraning roli juda katta. Atrofimizdagi dunyo va o'zimiz haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma va odatlarni egallash - bularning barchasi xotira ishi bilan bog'liq. Maktab ta'limi, ayniqsa, bolaning xotirasiga katta talablar qo'yadi.

Zamonaviy psixologiya bolalarning intellektual salohiyati genetik jihatdan aniqlanganligini va ko'p odamlar faqat o'rtacha aql darajasiga erishish imkoniyatiga ega ekanligini ta'kidlaydi. Albatta, rivojlanish uchun imkoniyatlarimiz cheksiz emas. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, agar «o'rtacha» intellektual qobiliyatlardan kamida bir oz samaraliroq foydalanilsa, natijalar barcha kutganlardan oshadi.

Didaktik o'yinlar bolalarning xotirasini rivojlantirishga, faoliyatning bir turidan boshqasiga o'tishga, boshqalarni tinglash va eshitish qobiliyatini rivojlantirishga, boshqa nuqtai nazarlarni tushunishga va idrok etishga yordam beradi.

Maktab o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun bola nafaqat ko'p narsani bilishi, balki izchil va yakuniy fikrlash, taxmin qilish, aqliy zo'riqishni ko'rsatish va mantiqiy fikrlash kerak. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishni o'rgatish bo'lajak talaba uchun juda muhim ahamiyatga ega va bugungi kunda juda dolzarbdir.

Kichik yoshdagi bolalarning mantiqiy fikrlashi va xotirasini rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanib, bolalarni maktab ta'limi oldimizga qo'yadigan muammolarni hal qilishga yanada muvaffaqiyatli tayyorlash mumkin.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish didaktik o'yinlardan foydalanish, zukkolik, boshqotirma, turli mantiqiy o'yinlar va labirintlarni echishni o'z ichiga oladi va bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Bu faoliyatda bolalarda muhim shaxsiy xususiyatlar shakllanadi: mustaqillik, topqirlik, zukkolik, qat'iyatlilik, konstruktiv qobiliyatlar rivojlanadi.

Bolalar o'z harakatlarini rejalashtirishni, ular haqida o'ylashni, natija izlashda taxmin qilishni, ijodkorlikni namoyon etishni o'rganadilar.

Didaktik o'yinlar bolalarning eng tabiiy faoliyatidan biri bo'lib, intellektual va ijodiy namoyon bo'lish, o'zini namoyon qilish va mustaqillikni shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar:

1. Didaktik o’yinlar tanlash va ulardan foydalanishda o’quvchilarning yosh xususiyatlari pedagogik jihatdan tayyorgarligi va bilim saviyasi hisobga olinadi;

2. Tanlangan har bir o’yin o’quvchilarga sistemali bilim berish, malaka va ko’nikmalar hosil qilish bilan birga ularning barkamol bo’lib yetishishiga va ruhan tetik o’sishiga qaratilgan bo’ladi;

«Kamera» o’yini

Xotira va e’tiborni rivojlantirish uchun o’yin.

1-variant: bolalarga bir soniya davomida istalgan tasvirli karta ko’rsatiladi, ular uni iloji boricha batafsil tasvirlashlari kerak.

2-variant: ba’zi bir syujet (30 soniya) tasvirlangan rasm ko’rsatiladi, undan so’ng birinchi rasmga o’xshash boshqa rasm beriladi, lekin ba’zi narsalar etishmayotgan yoki boshqa narsa bilan almashtirilgan. Nima o’zgarganini aytishim kerak.

Yuqori qarsak o’yini

Diqqat, xotirani rivojlantirish uchun o’yin.

Rahbar iboralar-tushunchalarni talaffuz qiladi - to’g’ri va noto’g’ri.

Agar ifoda to’g’ri bo’lsa, bolalar qarsak chaladi, to’g’ri bo’lmasa, oyoq osti qiladi.

Misollar: «Yozda har doim qor yog’adi.» Kartoshkani xom holda iste’mol qilishadi.» «Qarg’a ko’chmanchi qushdir.» Ma’lumki, bolalar qanchalik katta bo’lsa, tushunchalar qanchalik murakkab bo’lishi kerak.

Bola hayotida intellektual bilishni rivojlantirishning o’rni nimada?

Aqli rivojlangan maktabgacha yoshdagi bolalar yangi materialni tezroq yodlaydilar va o’zlashtiradilar, o’z qobiliyatlariga ishonchni his qiladilar va amaliyot ham ular ko’proq o’rganishni xohlashlarini ko’rsatadi. Bolalar fikrlashni, idrok etishni, gapirishni o’rganadilar, qoidalar tizimiga muvofiq o’zlarini boshqarishni o’rganadilar. Bularning barchasi xotira ishini talab qiladi, uning bolaning rivojlanishidagi rolini ortiqcha baholab bo’lmaydi. Xotiraning ishi o’zi va atrofidagi dunyo haqidagi bilimlarni o’zlashtirish, odatlar, ko’nikmalar va qobiliyatlarni to’plash bilan bog’liq. Ammo maktab ta’limi xotira ishiga ayniqsa talabchan, shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi juda muhimdir.

Zamonaviy psixologiya bolalarning intellektual salohiyati genetik jihatdan belgilanadi, shuning uchun aholining ko’pchiligi o’z aql-zakovatini faqat o’rtacha darajada rivojlantirishi mumkin degan fikrga asoslanadi. Albatta, inson taraqqiyotining imkoniyatlari cheksiz emas.

Ammo, amaliyot shuni ko’rsatadiki, agar siz o’rtacha aqlning mavjud imkoniyatlaridan biroz samaraliroq foydalansangiz ham, natija ajoyib bo’ladi.

Intellektual o'yinlar yordamida bolaning xotirasi rivojlanadi, unga bir faoliyatdan ikkinchisiga o'tish osonroq bo'ladi, u boshqalarni tinglashni, boshqa nuqtai nazarni idrok etishni va tushunishni o'rganadi.

Maktab o'quv dasturini muvaffaqiyatli bajarish uchun bola nafaqat ko'p narsani bilishi kerak, balki u uchun aniq va izchil fikrlashni, taxmin qilishni, mantiqiy fikrlash va aqliy zo'riqish qobiliyatiga ega bo'lishni o'rganish bir xil darajada muhimdir.

Bilish. Ushbu mulohaza har bir ta'lim oluvchiga zarurdir. Jumladan boshlang'ich sinf o'quvchilari ham nazarda tutiladi.

«Gnoseologiya» - sof falsafiy kategoriya. Uning nomi yunoncha gnosis – bilim, ilm va logos – ta'limot, fan so'zlaridan kelib chiqqan. So'zma-so'z uning ma'nosi – "Bilish haqidagi ta'limo (fan)", "ong haqidagi ta'limot (fan) degan ma'noni anglatadi. Gnoseologiya fanida insonning dunyoni bilish imkoniyati insonning o'zini anglash jarayoni bilishning bilmaslikdan bilim sari yuksalishi bilimlar tabiati va ularda aks etuvchi narsalarning o'zaro nisbati o'rgatiladi. Gnoseologiyaning maqsad va vazifalari, bilishning moxiyati va mazmuni to'g'risida zarur bilimlarga ega bo'lish mamlakatimizda bilimdon, xar jixatdan yetuk barkamol inson shaxsini shakllantirishda aloxida o'rin tutadi. Bilish nazariyasi bo'lajak mutaxassis-kadrlarda muayyan ilmiy layoqat va qobiliyatlarni shakllantirishga ko'maklashadi. Milliy mustaqillik yillarida gnoseologiya oldiga qo'yilayotgan eng muxim vazifalardan biri, ilmiy bilimlarning jamiyatimiz taraqqiyoti, tinchligi va farovonligi uchun xizmat qilishini ta'minlaydigan omil va mexanizmlarni o'rganish, Ulug' ajdodlarimizning ilmiy bilimlarni rivojlantirish borasida orttirgan tajribalarini keng ommalashtirishdir.

Faoliyat

Ma`lumki, inson o`z tabiati jihatidan faol (ya`ni har doim bir maqsad asosida harakat qiladigan) mavjudotdir. Ana shu jihatdan olganda odamning barcha psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik xususiyatlari uchun turli tuman faoliyatlarida namoyon bo`ladi. Faoliyat doimo organizm bilan muhitning o`zaro bir-biriga ta`sir etib turishining ifodasidir. Faoliyat deganda tirik organizmni ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faolligi tushuniladi.

Odam faoliyati hayvonlarning xatti-harakatlaridan tubdan farq qiladi. Hayvonlarning faolligi ularning nerv sistemasi va psixikasining rivojlanganligiga qarab birmuncha murakkab bo`lishi mumkin. Ammo ularning hayoti har qanday hollarda ham tashqi borliqning talabiga organizmning biologik moslashishi bilangina chegaralanadi. Odamning xulq atvori, faoliyati esa tamomila boshqacha xarakterdadir. Inson hayvonlar xatti harakatlaridan farq

qilib, avvalo ijtimoiy xarakterga egadir. Inson o`zining sa`yi harakatlarini ilk yoshidanoq, butun insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga yo`naltirib boradi. xatti harakatlarning bu turi shu qadar o`ziga xosli, uning ifodalash uchun maxsus termin faoliyat termini qo`llaniladi. Inson faoliyatiga xos bo`lgan xususiyatlardan yana biri, u bilish jarayonlari va iroda bilan chambarchas bog`liq bo`ladi, ularga tayanadi, bilish va irodaviy jarayonlarsiz yuz berishi mumkin emas. Faoliyat kishining anglanilgan maqsad bilan boshqarib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligi bo`lib hisoblanadi.

Inson faoliyatining ma`lum motivlari, maqsad va amalga oshiruv usullari bo`ladi. Inson faoliyati ma`lum motivlar asosida yoki motivlar uchun bajariladigan, ongli suratda tug`ilgan extiyojlar inson xatti-harakatini asosiy motivlaridir.

Motiv bu birinchidan insonni faoliyatga undaydi, ikkinchidan o`ziga xos jihatlarni namayon etadi va maqsadga erishish uchun zarur yo`l va usullarni tanlashga yordam beradi. Motivlarga ehtiyojlar, qiziqishlar, emotsiya va hislar, e`tiqod va ideallar, ustanovka va odatlar kirishi mumkin.

Агропедагогик компетенция-ҳар бир бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг касбий фаолиятининг муҳим таркибий қисмидир. Бу таълим воситалари ва методларини, талаба ва ўқитувчи ўртасидаги ўзаро муносабатлар шаклларини танлаш билан боғлиқ, бундан ташқари, агропедагогик компетенция талабаларда асосий компетенцияларни шакллантиришга ёрдам беради.

Бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг агропедагогик компетенциясининг мазмуни таркибий қисми Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш ва автоматлаштириш фанини ўқитишда муайян курс ва

тегишли олий таълим муассасининг ўқув предмети ўртасидаги алоқани ўрнатиш вазифаларидан бирини қўяди.

Бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг таянч концепцияси доирасида ва касбий тайёргарликнинг мазмуни ва таркибини ўзгартириш, «Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш ва автоматлаштириш» фани бўйича таълимнинг профессионал таълим муассаси компонентини кучайтириш орқали бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларига касбий таълимнинг назарий ва амалий таркибий қисмларини шахснинг турли даражадаги билим ва тажрибасини назарий умумлаштириш орқали такомиллаштириш таклиф этилади (1-расм).



1-расм. Бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий тайёрлашнинг компетенциявий тузилмаси

Шахсий тажрибанинг асоси айниқса мотивацион соҳани, метакогнитив тажрибани, ўзини ўзи англаш ва шахснинг ўзини ўзи англаш жараёнларини ривожлантириш тенденциялари кучайиб бораётган замонавий даврда табиий-гуманитар фанлар цикларининг педагогик шартлари, фан мазмуни, воситалари, шакллари ва технологиялари долзарб бўлиб қолади.

Бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисиларининг касбий билимлари ва кўникмаларига, шунингдек, бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассислари-

нинг касбий фаолияти мазмунига, унинг функцияларини белгилашга қўйиладиган умумлаштирилган талаблари мутахассиснинг энг муҳим касбий ваколатларини аниқлашга имкон берди.

Таълим ва бутун жамиятни ахборотлаштириш муваффақияти бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг виртуал (график визуализация ва 3Д-модел) технологияларини фойдаланиш малакасига боғлиқ. Виртуал (график визуализация ва 3Д-модел) технологияларини фойдаланган ҳолда бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисиларига ўқув дастурининг асосий фанларини сифатли ўргатишга, уларнинг ахборот маданиятини шакллантиришга, шунингдек, талабаларни виртуал (график визуализация ва 3Д-модел) технологияларининг мураккаб олами билан таништиришга тайёр ва қодир ўқитувчилар махсус тайёрланиши зарур.

Шундай қилиб, бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлаш сифатини оширишга касбий йўналтирилган таълимнинг таъсири ўрганилган кўплаб ишлар мавжуд. Шу билан бирга, шуни таъкидлаш керакки, қишлоқ хўжалиги соҳаси олий таълим муассасалари талабаларига виртуал (график визуализация ва 3Д-модел) технологиялари асосида «Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш ва автоматлаштириш» фани ўқитишда виртуал (график визуализация ва 3Д-модел) технологиялари воситаларининг дидактик имкониятларидан, хусусан, интернет хизматларидан фойдаланиш муаммоси бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг агропедагогик компетенциясини шакллантириш воситаси сифатида белгиланди.

Ўтказилган тажриба-синов ишилари натижаларига асосланган ҳолда бўлажак қишлоқ хўжалик мутахассисларининг агропедагогик компетенциясини мезонлар асосида самарадорлигини аниқлаш юзасидан ўтказилган тажриба-синов натижалари асосида талабаларнинг тажриба ва назорат гуруҳларидаги ўртача ўзлаштиришларини Стьюдентнинг математик-статистика методи ёрдамида таҳлил этдик. Тажриба-синовда тажрибадан олдин 622 нафар талабалар иштирок этиб, тажриба-синов гуруҳида 314 нафар талаба ва 308 нафар талаба назорат гуруҳида қатнашдилар. Худди шунингдек, тажиба якунида 619 нафар талабалар иштирок этиб, тажриба-синов гуруҳида 312 нафар талаба ва 307 нафар талаба назорат гуруҳида қатнашдилар.

Масаланинг қисқача моҳияти қуйидагилардан иборат: иккита бош тўплам берилган бўлсин. Биттаси тажриба якунида тажриба гуруҳи талабалари фаолиятининг ўртача баллари, иккинчиси эса назорат гуруҳи талабалари фаолиятининг ўртача баллари. Баҳолар нормал тақсимотга эга деб

ҳисобланади. Бундай фараз ўринлидир, чунки нормал тақсимотга яқинлашиш шартлари содда бўлиб, улар бажарилади.


Жадвал асосида тажриба ва назорат гуруҳи ўзлаштиришлари самарадорлигини кўрсатувчи H1 гипотеза ва унга зид бўлган H0 гипотезани танлаймиз ҳамда қуйидаги жадвалда акс эттирамиз.

Бу танланмаларга мос келган диаграмма қуйидагича кўринишни олади:


1-жадвал

Бўлажак қишлоқ хўжалик мутахассисларининг агропедагогик компетенциясини мезонлар асосида самарадорлигини аниқлаш кўрсаткичлари

Муддати	Гуруҳлар	Ўқувчилар сони	Ўзлаштириш даражалари		
			Юқори	Ўрта	Паст
Тажриба бошида	Тажриба гуруҳи	314	34	80	200
	Назорат гуруҳи	308	30	79	199
Тажриба якунида	Тажриба гуруҳи	312	79	122	111
	Назорат гуруҳи	307	33	82	192



2-расм. Тажриба бошида



3-расм. Тажриба якунида

Олинган натижалар математик статистик таҳлил қилиниб, тажриба якунидаги ҳолат учун топилган натижалардан ўртача квадратик четланиш, танланма дисперсия, вариация кўрсаткичлари, Стьюдентнинг танланма мезони, Стьюдент мезони асосида эркинлик даражаси ва ишончли интерваллари топилди.

2-жадвал

$\overline{X}$	$\overline{Y}$	S_x^2	S_y^2	C_x	C_y	$T_{x,y}$	k	Δ_x	Δ_y
1,47	1,46	Тажриба бошида ҳеч кандай самарадорликка эришилмаган							
1,89	1,49	0,5979	0,4699	2	3	6,9	608,42	0,08	0,08

Демак, тажриба якунидаги ўртача ўзлаштириш 13,3 фоизга усганлигини яъни самарадор эканлигини англатиб турибди.

Юқоридаги натижаларга асосланиб тажриба-синов ишларининг сифат кўрсатгичларини ҳисоблаймиз.

Бизга маълум =1,89; =1,49 Δ_х=0,08; Δ_у=0,08 га тенг.

Бундан сифат кўрсатгичлари:

К_усб=((¯X-Δ_х))/((¯Y+Δ_у))=(1,89-0,08)/(1,49+0,08)=1,81/1,57=1,15 > 1;

К_бдб=(¯X-Δ_х)-(¯Y-Δ_у)=(1,89-0,08)-(1,49-0,08)=1,81-1,41 =0,40>0;

Олинган натижалардан ўқитиш самарадорлигини баҳолаш мезони бирдан катталиги ва билиш даражасини баҳолаш мезони нолдан катталигини кўриш мумкин. Бундан маълумки, тажриба гуруҳидаги ўзлаштириш назорат гуруҳидаги ўзлаштиришдан юқори экан.

Стьюдентнинг танланмали мезони асосида икккита бош тўпламнинг номаълум ўрта қийматларига ўхшашлигини ҳисобга олиб нолинчи гипотеза текширилганда бош ўртача қийматлар тенглиги ҳақидаги Н0 нолинчи гипотеза рад этилади. Ишончлилик билан айтиш мумкинки, тажриба-синов гуруҳларидаги ўртача ўзлаштириш кўрсаткичлари ҳар доим назорат гуруҳларидаги ўртача ўзлаштириш кўрсаткичларидан юқори бўлди ва улар ҳеч қачон устма-уст тушмайди.

Демак, бўлажак қишлоқ хўжалик мутахассисларининг агропедагогик компетенциясини мезонлар асосида самарадорлик даражасини аниқлаш юзасидан ўтказилган тажриба-синов ишлари самарадор (13,3%) эканлиги статистик таҳлилдан маълум бўлди.

Адабиётлар:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 23.10.2019 йилдаги “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 — 2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” ПФ-5853-сон Фармони.

Incheon declaration // Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015. Incheon, Republic of Korea). – 48 p.

Sultanov E.K., Development of Model of Methodology of Professional Training of Future Personnel in Agrarian Complex// European journal of innovation in nonformal education, 2(1), 20–24. Retrieved from. ISSN: 2795-8612. https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/134

Sultanov E.K., Conceptual Rules For The Development of The System of Vocational Training Of Future Specialists In Agriculture// European journal of business startups and open society. 2(2), 89–92. Retrieved from http://www.inovatus.es/index.php/ejbsos/article/view/423. Online ISSN 27-9228

Sultanov E.K., On The Problem Of Training Teachers In Professional education of Uzbekistan// Scientific Collection Interconf, №100 February, 2022, The Issue Contains: Proceedings of the 6th Internationai Scientific and Practical Conference Global and regional aspects of sustainable development, copenhagen, Denmark 26-28.02.2022. ISBN 978-87-615-0721-1.207-212p.

6. Султанов Е.К., Компетенциялар асосида аграр соҳасида мутахассислар тайёрлаш масалалари ҳақида/ «Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari» mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (27 yanvar 2022 yil) – Тошкент.: Rishton XTB. 2022 й., 112-116 б.

7. Султанов Е.К., Компетенцияга асосланган ёндашув олий таълим муассасаларида агроном-педагог кадрлар тайёрлаш асоси сифатида // Talqin va tadqiqotlar (scientific-methodical journal) научно-методический журнал, Тошкент, №2. 2022, ISSN 2181 – 3035. 105-109 бетлар.

8. Султанов Е.К., Олий таълимда компетенциявий ёндашув доирасида талабаларнинг мустақил иши // Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture, Innovative Academy Research Support Center, UIF = 8.2 SJIF = 6.051. Volume 2, Issue 4, April 2022, ISSN 2181-2888 www.in-academy.uz. 73-78 p.

9. Султанов Е.К., 3D-модел технологияси асосида «Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш ва автоматлаштириш» фанини ўқитишнинг методикасини такомиллаштириш// Халқ таълими. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлигининг илми-методик журнали. Тошкент. 2022 йил. №2. ISSN 2181-7839. 76-80 бетлар.

10. Султанов Е.К., Аграр комплексида бўлажак мутахассисларнинг ижтимоий-касбий тайёргарлигини шакллантириш тизимини лойиҳалашнинг педагогик шартлари. Журнал «Вестник» Каракалпакского государственного университета им.Бердаха, 2022 г. №1 (55) стр. 139-143.

11. Султанов Е.К., Педагогларнинг малакасини оширишда ҳориж тажрибаси. «Илим ҳәм жәмийет» журнали, Нукус давлат педагогика институти. 2022 йил. №1 сони, 2 серияси. 58-60 бетлар.

12. Султанов Е.К., Компетенцияга асосланган ёндашув олий таълим муассасаларида агроном-педагог кадрлар тайёрлаш асоси сифатида. Talqin va tadqiqotlar (scientific-methodical journal) научно-методический журнал, Тошкент, №2 2022, ISSN 2181 – 3035.

13. Султанов Е.К., Олий таълимда компетенциявий ёндашув доирасида талабаларнинг мустақил иши. Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture, Innovative Academy Research Support Center, UIF = 8.2 SJIF = 6.051. Volume 2, Issue 4, April 2022, p.73-78. ISSN 2181-2888 www.in-academy.uz.

14. Султанов Е.К., Қишлоқ хўжалиги олий таълим муассасасида ўқитувчининг методик компетенциясини шакллантириш. International scientific and practical conferernce «modern psychology and pedagogy: problems and solution» 3-part, 2-530. Imperial College London, 1.06.2022. p. 470-475. https://doi.org/10.5281/zenodo.6602373.

15. Султанов Е.К., Қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий тайёрлаш масалалари ҳақида. International scientific and practical conferernce «modern psychology and pedagogy: problems and solution» 3-part, 2-530. Imperial College London, 1.06.2022. p 552-559. https://doi.org/10.5281/zenodo.6602214

16. Султанов Е.К., Совершенствование методики профессиональной подготовки будущих специалистов аграрного комплекса. Журнал «Касб-хунар таълими», 2022 й. №2. 84-89 бетлар.

17. Султанов Е.К., Бўлажак аграр соҳаси мутахассисларини касбий тайёрлаш тизимини ривожлантиришнинг концептуал асослари. "Замонавий машинасозликда инновацион технологияларни қўллашнинг илмий асослари: тажриба ва истиқболлар" мавзусида халқаро миқиосида илмий-амалий конференция материаллари тўплами. 5-том. Наманган шахри. 23-24-сентябр 2022 йил. 99-103 бетлар.

18. Султанов Е.К., Олий таълим муассасалари аграр соҳаси мутахассисларини тайёрлашда компетенцияга асосланган ёндашув доирасида талабаларнинг мустақил иши. "Арал бойы аймағында

суў ресурсларынан пайдаланыў мониторинги ҳәм жаңа бақлаў технологияларын ислеп шығыў" атамасындағы халықаралық илимий-техникалық конференция материаллары топламы. Нөкис. 2022-жыл. 269-275 бетлер.

19. Султанов Е.К., Компетенциялар асосида аграр соҳасида мутахассисларини тайёрлаш масалалари ҳақида. "Арал бойы аймағында суў ресурсларынан пайдаланыў мониторинги ҳәм жаңа бақлаў технологияларын ислеп шығыў" атамасындағы халықаралық илимий-техникалық конференция материаллары топламы. Нөкис. 2022-жыл. 275-281 бетлер.

РЕЗЮМЕ

Мақола бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлашнинг методикасини такомиллаштириш бўлиб, касбий баркамол ва педагогик жиҳатдан тайёрланган ўқитувчилар таркибини шакллантириш қишлоқ хўжалиги институтларининг энг муҳим вазифаси эканлиги кўрсатилган. Ушбу мақоланинг мақсади замонавий олий таълим муассасаси ўқитувчиси томонидан талаб қилинадиган компетенциялар ва уларни ривожлантириш йўлларини асосланган.

РЕЗЮМЕ

В статье речь идет о совершенствовании методики подготовки будущих специалистов сельского хозяйства к профессиональной деятельности и показано, что формирование профессионально компетентных и педагогически подготовленных педагогических кадров является важнейшей задачей сельскохозяйственных институтов. Цель данной статьи основана на компетенциях, необходимых преподавателю современного вуза, и путях их развития.

SUMMARY

The article deals with the improvement of the methodology for preparing future agricultural specialists for professional activities and shows that the formation of professionally competent and pedagogically trained teaching staff is the most important task of agricultural institutions. The purpose of this article is based on the competencies required by a teacher of a modern university, and the ways of their development.

ЎҚУВ ФАОЛИЯТИДА ТАЛАБАЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИК ВА ТЕЖАМКОРЛИККА ЙЎНАЛТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Пинёзов И. Х.
Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти Қорақалпоғистон филиали мустақил изланувчиси

Таянч сўзлар: тадбиркорлик, тежамкорлик, ўқув фаолияти, иқтисодий маданият, инсон фактори, меҳнат қилиш, билим даражаси, жамият, иқтисодий таълим, меҳнат салоҳияти, тежамкорликкка ўргатиш, методика.

Ключевые слова: предпринимательство, бережливость, воспитательная деятельность, хозяйственная культура, человеческий фактор, труд, уровень знаний, общество, экономическое образование, трудоспособность, воспитание бережливости, методика.

Key words: entrepreneurship, frugality, educational activities, economic culture, human factor, labor, level of knowledge, society, economic education, ability to work, thrift education, methodology.

Ҳозирги кунда табиат ресурсларидан оқилона фойдаланиш ҳаётимиздаги долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Чунки табиат заҳираларидан оқилона фойдаланмаслик салбий оқибатларга олиб келиши муқаррар эканлигига яна бир марта гувоҳ бўламиз.

Табиатни асраш ҳар бир инсоннинг муқаддас бурчи саналади. Ҳар бир инсонда табиатга деган ижобий муносабатни шакллантириш зарур. Бу эса таълим-тарбия жараёнида шаклланиб боради.

Инсон факторининг шаклланиш муҳити мактаб ва оиладир. Шу ерда иқтисодий таълимнинг ўсиб бораётган даражасини назарда тутадиган иқтисодий маданият асосларининг пойдевори қўйилади. Табдиркорлик-ҳозирги кунда иқтисодиётимизнинг асосларидан бири саналади. Ёшларимизнинг тадбиркорлик билан шуғулланиши учун мамлакатимиз томомнидан тўла шарт-шароитлар яратилган.

Лекин, таълим ва маданиятнинг шу даражасини мактаб жамоасига, ўқувчилар орасига шундай маданият ва билим даражасига эга одамларгина олиб киради.

Бозор иқтисодиёти тизимига ўтаётган бир қатор давлатларнинг тажрибалари халқ хўжалигини жиддий ислоҳотларга тайёрлаганликларини кўрсатади. Бизнинг давлатимиз тадбиркорлик ва тадбиркорлик фаолиятига

алоҳида эътибор қаратган. Теран ислоҳотларни амалга ошириш, бозор иқтисодиётига ўтиш биринчи навбатда етук кадрлар салоҳияти, малакали мутахассисларининг билимини оширишни талаб қилади. Жумладан, халқ таълими Вазирлиги буйруғига биноан, педагогика олий ўқув юртларига математика-иқтисодиёт, меҳнат-иқтисодиёт, тарих- иқтисодиёт, биология-иқтисодиёт каби мутахассисликлар киритилди. Мазкур ҳолат ўқитувчиларни тадбиркорлик малакасига тайёрлаш халқ таълими соҳасининг кун тартибига чиқди.

Ўқишни жадаллаштириш талабалар фаол қатнашчига айланадиган шароитлар яратмасдан ва ўқув жараёнига жалб этишнинг самарадор шакл ва методларини қўлланмасдан асло мумкин эмас. Одамларни бирлаштириш, уларни ўқитувчи билан ҳамфикр қилиш учун теранг касбий билим билан бир қаторда психология асосларини ҳам эгаллаш зарур.

Ўқиш жараёнида ўқитувчилар бизнинг олдимизда стереотип шаклида номаён бўладиган кундаликли онанинг элементларини ҳисобга олишлари зарур. Стереотип – бу онгда мустаҳкамланган мавжуд борлиқни қабул этиш ва қайта қуриш услуби. Стереотиплар ижобий ва ёлғон бўлиши эҳтимол. Ижобий стереотипларни фойдаланиш предмет ҳақида оддийлашган, схематик, баъзан ҳақиқатга яқин билим ва тушунчалар бериш имконини яратади. Қайси бир схема, қанчалик тўлақонли бўлишидан қатъий назар, предмет ҳақида барча маълумотларни бериши мумкин эмас ва маълум даражада стереотип сифатида қаралиши мумкин. Шу билан бир қаторда схематизм қўрилаётган ҳолатнинг муҳим моментларини ажратишга ва ўқув материалини яхшироқ қабуллашга имкон беради.

Шу маънода у ўқиш жараёнининг таркибий қисми ҳисобланади. Ўқитувчи ўқиш жараёнини самарадор олиб бориш учун ўрганиш жараёнини қандай ўтишини тасаввур этиши зарур. Бу жараён фикрлашни ҳис этиш, қабуллаш воситасида амалга ошади.

Хис этиш – оддий психик жараён, у предметнинг ва моддий ҳаётдаги ҳодисаларнинг айрим хусусиятларини акс эттиришдан иборат. Бу жараён бизнинг сезиш органлари орқали ўтади, яъни маълумотларни олади, танлайди, тўплайди ва мияга беради.

Ўрганишнинг кейинги босқичи қабуллаш яъни одам онгида предмет ва ходисаларнинг сезиш органларига бевосита таъсирида акс эттирилиши. Қабуллаш жараёнида айрим хисларнинг моддалар ва воқеаларнинг бутун образи сифатида тартибга солиниши ва бирлашиши бўлиб ўтади. Одамнинг хулқ-атвори, кўпинча унинг ўзи мавжуд ҳолатни қандай қабуллашига боғлиқ. Шу сабабли, қабуллаш одам хулқ-атворини тушунишнинг

аҳамиятли манбаси ҳисобланади. Айни пайтда одам ўзи кечаётган ҳаётий ҳолатни қабуллашни ўзгартириб, шу одамнинг хулқ-атворини ўзгартириши мумкин. Масалан, талабаларда замонавий иқтисодий фикрлашни шакллантириш ходимнинг ўз меҳнати натижаларининг эски стереотипларидан ўзоқлаштиради, шундай қилиб, унинг ишлаб чиқариш жараёнидаги хулқ-атворининг ташаббускорлик ва сифатли меҳнатдан манфаатдорлиги билан ажралиб турадиган мутлақо бошқача типини шакллантиради.

Конструкторлар, қурувчилар ва ҳоказоларнинг қизиқишларининг иқтисодий фикрлашини шакллантириш зарурийги ҳақида масала қуйиш зарур бўлибгина қолмасдан, Айни пайтда мажбурий ҳамдир, чунки бунақа фикрлаш мактабда шаклланмаган. Бу эса, ўз навбатида ўқувчиларнинг иқтисодий маданиятининг орқада қолишига олиб келади, чунки улар ўз меҳнатининг иқтисодиётини ўрганмайдилар.

Ўқитувчиларга уларнинг иқтисодий билимлари ва маданияти воситасида иқтисодий таълим бериш ишчи кучини, жамиятнинг меҳнат салоҳиятини шакллантириш билан боғлиқ.

Хулосалари ўқитувчиларнинг ушбу вазифаларни тўлиқ бажаришига олиб келадиган қатор саволлар мавжуд. Улардан бири – педагогик олий ўқув юртлар талабаларининг иқтисодий таълим тизимига утилитар ёндашувни енгиб ўтиш, бунда халқ таълими иқтисодиётини фақат талабаларнинг маълум қисмигина ўрганадилар (масалан, тарихчилар), чунки айнан улар кўпроқ мактаб таълими ташкилотчилари ва раҳбарлари бўладилар. Бошқа талабаларга келадиган бўлсак, улар бу фанни фақат факультатив ўрганадилар, Ушбу ендошувнинг асосизлиги шундан кўриниб турибди, иқтисодиёт базалик фанлар қаторига киради, шу сабали уни ўрганиш халқ хўжалигининг ҳар бир соҳаси мутахассиси учун мажбурий.

Яна бир аҳамиятли масала таълим соҳасида иқтисодий муносабатлар ва ҳуқуқлар ҳақида илм-фаннинг ривожланишининг зарурийги, бу ҳозир ўзими шаклланиш жараёнида турибди. Бунга халқ хўжалиги амалиёти сингари таълим тизимини такомиллаштириш амалиёти ҳам муҳтожлик сезаяпти.

Масалан, илмий-техник революция таълимни ташкил этиш ва методикасида, мазмунида тамойилиал ўзгаришлар зарурийгини келтириб чиқаради. Таълим мазмуни борасида ҳозирги техника ва ишлаб чиқариш технологиясига нисбатан ўзиқ ўсган билим зарур. Методика борасида эса – билимларни мустақил олишга ўргатиш талаб қилинади. Таълимни ўргатиш талаб қилинади. Таълимни ташкил этишда эса унинг ўзликсизлиги зарур.

Буларнинг ҳаммаси қарама-қаршиликларни башорат этиш ва ечимга, таълимнинг метод ва шаклларининг энг самарадор ва иқтисодий шаклларини амалга оширишга, самарадор мезонларини ишлаб чиқишга ёрдам берадиган иқтисодий ечимлар қабул қилиниши талаб қилади.

Таълим соҳасида иқтисодий муносабатлар ҳақидаги тизимли билимларнинг йўқлиги – жамиятнинг иқтисодий муносабатлари доирасида уларнинг амалга оширилишидаги камчиликларнинг сабабларидан бири. Масалан, товар – пул муносабатларига, бу муносабатлар субъектларининг иқтисодий манфаатларини ҳисобга олишга, меҳнат ресурлари учун пул тўлашга асосланган қайтариш тизимини жорий этишда, улар ишлаб чиқариш ва мактаб (шу жумладан, ўрта ва олий махсус таълим) орасидаги боғлиқликни таркибига олмаган. Бу эса ишлаб чиқариш ва таълим тизимининг ўзаро манфаатдорлигини ва маъсулиятини пасайтиради, Ушбу тизим ва ишлаб чиқариш жамоалари орасидаги муносабатлардан фориғ қилади, яъни мактаб ва хўжалик ҳисобига асосланган жамият орасида.

Бўлажак ўқитувчиларнинг иқтисодий фикрлашини шакллантириш иқтисодиёт назарияси ва халқ таълими иқтисодиётини ўрганиши, ушбу фанларнинг ҳар бирининг сифатининг белгиланишини ҳисобга олиб ўзвий боғлиқликда ўрганишга боғлиқ. Уларнинг боғлиқлиги шуки, таълим иқтисодиёти режалаштириш, бошқариш, молиялаштириш, рағбатлантириш каби сфераларда у ёки бу иқтисодий қонуниятларнинг аниқ шаклларда номоён бўлишини ўрганади. У одамлар орасидаги ишлаб чиқариш, билим, кўникмалар борасидаги муносабатлари доирасида хўжалик юритиш шакллари, методлари ва воситаларини ўрганади.

Ўқув жараёнини семинар дарслари ҳажмини кўпайтириш, уларни иқтисодиёт назарияси бўйича ўқитувчи ва талабалар суҳбати асосида ўтказиш йўли билан қайта қуриш талабаларнинг замонавий иқтисодий фикрлашини шакллантиришга асос бўладиган иқтисодий билимлари доирасини анча кенгайтиради.

Лекин, шу имкониятни амалга ошириш учун иқтисодиёт назарияси курсини ўқитишга янгича ёндошувларни ишлаб чиқиш зарур.

Ўқитиш жараёнини шундай қуриш керакки, унда мавҳум баёнлаш, эскирган ҳолатлар бўлмасин, у иқтисодий билимларнинг мақсадли тизимини шакллантирсин. Бир темадан иккинчисига ўтган сари талабларнинг у ёки бу иқтисодий ҳодиса ва жараёнларни мустақил тушунтира олиш, вужудга келган муаммоларнинг ечимини топиш йўналишини топа олиш қобилиятлари ошиб бориши керак. Мустақил фикрлаш – замонавий иқтисодий фикрлашни талабаларда шакллантиришнинг зарурий шартидир.

Талабаларда замонавий иқтисодий фикрлашни шакллантириш жараёнида етакчи ўрин ўрганишга ёки бозорнинг иқтисодий қонунлари моҳиятига берилади. Иқтисодий қонунларнинг ҳаракати талабаларда реал ҳодиса ва хўжалик ҳаёти жараёнлари ҳақида аниқ тасаввур ҳосил бўладигандай этиб, бир-бири билан боғлиқликда таҳлил этилиши керак. Қонунлар мазмунини уларнинг бозорнинг асосий иқтисодий қонуни билан узвий боғлиқликда, халқнинг фаровонлиги янада юксак даражага кўтариш учун қўйилган масалаларга эътибор қаратиб очиш керак.

Адабиётлар:

1. Атутов П.Р., Поляков В.А., Васильев Ю.К., др. Подготовка школьников к труду в сфере материального производства. - М: Педагогика, 1988. - 172с.

2. Атутов П.Р. и др. Трудовая подготовка школьников. - Киев: Рад.шк., 1987. - 223с.

3. Байдалинова Э.А. Производительный труд в воспитании школьников. - Алма-Ата: Рауан, 1990. - 87с.

4. Бадмаев С.Б., Березовская Д.А. Экономическое воспитание учащихся - Элиста: Калм. Кн. изд-во, 1988. - 70 с.

5. Бекназов Н., Юсупов Ю., Пугач И., Абдуллаханов Т. Основы рыночной экономики. - Т.: Университет, 1997. - 184 с.

6. Болбочан Ю.И и др. Малое предпринимательство при переходе к рынку - Кишинев: Штинница, 1993. - 102 с.

7. Бублик Н.В., Юрьева Л.А. Содружество школы и производства - М.: Просвещение, 1987. - 142 с.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада ўқув фаолиятида талабаларни тадбиркорлик ва тежамкорликка йўналтириш масалалари тўла ўрганилган. Шу билан биргаликда таълим соҳасида иқтисодий муносабатлар ҳақидаги тизимли билимларнинг йўқлиги – жамиятнинг иқтисодий муносабатлари доирасида уларнинг амалга оширилишидаги камчиликларнинг сабаблари ҳартомонлама таҳлил қилинган

РЕЗЮМЕ

В данной статье всесторонне исследуются вопросы направления студентов на предпринимательство и сбережения в образовательной деятельности. При этом подробно анализируются отсутствие системных знаний об экономических отношениях в сфере образования - причины недостатков их реализации в рамках экономических отношений общества.

SUMMARY

This article comprehensively examines the issues of sending students to entrepreneurship and savings in educational activities. At the same time, the lack of systematic knowledge about economic relations in the field of education is analyzed in detail - the reasons for the shortcomings of their implementation within the framework of the economic relations of society.

КОМПЕТЕЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ АСОСИДА БЎЛАЖАК ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ МУТАХАССИСЛАРИНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ ҲАҚИДА

Султанов Е. Қ.

Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти «Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш ва сув хўжалиги» факультети декани, техника фанлари номзоди, доцент

Таянч сўзлар: компетенция, касбий компетенция, таълим методи, таълим технологиялари, кредит-модул, мажбурий фанлар, билим, кўникма.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, метод обучения, образовательные технологии, кредитный модуль, обязательные предметы, знания, умения.

Key words: competence, professional competence, teaching method, educational technologies, credit module, compulsory subjects, knowledge, skills.

Мамлакатимизда Янги Ўзбекистонни ва учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этиш борасида амалга оширилаётган туб ўзгаришлар ва ислоҳотлар самарадорлигини таъминлаш 2022-2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси кўрсатилган. Мазкур соҳа мамлакат иқтисодиётининг этакчи «драйвери» эканлиги боис, соҳада кўплаб модернизация ишларини жадаллаштириш бугунги куннинг муҳим вазифаларидан биридир. **Қишлоқ хўжалигини илмий асосда интенсив ривожлантириш зарурати, компетентли кадрлар тайёрлаш**, бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг касбий компетенцияларини ривожлантириш бўйича касбий фаолият объектларига мос мустақил таълим учун методик тавсияларни ишлаб чиқиш, касбий компетентликни ривожлантириш методикаларини такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади. Қишлоқ хўжалигида илмий-тадқиқот, таълим хизматларининг ишлаб чиқариш билан интеграциялашган билим ва маълумотларни тарқатишнинг самарали тизимини ривожлантириш меҳнат бозори талабларини ўрганиш, янги мутахассисликларни жорий этиш, тармоқлараро ва идоралараро мувофиқлаштириш тизимини яратиш талаб этилади.

Ўзбекистонда мутахассисларни касбий тайёрлаш жараёнида фанлар аро боғланиш, интеграциянинг шаклланиш ва ривожланиш қонуниятлари ва тенденциялари, касбий компетентлик асосида касбий фаолиятга тайёрлаш муаммолари ҳамда ишлаб чиқариш ходимларининг касбий фаолиятини назорат қилишнинг назарий, концептуал ва технологик асослари Р.Х.Джўраев, Ш.Э.Қурбанов, Д.Д.Шарипова, Н.А.Муслимов, Қ.Т.Олимов, О.Х.Тўрақулов, Э.Сейтхалилов, Ж.А.Ҳамидов, Б.Б.Эргашов, Д.Химматалиевлар томонидан тадқиқ этилган.

Тадқиқотларда «касбий компетентлик» ва унинг ўзига хослиги, илмий-назарий асослари, касб таълими ўқитувчисининг билим, кўникма ва малакаларини шакллантириш ҳамда ўқув-услубий таъминотини яратиш масалалари А.Р.Ходжабаев, З.К.Исмоилова, Ҳ.Ф.Рашидов, С.Ашурова, Ш.С.Шарипов, Ҳ.Ш.Қодиров, О.А.Қуйсиновлар томонидан ўрганилган.

Қишлоқ хўжалиги учун бўлажак мутахассисларни тайёрлайдиган олий таълим муассасалари учун касбий компетенцияларни шакллантириш учун И.В. Тулебович, Г.В. Короткова, О.И.Кузменко ва бошқаларнинг диссертация тадқиқотларида очиб берилган.

Мутахассисларни касбий компетенциялар асосида касбий фаолиятга тайёргарлигини такомиллаштиришнинг назарий-методологик, концептуал ва технологик асослари бўйича МДҲ мамлакатлари олимларидан Э. А. Михайлычев, О. А. Абдулина, С. Я. Батышев, В. С. Безрукова, А. П. Беляева, М. Н. Берулова, Э. Ф. Зеер, Ю. М. Измайлова, П. Ф. Кубрушко, В. П. Косырев, Н. В. Кузъмина, В. С. Леднев, О.Д.Листунов, В.А.Сластенин, С. Т. Сопегина, Н. К.Чапаев ва бошқалар томонидан илмий изланишлар олиб борилган.

Хорижий мамлакатларда G.Spenser, B.F.Skinner, A.Blum, J.Gilbert, J.Fernandes-Baloa, S.Merriam, S.Vilson, R.M. Gagne, D.E. Berlen, S. Jones, P.Black каби олимларнинг тадқиқотларида таълимда интеграцион жараёнлар, фанлар-аро интеграция ва интегратив таълим натижаларини диагностика қилиш масалалари илмий-педагогик жиҳатдан асослаб берилган.

Олий таълим муассасаларида таълим жараёнида фанлар-аро боғланиш, фан ва ишлаб чиқариш интеграциясини амалга ошириш, ривожлантириш ва ривожланиш қонуниятлари ва тенденциялари, педагогларнинг компетенциявий ёндашуви асосида касбий, педагогик компетенцияси назарий, концептуал ва технологик асослари муайян даража ўрганилган.

Тадқиқотнинг мақсади қишлоқ хўжалигини илмий асосда интенсив ривожлантиришни таъминлаш мақсадида бўлажак қишлоқ хўжалиги

мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлаш методикасини такомиллаштиришдан иборат.

Тадқиқотнинг вазифалари:

тадқиқот мавзусига оид илмий таҳлили асосида компетенциявий ёндашган ҳолда бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлаш методикасини аниқлаштириш;

бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлашда ўқитувчилар ва талабаларнинг касбий компетентлиги ривожланишини йўлларини аниқлаш;

талабаларнинг касбий тайёргарлигини компетенциявий ёндашув асосида ташкил этишда ижодий фаолиятнинг ташкилий-тайёргарлик тузилмасини ишлаб чиқиш ва бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий тайёрлаш методикаси моделини яратиш;

«Мажбурий фанларини кредит модул тизими асосида таълим бериш ва бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлашда виртуал (график визуализация ва 3D-модел) технологияларидан фойдаланишни такомиллаштириш;

бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий тайёрлашда талабаларнинг мустақил таълим асосида касбий компетенцияларини шакллаштириш методикасини такомиллаштириш.

Тадқиқотнинг объекти компетенциявий ёндашув асосида бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлаш методикасини такомиллаштириш жараёни.

Тадқиқотнинг предмети компетенциявий ёндашув асосида бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлаш методикасини такомиллаштириш мазмуни, шакли, методлари ва воситалари.

Тадқиқотнинг усуллари. Тадқиқотда мавзуга оид илмий манбалар, дидактик материаллар, малака талаблари, ўқув режа ва дастурлари, ўқув-меъёрий ҳужжатлар, дарслик ва ўқув-методик адабиётларини ўрганиш ва таҳлил қилиш; суҳбат, кузатиш, анкета, тест, моделлаштириш, эксперт баҳолаш, тажриба-синов; тадқиқот натижаларини математик-статистик қайта ишлаш методларидан фойдаланилди.

Тадқиқотнинг илмий янгилиги:

талабаларни касбий фаолиятга тайёргарлик даражалари агропедагогик компетенция ва агротехнологик компетенция уйғунлиги касбий фаолиятга таъсир этувчи объектив омил билим, кўникма, шахсий фазилатлар тизими эканлиги аниқланган;

компетенциявий ёндашув асосида бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлаш методикаси технологик компетенциянинг ўзгармас субкомпетенциялари агропедагогик компетентлигининг ривожланганлик даражаси белгилаши илмий асосланган;

бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлаш методикасини компетенциявий ёндашув асосида виртуал (график визуализация ва 3D-модел) технологиялари ва мосафавий таълим методикасидан фойдаланиш орқали такомиллаштириш модели яратилган;

«Агрокимё ва агротупроқшунослик», “Агрономия (деҳқончилик маҳсулотлари турлари бўйича)”, “Ўсимликларни ҳимоя қилиш (экин турлари бўйича)”, “Ипакчилик ва тутчилик”, “Қишлоқ хўжалиги экинлари селекцияси ва уруғчилиги(экин турлари бўйича)”, “Мевачилик ва узумчилик”, “Сабзавотчилик, полизчилик ва картошкачилик”, “Доривор ўсимликларни етиштириш ва қайта ишлаш технологияси”, “Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш ва дастлабки ишлаш технологияси”, “Ўрмончилик”, ва “Иссиқхона хўжалигини ташкил этиш ва юритиш” йўналишларида «Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш ва автоматлаштириш» фанини кредит модул тизими асосида таълим бериш ва компетенциявий ёндашув асосида бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлаш технологиясини шакллантиришда виртуал (график визуализация ва 3D-модел) технологиясидан фойдаланиш методикаси яратилган;

компетенциявий ёндашув асосида бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлашнинг (йўналтириш-технологик компетенциянинг таянч ўқув дастурига (ТЎД) киритилган билим ва кўникмаларни ривожлантиришни таъминлаши, шакллантирувчи-технологик компетенция элементларининг шаклланишини таъминлаши, интеграция - тармоқлараро характерга эга бўлган янада мураккаб интеграциялашган субъектларни-ишлаб чиқариш ва технологик ҳаракатларни шакллантириши,

фаолиятни баҳолаш - техник ва технологик жараёнлар ўзлаштирганлиги (агропедагогик компететлиги) босқичлари илмий асосланган.

Тадқиқотнинг амалий натижалари:Олий таълим муассасалари қишлоқ хўжалиги йўналишида мажбурий фанларни ўқитишда бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлаш сифатини оширишга қаратилган «3D технологияси асосида «Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш ва автоматлаштириш» фанини ўқитишнинг методикасини такомиллаштириш» услубий қўлланмаси яратилган;

Қишлоқ хўжалиги йўналишида мажбурий фанларни ўқитишда касб таълими мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлаш сифатини оширишга қаратилган «Зооинженерия» йўналишидаги «Чорвачиликни механизациялаштириш ва автоматлаштириш» фанидан ўқув қўлланмаси яратилган (Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2021 йил 1 мартдаги 110 сонли буйруғи, Гриф №110-402);

Олий таълим муассасаларида мажбурий фанларни ўқитишда бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлаш сифатини оширишга қаратилган Агрокимё ва агротупроқшунослик, Агрономия (деҳқончилик маҳсулотлари турлари бўйича), Ўсимликларни ҳимоя қилиш (экин турлари бўйича), Ипакчилик ва тутчилик, Қишлоқ хўжалиги экинлари селекцияси ва уруғчилиги (экин турлари бўйича), Мевачилик ва узумчилик, Сабзавотчилик, полизчилик ва картошкачилик, Доривор ўсимликларни етиштириш ва қайта ишлаш технологияси, Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш ва дастлабки ишлаш технологияси, Ўрмончилик ва Иссиқхона хўжалигини ташкил этиш ва юритиш йўналишларида Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш ва автоматлаштириш фани бўйича дарслик (Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2022 йил 19 июлдаги 233 сонли буйруғи, Гриф №233-1061) яратилган;

Олий таълим муассасалари Агрокимё ва агротупроқшунослик, Агрономия (деҳқончилик маҳсулотлари турлари бўйича), Ўсимликларни ҳимоя қилиш (экин турлари бўйича), Ипакчилик ва тутчилик, Қишлоқ хўжалиги экинлари селекцияси ва уруғчилиги (экин турлари бўйича), Мевачилик ва узумчилик, Сабзавотчилик, полизчилик ва картошкачилик, Доривор ўсимликларни етиштириш ва қайта ишлаш технологияси, Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш ва дастлабки ишлаш технологияси, Ўрмончилик ва Иссиқхона хўжалигини ташкил этиш ва юритиш йўналишларида Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш ва автоматлаштириш фанидан мустақил таълимни компетенциявий ёндашув асосида бошқариш ва назорат қилишнинг методлари, объектив аниқлаш имконини берувчи ўқув воситалар, услубий тавсиялар ишлаб чиқилган ҳамда амалиётга жорий этилган.

Тақиқот натижаларининг ишончлиги. Тадқиқот натижаларининг ишончлилиги қўлланилган ёндашув, усуллар ва назарий маълумотларнинг расмий манбаларидан олинганлиги, келтирилган таҳлиллар ва тажриба-синов ишлари самарадорлигининг математик-статистик методларга асосланганлиги, хулоса, таклиф ва тавсияларнинг амалиётда жорий

этилганлиги, олинган натижаларнинг ваколатли тузилмалар томонидан тасдиқлангани билан изоҳланади.

Тадқиқот натижаларининг илмий ва амалий аҳамияти:

Тадқиқот натижаларининг илмий аҳамияти компетенциявий ёндашув асосида бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлаш методикасининг «компетенция» тушунчасининг тузилмавий ва мазмунининг чуқурлаштирилиши; виртуал (график визуализация ва 3D-модел) технологияси асосида мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлашнинг ташкилий-функционал компонентлари мазмунини мотивацион-мақсадли, методологик ёндашувлар асосида, виртуал (график визуализация ва 3D-модел) технологияси мисолида компетенцияли ёндашув асосида бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассислари касбий тайёргарлик моделининг такомиллаштирилганлиги ва бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини компетенциявий ёндашув асосида касбий фаолиятга тайёрлашнинг ахборот-дидактик таъминоти таълим ва ишлаб чиқаришнинг ўз-аро интеграциясини ривожлантиришдаги методологик ёндашувлар ҳамда касбий фаолиятга тайёрлашнинг ташкилий-функционал компонентлари мазмуни мотивацион-мақсадли, методологик ёндашувлар асосида ишлаб чиқилганлиги билан изоҳланади.

Тадқиқот натижаларининг амалий аҳамияти таклиф этилган технология, модел, яратилган дастурий маҳсулот, яъни ўқитишнинг замонавий дидактик воситаларидан қишлоқ хўжалиги соҳаси олий таълим муассасаларида таълимнинг сифати ва самарадорлигини ошириш, таълим жараёнларини тизимли-фаолиятли ёндашув асосида ташкил этиш, ўқув режа ва дастурларини такомиллаштириш, бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларни касбий кўникмаларини ривожлантириш ҳамда касб таълимини ривожлантиришда, олий таълим тизимини янада такомиллаштириш бўйича меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар ва чора-тадбирлар дастурларини тайёрлашда, касб таълими мазмуни ва сифатига қўйиладиган малака талабларини ишлаб чиқишда, виртуал (график визуализация ва 3D-модел) технологиясига асосланган таълим машғулотларни ташкил этишда, талабаларни олий таълим муассасасида ва битирганидан кейин ишлаб чиқариш корхоналаридаги касбий фаолияти самарадорлигини оширишда фойдаланиши мумкин.

Тадқиқот натижаларининг жорий қилиниши. Компетенциявий ёндашув асосида бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлаш методикасини такомиллаштиришда виртуал (график визуализация ва 3D-модел) технологияси воситасида мажбурий фанларни ўқитиш

методикасини такомиллаштириш бўйича ишлаб чиқилган услубий ва амалий тавсиялар асосида:

компетенциявий ёндашув асосида (Агрокимё ва агротупроқшунослик, Агрономия (деҳқончилик маҳсулотлари турлари бўйича), Ўсимликларни ҳимоя қилиш (экин турлари бўйича), Ипакчилик ва тутчилик, Қишлоқ хўжалиги экинлари селекцияси ва уруғчилиги (экин турлари бўйича), Мевачилик ва узумчилик, Сабзавотчилик, полизчилик ва картошкачилик, Доривор ўсимликларни етиштириш ва қайта ишлаш технологияси, Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш ва дастлабки ишлаш технологияси, Ўрмончилик, ва Иссиқхона хўжалигини ташкил этиш ва юритиш) бакалавриат таълим йўналиши талабаларининг касбий билим, кўникма, малакаларини шакллантириш ҳамда ўқув-билиш-онглаш касбий фаолиятга муваффақиятли мослашишини таъминловчи педагогик шарт-шароитлар асосида талабаларнинг агропедагогик компетенциясини ривожлантиришга қаратилган “3D-модел технологиялари асосида Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш ва автоматлаштириш фанини ўқитишнинг методикасини такомиллаштириш услубий қўлланма ишлаб чиқилган (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Интеллектуал мулк агентлигининг 005932-сон муалифлик гувоҳномалари. 27 феврал 2023 йил);

3D технологияси асосида “Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш ва автоматлаштириш” фанини ўқитишнинг методикасини такомиллаштириш номли услубий қўлланмасининг андроид мобил иловаси (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Электрон ҳисоблаш машиналари учун яратилган дастурнинг расмий рўйхатдан ўтказилганлиги тўғрисида №DGU22245 сонли гувохнома. 3 март 2023 йил) яратилган. Натижада мазкур таълим технологиялар ва методлар бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий компетентлигини ривожлантиришга хизмат қилмоқда;

Чорвачиликни механизациялаштириш ва автоматлаштириш ўқув қўлланмаси (Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2021 йил 1 мартдаги 110 сон буйругига асосан тасдиқланган, Гриф № 110-402), Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш ва автоматлаштириш дарслиги (Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2022 йил 19 июлдаги 233 сон буйруғи асосан тасдиқланган, Гриф № 233-1061) ўқув қўлланмаси Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти ва Самарқанд ветеринария медицина институтининг Нукус филиалида «Агрокимё ва агротупроқшунослик», Агрономия (деҳқончилик маҳсулотлари турлари бўйича),

Ўсимликларни ҳимоя қилиш (экин турлари бўйича), Ипакчилик ва тутчилик, Қишлоқ хўжалиги экинлари селекцияси ва уруғчилиги (экин турлари бўйича), Мевачилик ва узумчилик, Сабзавотчилик, полизчилик ва картошкачилик, Доривор ўсимликларни етиштириш ва қайта ишлаш технологияси, Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш ва дастлабки ишлаш технологияси, Ўрмончилик, Иссиқхона хўжалигини ташкил этиш ва юритиш ва Зооинженерия бакалавриат таълим йўналишларида ва Агрокимё ва агротупроқшуносликк, Агрономия (деҳқончилик маҳсулотлари турлари бўйича), Ўсимликларни ҳимоя қилиш (экин турлари бўйича), Ипакчилик ва тутчилик, Қишлоқ хўжалиги экинлари селекцияси ва уруғчилиги (экин турлари бўйича), Мевачилик ва узумчилик, Сабзавотчилик, полизчилик ва картошкачилик, Доривор ўсимликларни етиштириш ва қайта ишлаш технологияси, Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш ва дастлабки ишлаш технологияси, Ўрмончилик, Иссиқхона хўжалигини ташкил этиш ва юритиш, ва Зооинженерия магистратура йўналишлари бўйича мутахассисларини тайёрлашда фойдаланилмоқда. Натижада мазкур ўқув адабиётлар талабаларнинг фикрлаш ва ҳаракат стратегиясини инобатга олган ҳолда унинг шахсини ўзига хос хусусиятлари, қобилиятларини ривожлантиришга йўналтирилган ҳамда қишлоқ хўжалиги олий таълим муассасаларида компетенцияли мутахассисларни тайёрлашга хизмат қилмоқда.

60810100-Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш бакалавр ва 70810101-Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш магистратура таълим йўналиши учун Аниқ қишлоқ хўжалиги тизими ўқув қўлланмаси яратилган.

Олий таълим муассасаси ва ишлаб чиқариш корхоналари билан интеграциясини таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 07 ноябрдаги «Қорақалпоғистон Республикасида чорвачилик тармоқларини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4512 сонли қарори ижроси борасида республикада чорвачиликни жадал ривожлантириш бўйича тузилган комиссияси топшириғи асосида “Агросаноат мажмуии ва озиқ-овқат таъминоти соҳасидаги лойиҳаларни амалга ошириш агентлигининг йирик чорвачилик субъектларига мўлжалланган лойиҳаларига қўшимча тариқада кичик субъектларда ҳам тўла ҳажмда ривожлантириш ишларини олиб бориш мақсадида Қорақалпоғистон Республикаси чорвачилигида қорамолчилик тармоғини 2021-2025 йилларда жадал ривожлантиришга мўлжалланган чора_тадбирлар стратегияси” ишлаб чиқилган ва амалиётга жорий этилган.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 29 январдаги “2022-2026 йилларда Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги ПФ-60-сон Фармони.

2. Султанов Е.К., Олий таълимда компетенциявий ёндашув доирасида талабаларнинг мустақил иши. Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture, Innovative Academy Research Support Center, UIF = 8.2 SJIF = 6.051. Volume 2, Issue 4, April 2022, p.73-78. ISSN 2181-2888 www.in-academy.uz.

3. Султанов Е.К., Қишлоқ хўжалиги олий таълим муассасасида ўқитувчининг методик компетенциясини шаклантириш. International scientific and practical conferernce «modern psychology and pedagogy: problems and solution» 3-part, 2-530. Imperial College London, 1.06.2022. p. 470-475. https://doi.org/10.5281/zenodo.6602373.

4. Султанов Е.К., Қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий тайёрлаш масалалари ҳақида. International scientific and practical conferernce «modern psychology and pedagogy: problems and solution» 3-part, 2-530. Imperial College London, 1.06.2022. p 552-559. https://doi.org/10.5281/zenodo.6602214

5. Султанов Е.К., Совершенствование методики профессиональной подготовки будущих специалистов аграрного комплекса. Журнал «Касб-хунар таълими», 2022 й. №2. 84-89 бетлар. (13.00.00. №19)

6. Султанов Е.К., Бўлажак аграр соҳаси мутахассисларини касбий тайёрлаш тизимини ривожлантиришнинг концептуал асослари. “Замонавий машинасозликда инновацион технологияларни қўллашнинг илмий асослари: тажриба ва истиқболлар” мавзусида халқаро миқиосида илмий-амалий конференция материаллари тўплами. 5-том. Наманган шахри. 23-24-сентябр 2022 йил. 99-103 бетлар.

7. Султвнов Е.К., Олий таълим муассасалари аграр соҳаси мутахассисларини тайёрлашда компетенцияга асосланган ёндашув доирасида талабаларнинг мустақил иши. “Арал бойы аймағында суў ресурсларынан пайдаланыў мониторинги ҳәм жаңа бақлаў технологияларын ислеп шығыў” атамасындағы халықаралық илимий-техникалық конференция материаллары топламы. Нөкис. 2022-жыл. 269-275 бетлер.

8. Султанов Е.К., Компетенциялар асосида аграр соҳасида мутахассисларини тайёрлаш масалалари ҳақида. “Арал бойы аймағында суў ресурсларынан пайдаланыў мониторинги ҳәм жаңа бақлаў технологияларын ислеп шығыў” атамасындағы халықаралық илимий-техникалық конференция материаллары топламы. Нөкис. 2022-жыл. 275-281 бетлер.

9. Султанов Е.К., 3D технологияси асосида “Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш ва автоматлаштириш” фанини ўқитишнинг методикасини такомиллаштириш. Услубий қўлланма. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги “Интеллектуал мулк маркази” давлат муассасаси. Муаллифлик ҳуқуқи объектларини депонентлаш тўғрисидаги №005932 сонли гувохнома. Тошкент. 27 феврал 2023 йил.

10. Султанов Е.К., 3D технологияси асосида “Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш ва автоматлаштириш” фанини ўқитишнинг методикасини такомиллаштириш номли услубий қўлланмаси андроид мобил иловаси. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, Электрон хисоблаш машиналари учун яратилган дастурнинг расмий рўйхатдан ўтказилганлиги тўғрисида гувохнома, № DGU 22245, Тошкент. 3 март 2023 йил.

11. Султанов Е.К., Ўзбекистоннинг аграр соҳаси мутахассисларини касбий тайёрлаш бўйича ижтимоий ислиҳотлари. Ўзбекистонда фанлараро инновациялар ва илмий тадқиқотлар журнали. 16-сон.202.02.2023. 93-101 бетлар.

12. Султанов Е.К., Аграр соҳаси олий таълим муассасалари ўқитувчиларининг агропедагогик компетенцияси. Касб-хунар талими, 2023 йил. 1-сон. 203-207 бетлар. (13.00.00. №19)

13. Sultanov E.K., Agro-pedagogical competence is the basis for preparing future agricultural specialists for professional activities. Science and innovation. International scientific journal volume

2 issue 5 may 2023 UIF-2022:8,2/ISSN: 2181-3337/scientists.uz. 264-273p. https://doi.org/10.5281/zendo.7991225.

14.Султанов Е.К., Компетенциявий ёндашув асосида бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлаш методикаси. International Scientic Journal SCIENCE AND INNOVATION. Special Issue «Actual issues of agricultural development:problems and solutions»/. June 2023. Part 2. 479-483p. https://doi.org/10.5281/zenodo.8012624.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада компетенциявий ёндашув асосида бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлаш методикасини такомиллаштириш масалалари ҳақида келтирилган. Давлатимиз таълим жараёнига инновацияларни жорий этиш, педагогларнинг компетенцияларини шакллантириш ва такомиллаштириш усулларини илмий асосланган, талабаларнинг таълим тизимига мос келадиган малакали таълим усулларини жорий этиш, ўқув-услубий материалларни такомиллаштириш масалалари берилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлены вопросы совершенствования методики подготовки будущих специалистов сельского хозяйства к профессиональной деятельности на основе компетентностного подхода. Приведены вопросы внедрения инноваций в образовательный процесс нашей страны, формирования и совершенствования компетенций педагогов, внедрения качественных образовательных методик, подходящих для системы воспитания студентов, совершенствования учебно-методических материалов.

SUMMARY

This article presents the issues of improving the methodology for preparing future agricultural specialists for professional activities based on a competency-based approach. The issues of introducing innovations into the educational process of our country, the formation and improvement of the competencies of teachers, the introduction of high-quality educational methods suitable for the system of educating students, and the improvement of educational and methodological materials are given.

BO‘LAJAK MATEMATIKA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

Xasanov F. Z.
Termiz davlat pedagogika instituti o’qituvchisi

Tayanch so’zlar: kompitetntlik, kompitensiya, kognitiv kompitensiya, tayanch kompitensiya.

Ключевые слова: компетентность, компетентность, познавательная компетентность, базовая компетентность.

Key words: competence, competence, cognitive competence, basic competence.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi uchun matematika o‘qituvchilarini tayyorlashga alohida e’tibor berilgan. Kasb-hunar kollejlarida dars beradigan pedagog kadrlar yuqori saviyali bo‘lish bilan bir qatorda, yangi pedagogik texnologiyalarni to‘liq o‘zlashtirgan, zamonaviy bilim bera olish qobiliyati, kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantira olish mahoratiga, ya’ni kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishlari lozimligi ta’kidlab o‘tilgan.

Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak matematika o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘ziga xos shart-sharoitni talab qilish bilan birgalikda, fanlararo aloqadorlik hamda izchillik tamoyiliga tayangan holda o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishni taqozo qiladi.

Oliy ta’lim muassasasi talabalarining shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy-shaxsiy qiziqishlari, kasbiy yo‘nalganligi, mustaqil fikrlashlari, ijodkorliklari, faolliklari, munosabatlarining faollashib hamda doimiy ravishda ortib borishi, har tomonlama fikrlash qobiliyatlarining faollashishi va o‘zini-o‘zi tan olishiga bo‘lgan ehtiyojlarining shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi.

Молиявий саводхонлик муаммоси 2008¬2009 йиллардаги жаҳон молиявий¬иқтисодий инқирози ва Covid¬19 пандемияси шароитида янада долзарблашди. Етарлича молиявий билимларга эга бўлмаслик оқибатида қатор мамлакатлар аҳолиси чуқур ўйланмаган молиявий қарорлар қабул қилиши

натижаси салбий оқибатларга олиб келди. Салбий ҳолатлар дастлаб аҳолининг муаммоли қарзлари кўринишида намоён бўлди. Жумладан, молиявий институтлар томонидан тўлов қобилияти паст ва ўз молиявий мажбуриятларини бажариш имкониятига эга бўлмаган қарз олувчиларга ипотека кредитлари берилди. Ипотека кредити олаётганларнинг аксарияти фойдаланаётган молия дастурлари ва унинг хусусиятлари тўғрисида тўлиқ маълумотга, етарли иқтисодий билимга эга бўлмаган. Шу муносабат билан 2011 йилда "Катта йигирматалик" саммитида истеъмолчилар ҳуқуқини ҳимоялаш ва молиявий хизматлардан фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш макроиқтисодий даражада молиявий барқарорликка эришишнинг муҳим шарти сифатида тан олинди.

2012 йилдаги ИҲРТ ва Молиявий таълимни таъминлаш бўйича халқаро агентлик ҳамкорлигида ўтган саммитда ишлаб чиқилган "Молиявий таълим бўйича миллий стратегия тамойиллари" маъқулланди. 2014 йилда ИҲРТ нинг Молиявий таълимни таъминлаш бўйича халқаро агентлиги томонидан "Миллий молиявий таълим стратегиясини жорий этиш бўйича йўриқнома" ишлаб чиқилди ва танланган мамлакатларда миллий молиявий таълим стратегияларини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш бошланди.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. ИҲРТ ҳисоботига мувофиқ 2017¬2021 йилларда МДҲ мамлакатларида катта ёшдаги аҳолининг молиявий саводхонлик даражаси борасида ИҲРТ га аъзо мамлакатлар, Жануби¬Шарқий Европа мамлакатларига нисбатан паст кўрсаткич қайд этилган. Ушбу ҳолат МДҲ мамлакатларида аҳоли ўртасида молиявий саводхонлик даражасини ошириш борасида жиддий муаммолар мавжудлигини кўрсатди.

2021 йилда Беларус, Россия, Ўзбекистон ва Қозоғистонда молиявий саводхонлик кўрсаткичи МДҲ бўйича ўртача кўрсаткич даражасидан юқори қайд этилди. Молиявий саводхонлик кўрсаткичининг муҳим компоненти ҳисобланган молиявий билимлар кўрсаткичи бўйича Беларусь ва Қозоғистонда ўртача даражадан юқори кўрсаткичга эришилган. Ушбу ҳолат МДҲ нинг бошқа мамлакатларида молиявий саводхонликнинг базавий билимларини шакллантиришга қаратилган таълим дастурлари ва молиявий таълим тизимини такомиллаштириш зарурлигини кўрсатмоқда.

Молиявий саводхонлик даражасини аҳолининг маълумоти бўйича таҳлили ушбу кўрсаткичнинг асосан ёшлар, яъни маълумоти йўқ ва ўрта маълумотлилар ўртасида пастлигини кўрсатмоқда. Мазкур ҳолат ёшлар ўртасида молиявий саводхонлик даражасини ошириш бўйича мақсадли миллий стратегияни ишлаб чиқиш зарурлигини тақозо этади. Назаримизда молиявий саводхонлик бўйича миллий стратегияни шакллантиришда асосий

эътиборни ИҲРТ томонидан ишлаб чиқилган ва амалиётга тавсия этилган услубиётдан фойдаланишга қаратиш мақсадга мувофиқ.

Тадқиқот методологияси. Ушбу мақоланинг назарий ва услубий асоси бўлиб молиявий саводхонликни оширишга хизмат қилувчи халқаро дастурлар, уларнинг амалиётга жорий қилинишининг аҳамияти, ривожланган ва ривожланаётган давлатларда молиявий саводхонлик дастурларининг афзалликлари, мамлакатимиздаги иқтисодий йўналишдаги турли дастурлар, камбағалликка қарши курашиш борасида олиб борилаётган амалий ишлар ва чора-тадбирларни таҳлил қилиш асосида чиқарилган илмий хулосалар хизмат қилади. Шунингдек, тадқиқот жараёнида эксперт баҳолаш, жараёнларни кузатиш, иқтисодий ҳодиса ва жараёнларга тизимли ёндашув, муаллиф тажрибалари билан қиёсий таҳлил ўтказиш орқали тегишли хулосалар чиқаришга имкон берувчи усуллардан фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. Тадқиқот давомида амалга оширилган таҳлиллар ҳамда улар орқали қўлга киритилган натижаларга кўра қатор назарий қоидалар ва амалий таклифларни илгари суриш мумкин.

Хорижий давлатлар тажрибасини ўрганишда Австралия, Буюк Британия, Қўшма Штатлар, Бразилия ва Хитой давлатларида молиявий саводхонлик дастурларини таҳлил қилиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Австралия ҳукумати томонидан 2004 йил бошида молиявий саводхонлик бўйича миллий дастур ишлаб чиқилиб, унинг доирасида 2005 йилда молиявий саводхонлик жамғармаси ташкил этилган. Бундан ташқари, Австралия ҳукумати молиявий саводхонликни тоифалаш бўйича, хусусан, етиб бориш қийин бўлган жойларда яшовчи ёшлар ва аҳолининг саводхонлигини ошириш юзасидан бир қатор дастурлар ишлаб чиқди.

Қўшма Штатларга келсак, у ерда дунёдаги энг йирик молия маркази – Нью-Йорк жойлашган бўлиб, аҳолининг молиявий саводхонлигини ошириш борасида бой тажрибага эга. Қўшма Штатлар Ғазначилиги 2002 йилда Молия институтлари бюроси давлат агентлигини ташкил этди. АҚШ Конгресси билан ҳамкорликда Молиявий саводхонлик ва таълим комиссияси ташкил қилинди. 2006 йилда эса Молиявий саводхонликнинг миллий стратегияси ишлаб чиқилди. Амалга оширилаётган чора-тадбирлар йўналиши бир хил бўлишига қарамасдан, АҚШда бу борада сезиларли натижаларга эришилган. Мазкур мамлакатда молиявий саводхонлик даражаси юқори ҳисобланади. Америкада «молиявий саводхонлик» ҳақиқий миллий ҳаракат мақомини олди. Ушбу ривожланишнинг эркин модели молиявий саводхонлик борасида турли географик ва ижтимоий шароитларда яшовчи турли мақсадли гуруҳлар билан ноёб тажриба тўплаш имконини беради.

Бразилияда 2010 йилда бошланган синов лойиҳаси мамлакат бўйлаб 30 минг ўқувчини қамраб олди ва муваффақиятли якун топди. Кейинги йилларда бу лойиҳа мамлакат бўйлаб 212 мингта мактабга татбиқ этилди ва унинг иштирокчилари сони 58 миллионга етди.

Хитойда ҳам, Бразилияда бўлгани каби, аҳолининг молиявий маданиятини ошириш жараёнида давлат асосий ижрочи ҳисобланади. Шу билан бирга, ХХР ҳозирги пайтда аҳолининг молиявий саводхонлигини оширишга қаратилган ягона дастурга эга эмас. Бу соҳада фақат айрим давлат органларининг саъй-ҳаракатлари эътиборга моликдир. Бунга ўқувчиларнинг молиявий саводхонлигини ошириш дастурини мисол келтириш мумкин. Ушбу дастур Халқ таълими вазирлиги ва Хитой молия вазирлиги ҳамкорлигида ишлаб чиқилган.

Ушбу чора-тадбирларни Ўзбекистон шароитида қўллаш мумкинлигига келсак, уларнинг баъзилари жуда истиқболли ҳисобланади. Бу эса аҳолининг молиявий саводхонлиги нуқтаи назаридан Ўзбекистон, Хитой ва Бразилия ўхшашлиги билан изоҳланади.

Бу борада Ўзбекистон тажрибасида алоҳида эътиборга молик чора-тадбирлар амалга оширилган. Илк маротоба Ўзбекистонда маҳалла, туман, шаҳар ва вилоят кесимида “Темир дафтар”, «Ёшлар дафтари» ва «Аёллар дафтари» шакллантирилди. Дафтарлар, ҳокимлар, сектор раҳбарлари, мутасадди ташкилотлар ёшлар ва аёллар масалаларида ҳар бир ҳудудда ҳолат қандайлиги ҳақида аниқ маълумотга эга бўлиш, шунга қараб чора-тадбир белгилаш учун жуда зарур манба бўлиб ҳизмат қилиниши белгиланди. Пандемия муносабати билан мамлакатда карантин чоралари кучайтирилган, эҳтиёжманд оилаларни манзилли қўллаб-қувватлаш зарурати янада ошишига олиб келган бир шароитда айнан «темир дафтар»га киритилган фуқароларга биринчи навбатда давлат ёрдамини йўналтириб туриш, ижтимоий барқарорликни сақлаб қолиш учун асос бўлиб хизмат қилди.

Шу ўринда, аҳоли молиявий саводхонлигининг ижтимоий аҳамиятига алоҳида эътибор қаратиш лозим. Чунки, алоҳида шахснинг молия борасидаги билим ва кўникмалари пировардида бутун жамият иқтисодий ҳаётининг муваффақияти ва барқарорлигини белгилаб беради.

Р.Восканяннинг таъкидлашича, аҳоли молиявий саводхонлигини ошириш масаласини унинг даражасига таъсир кўрсатувчи асосий омилларни аниқламасдан туриб ҳал этиб бўлмайди. Шунга кўра у қуйидаги омилларга эътибор қаратиш лозимлигини таъкидлайди:

1) мамлакатдаги иқтисодий таълим даражаси;

2) молиявий инфратузилманинг ривожланганлик даражаси;

3) аҳолининг иқтисодиётга бўлган ишончи даражаси;

4) молиявий хизматлардан фойдаланиш имкониятлари.

Фикримизча, аҳоли молиявий саводхонлиги тушунчаси ўта даражада умумлаштирилган мазмун касб этиб, уни молиявий саводхонлик даражасига таъсир кўрсатувчи омилларнинг юқорида келтирилган таснифи тўлиқ ифодалай олмайди. Унинг мазмун-моҳиятига чуқурроқ кириб бориш ўз навбатида мазкур тушунчанинг турли (масалан, алоҳида шахс, муайян ҳудуд аҳолиси, мамлакат аҳолиси) даражаларини табақалаштиришни тақозо этади.

Молиявий саводхонликни юксалтиришнинг омилларидан бири молиявий таълимдир. Молиявий саводхонликни юксалтириш бўйича лойиҳаларни амалга оширишнинг жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, молиявий саводхонликни оширишга қаратилган барча дастурлар давлат ташаббусларидан келиб чиқади, кейин эса давлат ва хусусий ташкилотлар жалб этилади. Кўпгина мамлакатларда дастурларни молиялаштиришнинг энг кенг тарқалган вариантларидан бири миллий (марказий) банклар орқали ташкил этилганлигидир, масалан, Полша, Белгия, Чехия, Корея, Индонезия, Венгрия, Сербия кабиларни мисол тариқасида келтириш мумкин. Иккинчи энг кенг тарқалган ўринни Қўшма Штатларда, шунингдек, Буюк Британия, Корея, Япония ва Ирландияда мавжуд бўлган молиявий регуляторлар эгаллайди. Шу билан бирга, ҳомийлик таълим вазирликлари, жамғармалар, таълим ташкилотлари ёки бандлик масалалари бўйича ташкилотлар ва бошқалар томонидан амалга оширилиши мумкин.

Жаҳонда молиявий таълимни ривожлантириш ва аҳолининг молиявий саводхонлигини ошириш бўйича муаммоларини тушуниш, ҳал этилиши ва кўламига кўра мамлакатларни қуйидаги гуруҳларга бўлиш мумкин:

1. Молиявий таълим ва аҳолининг молиявий саводхонлигини ошириш муаммолари узоқ даврдан бошлаб ўрганилиб, муваффақиятли ҳал этиб келинаётган мамлакатлар (АҚШ, Канада, Австралия, Буюк Британия, Германия, Франция, Сингапур ва Янги Зелландия);

2. Молиявий таълим ва аҳолининг саводхонлик даражаси муаммолари кун тартибига қўйилган ва мазкур муаммо ҳал этиш чора-тадбирлари амалга ошириш жараёнидаги мамлакатлар (Италия, Нидерландия, Австрия, Польша, Чехия, Ҳиндистон, Россия);

3. Молиявий таълим ва аҳолининг молиявий саводхонлиги даражасини ошириш муаммосини ўрганиш кун тартибига қўйилиши режалаштирилаётган ва бу борада айрим тадбирлар амалга оширилаётган мамлакатлар (бошқа мамлакатлар).

Жаҳон амалиёти шуни кўрсатмоқдаки, аҳоли, тадбиркорлар ўртасида молиявий саводхонликни ошириш масаласига эътибор қаратилиши банк-молия бозори ривожланишига туртки берувчи муҳим омиллардан бири ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан молиявий саводхонликни ошириш бўйича халқаро тажрибанинг илғор ютуқлари инобатга олинган ҳолда «Ўзбекистонда 2019–2021 йилларда аҳолининг молиявий саводхонлик даражасини ошириш дастури» ишлаб чиқилди.

Аҳоли ва тадбиркорлар уларга кўрсатилаётган молия маҳсулотлари ва хизматларининг мазмуни, шартлари, молиявий хавф-хатарларини баҳолаш бўйича билим ва кўникмаларга эга бўлмаслиги мумкин. Шу сабабли тегишли ташкилотлар томонидан кўрсатилаётган молиявий хизматлар тўғрисидаги базавий маълумотлар бўйича аҳоли ўртасида тушунтириш ишларини олиб бориш оддий истеъмолчининг молия ташкилотлари билан самарали алоқасини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга.

Бугунги кун болалари эртанги кунимизнинг инвесторлари, миллионерлари, молиячилари, омонатга пул қўювчилари, кредиторлари ва акциядорларидир. Ўзбекистонда ёшлар ва болалар аҳолининг 60 % ини ташкил қилишини ҳисобга оладиган бўлсак, ёшлар онгига молиявий саводхонлик, пул, молия, жамғарма, тежамкорлик каби тушунчаларни кичиклигидан сингдириб бориш муҳим аҳамият касб этади.

Ёшларнинг молиявий саводхонлигини ошириш учун қуйидагилар зарур:

– ёшлар ва болалар билан оилавий бюджетни режалаштириш, яъни оиладаги даромад нимага сарфланаётганлигини кўрсатиш жоиздир;
– пулни тежаш учун маҳсулотларни танлашни арзонроққа ўргатиш тавсия этилади;
– «молиявий» ўйинларни уюштириш, «Монополия» стол ўйини пулнинг функциялари ва имкониятларини мукаммал тарзда намойиш этади;
– ёшларни банк хизматларидан фойдаланиш ва рақамли тўловларни амалга оширишга ўргатиш мақсадга мувофиқ.

Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан мультфильмлар орқали болаларнинг молиявий саводхонлигини оширишга қаратилган лойиҳалар мавжуд. Масалан, регуляторнинг finlit.uz ижтимоий тармоқлари ва расмий сайтига жойлаштирилган қувноқ дўмбоқчалар «Молиявий саводхонлик алифбоси» ўқув-таълим мультфильмининг “Жаннатмакон орол” номли қисмида болаларга инвестиция тушунчаси Тиканвойнинг ёнғоқни кўпайтириш ғояси орқали жуда оддий усулда тушунтириб берилган.

Севимли мультфильм қаҳрамонлари орқали болалар молиявий саводхон инсоннинг харидлар рўйхатини тўғри тузиш, харажатларни режалаштириш, жамғармаларни шакллантириш ва бошқа фазилатлари хақида яқиндан билиб оладилар.

Банк фаолиятида молиявий саводхонликни оширишнинг долзарблиги банклар томонидан кўрсатиладиган хизматлар рўйхатининг кенгайиши, молиявий воситаларнинг мураккаблашиши, глобаллашув жараёни ва блокчейн технологияларининг молия сектори ривожланишига таъсири билан боғлиқ. Молиядан оқилона фойдаланиш қийматини оширадиган иқтисодий инқирозни, шунингдек, таълим шароитида таълим олган аҳолининг кўпчилигининг молиявий билимларининг XXI аср ҳақиқатига мос келмаслигини ҳам ҳисобга олиш керак.

Шу омилларни ҳисобга олган холда, Марказий банк томонидан аҳолининг молиявий саводхонлигини ошириш мақсадида Finlit.uz ахборот-таълим ресурси ишга туширилди. Мазкур лойиҳа олдига мамлакат аҳолиси томонидан молиявий хизматларни танлаш ва улардан фойдаланиш, шунингдек, оқилона ва масъулият билан молиявий қарорлар қабул қилиш ҳамда молия бозоридаги имкониятларни тўғри баҳолашга ёрдам берувчи билим ва кўникмаларни шакллантириш вазифалари қўйилган. Материалларда берилган маълумотлар тавсиявий характерга эга бўлиб, улар молиявий саводхон шахснинг хулқ-атвори ва кўникмаларини шакллантиришга қаратилган.

Хулоса ва таклифлар. Жамиятда аҳоли орасида молиявий саводхонликни шакллантиришнинг асосий омиллари бизнингча қуйидагилардир:

1. Таълим. Таълим даражаси молиявий саводхонликка таъсир қилувчи асосий омиллардан биридир. Таълим сифати ва даражаси қанчалик юқори бўлса, инсоннинг молия соҳасидаги билим ва кўникмаларга эга бўлиш эҳтимоли кўпроқ бўлади. Молиявий саводхонлик даражаси юқори бўлган инсонлар ва миллионерлар қиёфасини яратиш ва таҳлил қилиш борасида тадқиқот ишлари олиб борган Уильям Данко ва Томас Стэнли "Менинг қўшним - миллионер" бестселлерида миллионерлар ўз болалари ва набираларининг таълими учун кўп маблағ тикишларини маълум қилишган.

2. Тажриба. Молиявий саводхонликни шакллантиришда шахсий молияни бошқариш тажрибаси муҳим рол ўйнайди. Ўз маблағини бошқариш тажрибасига эга бўлган одамлар, одатда, молиявий жиҳатдан кўпроқ масъулиятли ва онгли қарорлар қабул қилишади.

3. Мухит. Инсон яшайдиган ва фаолият юритадиган муҳит унинг молиявий саводхонлигига таъсир кўрсатмай қолмайди. Мисол учун, инсон моли-

явий масалалар биргаликда муҳокама ва ҳал қилинадиган оилада турмуш кечирса, бу молиявий саводхонликни шакллантиришга ёрдам беради.

4. Маданият ва одатлар. Инсонларнинг ҳар куни амалга оширадиган ишларининг 95 % ини уларнинг ҳаёти давомида орттирган одатлари ташкил этади. Шу боис ҳам одатлар ва улар натижасида ҳосил бўлган маданият нафақат молиявий саводхонликка, балки инсоннинг келажак ҳаётида ҳам ижобий ўзгариш ясайди. Масалан, пул жамғаришни одат тусига киритиб, кунига 5 доллардан йиғиб борилса ва маълум суммага етгандан сўнг банкка омонатга қўйиш орқали иқтисодий фаровонликни таъминлашнинг бир усулини яратиш мумкин.

5. Мамлакатнинг иқтисодий даражаси. Давлатнинг иқтисодий даражаси молиявий саводхонликка ҳам таъсир қилиши мумкин. Ривожланган мамлакатларда яшовчи одамлар одатда таълим олиш ва молия соҳасида тажриба борасида кўпроқ имкониятларга эга. Чунки интеллекти юқори ходимлар учун айнан ривожланган мамлактларда кўп тўлашади.

6. Оммавий ахборот воситалари. Оммавий ахборот воситалари аҳолининг молиявий саводхонлигини оширишга сезиларли таъсир кўрсатиши мумкин, чунки улар одамларга молиявий воситалар ва имкониятлар ҳақида кўпроқ маълумот беради.

7. Шахсий эътиқод ва қадриятлар. Шахсий эътиқод ва қадриятларнинг молиявий саводхонликка таъсирини баҳолашда қуйидаги жиҳатларига эътибор қаратиш муҳим. Мисол учун, инсон кредит олишга эҳтиёжи бўлсада, бироқ кредитни фоизли қарз сифатида билиб, қабул қилмаса ва эътиқодига кўра уни ноҳалол деб ҳисобласа, у кредит олишдан қочиши ва ўз молиясини бошқаришда зарур тажрибага эга бўлмаслиги мумкин.

Хулоса ўрнида таъкидлаш керакки, аҳолининг молиявий саводхонлигини шакллантириш кўплаб омилларга, жумладан, таълим, тажриба, атроф-муҳит, маданият, шахсий фазилатлар, ахборот ва молиявий саводхонликка боғлиқ. Ушбу омилларнинг ривожланишига ўқитиш, молиявий хизматларнинг мавжудлигини ошириш ва молиявий маданиятни ривожлантириш учун қулай муҳит яратиш орқали эришиш мумкин.

Адабиётлар:

1. Mijs W. Importance of financial education. The European Banking Federation, 2015: http://www.ebffbe.eu/wpcontent/uploads/2015/06/The Importance of Financial Education.pdf

2. Bernheim, B. D. Financial illiteracy, education, and retirement saving. In Living with Defined Contribution Pensions (Mitchell, O. & Schieber, S. eds). Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1998. pp. 38¬68; Braunstein, S. & Welch, C. Financial literacy: An overview of practice, research, and policy. Federal Reserve Bulletin, 88 (11), 2002, pp. 445¬457 URL: http://www.federalreserve.gov/pubs/bulletin/2002/1102lead.pdf

3. Bowen, C. F. Informal money management education: Perceptions of teens and parents. Consumer Interests Annual, 42, 1996, p. 233; Rand, D. Financial education and asset building programs for welfare recipients and low income workers: The Illinois

4. OECD/INFE. The High level Principles on National Strategies for Financial Education. Paris, August 2012.

5. OECD (2021), Financial Literacy Levels in the Commonwealth of Independent States in 2021 www.oecd.org/financial/education/financial literacy levels in the commonwealth of independant-states 2021

6. Уильям Д.Данко, Томас Дж. Стэнли “Менинг қўшним - миллионер”, “Зукко китобхон”, Тошкент-2021 й.

7. Брайан Трейси. Как увеличить свои доходы в 2-3 раза. https://youtu.be/lUb9N4oQdTY

8. Bodo Shefer speaking at Synergy Global Forum 2016, Part 1 https://youtu.be/nQRcI1Xb-c8

9. Жеймс Клир “Атом одатлар”. “Asaxiy Books” 2022 й.

10. “Латте омили” “Asaxiy Books” 2022 й.

11. “Яланғоч иқтисодиёт” “Asaxiy Books” 2022 й.

12. О.Вихрова https://cyberleninka.ru/article/n/smi-kak-instrument-povysheniya-finansovoy-gramotnosti-vzroslogo-naseleniya-rf

13. Восканян Р.О. Финансовая грамотность как условие формирования финансовой культуры. Azimuth of Scientific Research: Economics and Administration. 2018. Т. 7. № 1(22). 38-С.

14. https://t.me/finlituzb/2004

15. https://finlit.uz/oz/

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада аҳолининг молиявий саводхонлигини шакллантиришнинг муҳим омиллари, мамлакат аҳолисининг ва шахснинг молиявий саводхонлиги даражасига таъсир кўрсатувчи умумий омиллар, шунингдек, болалар молиявий саводхонлигини оширишдаги долзарб факторлар ва унинг аҳамияти ҳамда молиявий саводхонликни оширишдаги халқаро тажриба андозалари, АҚШ, Бразилия, Хитой ва Австралиядаги молиявий саводхонликни шакллантириш амалиёти ўрганилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье исследуются важные факторы формирования финансовой грамотности населения, общие факторы, влияющие на уровень финансовой грамотности населения страны и отдельного человека, а также текущие факторы и их значение в повышении финансовой грамотности детей и международный опыт в области повышения финансовой грамотности, практика формирование финансовой грамотности в Соединенных Штатах, Бразилии, Китае и Австралии.

SUMMARY

This article examines the important factors of the formation of financial literacy of the population, general factors affecting the level of financial literacy of the population of the country and an individual, as well as current factors and their importance in improving financial literacy of children and international experience in the field of improving financial literacy, the practice of financial literacy in the United States, Brazil, China and Australia.

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA GEOGRAFIYA FANINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB O'QITISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

Shodiyev H. R.
Navoiy davlat pedagogika instituti o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

Tayanch so'zlar: masofaviy ta'lim, aralash ta'lim, axborot ta'lim muhiti, platforma, web-sayt.

Ключевые слова: дистанционное образование, смешанное обучение, информационная среда обучения, платформа, веб-сайт.

Key words: distance education, mixed education, information learning environment, platform, website.

Bugungi kunda xorijning rivojlangan oliy ta'lim muassasalari an'anaviy ta'lim bilan birga masofaviy va aralash ta'limga alohida e'tibor qaratilishi tufayli talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar, ya'ni umumiy ta'lim dasturini amalga oshirish shartlari va tuzilishi o'zgarib bormoqda.

Masofaviy va aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning keng ko'lamli qo'llanilishi nafaqat o'quv jarayonini epidemiologik xavfsiz amalga oshirishga, balki ta'limini raqamli postindustrial jamiyatning zamonaviy voqeliklariga moslashtirishga imkon beradi. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlarni, jumladan geografiya fanlarini o'qitish samaradorligini oshirishda, talabalarning geografiyaga oid kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda masofaviy o'qitish tizimlaridan, axborot ta'lim muhitlaridan, ta'lim platformalaridan, ta'limiy web-saytlardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Buning uchun dastlab xorijiy tajribalarni o'rganish orqali, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga joriy etishni taqoza etadi.

Masofaviy o'qitish tizimlari fanlarni, shu jumladan geografiya fanlarini chekka hududlari aholisini o'qitish, maktab ta'limi, kasb-hunar ta'limi, korporativ va harbiy tayyorgarlik, oliy va uzluksiz ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun qo'llaniladi. Texnik nuqtai nazardan, bu yerda o'qituvchi va o'quvchi-talabalar uchun barcha aloqa vositalari taqdim etilgan - sirtqi ta'limda

kompyuter o‘quv dasturlari, web-texnologiyalar, videokonferensiyalar, sun’iy yo‘ldosh televideniyasi, turli elektron ommaviy axborot vositalaridagi o‘quv materiallari faol qo‘llaniladi.

Shunday qilib, 90-yillarda paydo bo‘lgan masofaviy ta’lim dasturlari XX asrda keng ko‘lamli yondashuvlar bilan ajralib turadi. Ayni paytda CALS (Continuous Acquisition and Life cycle Support) dasturi joriy etilgan bo‘lib, bunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari asosida talabalar bilan aloqa va fikr-mulohazalarga asoslanib, tarmoqlar orqali mustaqil o‘quv kurslarini taklif etadi. Shuningdek, kompyuterlashtirilgan darslarni taklif qiladi, undan so‘ng o‘qituvchilar bilan elektron pochta orqali muhokama qilinadi hamda hafta oxirida markazlashtirilgan yuzma-yuz fikr mulohazalar olib boriladi [1].

AQShda masofaviy dasturlardan talabalarning qariyb 20 foizi ta’lim oladi va bu ko‘rsatkichning o‘sish sur’ati an’anaviy ta’lim shakllariga qaraganda samarali hisoblanadi. Kollej o‘quvchilarining qariyb 10 foizi, attestatsiyaga ega bo‘lgan dasturlarda (asosiy oliy, tamomlangan oliy, bakalavr) talabalarning yarmi, doktorantura va magistratura yo‘nalishlarida, talabalarning uchdan bir qismi masofadan turib ta’lim oladi. O‘qituvchilarning 2/3 qismi (an’anaviy va masofaviy kollejlarda) yarim kunlik (to‘liq bo‘lmagan) ishlaydi. AQShda har yili 2 millionga yaqin kishi onlayn oliy ma’lumot oladi. Shunga ko‘ra, masofaviy ta’lim uchun mo‘ljallangan dasturiy ta’minot va texnik vositalar jadal rivojlanmoqda. AQShda masofaviy o‘qitish tizmlaridan samarali foydalanib kelinayotgan Penn State, Florida universiteti, Massachusets oliy ta’lim muassalarini misol sifatida keltirish mumkin [2]. Ushbu oliy ta’lim muassasalarida geografiya fanlarini o‘qitishga mo‘ljallangan interaktiv o‘quv vositalaridan samarali foydalanib kelinadi.

Dunyoning turli mamlakatlarida masofaviy ta’lim bozorining o‘sishi yiliga o‘rtacha 10-20% ni tashkil qiladi [3]. Hozirgi vaqtda global iqtisodiy inqiroz jamiyatning barcha asosiy sohalariga ta’sir qila boshlagan bir paytda, AQSH va boshqa mamlakatlarda ta’lim ko‘p insoniyat uchun o‘zini-o‘zi o‘qitishga aylanmoqda. Bunda talabaning nufuzli onlayn ta’lim muassasalarida ishlab chiqilgan multimedia o‘quv dasturlaridan foydalanishi, faqat vaqti-vaqti bilan repetitor yordamiga murojaat qilishi orqali sifatli ta’lim olib kelmoqda. Shu maqsadda bugungi kunda AQSH oliy ta’lim muassasasining roli va funksiyasini bilim manbaidan Learning management system (LMS) orqali olingan bilimlar koordinatoriga aylantirmoqda.

Yevropa davlatlarida masofaviy va aralash ta’limga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning faoliyati global

tarmoq orqali amalga oshiriladi. Yevropa davlatlarida global tarmoq orqali tahsil olish uchun interaktiv kurslar va gipermatnli o‘quv vositalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, o‘qitishni texnik va uslubiy ta’minlash, pedagogik texnologiyalar hamda umuman o‘quv jarayonini boshqarish sifatini nazorat qilishni o‘z ichiga oladi. O‘quv fanlari mazmunini ishlab chiqish professor-o‘qituvchilarning birgalikdagi sa’y-harakatlari yoki chetdan mutaxassislarni jalb qilish orqali amalga oshiriladi.

Bu kabi vositalardan Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Polsha va Chexiya oliy ta’lim muassasalarida ham samarali foydalanib kelmoqda. Keltirilgan davlatlarning o‘qitish holatini tahliliga ko‘ra, geografiya fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirishda didaktik elektron ta’lim resurslardan, vebga yo‘naltirilgan o‘quv vositalardan, onlayn o‘qitish tizimlaridan, axborot ta’lim muhitlaridan, ta’lim portallaridan, ta’limiy web-saytlaridan faol foydalanilib kelinmoqda. Mazkur davlatlarning oliy ta’lim muassasadlarida geografiya faniga oid keyslar berib boriladi. Talabalar berilgan keyslarni mashg‘ulotlar vaqtlarida, darsdan tashqari o‘quv faoliyatlarida axborot ta’lim muhitlaridan, ta’limiy portallaridan va ta’limga oid web-saytlaridan foydalanib bajarib kelmoqda. Eng qadimgi ilmiy va geografik ta’limning uzoq an’analariga ega bo‘lgan mamlakatlar - o‘ziga xos barqaror va o‘zini-o‘zi ta’minlaydi. Shuningdek, Yevropani qator davlatlarida, jumladan Belgiya, Finlyandiya, Niderlandiya oliy ta’lim muassasalarida geografiya fanini o‘qitishda masofaviy o‘qitish tizimlari va ta’lim muhitlaridan foydalanish bilan birga dala amaliyotlarida foydalanilib kelinmoqda. Bunda talabalar geografiyaga oid tadqiqot ishlarini olib borish imkoniyalari ta’minlangan.

Italiya, Ispaniya, Lotin Amerikasi davlatlarida esa geografiya fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirishda va talabalarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida qo‘shma dasturlar ishlab chiqilgan. Ushbu oliy ta’lim mussasalarida geografiya fanlarini o‘qitishda virtual o‘qitish tizimlaridan, video resurslardan va muammoli ta’lim texnologiyalaridan keng ko‘lamda foydalanilib kelinmoqda.

Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koyeyaning oliy ta’lim muassasalarida geografiya fanlarini o‘qitish modeli o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi, bu yerda keng qamrovli bilimlar paradigmasiga muvofiq, ta’limning ekologik va gumanitar-tarixiy komponentlari ayniqsa samarali hisoblanadi. Ushbu davlatlarning oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga qaratilgan o‘quv vositalaridan, jumladan sun’iy intellekt tizimlaridan keng ko‘lamda foydalanilib kelinmoqda.

Turkiyada talabalarning yarmi masofadan turib, turli ta’lim muhitlaridan foydalanib ta’lim oladi, Hindiston oliy ta’lim muassasalarida bir million talaba onlayn ta’lim oladi. Global tarmoq orqali, xususan onlayn o‘quv kurslar, axborot ta’lim muhitlari, ta’lim portallari, ta’limiy web-saytlar kabi masofaviy ta’lim shakllari Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida, shu jumladan Rossiya, Ukraina, Belarusiya, Qozog‘iston va boshqa davlatlarda faol davom etmoqda. Xususan, Rossiyada ko‘plab ta’lim muassasalari masofaviy ta’limni taklif qilishadi, shu bilan birga ko‘p jihatdan sezilarli qiyinchiliklarga duch kelishadi, birinchi navbatda bunday faoliyat uchun tayyorlanayotgan pedagog kadrlarning yetishmasligi, mamlakatning hozirgi iqtisodiy voqeligida aholining yetarli darajada internetlashtirilmaganligi va h.k.. Bilim hosil qilishning yangi shakllari ilmiy tadqiqotlarni qayta tashkil etishni va murakkab fanlararo muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etadi [3].

Dunyo bo‘ylab ta’lim muassasalari pedagogik va boshqaruv, axborot, tashkiliy, texnik va hokazo eng yangi texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim jarayonini amalga oshirishga o‘ziga xos tuzatishlar kiritmoqda. Internet makonida yagona global ta’lim hamjamiyatiga yo‘naltirilgan harakat asta-sekin faollashmoqda. Shu bilan birga, ta’lim texnologiyalarining global birlashuvi, shubhasiz, hali juda uzoq, garchi bugungi kunda ham dunyoning eng yaxshi oliy ta’lim muassasalarida o‘qishni istaganlar bir qator shartlar, jumladan, til va narx tartibini hisobga olgan holda buni amalga oshirishlari mumkin. Shu bilan birga, turli mamlakatlarda LMS tizimidan foydalanib o‘qitishning noyob tajribasi butun dunyo bo‘ylab masofaviy ta’lim tarmog‘ini rivojlantirishga xizmat qilishi shubhasizdir, unga tobora ko‘proq yangi davlatlar qo‘shilmoqda.

Masofaviy ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosi onlayn ta’lim jarayonini samarali qurish imkonini beruvchi ta’limni boshqarish tizimlari (LMS) hisoblanadi. 2014-yilda ta’limni boshqarish tizimlarining jahon bozori 2,5 milliard dollardan ortiq baholandi [4]; 2009 yilda bozor buning yarmini tashkil etdi, ya’ni 1,2 milliard dollarni tashkil etdi. Dunyo bo‘ylab 600 dan ortiq LMS sotuvchilari mavjud [116]. Eng yaxshi 15 ta kompaniya LMS global bozorining yarmini tashkil qiladi. AQSH oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra (1000 dan ortiq talaba bilan), eng mashhur LMS tizimlari Blackboard Learn, Moodle, Desire2Learn va Canvas hisoblanadi. Blackboard Learn platformasidan AQSH oliy ta’lim muassasalarining 35,8%, Moodle - 19,7%, Desire2Learn - 9,5% va Canvas - 9% foydalanadi. Masofaviy ta’lim kurslarida qatnashayotgan talabalar soni bo‘yicha Blackboard Learn yetakchi

(barcha talabalarning 44,6 foizi), talabalarning 16,5 foizi Moodle platformasida, 12,9 foizi Canvasda va 12,6 foizi Desire2Learn'da tahsil oladi [5].

Xorijiy oliy ta'lim muasssasalarining ta'lim va tarbiya jarayoniga LMS tizimini joriy etish orqali quyidagi natijalarga erishib kelinmoqda: xarajatlarni tejash; individual o'quv rejasini shakllantirish; loyihalar bo'yicha talabalarning jamoaviy ta'limini va birgalikdagi ishlarini tashkil etish; o'quv dasturlari samaradorligini baholash uchun tahliliy vositalar; muqobil ta'lim modellari (chatlar, konferensiyalar, davra suhbatlari, onlayn ma'ruzalar va seminarlar, loyiha ishi va boshqalar); mobil va onlayn ta'lim; kunduzgi, sirtqi va masofaviy ta'lim imkoniyatlarini birlashtirgan yagona ta'lim jarayoni.

Bular asosida quyidagi imkoniyatlar ta'minlanadi: global tarmoqni bir necha kanallar orqali uzatish; talabalar profilini kuzatish, individual o'quv rejasini shakllantirish; axborotni yetkazishning yangi usullaridan foydalanish va talabalar bilan ishlashni tashkil etish (so'rovlar, loyihalar, chatlar, muhokamalar va boshqalar); vebga mo'ljallangan didaktik o'quv vositalardan foydalanish; kurslarning umume'tirof etilgan standartlarga muvofiqligi; tizimning analitik imkoniyatlari (eng ommabop o'quv kurslarini aniqlash, talabalarning ish sifatini baholash, muvaffaqiyatlarni kuzatish, sarflangan resurslar narxini tahlil qilish uchun statistik ma'lumotlarni to'plash); samarali boshqaruv va yagona hisobotni yaratish uchun boshqa tizimlar bilan integratsiya qilish.

Bu kabi imkoniyatlar orqali xorijiy oliy ta'lim muassasalarida talabalarning qamrovini kengaytirish va mustaqil ta'lim olishning samarali usullarni tadbiq etishga erishilib kelinmoqda.

Shu bilan birga bugungi kunda xorijiy oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassilarni tayyorlashda mobil texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Bunga misol sifatida Blackboard Collaborate onlayn hamkorlik uchun mo'ljallangan platformani keltirish mumkin. Ushbu platformadan Prinston, Boston, Stenford, Merilend, Manchester, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Uzoq Sharq federal universiteti, Ural davlat ta'lim, fan universiteti va dunyoning boshqa ko'plab oliy ta'lim muassasalarida foydalanilib kelinmoqda.

Jahon amaliyotida global tarmoq orqali ta'lim olish afzalliklari bilan uyg'unlashganligi sababli talabalarning idrok etish xususiyatlarini hisobga olgan holda turli xil o'qitish formatlari va modellarini samarali integratsiyalashuvini o'z ichiga olgan aralash model (aralashtirilgan ta'lim) shakllantirilganidan dalolat beradi [6]. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, geografiya fanlarini o'qitish samaradorligini oshirishda aralash ta'lim modelidan foydalanish samaraliroq, chunki talabalarning qiziqishini uyg'otish, ularning o'quv faoliyatini oshirish

imkonini beradi va eng muhimi - bu model jamiyatning o‘zgaruvchan turmush tarzini hisobga oladi. Ushbu modeldan foydalanish geografiya fanlaridan ta’lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish va o‘qitish samaradorligini oshirish imkonini beradi hamda turli o‘quv formatlarini birgalikda qo‘llash, ularning har biridagi kamchiliklarni bartaraf etadi.

Shunday qilib, geografiya fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirishda global tarmoqdan foydalanishni joriy etishning maqsadga muvofiqligi bir qator omillar bilan bog‘liq: 1) hayotning zamonaviy ritmi sharoitida moslashuvchan o‘quv jadvallariga bo‘lgan talab; 2) ta’lim bozorida raqobat kuchaygan sharoitda kurslarni ko‘proq tanlangan yondashuv; 3) o‘quv-uslubiy vositalarni kengaytirish va kengroq auditoriyani qamrab olish; 4) geografik chegaralarni kengaytirish orqali masofaviy kanallar yordamida xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan raqobatlashish va hamkorlik qilish imkoniyati; 5) doimiy ravishda dolzarb axborotni saqlab turish qobiliyati; 6) talabalar tomonidan ijobiy qabul qilingan zamonaviy aloqa vositalaridan foydalanish, chunki ularning muloqot va axborot olish uslubiga mos keladi; 7) talabalarning o‘z yutuqlarini nazorat qilish va ta’limni boshqarish tizimlarini joriy etish orqali baholashda shaffoflikni ta’minlash qobiliyati.

Ta’lim xizmatlarining jahon bozori kelajakda masofaviy ta’lim texnologiyalarining jadal rivojlanishi va joriy etilishi bilan tavsiflanadi, deb ta’kidlash mumkin.

Shubhasiz, masofaviy ta’limga qo‘yiladigan qator umumiy talablar va uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar va resurslar (moliyaviy, innovatsion va texnologik, axborot, kadrlar va boshqalar) bilan turli mamlakatlardagi ta’lim muassasalari o‘ziga xos xususiyatlarga ega, geografik, etnik, ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy an’analar, tarixiy faktlar, umuman mamlakatdagi siyosat va xususan, ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi. Bularning barchasi birgalikda masofaviy ta’lim sohasida o‘quv jarayonini amalga oshirish yondashuvlarida iz qoldiradi va ta’limning innovatsion shakllarini joriy etish zarurati darajasini belgilaydi.

Shunday qilib, xorijiy oliy ta’lim muassasalarida geografiya fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirishda global tarmoqdan foydalanib o‘qitishga alohida e’tibor qaratganligi izlanishlar natijasida ma’lum bo‘ldi. Xorijning rivojlangan davlatlarning, ya’ni AQSH, Yevropa va Osiyoning ba’zi bir oliy ta’lim muassasalarida geografiya mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha tajribalarini tahlil qilish asosida, aytish mumkiniki, ilk dunyoning turli mamlakatlarida yagona tizim mavjud emas degan xulosaga kelish mumkin.

Jahon ta’lim amaliyotida taqdim etilgan bo‘lajak geografiya mutaxassislarining individual, konseptual yondashuvlari, shakllari va usullarini keltirish opqali quyidagi qoidalarda umumlashtirish mumkin: 1) talabalarni tabiat hodisalari va jarayonlariga oid kreativ, kognitiv fikrlashini hamda kompetentligini rivojlantirish zaruriyati mavjud; 2) talabalarga geografik bilimlarni berishda xorijiy axborot ta’lim muhitlaridan, ta’lim portallaridan, ta’limiy web-saytlardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish va ularni pedagogik tajriba-sinovdan o‘tkazish orqali mamlakatimiz ta’limi jarayoniga joriy etish; 3) georafiya fanini o‘rgatishga oid virtual ta’lim texnologiyalarini, interaktiv o‘quv vositalarni joriy etish; 4) talabalarning mustaqil ta’limida mobil texnologiyalardan foydalanish madaniyatini shakllantirish.

Bular asosida uzluksiz ta’lim tizimida geografiya fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirishga va o‘quvchi-talabalarning geografik kompetensiyalarini shakllantirishga va rivojlantirishga erishiladi.

Adabiyotlar:

1. Раицкая Л.К. Дистанционное образование в США. Филологические науки в МГИМО.№10 (25), 2002.- С.147-155

2. Валеева Р.З. Дистанционное обучение и его место в системе высшего образования // Гуманитарные научные исследования. – Декабрь 2013. – № 12 [Электронный ресурс]. URL: http://human.snauka.ru/2013/12/5344 (дата обращения: 03.02.2014).

3. Киян И. В. Анализ зарубежного опыта дистанционного обучения // Энергобезопасность и энергосбережение. № 6 ((36)),, 20110. – Б. 32-36.

4. Bersin J. (2014) The Red Hot Market for Learning Management Systems. Forbes. Available at: http://www.forbes.com/sites/ joshbersin/2014/08/28/the-red-hot-market-for-learning-technology-platforms/

5. LMSs by the Numbers - Spring 2014 Updates. Available at: http://edutechnica. com/2014/05/ 26/ lms-by-the-numbers-spring-2014-updates/

6. Сорочинский М.А. Развитие информационной компетентности студентов дидактическими средствами электронной информационно-образовательной среды // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Якутск, 2019. – 191 с.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida geografiya fanini raqamli texnologiyalardan foydalanib o‘qitishda xorijiy tajribalar o‘rganilgan va ularning tajribalarini mamlakatimiz ta’limiga joriy etishga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье изучен зарубежный опыт преподавания географии в высших учебных заведениях с использованием цифровых технологий и даны предложении и рекомендации по внедрению их опыта в образовании нашей страны.

SUMMARY

In this article, the foreign experience of teaching geography in higher educational institutions using digital technologies is studied and suggestions and recommendations are given for the implementation of their experience in the education of our country.

TALABALARNI OBYEKTGA YO‘NALTIRILGAN DASTURLASH TILLARIGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Xodjabayev F. D.
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi

Tayanch so‘zlar: kompetentlik, obyektga yo‘naltirilgan dasturlash, raqamli texnologiya, axborot texnologiya.

Ключевые слова: компетентность, объектно-ориентированное программирование, цифровые технологии, информационные технологии.

Key words: competence, object-oriented programming, digital technologies, information technology.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning barcha sohalarga tadbiq etish ko‘lami kengayishi va kompyuter qurilmalarining zamonaviylashuvi, unga mos dasturiy vositalarni takomillashuvi tufayli axborot texnologiyalari mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj sezilmoqda [1]. Shuning uchun zamon talablariga mos axborot texnologiyalari mutaxassislarini tayyorlash bugungi kunda dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammolarni yechimi oliy ta’lim muassasalarida informatika va axborot texnologiyalari mutaxassislarini tayyorlash tizimini optimallashtirishni, ya’ni kasbiy fanlarni, jumladan dasturlash tillarini o‘qitish metodikasini takomillashtirishni, talabalarni dasturlashga oid kompetentligini rivojlantirishni taqozo etadi.

Bu borada mamlakatimizda, ya’ni umumiy o‘rta ta’lim maktablarida dasturlash tillarini o‘qitish nazariyasi va amaliyoti, dasturlash tillarini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish muammolari, oliy ta’lim muassasalarida dasturlash tillarini o‘qitish metodikasi, talabalarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirish masalalari bo‘yicha N.N.Zaripov, M.R.Fayziyeva, U.M.Mirsanov, D.R.Ruziyeva, F.J.Toxirov, O‘.O‘.Jumaqo‘ziyevlar tomonidan izlanishlar olib borilgan.

Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida o‘quvchilarning algoritmlashga o‘rgatish metodikasi, talabalarning algoritmlashga oid kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish metodikasiga doir A.S.Lagoxa, T.N.Lebedeva, V.V.Popova, S.I.Maradjabov, T.A.Solovyeva, V.V.Kalitina kabi

olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida asosiy e'tibor o'quvchi-talabalarning algoritmlashga oid ijodiy qobiliyatini oshirish va kompetentligini rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Ammo ularning tadqiqotlarida dasturlash tillarini o'qitish metodikasini takomillashtirish va talabalarning dasturlashga oid kompetentligini rivojlantirishga e'tibor qaratilmagan.

Shu bilan birga dasturlash tillarini o'qitish metodikasi, dasturlash tillarini turli kompyuter o'yinlarini yaratish asosida o'rgatishga oid tadqiqotlar A.Ye. Kazakova, D.G.Jemchujnikov, O.P.Yurkovets, I.V.Bajenova, E.G.Androsov, A.G.Gein, I.S.Spirin kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Shu kabi tadqiqotlar, ya'ni dasturlash tillarini o'qitish nazariyasi va amaliyoti, dasturlash tillarini o'qitishda axborot ta'lim muhitlaridan, ta'lim portallaridan, ta'limga oid veb-saytlar, masofaviy o'qitish tizimlaridan foydalanish metodikasi, talabalarning dasturlashga oid kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muammolariga doir izlanishlar xorijda Mara Saeli, Lennart Rolandsson, Anthemis Raptopoulou, Monika Mladenović, Divna Krpan, Luís Filipe Leite Barbosa, Arturo Rojas López, Arwa Abdulaziz Allinjawi, Anthemis Raptopoulou kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning ishlari tahlilidan ma'lumki, ularning tadqiqotlarida talabalarning dasturlashga oid kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish, dasturlash tillarini o'qitish metodikasini takomillashtirishga bag'ishlangan ammo talabalarning obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillariga oid kompetentligini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

Obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillarini an'anaviy o'qitish odatda talabalar uchun murakkab tuyiladi va dasturlashga bo'lgan qiziqishini susayishiga olib keladi. Bu borada ko'pgina tadqiqotlar (A.N.Bobrov, O.G.Nelzina, M.A.Pavlichenko, E.S.Pavlova)ning tahlili shuni ko'rsatadiki, obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillarini o'qitish uchun zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashni va amaliy topshiriqlardan foydalanishni taqozo etadi [2]. Shu munosabat bilan talabalarni obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillariga oid ijodiy qobiliyatini oshirishda va kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy o'qitish vositalarini, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish lozim. Bu esa obyektga yo'naltirilgan dasturlash asoslarini o'qitishning tegishli metodikasini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Ushbu masalalar bo'yicha, ya'ni obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillarini o'qitish metodikasi, talabalarning obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillariga oid mantiqiy, algoritmik, kognitiv fikrlashini rivojlantirish va kompetentligini

rivojlantirish mexanizmlariga oid izlanishlar N.A.Otaxonov, F.V.Shkarba, I.A.Babushkina, N.G.Sablukova, Ye.V.Baranova, A.N.Petrov, I.V.Rojina, V.Y.Nefedovalar tomonidan olib borilgan.

Keltirilgan tadqiqotlarda talabalarning obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillariga oid kompetentligini rivojlantirishga oid tadqiqot ishlari olib borilishiga qaramay, bugungi kunda mazkur masalalar bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borish zarurati paydo bo‘lmoqda. Bu zaruratni paydo bo‘lishi sabablaridan biri, axborot texnologiyalarning rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning barcha sohalarga tadbiq etilishi va obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillarini takomillashuvi tufayli yuzaga kelmoqda. Shuning uchun bugungi kunda talabalarining obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillariga oid kompetentligini rivojlantirish oliy ta’lim muassasalaridagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ushbu muammoni yechish uchun dastlab kompetentlik va obyektga yo‘naltirilgan dasturlashga oid kompetentlik tushunchasiga aniqlik kiritish lozim.

Ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning vujudga kelishi tarixiga oid materiallarni tahliliga ko‘ra, uning shartli ravishda to‘rtta davrga bo‘lish mumkin [3]. Birinchi davr 1960-1970-yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda ilk bor “kompetensiya” va “kompetentlik” so‘zlari ilmiy adabiyotlarga kirib kela boshladi. Ikkinchi davrga 1970-1990-yillarni kiritish mumkin. Bu davr shunisi bilan xarakterliki, kompetentlikning turli ko‘rinishlarida “tayyor bo‘lmoq”, “layoqat” kategoriyalarining taqdim etilishi, shuningdek, “javobgarlik”, “ishonch bilan” kabi psixologik sifatlarni qayd qilinishi e’tiborni jalb qiladi. Uchinchi bosqich 90-yildan boshlanadi. Bu davrda kompetentlikni ilmiy kategoriya sifatida ta’limda nisbatan qo‘llash bo‘yicha tadqiqot ishlari bajarildi. Bu borada A.K.Markovaning (1993-1996-yy) ishlarida mehnat psixologiyasi kontekstida kasbiy kompetentlik maxsus predmet sifatida har tomonlama qaraladi. To‘rtinchi bosqich kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta’lim, umumta’lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish bilan bog‘langandir.

Bu borada J.Ravenning 1984-yilda chop etilgan “Zamonaviy jamiyatda kompetentlik” nomli asarida kompetentlikka keng ta’rif beriladi. Bu shunday hodisaki, “u juda ko‘p miqdordagi komponentlardan tashkil topgan bo‘lib, ulardan ko‘pchiligi bir-biriga nisbatan mustaqildir..., ayrim komponentlar ko‘proq kognitiv sohaga tegishlidir, boshqalari – emotsional sohaga tegishli. J.Raven bu komponentlar o‘z-o‘zini samarali boshqarishda bir-birini to‘ldirishi mumkin” degan fikrni bildirgan.

I.A.Zimnyaning fikriga ko‘ra, zamonaviy hayotimizda qiyinchiliklarning o‘sib borishi tufayli insonlar turli vaziyatlarga tayyor bo‘lishi lozim. Biroq kompetentli ta’lim insonlarga turli xil vaziyatlarda muammolarni hal qilishga mo‘ljallangan [4]. N.Muslimovning fikriga ko‘ra, kompetentlik o‘quvchi tomonidan alohida bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash emas, balki mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar hamda amaliy harakatlarning o‘zlashtirilishidir.

Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda berilishicha, kompetensiya, kompetentlilik o‘ta murakkab, ko‘p qismli, ko‘pgina fanlar uchun mushtarak bo‘lgan tushunchalardir. Shu bois, uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga ko‘ra, ham ma’no, mantiq mundarijasi jihatidan turli-tumandir. Atamaning mohiyati “samaradorlik”, “moslashuvchanlik”, “yutuqlilik”, “muvaffaqiyatlilik”, “tushunuvchanlik”, “natijalilik”, “uquvlilik”, “xossa”, “xususiyat”, “sifat”, “miqdor” kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda.

Kompetentlilik” tushunchalari tavsiflarida quyidagi holatlarga alohida e’tibor qaratiladi [3]: bilimlar majmuining amalda qo‘llanilishi; shaxsning uquvi, xislatlari, fazilatlari; amaliy faoliyatga tayyorgarlik o‘lchovi; muammolarni hal etish, amalda zarur natijalarni qo‘lga kiritish layoqati; shaxsning professional faoliyatini ta’minlovchi bilim, ko‘nikma, malakalar yaxlitligi; faollashgan (amaliyotga tatbiq etilgan) o‘quv, bilim, tajribalar majmui; shaxsning maqsadli yo‘naltirilgan emotsional iroda kuchi.

Bizning fikrimizcha kompetentlik olingan bilim, ko‘nikma va malakalarini hayotda qo‘llay olishdir. Kompetentlik tushunchasiga oid keltirilgan ta’riflar asosida dasturlashga oid kompetentlik – bu dasturlash tillari yordamida turli misol va masalalarni dasturlash, sonli tahlillarni amalga oshirish, ilovalar va turli sohalarni boshqaruvchi amaliy dasturlarni loyihalay olishdir.

Obyektga yo‘naltirilgan dasturlashga oid kompetentlik deganda U.M.Mirsanov tomonida kiritgan ta’rif o‘rinli deyish mumkin. Uning ta’kidlashicha, obyektga yo‘naltirilgan dasturlashga oid kompetentlik – bu obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillaridan olingan bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliy dasturlar yaratishga qo‘llay olishdir. Ya’ni obyektga yo‘naltirilgan dasturlar yordamida turli sohalarning faoliyatini avtomatlashtirishga, ma’lumotlar bazasini boshqarishga va ko‘ngilochar dasturlar yaratish tushuniladi. Talabalarning obyektga yo‘naltirilgan dasturlashga oid kompetentlik tushunchasi ta’rifidan, shuni aytish mumkinki, bugungi axborot texnologiyalari sohasida zamon talablariga mos kadrlarni, ya’ni dasturchilarni tayyorlash demakdir.

Shuning uchun bugungi kunda zamon talablariga mos dasturchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratish

kerak. Buning uchun dastlab bo‘lajak axborot texnologiyalari mutaxassislarini, shu jumladan informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish lozim.

Ilgari surilayotgan tadqiqot ham ushbu masalalarga qaratilgan bo‘lib, ya’ni oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilarini tayyorlashda kasbiy fan sifatida o‘qitib kelinayotgan “Zamonaviy dasturlash tillari” fanini o‘qitishdagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali takomillashtirilgan o‘qitish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Shu bois, tadqiqot muammosini aniqlash uchun Navoiy davlat pedagogika institutining “Matematika va informatika” ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladigan, ya’ni “Zamonaviy dasturlash tillari” fanini o‘qitish holati bilan bog‘liq. Mazkur fandan olib borilayotgan mashg‘ulotlar kuzatilib, tahlil etildi. Kuzatish davomida professor-o‘qituvchilar ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini yuqori darajada olib borayotganligining guvohi bo‘ldik. “Zamonaviy dasturlash tillari” fanidan ma’ruza mashg‘ulotlari kompyuterning taqdimot dasturlari va elektron ta’lim resurslaridan foydalanilib, o‘tilayotganligining guvohi bo‘ldik. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishda, turli darajadagi misol va masalalarni dasturlash yordamida o‘rganiyotganligi ma’lum bo‘ldi.

Ammo kuzatishlarimiz natijalariga ko‘ra, ba’zi bir talabalar darslarda zerikib qolganligi hamda professor-o‘qituvchilar mashg‘ulotlar davomida ko‘zlangan maqsadlariga to‘liq erisha olmadilar va talabalar bayon qilingan mavzu yuzasidan yetarli ko‘nikmaga ega bo‘lmadilar. Fikrimizcha, ilmiy jihatdan asoslangan o‘qitish metodikasi ishlab chiqilmaganligi tufayli talabalarning dasturlashga, xususan obyektga yo‘naltirilgan dasturlashga bo‘lgan qiziqishlarining pasayishiga ham sabab bo‘lmoqda.

Shunday qilib, tadqiqotimizga oid normativ-huquqiy hujjatlarni, ilmiy-metodik manbalarni hamda pedagogika oliy ta’lim muassasalaridagi mavjud o‘qitish holatining tahlil natijasiga ko‘ra, obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillarini o‘qitish samaradorligini oshirishda va talabalarning obyektga yo‘naltirilgan dasturlashga oid kompetentligini rivojlantirishda quyidagi muammolar borligi aniqlandi:

– talabalarga mashg‘ulot vaqtida va mustaqil ta’limida beriladigan topshiriqlar soddaligi. Ya’ni matematik misol va masalalarni dasturlash hamda sodda ilovalarni loyihalashga oid topshirilar berilishi;
– obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillari yordamida murakkab loyihalar yaratishga o‘rgatuvchi metodik ta’minotli o‘quv vositalar yetishmasligi;

– talabalar obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillari yordamida turli loyihalar tayyorlash tajribasiga ega emasligi;
– talabalar obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillarida dastur kodi bilan vazifali tugmalarni bog‘lashga oid malakalari yetishmasligi;
– obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillarini o‘qitish bo‘yicha zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishga oid ilmiy-metodik manbalar yetarli darajada emasligi.

Keltirilgan muammolarni yechish orqali talabalarning obyektga yo‘naltirilgan dasturlashga oid mantiqiy, algoritmik, kognitiv fikrlashini va kompetentligini rivojlantirishga erishiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirsanov U.M. Uzluksiz ta’lim tizimida dasturlash tillarini o‘qitish nazariyasi va amaliyoti // Monografiya. – Navoiy, 2023. – 168 b.

2. Шкарбан Ф.В. Методика обучения основам объектно-ориентированного Программирования бакалавров прикладной информатики с использованием Визуальных учебных сред // Автореферат диссертации на соискание учено степен и кандидата педагогических наук. – Волгоград, 2018. – 28 с.

3. Турдиев Н.Ш., Асадов Ю.М., Акбарова С.Н., Темиров Д.Ш. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган таълим технологиялари // Ўқув-услубий қўлланма. – Тошкент, 2015. – 160 б.

4. Зимня И.А. Ключевые компетентности как результативно целевая основа компетентностного подхода в образовании // Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. – М.:, 2004. – 42 с.

5. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий – методик асослари // Педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошент, 2007. – 275 б.

6. Mirsanov U.M., Ravshanova G.A. Talabalarni obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillariga oid kompetentligini shakllantirish // Elektron ta’lim. – Navoiy, 2020. – № 4. – B. 23-35.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarni obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillariga oid kompetentligini rivojlantirishdagi mavjud muammolar, ularni bartaraf etishga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлены существующие проблемы в развитии компетенции студентов по объектно-ориентированным языкам программирования в высших учебных заведениях, предложения и рекомендации по их устранению.

SUMMARY

This article presents the existing problems in the development of students’ competence in object-oriented programming languages in higher education institutions, suggestions and recommendations for their elimination.

BUDJET DAROMADLARINI TAHLIL QILISHDA INDEKSLI USULDAN FOYDALANISH TARTIBI

Abdullayeva G.Sh.
Toshkent Oriental Universiteti
"Iqtisodiyot va Turizm kafedrasi" o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: davlat budjeti daromadlari tushunchasi, davlat budjeti daromadlari manbalari, davlat budjeti daromadlari tahlili, tahlil qilish vazifalari, omilli tahlil, indeksli tahlil.

Ключевые слова: понятие доходов государственного бюджета, источники доходов государственного бюджета, анализ доходов государственного бюджета, задачи анализа, факторный анализ, индексный анализ.

Key words: the concept of state budget revenues, sources of state budget revenues, analysis of state budget revenues, analysis tasks, factor analysis, index analysis.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasi va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan davlat budjeti alohida o'rin egallaydi. Davlat budjeti davlatning qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va boshqa funksiyalarini amalga oshirishning moddiy-moliyaviy asosini tashkil etadi va mamlakat moliya tizimining barcha bo'g'inlari bilan budjet-moliya qonunchiligi bilan tartibga solinadigan muayyan munosabatlarga kirishadi.

«Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, davlat dasturlari va qabul qilingan hukumat qarorlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifalari belgilandi va amaliyotga joriy etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor vazifalarini bajarish, iqtisodiyotni barqaror va mutanosib rivojlantirish, jahon bozorlarida mustahkam o'rin egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish sharoitida davlat budjetining amal qilish mexanizmlarini puxta o'rganish har qachongidan ham dolzarbdir. Ayniqsa, budjet daromadlarini shakllanish manbalarini o'rganish, ularni tahlil qilish juda muhim sanaladi.

Davlat budjeti daromadlari – bu mavjud qonunchilikka va amaldagi tasniflanishga muvofiq beg'araz va qaytarilmaslik tartibida budjetga tushiriladigan mablag'lardir.

Budjet daromadlarini shakllantirish jarayonida davlat foydasiga YaIMning bir qismini majburiy tarzda olish ro'y beradi. Buning asosida davlat va soliq to'lovchi o'rtasida moliyaviy munosabatlar yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksiga ko'ra Davlat budjeti daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

- ✓ soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- ✓ davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar;
- ✓ meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;

- ✓ yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- ✓ rezident-yuridik shaxslarga berilgan budjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to‘lash hisobidan to‘lovlar;
- ✓ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar.

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksiga muvofiq *Davlat budjeti*:

- ✓ O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti;
- ✓ Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari budjet darajalaridan iborat.

O‘z navbatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti tuzilmasiga Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlarining budjetlari kiradi.

Xuddi shunday, viloyatlar mahalliy budjetlari tuzilmasiga viloyat budjeti, tegishli viloyatlar tumanlari va shaharlarining budjetlari, Toshkent shahar mahalliy budjeti tuzilmasiga esa shahar budjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning budjetlari kiradi. Shundan kelib chiqib Davlat budjeti daromadlari ikki xil darajadagi budjetlar bo‘yicha ajaratiladi. Ya’ni:

O‘zbekiston Respublikasining **respublika budjeti daromadlari** tarkibiga quyidagilar kiradi:

O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti daromadlari:

1) umumdavlat soliqlari;

2) bojxona bojlari;

3) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga imzoli bonus va tijoratbop topilma bonusi to‘lanishidan tushgan tushumlar, qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetiga yo‘naltiriladigan davlat bojlari, yig‘imlar, tovon pullari, kompensatsiya to‘lovlari jarima sanksiyalari va davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar, meros, hadya huquqi bo‘yicha davlat mulkiga o‘tkazilgan pul mablag‘lari, yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident-yuridik shaxslarga berilgan budjet ssudalarini, chet davlatlarga berilgan kreditlarni to‘lash hisobidan to‘lovlar, aksiyalarning davlat ulushi (payi) bo‘yicha dividendlar (daromadlar), bundan mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) mustasno, mobil aloqa xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to‘lov, mahsulot taqsimotiga oid bitimlar bo‘yicha foyda keltiradigan maxsulotdagi davlat ulushi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining foydasi va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar **mahalliy budjetlarining daromadlari** tarkibiga quyidagilardan iborat:

1) belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlari;

2) mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar;

3) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

4) bozorlardan tushadigan daromadlar;

5) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar, qonun hujjatlariga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga yo‘naltiriladigan davlat bojlari, yig‘imlar, tovon pullari va jarima sanksiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo‘yicha davlat ixtiyoriga o‘tgan mol-mulkni, huquq bo‘yicha davlat daromadiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan xazinalarni realizatsiya

qilishdan tushgan tushumlar mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan ajratiladigan subvensiyalar, o‘tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiyalar va maqsadli ijtimoiy transfertlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining daromadlari hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan pivo uchun aksiz solig‘i Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari daromadlariga o‘tkazib beriladi.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar tasdiqlangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjeti, Toshkent shahri shahar budjeti hamda tumanlar va shaharlar budjetlari o‘rtasida qayta taqsimlanishi mumkin.

Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda tahlil muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Tahlil tushunchasi juda keng ma’noga ega bo‘lib, u turli soha va yunalishlarda qo‘llanadi. **Tahlil** – tadqiqot metodi bo‘lib, ma’lum holat va xodisalarni alohida ajratib o‘rganishdir.

Davlat budjeti daromadlarini tahlil qilishning asosiy maqsadi – davlat vazifalarini bajarish uchun resurslarni oqilona va samarali ta’minlash yuzasidan qabul qilinadigan tadbirlar uchun zarur ma’lumot bilan ta’minlashdan iborat bo‘lib,

Davlat budjeti tushumlarini tahlil qilish vazifalari quyidagilar kiradi:

- ✓ joriy yil uchun tasdiqlangan Davlat budjeti parametrlarini bajarilishini ta’minlash;
- ✓ soliq va bojxona siyosati yo‘nalishlarini ishlab chiqish;
- ✓ iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarning Davlat budjetiga ta’sirini o‘rganish;
- ✓ soliq ma’murchiligini yaxshilash kabi muhim vazifalarni bajarish.

Daromadlar tahlilida alohida axamiyatga molik bo‘lgan ***makroiqtisodiy indikatorlar*** Yalpi ichki mahsulot o‘sish sur’ati, qayta moliyalashtirish stavkasi, inflyatsiya, ishsizlik, soliq bazasi,valyuta rezervi,soliq yuki hisoblanadi.

Davlat budjeti daromadlarini tahlil qilishda asosan quyidagi ***usullardan*** foydalaniladi:

- **Gorizontal tahlil**, bunda budjetning joriy ko‘rsatkichlari o‘tgan yildagi ko‘rsatkichlar bilan solishtiriladi, hamda rejadagi ko‘rsatkichlar faktik ko‘rsatkichlar bilan solishtiriladi;
- **Vertikal tahlil**, buning natijasida budjet tarkibi, yakuniy ko‘rsatkichda alohida budjet ko‘rsatkichlarining ulushi va ularni umumiy natijalarga ta’siri aniqlanadi;
- **Mutlaq miqdorlarda tahlil** qilishda budjet daromadlari to‘g‘risida manbalardagi ma’lumotlar, davrlar yoki hududlar bo‘yicha mutlaq miqdorlarda ko‘rib chiqiladi;
- **Omilli tahlil** - alohida omillarni Davlat budjeti daromadlariga ta’sirini o‘rganishdan iborat bo‘lib, bunga misol sifatida zanjirli o‘rin almashtirish, indeksli usullarni keltirish mumkin.

Mazkur maqolamizda siz bilan ***Omilli tahlil uslubining Indeksli usuli*** asosida davlat budjeti daromadlarini tahlil qilib chiqamiz. Mazkur uslubning tahlili ma’lum bir soliq turi (yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i) doirasida olib boramiz. Chunki davlat budjeti daromadlarining salmoqli qismini soliqlar tashkil etadi.

Indeksli usulda tushumlar o‘zgarishida omillarning rolini matematik hisoblash yordamida aniqlash uchun davlat budjetiga tushayotgan daromadlarni quyidagicha formula yordamida ifodalash mumkin:

$$\text{daromad} = f(\text{omil}_1, \text{omil}_2, \text{omil}_3, ...)$$

Masalan, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i = f (moliyaviy natija, stavka, imtiyoz, ...)

Demak, tushumlarning o`sishini quyidagi ko`rinishda keltiramiz:

$$O'sish\ sur'ati = \frac{f - joriy\ davr(omil1jd, omil2jd, omil3jd, \dots)}{f - bazis\ davr\ (omil1bd, omil2bd, omil3bd, \dots)}$$

Tushunarli bo‘lishi uchun, ushbu formulada joriy davr – *jd*, bazis davr – *bd* bilan belgilandi.

Bu yerda, kasrning sur’atidagi joriy yildagi daromadlarning omillar yordamidagi ifodasi (*omil1jd – birinchi omilning joriy davrdagi qiymati va h.k.*), kasr maxrajida esa bazis davrdagi daromadlar keltirib o‘tilgan (*omil1bd – birinchi omilning bazis davrdagi qiymati va h.k.*).

Har bir omilning ta’sirini aniqlash uchun, bazis davrdagi formulada omillarni navbatma-navbat joriy davr bilan almashtirib chiqiladi, ya’ni:

$$O'sish\ sur'ati = \frac{f-joriy\ davr(omil1jd,\ omil2bd,\ omil3bd,\dots)}{f-bazis\ davr\ (omil1bd,\ omil2bd,\ omil3bd,\dots)} \text{ x } \frac{f-joriy\ davr(omil1bd,omil2jd,omil3bd,\dots)}{f-bazis\ davr\ (omil1bd,\ omil2bd,\ omil3bd,\dots)} \text{ x } \frac{f-joriy\ davr(omil1bd,\ omil2jd,\ omil3bd,\dots)}{f-bazis\ davr\ (omil1bd,\ omil2bd,\ omil3bd,\dots)} \text{ x} \dots.$$

Ifodaning o‘ng tomonidagi har bir ko‘paytuvchi, shu ko‘paytuvchining suratidagi, bazis davrdagi qiymati joriy davr qiymatiga almashtirilgan navbatdagi omilning ta’sirini anglatadi.

Masalan, bir hududda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i tushumlarini omilli tahlil qilamiz va buning uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan shartli ravishda foydalanamiz:

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i tushumlarini omilli tahlil qilishga doir shartli misol

Ko‘rsatkichlar	Bazis yilda (2021 yil)	Joriy yilda (2022 yil)
Moliyaviy natija	9 500 mln so‘m	10 200 mln so‘m
Soliq stavkasi	12 %	15 %
Imtiyozlilik darajasi (jami hisoblangan soliq qiymatidan imtiyozlar ulushi)	0,23	0,25
Soliq tushumlari	878,0 mln so‘m	1 148,0 mln so‘m

Demak, bu ko‘rsatkichlarni matematik ifoda shaklga keltiradigan bo‘lsak:

Bazis yilda:	878,0 mln so‘m	=	9500 mln so‘m	x	12%	x	(1-0,23)
Joriy yilda	1 148,0 mln so‘m	=	10200 mln so‘m	x	15%	x	(1-0,25)
	Tushum		1-omil moliyaviy natija		2-omil stavka		3-omil imtiyozlilik darajasi

Endi bu ifodalarni, omillar ta’sirini aniqlash uchun yuqorida aytib o‘tilgan formula shakliga keltiramiz.

$$\frac{1148,0}{8780} = \frac{10200x12\%x(1-0,23)}{9500x12\%x(1-0,23)}\ x\ \frac{9500x15\%x(1-0,23)}{9500x12\%x(1-0,23)}\ x\ \frac{9500x12\%x(1-0,25)}{9500x12\%x(1-0,23)}\ x(boshqa\ omillar\ ta'siri)$$

Yuqoridagi omillar ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib arifmetik hisoblashlar amalga oshiradigan bo‘lsak,

A) 10200 x 12% x (1-0.23)=1224 x 0,77 = 942
9500 x 12% x (1-0,23) = 1140 x 0,77 = 878
942 / 878 = 1,0729 = 1,073
B) 9500 x 15% x (1-0,23)= 1425 x 0,77 =1097,25
9500 x 12% x (1-0,23) = 1140 x 0,77 = 878
1097,3 / 878 = 1,250
C) 9500 x 12% x (1-0,25)=1140 x 0,75 =855
9500 x 12% x (1-0,23) = 1140 x 0,77= 878
855 / 878 =0, 974

Arifmetik hisoblashlar amalga oshirilgandan so‘ng, ifoda quyidagi ko‘rinishga keladi.

1,307 = 1,073 x 1,25 x 0,974

Bundan xulosa qilish mumkinki, joriy davrda va bunda:

- moliyaviy natijaning o‘sishi natijasida tushumlar 7,3 foizga o‘sgan
- soliq stavkasining ko‘tarilishi tushumlarni 25 foizga oshirgan
- imtiyozlilik darajasining oshishi hisobiga tushumlar 2,6 foizga (1-0,974) kamayganligini ko‘rish mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi IV bo‘lim 9-bob. 2013-yil 26-dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-73-son Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni.

4. Голдина А. А. Анализ бюджета доходов и расходов организации: основные направления и показатели / А. А. Голдина // Модели, системы, сети в экономике, технике, природе и обществе. – 2013. – № 4 (8). – С. 20–25.

5. Савицкая К. Б, Савоневская А. Ю “Факторный анализ изменения доходов государственного бюджета” / Секция V. Экономика, организация производства и управления. Материалы XIX Междунар. науч.-техн. конф. студентов, аспирантов и молодых ученых, Гомель, 25–26 апр. 2019 г.

РЕЗЮМЕ

Maqolada budjet daromadlarini tahlil qilishda omilli tahlil turining alohida omillarini davlat budjeti daromadlariga ta’sirini o‘rganishdan iborat bo‘lgan indeksli usulidan faoliyatda budjet daromadlarining tahlil qilish tartibi yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье описан метод анализа доходов бюджета в деятельности индексный метод, заключающийся в изучении влияния отдельных факторов на доходы государственного бюджета типа факторного анализа при анализе доходов бюджета.

SUMMARY

The article describes the method of analysis of budget revenues in the activity of the index method, which consists in studying the influence of individual factors on state budget revenues such as factor analysis in the analysis of budget revenues.

KO‘PHADLAR UCHUN YEVKLID ALGOROTMI

Mamatoxunova Y.A.
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Tayanch so‘zlar: case-Study, ko‘phadlar, metod, Yevklid algoritimi.
Ключевые слова: case-Study, метод, многочлены, алгоритм Евклида,
Key words: case-Study, methods, polynomial, Euclid’s algorithm.

Oliy ta’lim muassalarida ta’lim jarayonini tubdan isloh etish, o‘z navbatida professor-o‘qituvchilarga yetarlicha ma’suliyat yuklaydi, va ularni bo‘lg‘usi pedagoglarni malakali va bilimli kadr sifatida tayyorlashda doimiy ilmiy izlanishlarda bo‘lishga undaydi.

Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari bugun bizga shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda talabaning dars jarayonidagi faolligini va dars samaradorligini oshirishda xizmat qilib kelmoqda. Bu o‘qitish metodlaridan biri Case-study bizga dars mashg‘ulotlarini qiziqarli va sifatli o‘tishga yordam beradi [1].

Bo‘lg‘usi matematika o‘qituvchilarini tayyorlashda “Algebra va sonlar nazariyasi” fani muhim hisoblanib, ta’riflarni qo‘llashda va teoremalar isbotlarini keltirishda o‘qituvchidan zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini qo‘llashni talab etildi [2]. Ushbu maqolada “Ko‘phadlar uchun Yevklid algoritmi” ma’ruza mashg‘ulotda Case-Study texnologiyasini qo‘llash usuli keltirilgan.

Dars mashg‘ulotimizni talabalarga mini-case lar taqdim etishdan boshlaymiz.
Dastavval bir necha sonlarning eng katta umumiy bo‘luvchisini topishga doir misollar beramiz. Bizga ma’lumki ikki sonning eng katta umumiy bo‘luvchisi deb bir vaqtning o‘zida har ikkala son ham qoldiqsiz bo‘linadigan eng katta bo‘luvchiga aytiladi.

№	Misollar	Talabaning yechimi	Javob
1	Berilgan ikki sonning EKUB(84,142) ni toping.		
2	Berilgan uchta sonning EKUB(84,142,220) ni toping.		

1-case
Endi ikki ko‘phad uchun eng katta umumiy bo‘luvchisini topish masalasini qaraymiz.

1-Misol. Berilgan $f(x) = x^3 + x^2 - x - 1$ $g(x) = x^3 - 1$ ko‘phadlarning eng katta umumiy bo‘luvchisini toping.

Yechish: I-usul. Dastlab ko‘phadni ko‘paytuvchilarga ajratamiz.

$$f(x) = x^3 + x^2 - x - 1 = x^3 - 1 + x^2 - x$$
$$x^3 - 1 + x^2 - x = (x-1)(x^2 + x + 1) + x(x-1) =$$
$$= (x-1)(x^2 + x + 1).$$
$$g(x) = x^3 - 1 = (x-1)(x^2 + x + 1).$$

Demak ikki ko‘phad uchun eng katta umumiy bo‘luvchisi $(x-1)$ ga teng.

II-usul. Ma’lumki barcha ko‘phadlar uchun ham yuqoridagi ko‘paytuvchilarga ajratish usulini doim ham qo‘llab bo‘lavermaydi. Yevklid algoritmi ko‘phadlarning EKUBini topishda qo‘llaniladi. Shuning uchun talabalarga keyingi qadamlarni shunday taqdim etamizki, ular mini-case lar orqali berilgan ikki ko‘phadning EKUBini topishadi. Shundan so‘ng talabalarga ikki ko‘phadning EKUBini bu ketma-ketlikda topish Yevklid algoritimi ekanligi e’lon qilinadi.

№	Berilgan $f(x)$ ko‘phadni $g(x)$ ko‘phad orqali quyidagicha $f(x)=g(x)\times q_1(x)+r_1(x)$ ifodalang	Talabaning yechimi	Javob
1	$f(x)=x^3+x^2-x-1$ $g(x)=x^3-1$		$f(x)=g(x)\times 1+(x^2-x)$

2-case

Ushbu tengsizlik $degf(x)\geq degg(x)$ (degree-daraja, bu uerda $degf(x)$-ko‘phadning eng yuqori darajasi) muhim hisoblanib, ikki ko‘phadning EKUBni topishda bo‘linuvchi ko‘phad darajasi bo‘luvchi ko‘phad darajasidan katta bo‘lishi kerak. $f(x)$ ni $g(x)$ ga bo‘lib, $q_1(x)$ to‘liqsiz bo‘linmani va $r_1(x)$ qoldiqni hosil qilamiz. Navbatda talabalarga $g(x)$ ni $r_1(x)$ ga bo‘lib $q_2(x)$ to‘liqsiz bo‘linmani va $r_2(x)$ qoldiqni topshirig‘ini beramiz. (Ya’ni oxirgi to‘liqsiz bo‘linma oxirgi qoldiqqa bo‘lamiz).

№	Misolni yeching	Talabaning yechimi	Javob
1	$g(x)=x^3-1$ $r_1(x)=x^2-x$ $g(x)=r_1(x)\times q_2(x)+r_2(x)$ ushbu ifodani toping		$g(x)=(x^2-x)\times(x+1)+(x-1)$

3-case

Xuddi shu ishni hosil bo‘lgan $r_1(x)$ va $r_2(x)$ ko‘phadlar uchun ham bajaramiz.

$r_2(x)=x-1,$ $\frac{r_1(x)}{r_2(x)}=\frac{x^2-x}{x-1}=x.$

$r_1(x)=x^2-x,$

Demak, yuqoridagi ko‘phadlarning EKUB ini topish uchun quyidagicha ketma-ketlik bajarildi:

$$f(x)=g(x)q_1(x)+r_1(x),$$
$$g(x)=r_1(x)q_2(x)+r_2(x),$$
$$r_1(x)=r_2(x)q_3(x).$$

Xulosa: $r_2(x)$ berilgan ko‘phadlarning EKUB bo‘lib, ikki ko‘phadni EKUB ini topishda yuqoridagi jarayon qoldiqsiz bo‘linmaga kelguncha bajariladi va oxirgi qoldiq berilgan ikki ko‘phadning eng katta umumiy bo‘luvchisi bo‘ladi.

Javob: EKUB $\big(f(x),\mathrm{g(x)}\big)=(x-1)$

Ikkita usulda ko‘rish mumkinki EKUBlarning qiymati bir xil chiqdi. Ikkinchi usulda ko‘phadlarning eng katta umumiy bo‘luvchisini topish qulay. Aynan shu usulda ko‘phadlar EKUBini topishga **Yevklid algoritmi** deyiladi.

Ixtiyoriy ikkita ko‘phadning EKUBni topish uchun quyidagicha darajasi katta ko‘phadni darajasi kichik ko‘phadga bo‘lamiz, bunda to‘liqsiz bo’linma va qoldiq hosil bo’ladi. So’ngra bo’luvchi ko‘phadni qoldiq ko‘phadga bo’lamiz, bunda ham yana to‘liqsiz bolinma va qoldiq ko‘phad hosil bo’ladi. Shu jarayonni toki qoldiq qolmaguncha davom ettiramiz, eng oxirgi qoldiq ko‘phad dastlabki berilgan ikki ko‘phadning EKUBi bo’ladi. Ayni shu jarayon Evklid algoritmi deb nomlangan. [3]. Umumiy holda $f\ (x)$ va $g(x)$ ko‘phadlar EKUBini topish quyidagicha topiladi:

$$
\begin{aligned}
&f(x) = g(x)q_1(x) + r_1(x),\\
&g(x) = r_1(x)q_2(x) + r_2(x),\\
&r_1(x) = r_2(x)q_3(x) + r_3(x),\\
&\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\\
&r_{n-3}(x) = r_{n-2}(x)q_{n-1}(x) + r_{n-1}(x),\\
&r_{n-2}(x) = r_{n-1}(x)q_n(x) + r_n(x),\\
&\qquad r_{n-1}(x) = r_n(x)q_{n+1}(x).
\end{aligned}
$$

1-ta’rif. Agar $\varphi(x)$ ko‘phad uchun $f\ (x)\backslash\varphi(x)$ va $g\ (x)\backslash\varphi(x)$ o‘rinli bo‘lsa, ya’ni $f(x)$ ham $g(x)$ ham $\varphi(x)$ qoldiqsiz bo‘linsa, u holda $\varphi(x)$ ko‘phad $f\ (x)$ va $g\ (x)$ ko‘phadlarning umumiy bo‘luvchisi deyiladi.

2-ta’rif. $d(x)$ ko‘phad $f\ (x)$ va $g\ (x)$ ko‘phadlarning umumiy bo‘luvchisi bo‘lib, uning o‘zi ham $f\ (x)$ va $g\ (x)$ ko‘phadlarning istalgan boshqa bir $\varphi\ (x)$ umumiy bo‘luvchilariga bo‘linsa $d(x)$ ko‘phad $f(x)$ va $g(x)$ ko‘phadlarning eng katta umumiy bo‘luvchisi deyiladi va EKUB($f(x), g(x)$) kabi belgilanadi.

1-teorema. $f\ (x)$ va $g\ (x)$ ko‘phadlar uchun tuzilgan tuzilgan Yevklid algoritimdagi noldan farqli qoldiq $r_n(x)$ ularning eng katta umumiy bo‘luvchisiga teng, ya’ni EKUB $(f(x), \mathrm{g(x)}) = r_n(x)$.

Talabalar ikki ko‘phadning EKUBni Yevklid algoritimi orqali topishga doir nazariy

2-misol. Berilgan ko‘phadlarni Yevklid algoritimiga ko‘ra EKUB ni toping:

$$f(x) = 2x^4 + x^3 + x^2 - x - 3, \quad g(x) = x^3 + 2x^2 - 1.$$

bilimlarini quyidagi amaliy mashq orqali mustahkamlaydi.

Yechim: $f(x) = g(x)(2x - 3) + r_1(x)$, $\quad r_1(x) = 7x^2 + x - 6,$

$g(x) = r_1(x)\left(\frac{1}{7}x + \frac{13}{49}\right) + r_2(x), \quad r_2(x) = \frac{29}{49}x + \frac{29}{49}.$

$r_1(x) = r_2(x)(\frac{343}{29}x - \frac{294}{29})$,

Javob: EKUB$\big(f(x), g(x)\big) = x + 1.$

Endi talabalarga mustaqil yechish uchun quyidagi caseni taqdim etamiz.

№	Berilgan ko‘phadlarni Yevklid algoritimiga ko‘ra EKUB ni toping.	Talabaning yechimi	Javob
1	$f(x) = x^4 + 2x^3 - x^2 - 4x - 2,$ $g(x) = x^4 + x^3 - x^2 - 2x - 2,$		EKUB$\big(f(x), g(x)\big) =$

2 $f(x) = x^5 - 5x^4 - 2x^3 +$

$+12x^2 - 2x + 12,$ EKUB$\big(f(x), g(x)\big) =$

$g(x) = x^3 - 5x^2 - 3x + 17$

4-case

3-ta'rif. Agar $f(x)$ va $g(x)$ ko'phadlar nolinchi darajali ko'phadlardan boshqa umumiy bo'luvchilarga ega bo'lmasa, ushbu ko'phadlar o'zaro tub ko'phadlar deyiladi.

O'zaro tub ko'phadlar uchun muhim xossalar o'rinli:

1. Agar $\big(f(x), g(x)\big) = 1$ va $\big(f(x), \varphi(x)\big) = 1$ bo'lsa u holda $\big(f(x), \varphi(x) \times g(x)\big) = 1$ bo'ladi.
2. Agar $\big(f\ (x) \times g(x)\big) \backslash \varphi(x)$ bo'lib, $\big(f(x), \varphi(x)\big) = 1$ bo'lsa u holda $\varphi(x) | g(x)$ bo'ladi.
3. Agar $f\ (x) \backslash \varphi(x)$ va $f\ (x) \backslash \psi(x)$ bo'lib, $\big(\varphi(x) \times \psi(x)\big) = 1$ bo'lsa, $(\varphi(x) \times \psi\ (x)) \backslash\ f\ (x$ bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda ushbu berilgan maqolada talablar odatdagi ma'ruza mashg'ulotlaridan farqli ravishda oldilariga muammo qo'yilib professor-o'qituvchilar "kordinator"lik qilib yechimga olib boruvchi case larni va savollarni beradi. Aynan yo'naltiruvchi topshiriqlar mini-case lar orqali taqdim etiladi. Case-Study ma'ruza mashg'ulotlarida talabalar faolligini oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A., Astonova F.A., "Case-study uslubi, nazariyasi, amaliyot va tajriba. "Tafakkur qanoti" 2012, 134-b.

2. Y.A. Mamatoxunova. "Laplas teoremasini muammoli ta'lim metodlaridan foydalanib o'qitish". "Ped mahorat" №4. 2023 y.

3. Ayupov SH.A., Omirov B.A., Xudoyberdiyev A.X., Haydarov F.H., Algebra va sonlar nazariyasi. Toshkent "Tafakkur bo'stoni" 2019.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada ko'phadlarning eng katta umumiy bo'luvchisini topishda Yevklid algoritimi mavzusini case-study orqali o'qitishga oid taklif va tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье есть предложения и рекомендации по преподаванию темы алгоритм Евклида для нахождения наибольшего общего делителя многочленов, с методом Case-Study.

SUMMARY

In this article, there are suggestions and recommendations for teaching the topic of the Euclidean algoritihm for finding polynomials using a case-study.

MAKSIMUM VA MINIMUM NAZARYASINI MASALALAR YECHISHDA QO'LLANILISHI

Abdullayeva D. A., Ismoilova Z. T.
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Tayanch so'zlar: hosila, differensial, ekstremum, maksimum, minimum, eng katta, eng kichik, kvadrat, funksiya, konus, silindr, Maple dasturi.


Ключевые слова: производная, дифференциал, экстремум, максимум, минимум, наибольший, наименьший, квадрат, функция, конус, цилиндр, программа Maple.

Key words: derivative, differential, extremum, maximum, minimum, maximum, minimum, square, function, cone, cylinder, Maple program.

Funksiya hosilasi matematik tahlilning asosiy tushunchasi bo'lib, juda ko'p nazariy va amaliy tatbiqlarga egadir. Notekis harakatda tezlik, egri chiziqqa urinmaning burchak koeffitsiyenti, iqtisodiyotda mehnat unumdorligi yoki ishlab chiqarish sur'ati hosila yordamida aniqlanadi. Hosila tushunchasi iqtisodiy nazariyada ko'p qo'llaniladi. Masalan, limitik xarajat, limitik daromad, funksiya elastikligi kabi iqtisodiy tushunchalar hosila yordamida aniqlanadi va hisoblanadi. Differensial hisobning amaliy tatbiqlarini asoslash uchun zarur bo'ladigan teoremalarni keltiramiz. Ba'zi hollarda funksiyaninig ekstremumini tekshirayotganda ikkinchi tartibli hosilaning ishorasiga asoslangan ekstremumning quyidagi yetarlilik alomati qulay bo'ladi.

1-Teorema. $x = c$ nuqtada $f(x)$ funksiyaning birinchi hosilasi nolga teng $[f'(c) = 0]$ bo'lsin, ikkinchi hosila mavjud bo'lib, u noldan farqli bo'lsin $[f''(c) \neq 0]$. Bu holda, agar $f''(c) < 0$ bo'lsa, $x = c$ nuqtada funksiya maksimumga ega bo'ladi, agar $f''(c) > 0$ bo'lsa, $x = c$ nuqtada funksiya minimumga ega bo'ladi.

II tartibli hosila yordamida funksiyani kritik nuqtalarining xarakteri, botiqlik va qavariqlik sohalari va burilish nuqtalari aniqlanadi. Bu tushunchalar turli iqtisodiy hamda amaliy masalalarni yechishda, ishlab chiqarish bilan bog'liq jarayonlarni matematik usullarda o'rganishda keng qo'llaniladi. Bunga misol sifatida quyidagi ikkita masalani qaraymiz.



1-masala. Tomoni a bo'lgan kvadrat tunukadan teng kvadratchalar qirqib tashlab va tunukani buklab, hajmi mumkin bo'lguncha eng katta bo'ladigan ochiq yashik kesish talab qilinadi. Qirqiladigan kvadratlarning h tomoni qancha bo'lishi kerak.

Yechish. Qirqib olinadigan kvadrat tomoni x ga teng bo'lsin. U holda yashikninig tubini tashkil qiluvchi kvadratninig tomoni $a - 2x$ ga teng. Yashikni hajmi:

$$V = (a - 2x)^2 x = a^2 x - 4ax^2 + 4x^2.$$


Masalani yechish uchun V funksiyaninig $\left[0; \frac{a}{2}\right]$ intervaldagi eng katta qiymatini topish kerak. $V' = a^2 - 8ax + 12x^2$ hosilani topamiz. $a^2 - 8ax + 12x^2 = 0$ tenglamani yechib, ko'rsatilgan intervalga tegishli bo'lgan $x = \frac{a}{6}$ nuqtada ikkinchi hosila $V'' = -8a + 24x$ manfiy bo'lgani uchun:

$$\breve{}\ [V''(a/6)] = -8a + 24 \cdot a/6 = -4a < 0$$

Nuqtada maksimumga erishadi:

$$V_{\max} = \left(a - \frac{2a}{6}\right)^2 \cdot \frac{a}{6} = \frac{2}{27}a^2.$$

Funksiyani eng katta va eng kichik qiymatini topish tamoyiliga ko'ra bu maksimum funksiyaning eng katta qiymati bo'ladi. Shunday qilib, qirqilgan kvadrat tomoni $a/6$ ga teng bo'lsa, quttining hajmi eng katta bo'ladi.



2 - masala. Berilgan to'g'ri konusga ichki chizish mumkin bo'lgan hajmni eng katta bo'lgan silindrning balandligini toping.

Yechish. Konusning balandligi $OB = h$, konus asosining radiusi $OA = R$ bo'lsin. Silindrning balandligi OC ni y bilan asos radiusi OF ni x bilan belgilaymiz. Silindr hajmi $V = \pi x^2 y$. Bu holda V hajm ikkita o'zgaruvchi x va y ga bog'liq. Biroq bu o'zgaruvchilarni bog'laydigan tenglamani tuzish mumkin. AOB va DCB uchburchaklarning o'xshashligidan quyidagilarni topamiz:

$\frac{DC}{CB} = \frac{OA}{OB}$ yoki $\frac{x}{(h-y)} = \frac{R}{h}$

Bundan $x = \frac{R(h-y)}{h}$, x ning bu ifodasini silindr hajmning formulasiga quyib, quyigagini hosil qilamiz:

$$V = \frac{\pi R^2}{h^2}(h - y)'_y.$$

Ravshanki, y o'zgaruvchi O dan h gacha bo'lgan qiymatlarni qabul qiladi. Bu funksiyaning $[0, h]$ intervaldagi eng katta qiymatini topamiz. V funksiyadan hosilani nolga tenglab, $[0, h]$ intervaldagi kiritik nuqtani topamuz. V funksiyani y o'zgaruvchi bo'yicha hosilani topamiz:


$$V' = \frac{\pi R^2}{h^2}(h^2 - 4hy + 3y^2).$$

Hosilani nolga tenglab, $[0, h]$ intervaldagi kritik nuqtani topamiz.

$h^2 - 4hy + 3y^2 = 0$; $y_1 = \frac{h}{3}$ va $y_2 = h$ ($y_2 = h$ nuqta intervalga tegishli emas).

Ikkinchi hosila $V'' = \frac{\pi R^2}{h^2}(-4h + 6y)$ nuqtada manfiy bo'lgani uchun u $y = \frac{h}{3}$ nuqtada V hajm maksimumga ega. Bu maksimal qiymat eng katta qiymat bo'ladi.

Yuqorida qaralgan geometrik masalaning yechimi Maple dasturida tahlil qilingan:



Shunday qilib, yuqoridagi masalalarda maksimum va minimum nazariyasining tadbig'i o'z tasdig'ini topgan. Geometrik masalaning yechimi Maple dasturida yechilgan.

Adabiyotlar:

1. Babadjanov Sh. Sh., Xashimov A. R., Xujaniyazova G. Iqtisodchilar uchun matematika. Darslik, Toshkent-2019 y.

2. Mirzakarimov E.M.Maple dasturi yordamida oliy matematika masalalarini yechish. FerPI, 1,2 qism o'quv qo'llanma, 2010 y.

3. Sh.R.Xurramov "Oliy matematika" Barcha texnika yo'nalishlari uchun darslik. Toshkent –2018 y.

РЕЗЮМЕ

Maqolada differensial hisobning asosiy teoremalarining amaliy tatbiqlari geometrik masalada qaralgan. Masalaning yechimi topishda Maple dasturidan ham foydalanilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются практические приложения основных теорем дифференциального исчисления в геометрической задаче. Программа Maple также использовалась для поиска решения проблемы.

SUMMARY

The article deals with practical applications of the main theorems of differential calculus in a geometric problem. The Maple program was also used to find a solution to the problem.

ISTE'MOLCHI VA ISHLAB CHIQARUVCHI YUTUQLARINING YECHIMINI ANIQLASH ALGORITMI

Ismoilova Z.T., Abdullayeva D.A.
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Tayanch so'zlar: iste'molchi, mahsulot, narx, talab, taklif, sarf, xarajat, funksiya, kvadrat tenglama, aniq integral, MathCad dasturi.

Ключевые слова: потребитель, продукт, цена, спрос, предложение, потребление, стоимость, функция, квадратное уравнение, определенный интеграл, программа MathCad.


Key words: consumer, product, price, demand, supply, consumption, cost, function, quadratic equation, definite integral, MathCad program.

Keltirilgan ishda aniq integralning ayrim iqtisodiy tatbiqlari jumladan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini topish, iste'molchi (iste'molchining ortiqcha xarajati) va ishlab chiqaruvchining yutugi'ini aniqlash masalalari va taqribiy hisoblashlardagi absalyut va nisbiy xatoliklar o'rganilgan. Ishning amaliy qismida turli xil tarkibdagi masalalar yechimi keltirilgan.

Bunday masalalarni o'rganish va yechish natijasida «Chiziqli dasturlash» deb ataladigan matematikaning bir yo'nalishi yaratilgan va unda chiziqli tenglamalar sistemasi va aniq integral ko'p ishlatiladi. Bunga misol sifatida chiziqli tenglamalar sistemasi hamda aniq integralning iqtisodiyotdagi nazariy tadbig'iga iste'molchi va ishlab chiqaruvchining yutuqlari masalasini ko'ramiz:

Dastlab talab va taklif funksiyalari tushunchalarini kiritamiz.

Mahsulot birligining narxi p va shu mahsulotni iste'molchi tomonidan xarid qilinish halmi q orasidagi bog'lanishni ifodalovchi $p = f(q)$ funksiya **talab funksiyasi** deb ataladi. Iqtisodiyotda narx p, hajm (miqdor) q harfi bilan belgilanadi va shu sababli talab funksiyasi an'anaviy y=f(x) ko'rinishda yozilmasdan, $p = f(q)$ ko'rinishda yozildi (1-rasmga qarang).



rasm

Mazmuniga asosan bu funksiya kamayuvchi bo‘ladi, chunki mahsulot narxi p oshishi bilan bu mahsulotni xarid qilish hajmi q kamayadi (yuqoridagi chizmaga qarang).

Mahsulot birligining narxi p va shu mahsulotni ishlab chiqarilish hajmi q orasidagi bog‘lanishni ifodalovchi $p = g(q)$ funksiya **taklif funksiyasi** deb ataladi. Mazmuniga asosan bu funksiya o‘suvchi bo‘ladi, chunki mahsulot narxi p oshishi bilan bu mahsulotni ishlab chiqarish hajmi q oshadi (yuqoridagi chizmaga qarang).lab va taklif funksiyalarning grafiklari qandaydir bir $E_0(q_0, p_0)$ nuqtada kesishadi. Bu nuqtada iste’molchining talabi hajmi va ishlab chiqaruvchining taklif hajmi o‘zaro teng bo‘ladi. Bunday holat **bozor muvozanati** deb ataladi. Bozor muvozanatini keltirib chiqaruvchi mahsulot hajmi q_0 va narxi p_0 qiymatlari berilgan talab va taklif funksiyalari bo‘yicha

$$\begin{cases} f(q) = p \\ g(q) = p \end{cases} \qquad (1)$$

tenglamalar sistemasidan topiladi.

Bozor muvozanati shartida iste’molchilar o‘zlarining q_0 hajmdagi talablarini qondirishlari uchun mahsulot birligining p_0 narxda xarid qilib, jami p_0q_0 miqdorda xarajat qilishlari mumkin. Ammo bir qism iste’molchilar u yoki bu sabablar bo‘yicha mahsulot xarid qilishni bozor muvozanati erishiladigan vaqtgacha kutib o‘tira olmaydilar. Bundan tashqari ishlab chiqaruvchi ham o‘z mahsulotini iloji boricha p_0 narxdan yuqoriroq bahoda sotishga harakat qiladi. Shu sababli iste’molchi talab etgan q_0 hajmdagi mahsulotni ishlab chiqaruvchi bozorga birdaniga chiqarmasdan va uning hammasini birdaniga p_0 narxda sotmasdan, u o‘z mahsulotini Δq_i $(i = 1,2,3,\cdots,n)$ hajmdagi kichik-kichik partiyalarda bozorga chiqarib, uni $f(q_i) > p_0$ narxda sotadi. Natijada iste’molchi o‘ziga kerak bo‘lgan q_0 hajmdagi mahsulotni xarid qilish uchun p_0q_0 miqdorda xarajat qilish o‘rniga

$$S_n(f) = \sum_{i=1}^{n} f(q_i)\,\Delta q_i$$

miqdor xarajat qiladi. Mahsulot ishlab chiqarish va uni xarid qilish jarayonlari uzluksiz ravishda ro‘y berib turadi. Shu sababli $f(x)$ talab funksiyasini uzluksiz va mahsulotni kichik-kichik Δq_i hajmli partiyalar soni $n \to \infty$ deb olish mumkin. Bu holda, aniq integral ta’rifiga asosan, iste’molchining q_0 hajmdagi mahsulotni xarid qilish uchun qilgan xarajatining asl qiymati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$S = \lim_{n\to\infty} S_n(f) = \lim_{n\to\infty} \sum_{i=1}^{n} f(q_i)\Delta q_i = \int_0^{q_0} f(q)dq \qquad (2)$$

Bu yerdan ko‘rinadiki, agar iste’molchi o‘zi talab etgan q_0 hajmdagi mahsulotni p_0 bozor muvozanati narxida xarid qilganda, uning xarajatlari

$$C \cdot S = S - p_0q_0 = \int_0^{q_0} f(q)dq - p_0q_0 = \int_0^{q_0} [f(q) - p_0]dq \qquad (3)$$

miqdorda kam bo‘lar edi. Shu sababli CS **iste’molchining yutug‘i**, ba’zan esa **iste’molchining ortiqcha xarajati** deb yuritiladi. Yuqoridagi rasmda bu ko‘rsatkich p_0E_0C egri chiziqli trapetsiya yuzasi kabi ifodalanadi.

Xuddi shundek, ishlab chiqaruvchi bozor muvozanatida o‘zi taklif etgan q_0 hajmdagi mahsulotni p_0 narxda sotganda p_0q_0 miqdordagi pul mablag‘iga ega bo‘lar edi. Ammo u bozor muvozanati bo‘lishini kutib o‘tirmasdan, Δq_i hajmda $(i = 1,2,3,\cdots,n)$ ishlab chiqargan mahsulotini darhol bozorga chiqarib, uning har birligini $g(q_i) < p_0$ narxda sotadi. Natijada ishlab chiqaruvchining q_0 hajmdagi mahsulotni sotish orqali erishgan asl pul mablag‘i quyidagicha bo‘ladi:

$$S = \lim_{n\to\infty} S_n(g) = \lim_{n\to\infty} \sum_{i=1}^{n} g(q_i)\,\Delta q_i = \int_0^{q_0} g(q)dq < p_0 q_0.$$

Shunday qilib, ishlab chiqaruvchi o‘z mahsulotini bozor muvozanati shartida sotganda

$$P \cdot S = p_0 q_0 - \int_0^{q_0} g(q)dq = \int_0^{q_0} [p_0 - g(q)]\,dq \qquad (4)$$

qoshimcha pul mablag‘iga ega bo‘lar edi. Shu sababli PS **ishlab chiqaruvchining yutug‘i** deb ataladi. Yuqoridagi rasmda bu ko‘rsatkich Pp_0E_0 egri chiziqli trapetsiya yuzasi kabi ifodalanadi.

Masalan, talab funksiya $p = f(q) = 240 - q^2$, taklif funksiya esa $p = g(q) = q^2 + 2q + 20$ ko‘rinishda bo‘lganda iste’molchi va ishlab chiqaruvchi yutuqlarini aniqlaymiz. Buning uchun dastlab ushbu tenglamalar sistemasini yechamiz:

$$\begin{cases} p = 240 - q^2 \\ p = q^2 + 2q + 20 \end{cases} \Rightarrow$$

$$\begin{cases} p = 240 - q^2 \\ 240 - q^2 = q^2 + 2q + 20 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} p = 240 - q^2 \\ q^2 + q - 110 = 0 \end{cases} \Rightarrow$$

Hosil bo’lgan kvadrat tenglamani yechamiz:

$q^2 + q - 110 = 0 \Rightarrow$ Kvadrat tenglamani yechish uchun quyidagi formulalardan foydalanamiz:

$$ax^2 + bx + c = 0;\ \ a \neq 0;\ D = b^2 - 4ac > 0;$$

$$x_1 = \frac{-b + \sqrt{D}}{2a}\ va\ x_2 = \frac{-b - \sqrt{D}}{2a}.$$

Bu yerda

$$a = 1;\ \ b = 1;\ \ c = 110.\ D = 1^2 + 4 \cdot 110 = 441 > 0;$$

bo’lgani uchun kvadrat tenglamani ikkita turli yechimi bor.

U holda

$$x_1 = \frac{-1 + 21}{2} = 10\ va\ x_1 = \frac{-1 - 21}{2} = -11;$$

Mahsulot hajmi absalyut qiymatda bo’lgani uchun , mahsulot hajmi $q_0 = 10$ ni qanoatlantiradi.

Demak, p_0 bozor muvozanati narxini topish uchun $p = 240 - q^2$ tengmaga $q_0 = 10$ qiymatini keltirib quyamiz. Natijada $p_0 = 140$ bo’ladi.

Unda, (3) formulaga asosan, iste’molchining yutug‘i

$$CS = \int_0^{q_0} [f(q) - p_0]dq =$$

$$= \int_0^{10} [240 - q^2 - 140]dq = 100q - \frac{q^3}{3}\Big|_0^{10}$$

$$= \left(100 \cdot 10 - \frac{10^3}{3}\right) - \left(100 \cdot 0 - \frac{0^3}{3}\right) = 666,(6) \approx 667;$$

Ishlab chiqaruvchining yutug‘i esa, (4) formulaga asosan,

$$P \cdot S = \int_0^{q_0} [p_0 - g(q)]\,dq = \int_0^{10} [120 - q^2 - 2q]\,dq = 120q - \frac{q^3}{3} - q^2\Big|_0^{10}$$

$$= \left(120 \cdot 10 - \frac{10^3}{3} - 10^2\right) - \left(120 \cdot 0 - \frac{0^3}{3} - 0^2\right) = 766(6) \approx 767.$$

Bunday iqtisodiy masalalarning nazariy va amaliy tadbiqlarini ma’lun dasturiy vositalar orqali hal etish bugungi kunning dolzarb masalalridan biri hisoblanadi. Chunki bunda ish unumdorligi ancha samarali bo’ladi. Shu munosabat bilan maqolada iqtisodiy masalani yechish uchun C++ dasturlash tilida foydalanilgan.

EHM uchun dasturni identifikatsiya qiluvchi materiallar dastlabki matni

(Dastur kodi)

```
//Iste'molchi va ishlab chiqaruvchining yutuqlarini aniqlash dasturi
#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main ()
{
system ("color f0");
float a,b,c,q1,q2,D, p, p1, p2, PS,CS;


cout << "a="; cin >> a;
cout << "b="; cin >> b;
cout << "c="; cin >> c;
D=pow (b,2)-4*a*c;
if (D>0)
{
  q1=(-b+sqrt(D))/(2*a);
  q2=(-b-sqrt(D))/(2*a);
  cout << "q1=" << q1 << endl;
  cout << "q2=" << q2 << endl;
}
if (D==0)
{
q1=-b/(2*a);
cout << "q1 = q2 = " <<endl; }
if (D<0) {
  cout << "yechimga ega emas" << endl;
}
p1 = 240 - pow(q1,2);
cout << "p1 = " << p1 << endl;
CS = 100*q1-pow(q1,3)/3;


cout << round(CS*1)/1 << endl;

PS = 120*q1-pow(q1,3)/3-pow(q1,2);

cout << round(PS*1)/1 << endl;
return 0;
}
```

Yuqorida keltirilgan masalani MathCad dasturi yordamida bajarilishini ko’rib chiqamiz:





Matematikani o‘rganishda amaliy dasturlardan foydalanish talabalarning ijodkorligini oshiradi va ularni o’z ustida ishlashga undaydi.

Adabiyotlar:

1. N.R. Rasulov, I.I.Safarov, R.T. Muxitdinov “Oliy matematika” (Iqtisodchi va muhandis-texnologlar uchun).Toshkent-2012.

2. Nazirov Sh.A., Qobulov R.V., Bobojonov M.R., Raxmanov Q.S. C va C++ tili. Voris-nashriyot.

РЕЗЮМЕ

Maqolada aniq integral yordamida iste’molchi va ishlab chiqaruvchining yutugini aniqlash masalasi o’z yechimini topgan hamda C++ dasturlash tilidan foydalanilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье решена задача определения прибыли потребителя и производителя с помощью определенного интеграла с использованием языка программирования С++.

SUMMARY

The article solves the problem of determining the profit of the consumer and the producer with the help of a definite integral using the C++ programming language.

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Abdullayeva D.A.
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Tayanch so'zlar: kompetentlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborot-ta'lim muhitl, portallari, web-sayt, masofaviy ta'lim.

Ключевые слова: компетентность, информационно-коммуникационные технологии, информационно-образовательные среды, порталы, веб-сайт, дистанционное обучение.

Key words: competence, information and communication technologies, information and educational environments, portals, website, distance learning.

Yengil sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish usullaridan biri, bu tashkilotni ishlab chiqarish faoliyati samaradorligi oshirishdan iborat hisoblanadi. Buni sohaga oid malakali va kompetentli mutaxassislarsiz amalga oshirish mushkul hisoblanadi. Shuning uchun bugungi kunda texnika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy muammolarini hal etishda zamonaviy texnologiyalarga, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish muhim masalalardan biri sanaladi.

Shu bois, talabalarni korxona mahsulotlari va texnologik jarayonlarini kompyuterda loyihalashga mo'ljallangan dasturiy vositalardan foydalanish kompetentligini rivojlantirish lozim.

Yengil sanoat korxonalarining hozirgi holatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, texnologik jarayonlarni avtomatlashtiradigan turli dasturiy mahsulotlar bilan ishlay olishlari kerak. Bunday dasturiy mahsulotlarga kompyuter yordamida loyihalash, texnologiyani avtomatlashtirish tizimlar va turli dasturiy paketlarni kiritish mumkin. Bu kabi kompyuterning dasturiy vositalari yordamida texnik hujjatlarni yaratish va o'zgartirish, texnologik tajribalar natijalarini qayta ishlash, yengil sanoat mahsulotlarini loyihalash va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish kabi imkoniyatlarni ta'minlaydi.

Shunung uchun talabalarning zamonaviy dasturiy mahsulotlardan samarali foydalanish, jumladan axborot-kommnikatsiya texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim

masalaradan biri hisoblanadi. Buning uchun dastlab, kompetentlik va axborot-kommnikatsiya texnologiyalariga oid kompetentlik tushunchasiga oid olimlarni ishlarini tahlil etishni taqozo etadi.

Bu borada, ya'ni kompetentlik tushunchasiga oid fikrlar A.L.Juravlev, N.F.Talyzina, A.I.Shcherbakov, A.A.Rean, Ya.L.Kolominskiy, J.Raven, V.M.Shepel, V.A.Demin, A.V.Rodionova, P.Vayl, M.Meskona, M.Albert, F.Xedouri, V.S.Bezrukovlarning ishlarida o'z aksini topgan.

Jumladan, A.L.Juravlev, N.F.Talyzina, A.I.Shcherbakovlarning asarlarida "kompetentlik" tushunchasi bilim, ko'nikma, malaka va faoliyatni amalga oshirish usullari degan fikrni bildirgan. A.A.Rean, Ya.L.Kolominskiy, J.Raven, V.M.Shepel, V.A.Demin, A.V.Rodionova, P.Vayl, M.Meskona, M.Albert, F.Xedourilarning fikriga ko'ra, kompetentlik - tez o'zgaruvchan muhitda olingan shaxsiy, kasbiy bilim va ko'nikmalardan faol foydalanish qobiliyatidir [1]. V.S.Bezrukovning fikricha, kompetentlik tushunchasi "mutaxassisning malakasi va kasbiy mahorati darajasi" deb ta'rif beradi, bu bilimlarni doimiy ravishda yangilab turish, egallagan malakalar asosida turli muammolarni hal qilishda foydalanish, kasbiy faoliyatning samarali usullarini tanlash qobiliyatidir [2].

Shunday qilib, kompetentlik tushunchasi ostida biz shaxsning bilimlarini amaliyotda qo'llash, o'zini-o'zi tarbiyalash uchun motivatsiyasini oshirish va o'z kasbiy faoliyatini optimallashtirish qobiliyati shakllanadigan kasbiy xususiyatlarini tushunamiz.

Shunuing uchun bugungi kunda talabalarni kompetentligini, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish shakl, usul va vositalarini takomillashtirish muhim masalalardan biri sanaladi.

Bu borada, ya'ni talabalarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish nazariyasi va amaliyotiga qaratilgan tadqiqotlar I.M.Bashtanar, L.V.Bocharova, V.V.Buchelnikov, L.R.Votyakova, N.A.Goncharova, D.V.Daxin, A.A.Mukasheva, A.V.Ovcharov, YE.A.Kozlova, L.N.Palamarchuk, T.V.Pankova, A.A.Kuznetsov, V.Y.Nikishina, O.N.Griban, L.V.Otverchenko kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ularning ishlarida axborot-kommnikatsiya texnologiyalariga doir kompetentlik tushunchalari hamda talabalarning axborot-kommnikatsiya texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish muammlari va yechimlari bo'yicha turli fikrlarni bildirgan.

Xususan, A.A.Kuznetsovaning fikrigan ko'ra, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetentlik shaxsni zamonaviy texnik bilim va ko'nikmalarni hayotda samarali qo'llash qobiliyati sifatida belgilaydi [3]. V.Y.Nikishinaning fikriga ko'ra, mutaxassisni kasbiy axborot kompetentligi zamonaviy texnologiyalar va kompyuter tarmoqlaridan foydalangan holda turli xil professional muammolarni hal qilishga imkon beradigan bilim, ko'nikma

va malakalarga ega bo‘lgan “insonning integral xarakteristikasi”dir [4]. L.V.Otverchenkoning fikriga ko‘ra, kasbiy axborot kompetentlikni shakllantirish “Talabalarning nazariy tushunchalari va tegishli axborot (kompyuter) jarayonlari hamda texnologiyalarining faoliyat uslublarini ishlab chiqishda boshqariladigan yutuqlari” deb, ta’riflaydi [5], O.N.Gribanining fikriga ko‘ra, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetentlik – bu shaxsning axborot jamiyatida muvaffaqiyatli yashash va ishlash uchun turli xil muammolarni hal qilishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatidir [6].

Ushbu tadqiqotchilar axborot kompetentlikni “Axborot jamiyatidagi shaxsning asosiy kompetentligidir” deb, ta’riflaydi va to‘rtta axborot madaniyatini ko‘rsatadi:

1) axborot zamonaviy shaxsning fuqarolik huquqlari va erkinliklarining asosiy sifatida;

2) mustaqil o‘rganish va kelajakdagi kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadli foydalanish;

3) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari professional va ijtimoiy hayotning ajralmas qismi ekanligi to‘g‘risida tushunchalarni shakllantirish;

4) dasturlash, kompyuterni modellashtirish, ma’lumotni saqlash, uzatish, izlash va qayta ishlash usullarini o‘z ichiga olgan kompyuterda foydalanish uchun ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Mazkur keltirilgan axbort madaniyatlarini talabalarda shakllatirish va rivojlantirish uchun global tarmoqning imkoniyatlaridan foydalanish orqali samarali natijalarga erishish mumkin.

Bu borada D.V.Luchaninovaning fikriga ko‘ra, talabalarning kompetentligini shakllantirishni eng samarali usullaridan biri, bu o‘qitishning interaktiv shakllaridan, ya’ni masofaviy ta’lim platformalaridan foydalanish maqsadga muvofiqligini tahliliy manbalar asosida isbotlab bergan. Uning fikriga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalarida axborot-ta’lim muhitlaridan keng ko‘lamda foydalanishni hisobga olgan holda talabalarning ijodiy axborot kompetentligini rivojlantirishda masofaviy ta’lim turidan foydalanish samarali hisoblanadi [7]. Axborotdan keng foydalanishni hisobga olgan holda oliy ta’limda masofaviy o‘qitish eng maqbul tarzda ajralib turadi. Bugungi kunda ta’limga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda auditoriya mashg‘ulotlari qisqartirilib, mustaqil ta’lim soatini oshirishga qaratilgan. Mustaqil ta’limni esa Internet tarmog‘i orqali axborot-ta’lim muhitlaridan, ta’lim portallarida va ta’limga oid web-saytlardan foydalanish nazarda tutilgan. Ushbu yondashuv bilan eng mantiqiy o‘tish an’anaviy ta’lim shaklidan keng qamrovli ta’lim shakliga o‘tadi. Keng qamrovli o‘rganish konsepsiyasi istalgan joyda kerakli texnik vositalar yordamida o‘rganish imkoniyatini nazarda tutadi. Xulosa shuki, materialning muhim qismi masofaviy

shaklga o‘tkazilib, turli interaktiv shakllar uchun auditoriya mashg‘ulotlarida vaqt qoldiriladi, bu ularning samaradorligini oshirishni qo‘shimcha ravishda professor-o‘qituvchilar talabalar bilan onlayn konsultatsiyalar, muloqotlarni guruh bo‘lib tashkil etish imkoniyati yaratiladi [7].

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida talabalarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotchilarni ko‘plab ilmiy va uslubiy adabiyotlari mavjud. Bizning tadqiqotimiz ushbu manbaalarni tahlil etish orqali texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarini axborot-kommnikatsiya texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Shu maqsadda tadqiqot yuzasidan tajriba-sinov ishlari texnika oliy ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalariga oid fanlarni o‘qitish holati bo‘yicha kuzatish ishlarini olib bordik. Kuzatish ishlari 2022-2023 o‘quv yilida texnika oliy ta’lim muassaslarida axborot texnologiyalariga oid 10 dan ortiq mashg‘ulotlar tahlil etildi hamda axborot texnologiyalari fani professor-o‘qituvchilari bilan fikr almashildi. Shuningdek, talabalarning mustaqil o‘quv faoliyati bo‘yicha talabalar bilan suhbatlar, anketa so‘rovlar o‘tkazildi. Tahlil etilgan mashg‘ulotlar hamda olib borilgan suhbat va anketa so‘rov natijalariga ko‘ra, texnika oliy ta’lim muassasalari talabalari axborot texnologiyalariga fanlarni o‘zlashtirishda ko‘p vaqt talab etilishi. Shuningdek, kompyuterning amaliy va instrumental dasturlarining takmillashuvi va yanggi versiyalari paydo bo‘lishi tufayli mavjud adabiyotlar foydalanishga ehtiyoj qolmayotganligi hamda yangi avlod ilmiy-metodik manbalar yaratish lozimligini ta’kidladilar.

Shunday qilib, sohaga oid adabiyotlar va texnika oliy ta’lim muassasalari pedagogik amaliyotni tahliliga ko‘ra, talabalarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi turkum muammolar borligi ma’lum bo‘ldi:

- kompyuterning zamonaviy amaliy va instrumental dasturlariga oid o‘zbek tilida o‘quv-metodik manbalar yetarli darajada emasligi;
- texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarini axborot texnologiyalatiga oid fanlardan mustaqil ta’limin tashkil etish tizimi to‘lalgicha ilmiy asoslanmaganligi;
- texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarini axborot texnologiyalatiga oid fanlardan mustaqil ta’limin tashkil etish bo‘yicha metodik manbalar etarli darajada emasligi;
- axborot texnologiyalariga oid fanlardan talabalarning mantiqiy, algoritmik, kreativ va kognitiv fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan amaliy topshiriqlar banki yetishmasligi;

– talabalarning axborot texnologiylariga oid kompetentligini rivojlantirishda axborot-ta'lim muhitlaridan, onlayn ochiq kurslardan va nazorat qilish tizimlaridan foydalanish mexanizmi to'lig'icha ilmiy asoslanmaganligi;
– talabalarning axborot texnologiyalariga oid fanlardan mashg'ulotlarining tashkil etishda muammoli va loyihalash ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ishlanmalar yetarli darajada emasligi;
– axborot texnologiyalariga oid fanlarni o'qitishda aralash ta'limdan foydalanishga mo'ljallangan uslubiy ishlar yetarli emasligi.

Xulosa qilib aytganda, texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishda yuqorida qayd etilgan turkum muammolarni bartaraf etish lozim. Buning natijasida ishlab chiqarish sohasini avtomatlashtirishga oid kadrlarni tayyorlashga va axborot texnologiyalari sohasi bo'yicha jahon talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashga erishish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Маклецов С. В. Формирование информационной компетентности бакалавров по направлению «Математика и компьютерные науки» средствами электронного обучения // Диссертация на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. – Казань, 2014. – 235 с.

2. Безрукова В. С. Интеграционные процессы в педагогической теории и практике / В.С. Безрукова. — Екатеринбург : Деловая книга, 1994. – 152 с.

3. Кузнецов А.А. Основы общей теории и методики обучения информатике / А.А. Кузнецов. – М.: Бином, 2010. – 207 с.

4. Никишина В.Ю. Формирование профессиональной информационно-технологической компетентности будущих менеджеров в вузе культуры // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – М., 2011. – 25 с.

5. Отверченко Л.В. Информационно-технологическая компетентность российских школьников в контексте формирования информационной культуры //Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Ростов: Пи ЮФУ, 2008. – 27 с.

6. Грибан О.Н. Новые информационные технологии в образовании: проблема перехода на свободное программное обеспечение // Информационные технологии в образовании: материалы II международной научно-практической конференции «Информационные технологии в образовании (ИТО-Черноземье – 2008)». Курск, 8-11 декабря 2008 г. Ч. 1. – Курск, 2008. – С. 131-133.

7. Лучанинов Д.В. Методика развития творческой информационной компетентности студентов в информатических дисциплинах // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Биробиджан, 2017. – 188 с.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarini axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish muammolari, ularni yechimlariga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлены проблемы развития компетентности, предложении и рекомендации по их решению студентов технических высших учебных заведений по информационным технологиям.

SUMMARY

This article presents the problems of competence development, proposals and recommendations for their solution of students of technical higher educational institutions in information technology.

LOGARIFMIK DIFFERENSIALLASH VA UNING AMALIY DASTURLARDAGI TATBIQLARI

Tursinboyeva Z. U., Fozilov O. O.
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Tayanch so'zlar: funksiya, differensial, funksiyaning hosilasi, logarifmik differensiallash, MathCad dasturi.

Ключевые слова: функция, дифференциал, производная функции, логарифмическое дифференцирование, программа Mathcad.

Key words: function, differential, derivative of function, logarithmic differentiation, Mathcad program.

Ba'zi hollarda, berilgan funksiyani hosilani topish uchun avval uni logarifmlash tavsiya etiladi. Keyin natijani differensiallash kerak bo'ladi. Buday bajarilgan amallar *logarifmik differensiallash* deb ataladi.

Hosilalari faqat logarifmik differensiallash bilan topiladigan funksiyalar mavjud. Bu funksiyalarga $y = u^v$ daraja-ko'rsatkichli funksiyalar kiradi, bu yerda $u = u(x)$ va $v = v(x)$ x ga nisbatan berilgan differensiallanuvchi funksiyalar. Bu funksiyaning hosilasini topamiz:

$$\ln y = v \cdot \ln u, \qquad \Rightarrow \frac{1}{y} \cdot y' = v' \cdot \ln u + v \cdot \frac{1}{u} \cdot u',$$

$$\Rightarrow y' = y\left(v' \cdot \ln u + v \cdot \frac{1}{u} \cdot u'\right), \qquad \Rightarrow y' = u^v\left(v' \cdot \ln u + v \cdot \frac{1}{u} \cdot u'\right),$$

ya'ni

$$(u^v)' = u^v \cdot \ln u \cdot v' + v \cdot u^{v-1} \cdot u'. \qquad (1)$$

(1) formulani eslab qolish qoidasini tuzamiz: daraja-ko'rsatkichli funksiyaning hosilasi ko'rsatkichli funksiyaning $u = \text{const}$ shartdagi hosilasi bilan darajali funksiyaning $v = \text{const}$ shartdagi hosilasining yig'indisiga teng.

Masalan, $y = \frac{(x^2+2)\cdot\sqrt[5]{(x-1)^3}}{(x+5)^3} \cdot e^x$ funksiyaning hosilasini topamiz. Buning uchun differensiallashning qoidalari va formulalari yordamida y' ni topish mumkin. Biroq, bu usul juda noqulay. Shuning uchun logarifmik differensiallashni qo'llaymiz. Funksiyani logariflaymiz:

$$\ln y = \ln(x^2 + 2) + \frac{3}{5}\ln(x - 1) + x - 3 \cdot \ln(x + 5).$$

Bu tenglikni x bo'yicha differensiallaymiz:

$$\frac{1}{y} \cdot y' = \frac{1}{x^2 + 2} \cdot 2x + \frac{3}{5} \cdot \frac{1}{x - 1} + 1 - 3 \cdot \frac{1}{x + 5}.$$


y' ni quyidagicha ifodalaymiz:

$$y' = y\left(\frac{2x}{x^2 + 2} + \frac{3}{5(x - 1)} + 1 - \frac{3}{x + 5}\right),$$

ya'ni

$$y' = \frac{(x^2 + 2) \cdot \sqrt[5]{(x - 1)^3} \cdot e^x}{(x + 5)^3} \cdot \left(\frac{2x}{x^2 + 2} + \frac{3}{5(x - 1)} + 1 - \frac{3}{x + 5}\right).$$


Bu keltirilgan masalaning MathCad dasturida bajarilishini quyidagicha bo'ladi:



Misol. $y = (\sin 2x)^{x^{2+1}}$ funksiyaning hosilasini toping.
Yechilishi: (1) formulani qo'llab quyidagini olamiz:

$$y = (\sin 2x)^{x^{2+1}} \cdot \ln \sin 2x \cdot 2x + (x^2+1)(\sin 2x)^{x^2} \cdot \cos 2x \cdot 2.$$

Yuqorida keltirilgan masalani MathCad dasturi yordamida bajarilishini ko'rib chiqamiz:



Ta'kidlash kerakki, bu yerda (1) formulani eslab qolish shart emas, balki logarifmik differensiallashning mohiyatini eslab qolish osonroq.

Matematikani o'rganishda amaliy dasturlardan, xususan kompyuter algebrasi tizimlaridan foydalanish talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Shuningdek, ularni ijodkorligini yaxshilaydi.

Adabiyotlar:

1. Sh. R. Xurramov, Oliy matematika masalalar to‘plami, nazorat topshiriqlari. 2-qism. Toshkent 2015y.

2. Z.U. Tursinboyeva, & Z.T. Ismoilova. (2022). The use of Software Tools in Solving some Mathematical Problems. Texas Journal of Engineering and Technology, 8, 115–118. Retrieved from https://zienjournals.com/index.php/tjet/article/view/1732

3. Д. Писменный. «Конспект лекции по высшей математике». 1 часть. -М.: Айрис Пресс, 2008.

4. Пискунов Н.С. Дифференциальное и интегральное исчисление для ВТУЗов. 2 частях -М.: Наука, 2001.

5. Макаров Е.Г. Mathcad: учебный курс. Питер. 2009 г.

РЕЗЮМЕ

Keltirilgan ishda logarifmik differensiallash va uning Mathcad amaliy dasturidagi tatbiqlari o‘rganilgan.

РЕЗЮМЕ

В представленной работе исследуется логарифмическое дифференцирование и его применение в прикладной программе Mathcad.

SUMMARY

In the present paper, logarithmic differentiation and its application in the Mathcad application program are investigated.

MATRITSALAR USTIDAGI AMALLARNING MATHCAD DASTURIDAGI TATBIQLARI

Tursinboyeva Z. U., Ismoilova Z. T.
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Tayanch so'zlar: matritsa, matritsalarni qo'shish, matritsalarning ayirmasi, matritsani songa ko'paytirish, matritsalarni ko'paytmasi, MathCad dasturi.

Ключевые слова: матрица, сложение матриц, вычитание матриц, умножение матрицы на число, умножение матриц, программа Mathcad.

Key words: matrix, matrix addition, matrix subtraction, matrix multiplication by number, matrix multiplication, Mathcad program.

Matritsa deb bir xil uzunlikdagi m qatorlarni (yoki bir xil uzunlikdagi n ustunlarni) o'z ichiga olgan to'rtburchak jadvalga aytiladi. Matritsa quyidagicha yoziladi:

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} \cdots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{12} \ldots & a_{2n} \\ a_{m1} & a_{m2} \cdots & a_{mn} \end{pmatrix}$$

yoki qisqacha $A = (a_{ij})$, bu yerda $i = \overline{1,m}$ $(i = 1,2,3,\cdots,m)$ - qatorlarning nomerlari, $j = 1,n$ $(j = 1,2,3,\cdots,n)$ - ustunlarning nomerlari.

A matritsa $m \times n$ – tartibli matritsa deyiladi va $A_{m\times n}$ kabi yoziladi. Matritsani tashkil etuvchi a_{ij} sonlari uning elementlari deyiladi. Yuqori chap burchakdan kelayotgan diagonalda turgan elementlar bosh diagonalni hosil qiladi.

Agar matritsalarning barcha mos elementlari teng bo'lsa, bunday matritsalar ***teng matritsalar*** deyiladi, ya'ni.

$A = B$, agar $a_{ij} = b_{ij}$ bu yerda $i = \overline{1,m}$, $j = \overline{\overline{1,n}}$

Matritsada satrlar soni ustunlar soniga teng bo'lsa, bunday matritsaga ***kvadrat matritsa*** deyiladi. $n \times n$ o'lchamli kvadrat matritsa ***n - tartibli matritsa*** deyiladi.


Asosiy diagonal elementlaridan tashqari barcha elementlari nolga teng bo'lgan kvadrat matritsaga ***diagonal matritsa*** deyiladi.

Asosiy diagonalning har bir elementi birga teng bo'lgan diagonal matritsa ***birlik matritsa*** deyiladi. U *E* harfi bilan belgilanadi.

Matritsalarni qo'shish amali faqat bir xil o'lchamli matritsalar ustida amalga oshiriladi. Ikkita $A_{m\times n} = (a_{ij})$ va $B_{m\times n} = (b_{ij})$ matritsalarning yig'indisi deb shunday $C_{m\times n} = (c_{ij})$ matritsaga aytiladiki, bunda $C_{ij} = a_{ij} + b_{ij}$ $(i = \overline{1,m},\ j = \overline{1,n})$ bo'ladi. Matritsalarning yig'indisi $C = A + B$ kabi belgilanadi.

Masalan: $\begin{pmatrix} 2 & -3 & 0 \\ 4 & 5 & 6 \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} 3 & 3 & -1 \\ -2 & -5 & 4 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 5 & 0 & -1 \\ 2 & 0 & 10 \end{pmatrix}$


Matritsalarning ayirmasi ham xuddi shunday aniqlanadi.



Matritsani songa ko‘paytirish

$A_{m\times n}=(a_{ij})$ matritsaning k soniga ko‘paytmasi deb $B_{m\times n}=(b_{ij})$ shunday matritsaga aytiladiki, bu yerda $b_{ij}=k\cdot a_{ij}$ $(i=\overline{1,m},\ j=\overline{1,n})$. Matritsani songa ko‘paytirish $B=k\cdot A$ kabi belgilanadi.

Masalan: $A=\begin{pmatrix}0 & -1 & 2\\3 & 4 & 5\end{pmatrix},\ k=2,\quad A\cdot k=\begin{pmatrix}0 & -2 & 4\\6 & 8 & 10\end{pmatrix}$



$-A=(-1)\cdot A$ matritsa A matritsaga teskari matritsa deyiladi.

Matritsalarning ayirmasi $A-B$ ni quyidagicha aniqlash mumkin:

Matritsalarning elementar almashtirishlar deb quyidagi almashtirishlarga aytiladi:

- matritsaning ikkita parallel satrlari o‘rninin almashtirish;
- matritsalar biror satrining barcha elementlarini noldan farqli biror songa ko‘paytirish;
- matritsaning biror satrining barcha elementlariga parallel satrning mos elementlarini biror songa ko‘paytirib qo‘shish.

Ikkita A va B matritsa ekvivalent deyiladi, agar ulardan biri ikkinchisidan elementar almashtirishlar yordamida hosil qilingan bo‘lsa. Matritsalarning ekvivlentligi $A \sim B$ kabi belgilanadi.

Elementar almashtirishlar yordamida har qanday matritsani asosiy diagonalning boshida bir nechta birlar ketma-ket turadigan va boshqa barcha elementlar nolga teng bo‘lgan matritsaga olib kelish mumkin. Bunday matritsa kanonik matritsa deyiladi, masalan

$$\begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 1 & 0 \end{pmatrix}$$

Misol. Matritsani kanonik ko‘rinishga olib keling

$$\mathrm{A} = \begin{pmatrix} 2 & 3 & 1 & 2 \\ 0 & 2 & -1 & 1 \\ 4 & 0 & 5 & 1 \end{pmatrix}$$


Yechish: elementar almashtirishlarni bajarib, quyidagilarni hosil qilamiz

$$\begin{pmatrix} 2 & 3 & 1 & 2 \\ 0 & 2 & -1 & 1 \\ 4 & 0 & 5 & 1 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 1 & 3 & 2 & 2 \\ -1 & 2 & 0 & 1 \\ 5 & 0 & 4 & 1 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 1 & 3 & 2 & 2 \\ 0 & 5 & 2 & 3 \\ 0 & -15 & -6 & -9 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 5 & 2 & 3 \\ 0 & -15 & -6 & -9 \end{pmatrix} \sim$$

$$\sim \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 1 & 1 \\ 0 & -3 & -3 & -3 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 1 & 1 \\ 0 & 0 & 0 & 0 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 \end{pmatrix}$$

$\mathrm{A}_{\mathrm{m}\times\mathrm{n}} = (\mathrm{a}_{\mathrm{ij}})$ matritsaning $\mathrm{B}_{\mathrm{n}\times\mathrm{p}} = (\mathrm{b}_{\mathrm{jk}})$ matritsaga ko‘paytmasi deb shunday $\mathrm{C}_{\mathrm{m}\times\mathrm{p}} = (\mathrm{c}_{\mathrm{ik}})$ matritsaga aytiladiki, bunda $\mathrm{c}_{\mathrm{ik}} = \mathrm{a}_{\mathrm{i1}} \cdot \mathrm{b}_{\mathrm{1k}} + \mathrm{a}_{\mathrm{i2}} \cdot \mathrm{b}_{\mathrm{2k}} + \cdots + \mathrm{a}_{\mathrm{in}} \cdot \mathrm{b}_{\mathrm{nk}}$ $\mathrm{i} = \overline{1,\mathrm{m}}$, $\mathrm{k} = \overline{1,\mathrm{p}}$, ya’ni S matritsa ko‘paytmasining $\mathrm{i}-$ satri va $\mathrm{k}-$ustuni elementi, A matritsaning $\mathrm{i}-$ satri elementlarini B matritsaning $\mathrm{k}-$ustuni mos elementlariga ko‘paytmasining yig‘indisiga teng.


Hosil qilingan c_{ik} element quyidagicha sxematik tasvirlanadi:



Agar kvadrat A va B matritsalar bir xil o‘lchamli matritsalar bo‘lsa, u holda $\mathrm{A} \cdot \mathrm{B}$ va $\mathrm{B} \cdot \mathrm{A}$ ko‘paytmalar har doim mavjud bo‘ladi. $\mathrm{A} \cdot \mathrm{E} = \mathrm{E} \cdot \mathrm{A} = \mathrm{A}$ ekanligini osongina ko‘rsatish mumkin, bu yerda $\mathrm{A}-$ kvadrat matritsa, $\mathrm{E}-$shu o‘lchamdagi birlik matritsa.

Masalan: $\mathrm{A} = \begin{pmatrix} 1 & 2 & 1 \\ 3 & 1 & 0 \end{pmatrix}$ $\mathrm{B} = \begin{pmatrix} 1 & 3 \\ 1 & 2 \end{pmatrix}$. Bu holda $\mathrm{A} \cdot \mathrm{B}$ aniqlanmagan, chunki $\mathrm{A}(3)$ matritsaning ustunlar soni $\mathrm{B}(2)$ matritsaning satrlar soniga mos kelmaydi. Bunda $\mathrm{B} \times \mathrm{A}$ ko‘paytma aniqlangan bo‘lib, u quyidagi ko‘rinishda hisoblanadi:

$$\mathrm{B} \cdot \mathrm{A} = \begin{pmatrix} 1 & 3 \\ 1 & 2 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 1 & 2 & 1 \\ 3 & 1 & 0 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1+9 & 2+3 & 1+0 \\ 1+6 & 2+2 & 1+0 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 10 & 5 & 1 \\ 7 & 4 & 1 \end{pmatrix}$$



Agar AB = BA bo‘lsa, u holda A va B matritsalar o’rin almashinuvchi deyiladi.

Adabiyotlar:

1. Sh. R. Xurramov, Oliy matematika masalalar to‘plami, nazorat topshiriqlari. 1-qism. Toshkent 2015y.

2. Ю.Ф. Сенчук. Математический анализ для инженеров. 1,2 частьХарьков: НТУ «ХПИ», 2003.-408 с.

3. Черненко В.Д. Высшая математика в примерах и задачах. Учебное пособие для вузов. – СПб.: Политехника, 2003. – 703 с.

4. Берман Г.Н. Сборник задач по курсу математического анализа: Учебное пособие.-22-е изд., перераб.-СПб., Издательство «Профессия», 2001.-432 с

5. Макаров Е.Г. Mathcad: учебный курс. Питер. 2009 г.

РЕЗЮМЕ

Keltirilgan ishda matritsalar ustidagi amallar va ularning Mathcad amaliy dasturidagi tatbiqlari o‘rganilgan.

РЕЗЮМЕ

В представленной работе изучены операции над матрицами и их применение в прикладной программе Mathcad.

SUMMARY

In the presented paper, operations on matrices and their application in the Mathcad application program are studied.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

Abduraxmonov U. Sh.
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Maxmudova O. Yu.
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: o‘yin, didaktik o‘yin, ta’lim, tarbiya , shaxs, o‘quvchi, natija, masala, musobaqa.

Ключевые слова: игра, дидактическая игра, обучение, обучение, человек, ученик, результат, задача, соревнование.

Key words: game, didactic game, education, training, person, student, result, problem, competition.

Kirish. Bolalarga har bir o‘yinni o‘rgatishda muayyan ta’limiy maqsad nazarda tutiladi. O‘yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. O‘yinning o‘tkazilish formalari va usullari bilan ta’limning boshqa turdaridan farq qiladigan o‘yinlar ta’lim berish jihatidan ham katta ahamiyatga egadir[1].

Didaktik o‘yinlar o‘yin usullarini cheksiz takrorlash va o‘zgartirish, o‘yinga turli narsalar kiritish imkonini beradi. Masalan, biz «Jimjitlik» o‘yinining 5—7 xilini butun sinf bilan hamda ayrim bolalar bilan 10 martadan ko‘proq takrorlab o‘tkazdik; «Nima o‘zgardi» tipidagi o‘yin 5 xil turli ko‘rsatmali material bilan o‘tkazildi va hokazo. Natijada o‘yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo‘lishiga hamda o‘yinning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilinishiga erishish imkonini berdi[2]. Didaktik o‘yinlar o‘zining shakli jihatidan asosan bog‘chada o‘ynaladigan ijodiy o‘yinlardan ham, o‘qituvchi o‘zi hikoya qilib berish yo‘li bilan tushuntiradigan va o‘quvchilarni birma-bir so‘rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan va shu singari o‘yinlardan ham har tamonlama farq qiladi. Didaktik o‘yinlar o‘qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi[3]. Bolalar g‘olib chiqish maqsadida jonu dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o‘yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunga qadar respublikamiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, jumladan, umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar ta'limi yo'nalishlarida matematika fanini o'qitish sohasiga oid bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, J.Ikromov, N.G'aybullaev, D.Yunusova, X.I.Ibragimov, N.SHodiev, M.Barakaev, B.Abdullaeva kabi olimlar matematika o'qitish metodikasini takomillashtirish, M.Tojiev, A.Ortiqboev, N.Jumaboev, CH.E.Mirzaev, S.Alixonov, I.Isroilov, Z.Pashaevlar ta'limning barcha yo'nalishlarida geometriya fanini o'qitishning nazariy-metodik va amaliy jihatlarini rivojlantirish, R.X.Jo'raev, F.Zokirova, U.SH.Begimqulov, N.I.Tayloqov, A.A.Abduqodirov, B.Ziyomuhammedov, J.Tolipova, M.Fayziev, T.G'offorova singari mutaxassislar esa ushbu yo'nalishda pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalarini tadqiq etganlar. Mazkur tadqiqot ishining predmeti, maqsadi va vazifalarini belgilashda yuqoridagi olimlarning nazariy va amaliy qarashlaridan dasturilamal sifatida foydalanildi[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Nazariy (metodik adabiyotlar tahlili, modellashtirish); taqqoslash; sintez; umumlashtirish; tashhislash; tadqiqotning empirik metodlari: kuzatish, suhbat, o‘qituvchilar ishini o‘rganish va umumlashtirish;[5] natijalarni matematik qayta ishlash hamda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda maxsus testlardan foydalanish hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Didaktik o‘yinlar ta'limning ko‘rgazmaliligini, o‘qituvchining nutqini va bolalar harakatini o‘z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko‘rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug‘iladi. Bu esa o‘qituvchining aytganlarini bolalarning zehnan o‘ylab olishiga va o‘sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o‘yinlar qoidalarini o‘quvchilarning o‘zlari bajarishlariga imkon beradi. Didaktik o‘yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini beradi[6]. Shuning uchun ham barcha bolalar o‘yin vaqtida qiziqish bilan harakat qiladilar.

Didaktik o‘yinlar bolaning his-tuyg‘usiga ta'sir etib, unda o‘qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o‘yinni zo‘r mamnuniyat bilan o‘ynaydilar, o‘yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida ertangi o‘quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Har bir didaktik o‘yinda ko‘pchilik bolalar yoki butun bir sinf o‘quvchilari ishtirok qiladi. Masalan, «Doiraviy misollar» o‘yinida hamma bolalar masala yechadi, «Zanjircha»da 10, «Do‘koncha»da 8—12 bola, «Narvoncha» da esa qariyb hamma o‘quvchilar masala yechadilar va hokazo[7].

Bundan tashqari, o‘yin jarayonida hatto bolalardan ba’zi birlari bevosita ishtirok etmasa ham, ular o‘yinda imo-ishoralar vositasida bavosita qatnashadilar. Masalan, ko‘zlarini yumib, kim necha marta taqillatganini tinglaydilar, «Eng yaxshi hisobchi», «Kim aniqroq va tezroq» va shu o‘yinlarda o‘z o‘rtoqlarining misolni qanchalik to‘g‘ri-noto‘g‘ri yechayotganlarini kuzatib boradilar.

O‘yin paytida bolalar psixikasining individual xususiyatlari, ularda shartli reflekslarning paydo bo‘lish tezligi va ularning mustahkamligi yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi[8]. Bu esa o‘qituvchiga o‘quvchilar faoliyatiga individual munosabatda bo‘lish imkonini beradi.

Bu o‘yinlarda bolalarning o‘z-o‘zlarini boshqara, tuta bilishga o‘rganishlarini ta’kidlab o‘tgan edik. Bu o‘yinlar bolalarni intizomli qiladi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, didaktik o‘yinlar hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o‘yin g‘alaba qozonishga intilish bilan bog‘liq bo‘lib, o‘yin shartlari va qoidalariga qat’iy va izchil rioya qilishni talab etadi. «Kim aniqroq va tezroq», «Bo‘sh kelma», «Eng yaxshi hisobchi», «Ko‘rganni eslab qolish diktanti» singari o‘yinlarni o‘tkazish paytida o‘quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo‘lishiga o‘quvchilarning o‘zlarini tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida doskaga chiqa olishlariga, joylariga osoyishtalik bilan qaytib kelib o‘tirishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar[9].

Darsda o‘yin qaroqlik qilib o‘tiradigan va o‘qituvchini bitta dars davomida 10—15 martagacha tanbeh berishga majbur etadigan bolalar ham uchrab turadi. Biroq o‘yin o‘tkazilayotgan vaqtda bunday bolalarning xulq-atvori tamoman o‘zgarib ketadi. Ular darhol o‘zlarini tutib oladilar, o‘qituvchining o‘yin qoidalarini ko‘rsatib berishini kutib o‘tirmaydilar ham, qoidalarni o‘zlari bajonu dil va mustaqil bajaradilar. Didaktik o‘yinlar jarayonida bolalarda uyushqoqlik, vaqtni iloji boricha tejay bilish xislatlari tarbiyalanadi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, didaktik o‘yinlar bolalarda do‘stlik, birodarlik, mehnatkashlik hissini tarbiyalash va taraqqiy ettirishga yordam beradi. «Kim turgan saf yaxshiroq», «Zanjircha», «Narvoncha», «Bilgan kishi sanashni davom ettiraversin» singari o‘yinlar o‘tkazilayotganda bolalar o‘z o‘rtoqlari, o‘zi turgan saf va o‘z sinflarining sharafi uchun kurashadilar[10].

Bir safga tizilganlar ikkinchi safda turgan o‘quvchilar bilan musobaqalashayotganda topshiriqni saflardan birining bitta o‘quvchisi yoki bir necha o‘quvchilari, yoxud butun bir saf bajaradi. Odatda bolalar o‘z sheriklariga dalda berib turadilar, agar o‘rtoqlari topshiriqni to‘g‘ri bajarsa, undan behad xursand bo‘ladilar va u bilan faxrlanadilar. Shuni ham aytish kerakki, o‘yin

o‘tkazilayotgan paytda bolalarda hasad, qizishib ketish singari salbiy xislatlar uchramaydi.

Xulosa. Didaktik o‘yinlar ijodiy shaxs tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o‘yin, uning har bir takrorlanishi topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bo‘lishni talab qiladi, uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi.

Didaktik o‘yinlarda tirishqoqlik, matonatlilik, boshlangan ishni oxirigacha yetkaza bilish singari eng kerakli irodaviy sifatlar tarbiyalanadi[11]. Masalan, «Doiraviy misollar» o‘yinida oltita misolning hammasini yechish kerak, aks holda, oxirgi sonning birinchisiga to‘g‘ri kelish-kelmasligini bilib bo‘lmaydi. Ana shuning o‘zi bolalarni aktivlashtirib yuboradi va ular misolni yechmay qo‘ymaydilar.

«Do‘koncha» tipidagi o‘yinda o‘yinchoqlar «sotib olish» ning o‘zi bilan ish bitmaydi, balki bir necha o‘yinchoqlar narxini hisoblab (qo‘shib) chiqishga, necha pul «qaytarib» berish kerakligi haqida o‘ylab ko‘rishga ham to‘g‘ri keladi. Bolalar «qiziqarli kvadratlar» o‘yinida murakkab matematik amallarni bajaradilar. Bunda o‘quvchilarga bir yo‘la bir necha amallarni bajarishga, chiqqan natijalarni taqqoslashga, erishilishi mumkin bo‘lgan natijalar to‘g‘risida o‘ylab ko‘rishga va noto‘g‘ri hisobdan voz kechishga to‘g‘ri keladi. Bularning hammasi tez, zo‘r qiziqish va aqliy faoliyat bilan o‘tadi. Katta, chiroyli to‘pni ko‘rgan o‘quvchilarda tortinchoqlik yo‘qola borib, ular dastlab qo‘rqa-pisa, keyinchalik esa dadillik bilan sonlarni o‘ylab topishga kirishadilar.O‘yin jarayonida bolalarda tevarak-atrof haqida to‘g‘ri tushuncha paydo bo‘lardi, bu esa bolalarga topshiriq mazmunini (mustaqil o‘ylab topish paytida) xilma-xil qilishga yordam beradi. «Do‘koncha», «Nimani taqillatdim?», «Teatr», «Bolalar bog‘chasida mehmondorchilikda» singari o‘yinlarda bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, narsalarning sifatini, og‘irlik o‘lchovi, narx-navolar va boshqalarni bilib olardilar, Ularda fazoviy tasavvurlar mustahkamlanadi. Didaktik o‘yinlar, ayniqsa bolalar ham, o‘qituvchi ham o‘yinning qanday o‘tishiga qiziqqan paytlarida o‘qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi. o‘qituvchi bolalar nazarida tarbiyachigina emas, balki chinakam do‘stga ham aylanadi. Bu esa ayniqsa dastlabki kunlarda yuz beradigan yotsirash hollariga barham beradi. Shunday qilib, o‘yinlar, ayniqsa dastlabki kunlarda bolalarda o‘qituvchi va o‘qishga nisbatan ijobiy munosabat paydo qiladi.

Sinfdan tashqarida o‘ynatiladigan o‘yinlar bolalarning bo‘sh vaqtini durustroq o‘tkazish vositasidir. «Bo‘g‘inlar», «Sanayver», «Qiziqarli kvadratlar» kabi o‘yinlarni o‘ynaganlar, boshqa ko‘pgina o‘yinlardan esa qo‘shimcha mashg‘ulotlarda unumli foydalaniladi. Bolalar, jon-dillari bilan

darsdan keyin qolishga rozi bo‘ladilar va o‘zlariga berilgan topshiriqni tezda bajaradilar.

Adabiyotlar:

1. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish metodikasi. (O O‘Y uchun darslik.) Toshkent. “Turon-Iqbol” 2016 yil. 426 b.

2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G`. Boshlangi’ch sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (O O‘Y uchun darslik.) T. “Fan va texnologiya” 2005 yil.

3. Jumayev M.E, Boshlangi’ch sinflarda matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. (O O‘Y q) Toshkent. “O‘qituvchi” 2004 yil.

4. Tojiyev M.,Barakayev M,Xurramov A, Matematika o‘qitish metodikasi// O‘quv qo‘llanma.-T,: «Fan va texnologiya», 2016,-328 b.

5. Tadjiyeva Z.G‘ va boshqalar. Boshlang‘ich sinflarda matematikadan dars samaradorligini oshirishda tarixiy materiallardan foydalanish. Toshkent. TDPU, 2008., 96 bet

6. Boshlang‘ich ta’lim jurnali. 7-8-sonlari.

7. Yo‘ldoshev J.S. Yangi pedagogik texnologiya yo‘nalishlari, muammolari, yechimlari Xalq ta’limi, 1999. №4. - B. 4-11.

8. Ta’lim taraqqiyoti. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Vazirligining axborotnomasi. 7-maxsus son.1999 yil. 136-178 betlar. Toshkent. “Sharq”

9. Abduraxmonov, U. S., & No‘monova, D. (2023). Umumta’lim maktablari matematika darslarida zamonaviy didaktik vositalarining qo ‘llanilishi. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(9), 160-165.

10. Abdurahmanov, U. S. (2023). Application of Modern Information Technologies in Teaching Mathematics in General Education Schools. International journal of inclusive and sustainable education, 2(3), 20-24.

11. Shoqosim o‘g‘li, Abdurahmonov Umidjon, Meliyeva Xusnida Xafizaliyevna, and G‘ofurov To‘lqinjon. «Modern didactic means of teaching mathematics in secondary schools and problem educational technology.» Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.4 (2022): 460-467.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola umumta’lim maktablarida matematika fanini o‘qitishda didaktik o‘yinlarning ahamiyati mavzusiga bag‘ishlanadi. Bu maqolada asosan didaktik o‘yinlarning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqilgan. Maqolada ko‘rilgan o‘yinlar va ahamiyati to‘liq bayon qilingan. Bu maqola maktab o‘qituvchilari uchun matematika fanini o‘qitishda va bu fanga o‘quvchilarni qiziqtirish uchun asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

РЕЗЮМЕ

Данная статья посвящена теме значения дидактических игр в обучении математике в общеобразовательной школе. В данной статье были рассмотрены вопросы, связанные с воспитательным и воспитательным значением дидактических игр. Увиденные партии и их важность подробно описаны в статье. Эта статья служит основным инструментом для школьных учителей в обучении математике и заинтересовании учащихся в этом предмете.

SUMMARY

This article is devoted to the topic of the importance of didactic games in teaching mathematics in secondary schools. In this article, the issues related to the educational and educational value of didactic games were considered. The games seen and their importance are fully described in the article. This article serves as a basic tool for school teachers to teach mathematics and to interest students in this subject.

KOORDINATALARI BILAN BERILGAN VEKTORLAR USTIDA AMALLARNI FUZIONIZM G‘OYASI ASOSIDA O‘RGATISH

Normatov A.
Qo‘qon davlat pedagogika instituti Qo‘qon sh. O‘zbekiston
Tolipov R.
Qo‘qon davlat pedagogika instituti Qo‘qon sh. O‘zbekiston

Tayanch so‘zlar: tekislik, fazo, planimetriya, stereometriya, propedevtika, integratsiya, umumlashtirish, ixtisoslashtirish, analogiya, pozitsion geometriya, o‘lchov geometriyasi, saqlash, o‘zgartirish, uzatish, induksiya, deduksiya.

Ключевые слова: плоскость, пространство, планиметрия, стереометрия, пропедевтика, интегрирование, обобщение, специализация, аналогия, позиционная геометрия, геометрия измерения, хранение, преобразование, передача, индукция, дедукция.

Key words: plane, space, planimetry, stereometry, propaedeutics, integration, generalization, specialization, analogy, positional geometry, measurement geometry, storage, transformation, transmission, induction, deduction.

Kirish. “Fuzionizm” (lotincha –fusion-birlashtirish,birgalikda olib borish, ba’zi manbalarda fransuzcha, inzlizcha) atamasi 18-asrda pedagogik tezaurusga G‘arbiy Evropada o‘sha paytda boshlangan turli akademik fanlarni birgalikda o‘qitishni belgilash uchun kiritildi. Matematikani o‘qitishda fuzionizm arifmetika va geometriya, algebra va geometriyani, geometriyada planimetriya va stereometriyani birgalikda o‘qitish deb qarala boshlandi. Hozirgi kunda matematika o‘qitish metodikasida bu atama odatda planimetriya va stereometriyani birgalikda o‘qitishga nisbatan qo‘llaniladi. Geometriya fanini o‘qitishni tekislik va fazoda birgalikda olib borish fuzionizm prinsipi deb atalib, geometriya fanini o‘qitishga bunday yondashish boy tarixiy ma’lumotlarga ega. Qomusiy olim Abu Ali ibn Sino (980-1037 yillar) o‘zining «Bilimlar kitobi» nomli asarida planimetriya tushunchalarini stereometriya tushunchalari bilan birgalikda analogiya orqali birlashtirgani haqidagi ma’lumotlar bizgacha yetib kelgan.Ushbu sohada fuzionistik yondashuvning shakllanishi va rivojlanishi haqida ma'lumotni N. E. Maryukovaning "Maktab geometriyasida fuzionizm: tarixiy, matematik, real jihatlar" kitobida ham topish mumkin. XVIII-XX asrlarda Fransiya, Italiya, Germaniya va Daniyada ushbu masalaga bag‘ishlangan maqolalar va fuzionizm elementlarini o‘z ichiga olgan geometrik kurslar paydo bo‘ldi. XX asr o‘rtalarida geometriyani o‘qitishga fuzionistik yondashuv AQShda o‘z izdoshlarini topdi. Ushbu yondashuv g‘oyalarini eng chuqur va ko‘p qirrali amaliy amalga oshirish Rossiya o‘quv va ilmiy-metodik adabiyotlarida qo‘lga kiritildi. 1823-yildayoq N. I. Lobachevskiy geometriya bo‘yicha birinchi fuzionistik darslikni yozgan, ammo bu ish vatandoshlar nazaridan chetda qoldi. Rossiyada fuzionistik yondashuv XX-asrning boshlarida haqiqatan ham mashhur bo‘ldi. Bu asosan 1911 yil 27 dekabrdan 1912 yil 3 yanvargacha bo‘lib o‘tgan matematika o‘qituvchilarining Birinchi Butunrossiya kongressida taniqli matematik S. A. Bogomolovning "Geometriyani o‘qitishni tashkil etish bilan bog‘liq holda asoslash" ma'ruzasi ta'siri ostida sodir bo‘ldi. Ma'ruzachi, xususan, maktab geometriya

kursini propedevtik va sistematik qismlarga bo‘lish va ularning birinchisini fuzionistik asosda qurishni taklif qildi. Uning tomonidan bildirilgan, qurultoy yig‘ilishlarida keng muhokama qilingan fikrlar ma’qullandi. S. A. Bogomolov geometriyada tizimli fuzionistik kursni ishlab chiqdi, u ikki qismdan iborat: pozitsion geometriya va o‘lchov geometriyasi. Ammo uning darsligida masalalar deyarli yo‘q edi; muallif nazariy materialni mustahkamlash uchun mavjud masalali kitoblardan foydalanish mumkin deb hisoblagan. Shu bilan birga, tahlil shuni ko‘rsatadiki, fuzionizm g‘oyasini amalga oshiradigan deyarli barcha tizimli geometriya kurslarining eng zaif nuqtasi aynan vazifalar va mashqlardir. O‘tgan asrning boshlarida geometriyaning fuzionistik taqdimoti metodologiyasi masalalari I. N. Kavun, A. R. Kulisher, P. A. Nekrasov, S. P. Sluginov, V. M. Fesenko va boshqalarning asarlarida ko‘rib chiqilgan. Geometriyaning tizimli kursini o‘rganish propedevtikasi boshlang‘ich maktab va 5-6-sinflar uchun matematika kurslarida geometrik materiallarning alohida qo‘shilishi bilan taqdim etiladi; asosiy e'tibor uzunlik, yuza va hajmlarni hisoblash uchun elementar amaliy masalalarga qaratiladi. Ushbu matematika kurslari doirasida tekislik va fazoviy figuralar o‘rganiladi, ammo fuzionizm g‘oyasi faqat o‘lchovlar geometriyasida eng konveks tarzda ifodalanadi. Geometriyaning sistematik kursi an’anaviy tarzda boshlang‘ich maktabda o‘rganiladigan planimetriya va o‘rta maktabda o‘rganiladigan stereometriyaga bo‘linadi. 60-70-yillarda matematik ta'lim islohoti davrida Ya.M.Jovenir tomonidan fuzionizm muammosining batafsil dissertatsiyasi bajarilgan va shu asosda 7-9-sinflar uchun fuzionistik geometriya kursi dasturi ishlab chiqilgan. Yassi figuralarni va ularning fazoviy tengdoshlarini birgalikda o‘rganishni faol targ‘ib qilish didaktik birliklarni yiriklashtirish texnologiyasi muallifi P. M. Erdniev tomonidan amalga oshirildi.

Ta'limning uzluksizligini belgilovchi faoliyat mexanizmlari yangi faoliyat sharoitida mavjud tajribani saqlash, o‘zgartirish va uzatishga asoslanadi. Ta’lim mazmuni o‘qitishning predmetiga aylanib, jonli individual psixik jarayon shaklini oladi va aynan unda ijtimoiy-madaniy tajribaning o‘zlashtirilishi ham, kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishi ham sodir bo‘ladi. O‘tmishdagi o‘zgarishlarni saqlab qolishning psixologik mexanizmi uzoq muddatli xotiradir, ya'ni statik kodlarning "ombori"dir. Aqliy faoliyat jarayonlarining uzluksizligi va davomiyligi qisqa muddatli va operativ xotira bilan ta'minlanadi. Individual psixik tajribadagi mahsuldor o`zgarishlarning psixologik mexanizmlari tasavvur va tafakkurdir. Ijtimoiy bilish va uning usullarining rivojlanishi natijasida ijodiy tasavvur rivojlandi, universal aqliy operatsiyalar (taqqoslash, umumlashtirish va konkretlashtirish, tahlil va sintez), inson aqliy faoliyatining texnikasi va usullari (induksiya, deduksiya, analogiya, aks ettirish va boshqalar) uning faoliyatining eng muhim vositasiga aylanib, individual bilish jarayonida eski va yangi munosabatlari shakllandi. Shuning uchun uzluksizlik jarayonini nazariy tushunish uchun psixik jarayonlar oqimining modellariga tayanish muhimdir. Xususan, umuminsoniy aqliy operatsiyalarning genezisi haqida g‘oyalar bo‘lishi kerak, ular aniq predmet mazmuni bilan to‘ldirilganligi sababli, har qanday ta'lim va kognitiv harakatlar asosida yotadigan ta’lim uzluksizligini ta’minlashda ularning roli va o‘rni haqida umumiy gnoseologik va umumiy mantiqiy operatsiyalarga aylanadi. Taniqli matematik olim va pedagog D.Poya o‘zining uslubiy ishlarida o‘qituvchi nafaqat isbotlashga, balki taxmin qilishga ham o‘rgatishi kerak, degan g‘oyani izchil davom ettiradi. U chuqur ishonch hosil qiladi: "Agar matematikani o‘qitish ma'lum darajada matematikaning qanday yaratilganligini aks ettirsa, unda taxmin qilish, ishonchli xulosa qilish uchun joy bo‘lishi kerak". Iqtidorli xulosalar asosidagi induktiv fikrlashda yetakchi rolni, uning fikricha, umumlashtirish, ixtisoslashtirish (konkretlashtirish) va analogiya o‘ynaydi. Olim shunday deb yozadi: “Ehtimol, na elementar, na oliy matematikada, na hattoki, ehtimol, boshqa sohalarda bu amallarsiz, ayniqsa, o‘xshatishsiz amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan kashfiyotlar yo‘qdir” . D.Poya uzluksizlik haqida gapirmasa ham, konstruktiv inkor g‘oyasining o‘zi uning butun pedagogik faoliyatida qizil ipdek o‘tadi. Darhaqiqat, u nomlagan uchta universal kognitiv harakatning har biri eski bilim va uni tushunishni inkor etish va qayta ko‘rib chiqish elementlarini o‘z ichiga oladi. Tushunchalarni umumlashtirish va konkretlashtirish

ilm-fan va ta’lim faoliyatini rivojlantirishda eski va yangi munosabatlarning eng sodda va yorqin misollarini beradi. Umumlashtirish natijasida tushunchalarning individual o‘ziga xos xususiyatlari inkor etiladi, ularning umumiy umumiylik xossalari alohida ajratiladi, ular yangi umumiylik darajasidagi (abstraksiya) saqlanib qoladi.Konkretlashtirish yordamida kiritilgan tushunchalar umumiy xususiyatlarni meros qilib oladi - bu holda eskisi yangi tarkibga ega bo‘ladi. Agar umumlashtirilgan tushunchalar inklyuziya munosabati bilan bog‘langan bo‘lsa, u holda analogiya ulardan tubdan farq qiladi, chunki analog va uning prototipi bir xil mavzu sohasining turli to‘plamlariga va hatto turli mavzu sohalariga tegishlidir. Yangi tushunchalarni kiritishda o‘xshashlik turli sabablarga ko‘ra va turli yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. O`xshatish yo`li bilan tuzilgan xulosada asos bir predmetga (tushunchaga), xulosa esa boshqasiga ishora qiladi. Shuning uchun bu usul ishonchli bilimlarni bermaydi, olingan xulosalar faqat ehtimol va isbot talab qiladi. Shunisi e'tiborga loyiqki, o‘xshashlik bilan tuzilgan matematik bayonotlarning ko‘plab dalillari tegishli prototip bayonotlarining isbotlarini o‘zgartirishdir. Shuning uchun analogiya faqat gipoteza va taxminlarni ilgari surish uchun xizmat qiladi, lekin mavjud kognitiv tajriba asosida yangi narsalarni yaratishning ushbu usuli individual va ijtimoiy bilishning faoliyati va rivojlanishining eng muhim vositasidir. Shu bilan birga, D.Poya ta’kidlaganidek, “umumlashtirish, ixtisoslashtirish va analogiya ko‘pincha matematik masalalarni yechishda hamkorlik qiladi” .O‘tmish tajribasini yangi sharoitlarga o‘tkazishning muhim mexanizmi bo‘lib, matematik ijodda analogiya ma'lum faktlarni induktiv va analitik umumlashtirish va ularni isbotlash usullari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Talaba o‘quv va geometrik faoliyatning haqiqiy sub'ekti bo‘lishi uchun uni umumlashtirish, aniqlashtirish va o‘xshashliklardan foydalanishga maqsadli ravishda o‘rgatish kerak. Mavjud maktab geometriya darsliklarida faqat jins va tur farqi orqali umumlashtirish va konkretlashtirish aniq va eng ko‘zga ko‘ringan tarzda berilgan; analogiya haqida eslatish ko‘pincha faqat "bu teorema teoremaga o‘xshash tarzda isbotlangan ..." iborasida uchraydi. **Metodologiya va usullar.** O‘quv matnlari mualliflari tomonidan qo‘llaniladigan tayyor analogiyalar ko‘plab talabalar tomonidan sezilmaydi; ko‘pincha o‘qituvchi ularni ko‘rish va unumli qo‘llash qobiliyatini o‘rganishning tabiiy natijasi deb hisoblab, ularga e'tibor bermaydi. Shuning uchun ham oliy o‘quv yurtlarida matematika ta’limini davom ettirish uchun zarur bo‘lgan geometriya kursining uslubiy imkoniyatlari maktabda to‘liq amalga oshirilmagan. Ushbu potentsialni ochish usullaridan biri maktabda matematika tayyorlashning muayyan bosqichlarida planimetriya va stereometriyani birgalikda o‘qitish bo‘lishi mumkin .. Geometriyani fuzionizm asosida taqdim etish muammosi, I. M. Smirnova to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “kichik maktab o‘quvchilari uchun geometriya propedevtik kurslarida ajoyib tarzda hal qilindi, uning asosiy maqsadi asosiy geometriyaning tizimli maktab geometriya kursini o‘rganishga tayyorgarlik ko‘rishdan iborat. Biroq, ko‘rib chiqilayotgan muammoni hal qilish uchun ikki asrdan ko‘proq vaqt davomida amalga oshirilgan va uni geometriyaning tizimli kursida amalga oshirishdan iborat bo‘lgan ko‘plab urinishlar muvaffaqiyat qozonmadi. Aslida, Rossiyada XIX asrda. bitta tegishli qo‘llanma N. I. Lobachevskiy va 20-asrda - S. A. Bogomolov tomonidan yaratilgan, ammo ular boshlang‘ich maktab ta'limiga ega bo‘lgan kitobxonlar uchun ham mo‘ljallangan (kurslar talabalar va matematika o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan edi. - G.K.) Muvaffaqiyatsizliklarning asosiy sababi, I. M. Smirnovaning so‘zlariga ko‘ra, "fuzionizm asosiy didaktik tamoyillarga ziddir: oddiydan murakkabgacha, izchillik, tizimlilik va boshqalar".

Tadqiqotchining so‘nggi xulosasi bilan aniq rozi bo‘lish qiyin. Biroq, bu hatto asosiy muammo emas. Birinchidan, maktabga fuzionistik asosda qurilgan tizimli geometriya kursi kerak yoki yo‘qligini tushunish kerak. Bu savolga javob ijobiydan ko‘ra salbiyroqdir. Bu gapni asoslash uchun yana rivojlanish jarayoni qonuniyatlariga murojaat qilaylik. Har qanday rivojlanishning, xususan, bilimlarni rivojlantirishning asosiy shakli integratsiya bilan birgalikda farqlashdir. Ushbu jarayonlarning birortasini hal qiluvchi deb atash qiyin. Ba'zi bosqichlarda idrokni differentsiallashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi, boshqalarida - integratsiya, orqaga qarash, qilingan ishlar to‘g‘risida yaxlit tasavvurni shakllantirish va uning keyingi evolyutsiyasi istiqbollari va mumkin bo‘lgan yo‘nalishlarini baholash vaqti keldi. Fan tarixi ishonchli tarzda

shuni ko‘rsatadiki, u yoki bu bilim sohasining teskari tomonga differensial-integrativ harakati vektorining har qanday o‘zgarishi stixiyali emas, balki ichki tan olingan zarurat bilan shartlangan. Maktab ta'limini fundamental tizimli shaxsiy ahamiyatga ega bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish vositasiga aylantirish uchun ta'lim mazmunida idrok rivojlanishining differentsial-integratsiya qonuniyatlarini qisqartirilgan shaklda taqdim etish kerak. Ta'lim jarayonida sodir bo‘ladigan differensial-integratsiya jarayonlarini alohida ajratib ko‘rsatish va hozirgidan aniqroq belgilash, differensiatsiya va integratsiya zarurligini anglash talabaning ongli ichki ehtiyojiga aylanishi kerak. Aytgancha, bu nafaqat fan bilimlari va ko‘nikmalarini egallashga, balki universal ta'lim faoliyatini shakllantirishga ham tegishli.

“Geometriyani nafaqat matematikaning boshqa bo‘limlaridan, balki umuman boshqa fanlardan ajratib turadigan xususiyati shundaki, – deb yozadi A. D. Aleksandrov, – unda eng qat’iy mantiq vizual tasvir bilan uyg‘unlashgan. Geometriya o‘z mohiyatiga ko‘ra jonli tasavvur va qat'iy mantiqning shunday kombinatsiyasi bo‘lib, ular bir-birini tashkil qiladi va boshqaradi. Tasavvur geometrik faktni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasavvur qilish imkonini beradi va mantiqni uni ifodalash va isbotlashga undaydi, mantiq esa, o‘z navbatida, tasavvurga aniqlik berib, uni mantiq uchun zarur bo‘lgan bog‘lanishlarni ochib beruvchi suratlar yaratishga yo‘naltiradi. Bu, shubhasiz, hech bo‘lmaganda uch o‘lchovli Evklid geometriyasi uchun to‘g‘ri. Ammo evklid bo‘lmagan va ko‘p o‘lchovli geometriyaning manbasi va mazmunli asosida, shuningdek, hech bo‘lmaganda umumlashtirilgan vizual tasvirlar mavjud; ularsiz geometriyaning har qanday kesimi geometriyaning o‘zi bo‘lishni to‘xtatadi». Psixologlar uzoq vaqtdan beri bizning idrokimiz, xotiramiz va tafakkurimiz bir-biridan mustaqil ravishda mavjud emasligini va tafakkur nafaqat nutq shaklida, balki unda semantik mazmun tashuvchisi sifatida ishlaydigan tasvirlar shaklida ham sodir bo‘lishini allaqachon aniqlagan. Tasvirlarning ishlashi va belgilarning mantiqiy ishlashi bir-biriga bog‘langan. Bolaning ta'lim va kognitiv faoliyati rivojlanishi bilan fikrlash tillarining dialogik tabiati va ularga mos keladigan ma'lumotlarni kodlash va qayta ishlash usullari tobora murakkab tuzilishga ega bo‘ladi. Bir tomondan, turli xil umumlashtirish darajasiga ega bo‘lgan tasvirlar ierarxiyasi mavjud bo‘lsa, boshqa tomondan, ilmiy tavsif tillari boyitiladi, takomillashtiriladi va tobora qat'iy rasmiylashtiriladi. Geometrik (kontseptual) makonning prototipi insonning real hayot fazosi bo‘lib, maktabda o‘rganilayotgan geometrik tushunchalarning ko‘rinishi va konkretligi real ob’ektlarning vizual tasvirlarining xossalari va xususiyatlari hisoblanadi.

Natijalar: Koordinatalari bilan berilgan vektorlar ustida amallarni fuzionizm g‘oyasi asosida o‘rgatish

n- o‘lchovli fazoda $\vec{a}(x_1, x_2, \dots, x_n)$ va $\vec{b}(y_1, y_2, \dots, y_n)$ vektorlar berilgan bo‘lsin.

I.Bu $\vec{a}$ vektorning moduli yoki absolyut qiymati deb, unga mos kesmaning uzunligiga aytiladi va $|\vec{a}|$ ko‘rinishda belgilanadi va u quyidagicha hisoblanadi:

$$|\vec{a}| = \sqrt{x_1^2 + x_2^2 + x_3^2 + \cdots + x_n^2}$$

Tekislikda:

$\vec{a}(x_1; x_2)$ vektorning moduli yoki absolyut qiymati deb,unga mos kesmaning uzunligiga aytiladi va $|\vec{a}|$ ko‘rinishda belgilanadi. $\vec{a}(x_1; x_2)$ vektorning moduli quyidagicha hisoblanadi: $|\vec{a}| = \sqrt{x_1^2 + x_2^2}$

Uch o‘lchovli fazoda: $\vec{a}(x_1; x_2; x_3)$ vektorning moduli yoki absolyut qiymati deb,unga mos kesmaning uzunligiga aytiladi va $|\vec{a}|$ ko‘rinishda belgilanadi. $\vec{a}(x_1; x_2; x_3)$ vektorning moduli quyidagicha hisoblanadi: $|\vec{a}| = \sqrt{x_1^2 + x_2^2 + x_3^2}$

II. $\vec{a}, \vec{b}$ vektorlarning yig‘indisi (ayirmasi) deb, shunday $\vec{c}$ vektorga aytiladiki, uning koordinatlari $\overrightarrow{a_1}$ va $\overrightarrow{b_1}$ vektorlar mos koordinatalarining yig‘indisidan (ayirmasidan)iborat

bo‘ladi: $\vec{a}(x_1; x_2; \dots; x_n) \pm \vec{b}(y_1; , \dots; y_n) = \vec{c}(x_1 \pm y_1; x_2 \pm y_2; \dots; x_n \pm y_n)$

Tekislikda:1. Vektorlarni qo‘shish va ayirish

$$\vec{a} \pm \vec{b} = (a_x; a_y) \pm (b_x; b_y) = (a_x \pm b_x; a_y \pm b_y)$$

$$\vec{a} \pm \vec{b} = (a_x \pm b_x)\vec{i} + (a_y \pm b_y)\vec{j}$$

Uch o‘lchovli fazoda: Vektorlarni qo‘shish va ayirish

$$\vec{a} \pm \vec{b} = (a_x; a_y; a_z) \pm (b_x; b_y; b_z) = (a_x \pm b_x; a_y \pm b_y; a_z \pm b_z)$$

$$\vec{a} \pm \vec{b} = (a_x \pm b_x)\vec{i} + (a_y \pm b_y)\vec{j} + (a_z \pm b_z)\vec{k}.$$

III. $\vec{a}(x_1, x_2, \dots, x_n)$ vektorning $\forall \alpha \in R$ songa ko‘paytmasi deb, koordinatalari $\vec{a}$ vektor koordinatalarining α songa ko‘paytmalaridan iborat bo‘lgan vektorga aytiladi: $\overrightarrow{\alpha a}(x_1; x_2; \dots, x_n) = \vec{p}(\alpha x_1; \alpha x_2; \dots, \alpha x_n)$

Ota-onalar burchagi va ko‘rgazma tashkil etish. Ota-onalar burchagi ularni bolalar nutqidagi nuqsonlarni tuzatishga oid yangiliklar va logopedic masalalar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etiladi. Ularga kitoblar, jurnallar, rasmlar, bolalarning ishlari, bolarning uyidagi va oiladagi kun tartibi, ota-onalar uchun eslatmalar, e’lonlar joylashtiriladi. Burchak vaqti-vaqti bilan tarbiya vazifasiga qarab o‘zgartirib turiladi.

Pedagogik bilimlarni targ’ib qilish bo‘yicha tashkil etiladigan ko‘rgazmalar ko‘pincha ota-onalar konferensiyalari, majlislari, konsultatsiyalar oldidan tashkil etiladi. Unda maktabgacha ta’lim to‘g’risidagi qonun va qarorlar, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmoqlari va undagi tarbiyalanuvchilar sonining o‘sishini ko‘rsatuvchi diagrammalar, bolalar bilan olib boriladigan ta’lim - tarbiya jarayonlari, boalar bilan olib boriladigan logopedik mashg’ulotlardan lavhalar, bolalar hayotini aks ettiruvchi tasvirlar, kitob va o‘yinchoqlar, bolalarning ishlari o‘rin oladi.

Ota-onalar uchun ochiq eshiklar kunining tashkil etilishi ham maktabgacha ta’lim tashkilotlari ishida muhim o‘rin egallaydi. Bunday kunlarda ota-onalarga bolalarning logopedik mashg’ulotlari, o‘yin faoliyatlari, sayrlar va bolalarning jamoada o‘zlarining qanday tutushlari va shunga o‘xshashlar ko‘satiladi.

Kuzatuv kengashi Kuzatuv kengashi «Maktabgacha ta’lim tashkilotining Ustavi»ga binoan rahbarga yordam berish uchun tuziladi. U ota-onalarning umumiy majlisida bir yil muddatga saylanadi. Bu kengashga har bir yosh guruh ota-onalaridan 3 vakil saylanadi. Kengashning asosiy vazifasi rahbarga maktabgacha ta’lim tashkilotining xo‘jalik va ta’lim-tarbiya ishlarida yordam berish, kengash a’zolari, ota-onalar majlisi va kechalarni tayyorlash, o‘tkazish va boshqa ishlarda logoped-o’qituvchi va tarbiyachilarga ko‘maklashishdir.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, bolaning nutqidagi nuqsonlarini tuzatishda va uni sog’lom bolalar bilan birga ta’lim tarbiyasini olib borishda, nutq nuqsonlarining kelib chiqishini oldini olishda logoped-o’qituvchining ota-onalar bilan hamkorlik ishlari katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.

2. Jalilova S.X., Aripova S.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Faylasuflar, 2017.

3. Abduraximova D.A. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi asoslari. – Toshkent, 2016.- 174 b.

4. Apeeva L.A. «Metodicheskie rekomendasii i pourochnыe razrabotki po obucheniyu, chteniyu i razvitie rechi detey doshkolnogo vozrasta». Toshkent, 2000 g.

5. «Defektologicheskiy slovar».- M. Vlad.2001 g.

6. Zayseva G.L. «Jestovaya rech». «Daktilologiya». M., 2000 g.

7. «Novыe podxodы i puti obucheniya, vospitaniya, korreksii i integrasii detey s problemami v razvitii». - Bishkek, 1998 g.

8. Rechiskaya «Doshkolnaya surdopedagogika». M., 2001 g. Ye.G.

9. Logopediya (pod. red. L.S.Volkovoy) - M., 1989.

10. Muminova L.R., Ayupova M. «Logopediya» T. 1993 y.

11. Logopedicheskaya ritmika (uchebno-metodicheskoe posobie dlya logopedov spes.det. sadov) Toshkent – 2006.E. N. Nazarova, Sh. BoltaevaD. Nurkeldieva

12. K.Mamedov, G.Berdiev, SH.Xoliqova. Maxsus psixologiya ma’ruzalar matni. Toshkent, 2001.

13. Boymurodova, G. T. (2017). Particular Characteristics of Scientific Research Methods to Continuous Rising Qualification. Eastern European Scientific Journal, (5), 29-34.

14. Boymurodova G., Tosheva N. Boshlang‘ich ta’limda bilish faoliyatini rivojlantiruvchi o‘quv vaziyatlarini tashkillashtirishda hamkorlikda o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2020. – №. 1.

15. Toshtemirovna B. G., Qodirova N. Z. Maktabgacha ta’limda qo‘llanadigan o‘yinlarning pedagogik ahamiyati //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 156- 158.

16. Toshtemirovna B. G. Boshlangich ta’lim sifat va samaradorligini oshirishda hamkorlikda o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari //Научно-практическая конференция. – 2021.

17. Boymurodova G. T. Aspects of Continuous Development of the Professional Trajectory of Teachers in Modernized Educational Conditions //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 23-27.

18. Боймуродова Г. Т. Деятельность преподавателя в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2014. – Т. 12. – №. 1. – С. 342-343.

19. Боймуродова Г. Т. Ривожланган мамлакатларда рақамли технологиялардан фойдаланиш тенденциялари //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 42-43.

20. Боймуродова, Г. Т. (2012). Система непрерывного повышения квалификации в условиях модернизированного образования. Молодой ученый, (11), 397-398.

21. Boymurodova, G. T. (2017). Particular Characteristics of Scientific Research Methods to Continuous Rising Qualification. Eastern European Scientific Journal, (5), 29-34.

22. Boymurodova, G., & Tosheva, N. (2020). Boshlang‘ich ta’limda bilish faoliyatini rivojlantiruvchi o‘quv vaziyatlarini tashkillashtirishda hamkorlikda o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1).

23. Боймуродова, Г. Т. (2013). Организация профессиональной подготовки учителей средних общеобразовательных учреждений в школе. In Педагогическое мастерство (pp. 1-2).

24. Toshtemirovna, T. N., & Mustafoyeva, M. S. (2022). Ta’limda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini rivojlantirishning didaktik-psixologik xususiyatlari. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 154-156.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada Maktabgacha ta’lim tashkilotlari logoped-o’qituvchilari va oila bilan hamkorlik ishlar, ota-onalarning farzandining nutqi o’stirish jarayonida faol ishtirokini ta’minlash, pedagogic va kuzatuv kengashlarining hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining birgalikdagi tarbiyalanuvchining ham ruhan ham jismonan kamol toptirish maqsadida amalga oshiradigan ishlarining tuzilishi, logoped-o’qituvchi va ota-onalarning tarbiyalanuvchi nutq nuqsonlarini tuzatishda metodik ishlar mazmuni kabi masalalar haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье логопеды-педагоги дошкольных образовательных организаций и взаимодействие с семьей, обеспечение активного участия родителей в процессе развития речи своего ребенка, педагогических и наблюдательных советов и руководителей дошкольных образовательных организаций совместно с детской В духе обсуждены структура работы, проводимой с целью физического развития, содержание методических работ логопеда-педагога и родителей по коррекции дефектов речи ребенка.

SUMMARY

In this article, speech therapists-teachers of preschool educational organizations and cooperation with the family, ensuring the active participation of parents in the process of developing their child's speech, pedagogical and monitoring councils and heads of preschool educational organizations, together with the child's spirit the structure of the work carried out for the purpose of physical development, the content of methodical works of the speech therapist-teacher and parents in correcting the speech defects of the child were discussed.

BOLALARDA UCHRAYDIGAN NUTQ KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISHDA DIDAKTIK O`YINLARNI TURKUMLASH VA ULARDAN FOYDALANISH BO`YICHA TAVSIYALAR

Boymurodova G. T.
Buxoro davlat Pedagogika instituti p.f.d(DSc) dotsent
Xolova D. F.
Ta'lim va tarbiya nazariyasi metodikasi
(maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 2- kurs magistranti

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkiloti, nutqiy nuqsonlar, tayyorlov, ilg'or tajriba, Interfaol, pedagogik mahorat, profeesional ta'lim-tarbiya, nutqiy tayyorlash, artikulyatsion motorika, nazariy metodika.

Ключевые слова: организация дошкольного образования, дефекты речи, подготовка, передовой опыт, интерактив, педагогическое мастерство, профессиональное обучение и воспитание, речевое обучение, артикуляционная моторика, теоретическая методика.

Key words: preschool education organization, speech defects, preparation, best practice, interactive, pedagogical skills, professional education, speech training, articulatory motor skills, theoretical methods.

Bolalar o`sib, ulg'aygani sari ularning nutqi ham rivojlanib boradi. Bu davrda ba'zan nutqning ma'lum darajadagi buzilishlari kuzatilishi mumkin. Maktabgacha tarbiya yoshidagi boalalarda uchraydigan nutq kamchiliklaribartaraf etish yuzasidan xilma – xil yo`nalishda tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, Rossiyada R. Ye. Levina, L. F. Slirova, V. A.Kavshikov, Ukrainadi Ye. F. Sabotovich, O`zbekistonda L. R. Mo`minova, Ye. A. Boboeva tomonlaridan tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Men o`z dessertatsiya tadqiqotimda ushbu muammolar echimini echishga harakat qildim. Bu maqolamda ayrim yechimlar va maslahatlarni kiritganman .Men bolalar nutq faoliyatiga o`yinlarning qay darajada ta'sir etishni turli xil o`yinlar orqali sinab ko`rishga harakat qildim. Nutq buzilishlari bola shaxsining shakllanishiga, bilish faoliyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi.

Ma'lumki nuqsonli bolalar bilan muloqotga kirishish uchun, pedagogga pedagogik mahorat juda kuchli bo`lmog'i lozim. Chunki ko`pgina nuqsonli bolalar (o`zlaridagi nuqsonlari sababli) o`zgalar bilan muloqotga kirishishni istashmaydi, istashsa ham qiynalishadi.

Insonlar bir birlari bilan muomilaga kirishar ekan, ularning asosiy ko`zlagan maqsadlaridan biri o`zaro bir biriga ta'sir ko`zsatish, ya'ni fikr- g'oyalariga yaxshi ta'surot qoldirishdir.Ammo ko`pgina nuqsonli bolalarning fikr doirasi kuchsizroq bo`lib, ega bo`lgan fikrlarini ham nutqida aniq bayon ettirishga (nuqsonlari sababli) qiynalishadi.

Shuning uchun pedagog birinchi bo`lib nuqsonli bolalarga psixologik ta'sir bu- turli vositalar yordamida bolalarning fikrlari, hissiyotlari va xatti harakatlariga ta'sir ko`rsata olishi darkordir.

Ma'lumki nutq – bu so`zlashuv o`zaro muomala jarayoni bo`lib, uning vositasi –so`zlar hisoblanadi. Manologik nutqda, diologik nutqda ham odam o`zidagi barcha so`zlar zaxirasidan foydalanilib, eng ta'sirchan so`zlarni topib, sherigiga ta'sir ko`rsatishni xohlaydi. Hutqida nuqsoni bor bola esa ko`pgina hollarda shu nuqsonini yashirishi natijasida muloqotda kirishishni istamaydi, kirishsa ham tor doiradagi insonlar (oila a'zolari, bog'cha opasi va bir necha yaqin do`stlari) bilan muloqotga kirishadi. Shu sabab ularning so`zlar zaxirasi kam, davragirlik xislatlari sust bo`ladi. Ertaliklarga ham o`zlariga berilgan she'rni qiynalib aytishadi.


Ba'zi hollarga bunaqa bolalar nutqning paralingivistik ta'sirning bazi bir omillari nutqni susaytiruvchi, past tovushida ifodalash, to`xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalgam oshiriladigan harakatlar, nidolardan foydalanadi.

Muloqot jarayonidagi xarakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir birlariga ta'sir ko`rsatmoqchi bo`lishganda, dastavval nima deyish, qanday so`zlar vositasida ta'sir etishini o`ylar ekan. Muloqotning qanday kechishi va kimning ko`proq ta'sirga ega bo`lishi sheriklarning rollariga ham bog'liq. Ta'sirning tashabbuskori- bu shunday sherikki, unda ataylab ta'sir ko`rsatish maqsadi bo`ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqoridagi ta'kidlangan vositalardan foydalanadi.

Shunday ekan, suhbat jarayonida bola o`zini tashabbuskor etib his qilishi, ya'ni bola suxbatda o`zini asosiy rolda ekanligini sezishi kerak, buning uchun pedagog diologni shu maqsadda tuzishi lozim.eng avvalo bola bilan ishonchli munosabat o`rnarishi kerak.Suhbat jarayonida bola uni yaxshi ko`rishlarini va u to`g'risida g'amxo`rlik qilishlarini his eta olishi juda muhimdir.

Pedagogning muloqot jarayonida o`yin, nutqiy mashqlar, barmoqlar teatri, qisqa sahna ko`rinishlarini o`ynash, rasmli topishmoqlar, ta'limiy o`yinlar, barmoqlar gimnastikasi va qofiyali so`zlar o`yinidan foydalanishi muloqotning ijobiy o`tishiga yordam beradi.

Bola tomonidan berilgan bilimlarning o`zlashtirilishi uning hotirasiga ham bog'liqdir. Ma'lumki insonning eslab qolishi quyidagichadi :



_____10% O`qish orqali

_____20% Eshitish orqali

_____30% Ko`rish orqali

_____50%Eshitish va ko`rish

_____80% Gapirish orqali

_____90% Gapirish va bajarish

Shularni inobatga olgan holda she'rni yod olish tezligini oshirish uchun uni turli harakatlar bilan birgalikda olib borish yaxshi natija beradi.

Tog'orani olamiz
oldimizga qo`yamiz.
Ichiga suv solamiz,
so`ngra ishni boshlaymiz.

Bir, ikki, uch, to`rt (Ishqalash harakati bajariladi)
bir, ikki, uch, to`rt (G'ijimlash, chayish harakati)

Bir, ikki, uch, to`rt (chayish harakati)
bir, ikki, uch, to`rt (Siqish harakati)
Bir, ikki, uch, to`rt (Qoqish harakati)
bir, ikki, uch, to`rt (ilish, qistirish harakati);

Choynikchada qopqoqcha (choynak deganda qo`llar shar shaklida ifodalanadi)

Qapqoqchada qolpoqcha (Qop. Degan. qo`l. yarim qislgan xolda pastga qaratil.)

Qalpoqchada teshikcha (Qalpoq. degan. barmoq. mush yig'iladi. teshikcha deg.

Bosh barmoq bilan ko`rsatgich barmoq birlash. Teshi)

Teshikchadan par chiqar (Par chiqarda qo`llar harakatlanib yuqoriga ko`taril).

O`yin inson faoliyatining ko`rinishlaridan biridir. Tadqiqotchilar o`yinning qadrini bola xulqini shakllantirishdagi kishining muomala chog'idagi xatti –

harakatini aniqlab olishdagi ahamiyatini ta'kidladilar. O`yin bola hayotining uzviy qismidir. Bolalarning o`yin dunyosi boy va xilma – xildir. Nutq kamchiligiga ega bo`lgan bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda o`yin usullari hamda elementlaridan foydalanish samarali natija beradi va shu sababdan keng qo`llaniladi. Shu sababli o`yin faoliyatidan keng foydalanish orqali bolaga har tomonlama ta'sir etish mumkin. O`yin bolaning aqliy rivojlanish vositasidir. O`yin vaqtida xilma – xil aqliy jarayonlar faollashadi, o`yinning vazifa va shartlari esa diqqatni to`plash, analizatorlarni farqlash, taqqoslash, umumlashtirish jarayonlarining faollashuvini talab etadi. Bir xildagi harakat va so`zlarning ko`p takrorlanishi bola ongida narsa va hodisalar haqidagi mustahkam bog'lanishlar hosil qiladi, muayyan fikr, xatti – harakatlarning tarkib topishiga yordam beradi.

"O`yin – sinchkovlik va qiziquvchanlik olovini o`t oldiruvchi uchqundir", degan edi V. A. Suxomlinskiy.

O`yin bolalarning har tomonlama kamol topishida kata ahamiyatga ega bo`lib, o`yin vaqtida bolalarning sezgi, idrok, tafakkur, hayol, xotira, diqqat, iroda, xissiyot va boshqa ruhiy jarayonlari ishtirok etadi. O`yinlar bolalarning aqliy faoliyatini o`stirishga, ularning fikriy tashabbuskorligini oshirishga xizmat qiladi. Bolalarning xis tuyg'ularini shakllantirishga, ayniqsa, ularning sezgi a'zolari (ko`rish, sezish, tinglash va .b) faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Didaktik o`yinlar xilma – xil materialllar asosida tashkil qilinadi. Masalan: qo`g'irchoqlar, o`yinchoqlar, rang – barang rasm va kartochkalar, turli geometrik shakllar, tabiiy materiallar shular jumlasidandir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda didaktik o`yinlarning ag'amiyati katta, bu o`yinlarni keng qo`llash bola tafakkuri, idroki, zehni, xotirasi, irodasi, bilim olishga bo`lgan qiziqishi va ehtiyojining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko`rsatadi. Bolada atrof olamni bilishga bo`lgan qiziqish ortadi, ziyrakligi, ixtiyoriy diqqati, topqirligi tashabbuskorligi mustahkamlanadi. Bolalarda o`yin orqali, kattalarning xatti – harakati orqali voqe'likka munosabat shakllanadi, dunyoqarash, aqliy, axloqiy va jismoniy tomondan tarbiyalanadilar. O`yinlar o`z mazmuniga ko`ra bir necha turlarga bo`linadi: Didaktik o`yinlar; dramalashtirilgan o`yinlar; syujetli – roli; harakatli o`yinlar.

Didaktik o`yinlarda bolalarning aqliy jihatdan o`stirish uchun kerakli bo`lgan muhim sifatlar hosil bo`ladi. O`yinlar bolalarning yoshiga va ruhiy rivojlanishiga qarab tanlanadi. Ta'limiy o`yinlar orqali bolada mustaqillik, faollik, ijodkorlik masalaga ongli yondoshish malakasi o`stirib boriladi. O`yin ko`rgazmalilik, oddiydan murakkabga o`tish usullari orqali olib boriladi.

Tarbiyachi va logopedlar ta’limiy o`yinlarni o`tkazish davomida bola harakatini faollashtiradi, mustaqil harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi, o`yindan to`g’ri foydalanilsa bolaning tafakkuri, nutqi, xotirasi ya’ni, aqliy tarbiyasiga asos solinadi. Ta’limiy o`yinlar orqali bolalar eshitish, ko`rish, sezish a’zolari orqali turli narsalar va ularni yasashda ishlatiladigin materiallarning xossalarini, ularni bir - biriga taqqoslashni, guruhlarga ajratishni o`rganadilar.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.

2. Apeeva L.A. «Metodicheskie rekomendasii i pourochnыe razrabotki po obucheniyu, chteniyu i razvitie rechi detey doshkolnogo vozrasta». Toshkent, 2000 g.

3. «Defektologicheskiy slovar».- M. Vlad.2001 g.

4. Zayseva G.L. «Jestovaya rech». «Daktilologiya». M., 2000 g.

5. «Novыe podxodы i puti obucheniya, vospitaniya, korreksii i integrasii detey s problemami v razvitii». - Bishkek, 1998 g.

6. Rechiskaya «Doshkolnaya surdopedagogika». M., 2001 g. Ye.G.

7. Logopediya (pod. red. L.S.Volkovoy) - M., 1989.

8. Muminova L.R., Ayupova M. «Logopediya» T. 1993 y.

9. Logopedicheskaya ritmika (uchebno-metodicheskoe posobie dlya logopedov spes.det. sadov) Toshkent – 2006.E. N. Nazarova, Sh. BoltaevaD. Nurkeldieva

10. K.Mamedov, G.Berdiev, SH.Xoliqova. Maxsus psixologiya ma’ruzalar matni. Toshkent, 2001.

11. Defektologiya» jurnallarining barcha sonlari.

12. Boymurodova, G. T. (2017). Particular Characteristics of Scientific Research Methods to Continuous Rising Qualification. Eastern European Scientific Journal, (5), 29-34.

13. Boymurodova G., Tosheva N. Boshlang‘ich ta’limda bilish faoliyatini rivojlantiruvchi o‘quv vaziyatlarini tashkillashtirishda hamkorlikda o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2020. – №. 1.

14. Toshtemirovna B. G., Qodirova N. Z. Maktabgacha ta’limda qo‘llanadigan o‘yinlarning pedagogik ahamiyati //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 156- 158.

15. Toshtemirovna B. G. Boshlangich ta’lim sifat va samaradorligini oshirishda hamkorlikda o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari //Научно-практическая конференция. – 2021.

16. Boymurodova G. T. Aspects of Continuous Development of the Professional Trajectory of Teachers in Modernized Educational Conditions //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 23-27.

17. Боймуродова Г. Т. Деятельность преподавателя в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2014. – Т. 12. – №. 1. – С. 342-343.

18. Боймуродова Г. Т. Ривожланган мамлакатларда рақамли технологиялардан фойдаланиш тенденциялари //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 42-43.

19. Боймуродова, Г. Т. (2012). Система непрерывного повышения квалификации в условиях модернизированного образования. Молодой ученый, (11), 397-398.

20. Boymurodova, G. T. (2017). Particular Characteristics of Scientific Research Methods to Continuous Rising Qualification. Eastern European Scientific Journal, (5), 29-34.

21. Boymurodova, G., & Tosheva, N. (2020). Boshlang‘ich ta’limda bilish faoliyatini rivojlantiruvchi o‘quv vaziyatlarini tashkillashtirishda hamkorlikda o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1).

22. Боймуродова, Г. Т. (2013). Организация профессиональной подготовки учителей средних общеобразовательных учреждений в школе. In Педагогическое мастерство (pp. 1-2).

23. Toshtemirovna, T. N., & Mustafoyeva, M. S. (2022). Ta'limda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini rivojlantirishning didaktik-psixologik xususiyatlari. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 154-156.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqiy nuqsonlarini bartaraf etishda artikulyatsion motorikani rivojlantirish, nutq tovushlarini o'rgatish metodikasi .Hozirda maktabgacha ta'lim tizimida maktab yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga nutqiy tayyorlash texnologiyalarini qo'llash kengroq tadqiq qilinmaganligi, nutq kamchiliklarini bartaraf etishda , maktab yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga nutqiy tayyorlash texnologiyalaridan samarali foydalanish usul va vositalari ,metodikalari keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье развитие артикуляционной моторики и методика обучения звукам речи в дошкольных образовательных организациях для устранения дефектов речи детей.В настоящее время использование технологий речевой подготовки детей школьного возраста к школьному обучению в система дошкольного образования мало исследована, в устранении дефектов речи представлены методы и средства, способы эффективного использования технологий речевой подготовки детей школьного возраста к школьному обучению.

SUMMARY

In this article, the development of articulatory motor skills and the method of teaching speech sounds in pre-school educational organizations for the elimination of children's speech defects. Currently, the use of technologies for the speech preparation of school-aged children for school education in the preschool education system has not been widely researched, in the elimination of speech defects , methods and tools, methods of effective use of technologies of speech preparation of school-aged children for school education are presented.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMULARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Boymurodova G. T.
Buxoro davlat pedagogika instituti p.f.d. (DSc), dosent
Teshayeva S. J.
Buxoro davlat pedagogika instituti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi1-bosqich magistranti

Tayanch so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi namunalari, tarbiya, bolalar tarbiyasi, maktabgacha ta’lim tashkiloti, ertaklar ,maqollar, estetik nafosat.

Ключевые слова: образцы устного народного творчества, воспитание, воспитание детей, дошкольная организация, сказки ,пословицы, эстетическая изысканность.

Key words: examples of folklore, upbringing, children’s education, preschool education organization, fairy tales, proverbs, aesthetic sophistication.

Yangi O‘zbekistonda yangicha fikrlash, yangicha qarash va taraqqiyot strategiyalari jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Barcha sohalar kabi maktabgacha ta’lim sohasiga ham katta e’tibor qaratilib kelinmoqda. Mamlakatimiz rahbari bolalarni tarbiyalash jarayonida malakali, o‘z ishini yaxshi biladigan kadrlarni jalb qilib, ular orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni yoshligidan tarbiyalab bormasak, kelajakda vatanimiz ravnaqi uchun xizmat qiladigan barkamol avlodlarni yetishtira olmaymiz, degan edilar. Bundan tashqari maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilar shakllantirib yuksaltirmasdan turib jamiyat ma’naviyatini, xalqimiz hayoti va turmush tarzini ham samarali yuksaltirib bo‘lmaydi. Shu maqsadda bu sohada tub burilish yasagan Maktabgcha ta’lim Vazirligi tashkil topdi.

Shundan so‘ng bu o‘zgarishlarning davomi sifatida 2019-yil 16 - dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” gi qonun qabul qilindi. “Bog‘cha tarbiyasini ko‘rgan bolaning ongi, dunyoqarashi yuqori bo‘lishini bugun kimgadir isbotlab o‘tirishning, o‘ylaymanki, hech qanday hojati yoq.” degan edi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni ijrosini ta’minlash, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga samarali ta’lim-tarbiya berish hamda

qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti qabul qilindi.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama va har sohada rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bundan ko'zlangan bosh maqsad farzandlarimizning zamonaviy bilim, kasb-hunarlarni egallashi, ma'naviy - intellektual, jismonan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishdir. Bunday fazilatlar sharq mutafakkirlarimizning asarlari orqali va xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lmish alla, ertak, maqol, topishmoqlari orqali singdiriladi. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning rivojlanish sohalari hisobga olingan holda ta'lim va tarbiya beriladi. Xalq og'zaki ijodi namunalari bu borada har tomonlama yordam beradi. Takomillashtirilgan ilk qadam davlat o'quv dasturida ham maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish sohalarining ayrimlarida qo'llaniladigan ta'lim texnalogiyalariga misollar sifatida xalq og'zaki ijodi namulalarining ko'rsatilganligining o'zi ham fikrimizning yorqin dalilidir. Bundan tashqari, ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasidagi ertak terapiyasi, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasida ertaklar to'qish, tasviriy hikoyalar tuzish, rasm asosida ijodiy hikoyalar tuzish, qayta hikoya qilish ham maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ko'mak beradi.

Bu borada xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega: birinchidan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida nutqiy ko'nikmalarni to'g'ri shakllantirishga zamin tayyorlaydi. Bunda lug'atni boyitish, nutq madaniyatini tarbiyalash, ertaklarni qayta hikoya qilib berish orqali dialektik nutq shakllantiriladi hamda savodxonlikkni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Ma'lumki, qadimgi davrlardan xalq og'zaki ijodi ta'lim va tarbiyaning eng asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Olimlarimiz S.X.Jalilova, S.M. Aripovalar maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasini o'rganish jarayonida xalq og'zaki ijodining bolalar rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati to'g'risida : "Har bir bola ertak eshitib ulg'ayadi. Xalq og'zaki ijodi, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, matallar, masallar va boshqa janrlar bolani o'zining sehrli olamiga yetaklaydi. Bola unda katta hayotni ko'radi, olam bilan tanishadi, jonli va jonsiz dunyoni ko'radi. Ertaklar bolalarda ijobiy xulq-atvorni mustahkamlaydi, kelajak hayotga hozirlaydi" deb ta'kidlaydilar. Bundan kelib chiqadiki ertak va hikoyalar orqali bola hayot bilan tanishadi, yaxshi va yomon odamlar va ularning xulq-atvorini anglaydi, o'tmish va kelajak haqidagi tasavvurlarga ega bo'ladi hamda turli vaziyatdan chiqish yo'llarini ham o'rgatadi. Shuningdek,

ertaklar asosida to‘qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar qahramonlari bilan yaqindan tanishadilar. Bog‘chada bolalar ertak eshitar ekan, o‘zini ertakdagi qahramonlar bilan solishtiradi, ertak uchrab qolgan salbiy xususiyat bolada ham bo‘lsa uni anglab tuzatishga harakat qiladi .

Ikkinchidan, ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalalarini o‘z ichiga oladi. Masalan, insoniy qadriyatlar, mehnatsevarlik, vatanga muhabbat, ahillik,yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi farq, halollik, to‘g‘rilik , oliyjanoblik, oqibat va mehmondo‘stlik kabi kategoriyalar aynan xalq og‘zaki ijodi namunalari, ayniqsa, ertaklar orqali bog‘cha tarbiylanuvchilarida shakllantililadi.

Ta’kidlash joizki, xalq og‘zaki ijodi bolalarga kuchli ma’naviy ta’sir ko‘rsatish imkoniga ega. Ertaklar, maqollar, tez aytishlar va alla o‘tgan yillar davomida insonlarni eng yaxshi fazilatlar sohibiga aylantirgan tarbiya vositalari hisoblanadi. Bolalarda ma’naviy tarbiya berish jarayonida yuzaki yoki xo‘jako‘rsinlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, aks holda tarbiyada g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘ladi va natijada bolalarimiz orasida dangasa, ishyoqmas, qo‘pol muomalali, loqayd, mehr-oqibatsiz, yolg‘onchi, xoin, mas’uliyatsiz, maqtanchoqlik kabi illatlarga ega bo‘lgan yoshlar voyaga yetishi mumkin. Shu sababli, ma’naviy jihatdan barkamol inson tarbiyasini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bu davrdagi tarbiya bolalarning har tomonlama rivojlanishida poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib borilayotgan mashg‘ulotlarning maqsadi va mohiyatida farzandlarimizni to‘g‘rilikka, halollikka, poklikka, vatanparvarlikka, ezgulikka, mehnatsevarlikka, adolatli bo‘lish, boshqalarga nisbatan mehr-shafqatli, xushmuomalali, odobli bo‘lishga o‘rgatib, ularni axloqiy jihatdan yuksak qilib tarbiyalash orqali ma’naviy dunyoqarashini kengaytirishga erisha olamiz. Ertak va hikoyalar shunday bir vositaki, ular bolalarning fantaziyasini rivojlanirishda alohida o‘rin egallaydi. Xalq og‘zaki ijodining bu janrida odob-axloq va ma’naviyatning barcha jabhalari qamrab olingan. Ertaklar nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham g‘oyaviy mazmun jihatdan ta’sir ko‘rsatadi va u insonning axloq normalari namunalarini ochib berishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblanadi. Bu davrning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bu davrda bolalarda xarakter hislatlari shakllanib, axloqiy norma asoslari vujudga keladi. U bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otadi, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha

ta’lim muassasalarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo‘lib shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birgalikda bolalarga xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rgatish orqali ularda odob-axloq normalarini, xarakter xususiyatlarini osongina singdirib borish ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.

2. Jalilova S.X., Aripova S.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Faylasuflar, 2017.

3. Abduraximova D.A. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi asoslari. – Toshkent, 2016.- 174 b.

4. Qodirova F.R., Toshpo‘latova SH.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. –Toshkent:Tafakkur, 2019.- 688 b.

5.Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Tashkent, 2010. – 367 b.

6.Xurvaliyeva T.L. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirish metodikasini takomillashtirish. – Toshkent, 2021.

7. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi. –Toshkent, 2022.

8. Boymurodova, G. T. (2017). Particular Characteristics of Scientific Research Methods to Continuous Rising Qualification. Eastern European Scientific Journal, (5), 29-34.

9. Boymurodova G., Tosheva N. Boshlang‘ich ta’limda bilish faoliyatini rivojlantiruvchi o‘quv vaziyatlarini tashkillashtirishda hamkorlikda o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2020. – №. 1.

10. Toshtemirovna B. G., Qodirova N. Z. maktabgacha ta’limda qo‘llanadigan o‘yinlarning pedagogik ahamiyati //Pedagogs jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 156- 158.

11. Toshtemirovna B. G. Boshlangich ta’lim sifat va samaradorligini oshirishda hamkorlikda o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari //Научно-практическая конференция. – 2021.

12. Boymurodova G. T. Aspects of Continuous Development of the Professional Trajectory of Teachers in Modernized Educational Conditions //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 23-27.

13. Боймуродова Г. Т. Деятельность преподавателя в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2014. – Т. 12. – №. 1. – С. 342-343.

14. Боймуродова Г. Т. Ривожланган мамлакатларда рақамли технологиялардан фойдаланиш тенденциялари //Pedagogs jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 42-43.

15. Боймуродова, Г. Т. (2012). Система непрерывного повышения квалификации в условиях модернизированного образования. Молодой ученый, (11), 397-398.

16. Boymurodova, G. T. (2017). Particular Characteristics of Scientific Research Methods to Continuous Rising Qualification. Eastern European Scientific Journal, (5), 29-34.

17. Boymurodova, G., & Tosheva, N. (2020). Boshlang‘ich ta’limda bilish faoliyatini rivojlantiruvchi o‘quv vaziyatlarini tashkillashtirishda hamkorlikda o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1).

18. Боймуродова, Г. Т. (2013). Организация профессиональной подготовки учителей средних общеобразовательных учреждений в школе. In Педагогическое мастерство (pp. 1-2).

19. Toshtemirovna, T. N., & Mustafoyeva, M. S. (2022). Ta’limda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini rivojlantirishning didaktik-psixologik xususiyatlari. Pedagogs jurnali, 1(1), 154-156.

РЕЗЮМЕ

Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda alla qo'shiqlari va xalq maqollarining ahamiyati, ular vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda dastlabki xulq-atvor madaniyatini va vatanga muhabbat hislarini shakllantirishdagi vazifasi tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается роль и значение устного народного творчества в воспитании детей дошкольного возраста. Проанализировано значение песен Аллы и народных пословиц в всестороннем воспитании дошкольников, их задача в формировании у дошкольников культуры начального поведения и чувства любви к родине.

SUMMARY

The article suggest about the role and importance of folk art in the education of children of preschool age. The importance of "alla" songs and folk proverbs in the comprehensive education of preschool children, their role in the formation of the initial culture of behavior and feelings of love for the country in preschool children is analyzed.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'QUV MAHSG'ULOTLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Maxammatova M. J.
ADPI, katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: o'rganish jarayoni, qiyinchilik bosqichi, semantik bosqich va fikrlash bosqichi,kognitiv faoliyat,mantiq texnikasi,»Baxtni chizish» texnikasi.

Ключевые слова: процесс обучения, этап трудности, смысловой этап и этап мышления, познавательная деятельность, логический прием, прием «Рисование счастья».


Key words: the learning process, the stage of difficulty, the semantic stage and the stage of thinking, cognitive activity, logical technique, the «Drawing of happiness» technique.

Mamlakatimizda shakllangan zamonaviy ta'lim tizimi barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayonining samarali tashkil etilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Uzluksiz ta'lim tizimi doirasida faoliyat olib boruvchi maktablarda STEAM fanlar, tanqidiy fikrlash va axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetentsiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash muammolari bugungi kun vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimining eng asosiy bosqichlaridan biri bo'lgan boshlang'ich ta'limni rivojlantirishga e'tibor qaratish dolzarb vazifa bo'lib, u o'quvchining kelajagini belgilab beruvchi asosiy poydevor sanaladi. Kichik maktab yoshidagi (9-10 yosh) o'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan ilmiy bilimlarning dastlabki asoslarini puxta va chuqur o'rganish uchun imkoniyat yaratadigan davr bo'lib hisoblanadi.

Zamonaviy o'qitish sharoitida esa kafolatlangan o'quv maqsadlariga erishish jarayoni oldindan loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv yuzakilikka emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi. Umuman olganda boshlang'ich sinflarda o'qitish jarayoniga texnologik yondashuv avvalo fanlararo integratsiyani ta'minlash, bolalarni ortiqcha qiyinchiliklardan ozod etish, vaqtdan unumli foydalanish, sinfda va sinfdan tashqari vaqtlarda bolalar

orasida tashabbuskorlik muhitini yuzaga keltirish, erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlash, ijodiy izlanish tizimini yaratish kabi qator ishlarni amalga oshirishdan iboratdir.



Bu borada albatta o‘qituvchining mahorati, kreativ yondashuvi, kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra bunga besh yo‘l bilan erishiladi:

Tanqidiy fikrlashning eng muhim jihatlaridan biri bu nimaga erishmoqchi ekanligingizni hal qilish va keyin bir qator imkoniyatlardan kelib chiqib qaror qabul qilishdir. Tanqidiy fikrlash har bir shaxsning erkin rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishni boshqaradigan jarayondir. Darsning har bir bosqichida o’ziga xos metodik usullardan foydalaniladi.Ularning soni yetarli.Tanqidiy fikrlashning har bir usuli va strategiyasi o’quvchilarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga qaratilgan. Fikrlash eng muhim bosqichdir, chunki bu yerda ijodiy rivojlanish, yangi olingan ma’lumotlardan xabardorlik sodir bo’ladi

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi amerikalik pedagoglar Janni Stil, Kertis Meredit, Charlz Templ va Skott Uolter tomonidan ishlab chiqilgan. Tanqidiy fikrlash deganda bolalarning qiziquvchanligining namoyon bo’lishi, muayyan masala bo’yicha o’z nuqtai nazarini rivojlantirish, uni mantiqiy dalillar bilan himoya qilish qobiliyati, tadqiqot usullaridan foydalanish tushuniladi.

O’qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi mazmunli o’rganish nazariyasiga asoslanadi L.S. Vigotskiy «... har qanday mulohaza ichki nizoning natijasidir, go’yo odam o’ziga nisbatan ilgari boshqalarga nisbatan qo’llagan xatti-harakatlar shakllari va usullarini takrorlaydi».

Tanqidiy fikrlashni shakllantirishning uslubiy jihati shundan iboratki, ushbu texnologiya o’quv faoliyati turlari bo’yicha o’quv ishlari usullarini birlashtiradigan strategiyalar tizimidir.Tanqidiy fikrlash (RKSChP texnologiyasida tushunilganidek) - bu tashqi ma’lumotni inson uchun mavjud bo’lgan bilimlar bilan o’zaro bog’lash, nimani qabul qilish mumkinligi, nimani to’ldirish kerakligi va nimani rad etish haqida qaror qabul qilish jarayoni. Tanqidiy fikrlash faol harakat qilishni o’rgatadi va olingan ma’lumotlarga muvofiq qanday harakat qilishni tushunishga yordam beradi, shu bilan birga nafaqat ichki fikrlash qobiliyati, balki boshqa odamlar bilan muhokama qilish va muloqot qilish qobiliyati ham kerak.

Pedagogik faoliyatda ushbu texnologiyadan foydalanish (maxsus yaratilgan o'quv va kognitiv vaziyatlar orqali) shaxsning kognitiv qobiliyatlari va kognitiv jarayonlarini rivojlantirishga imkon beradi: xotira, fikrlash, diqqat, idrokning har xil turlari. Shuningdek, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish shaxsni hurmat qilish, o'zini-o'zi tasdiqlash, muloqot qilish, o'yin va ijodkorlik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. O'rganish jarayoni - bu allaqachon ma'lum bo'lgan yangilikni bog'lash jarayoni. O'quvchilar oldingi bilim va tasavvurlar asosida yangi tasavvurlar yaratadilar. Ushbu qoida ham ushbu texnologiyadan foydalanishning ajralmas shartidir.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi o'qish va yozish bilan qanday bog'liq? O'qish va yozish fikrlash vositalari va mahsulotidir. O'qish biz bilgan va noma'lum narsalarni tahlil qilish, taqqoslash, jamlash va baholash uchun xizmat qiladi. Tanqidiy fikrlash jarayonida bunday o'qish yo'naltirilgan, mazmunli, chiziqli bo'lmagan bo'ladi. O'quvchilar yangi materialni faqat satr bo'yicha o'qimaydilar, ular o'zlari savollar tuzadilar va darhol javob izlaydilar, matndagi bo'shliqlarni aniqlaydilar. Yozish esa fikrlarimizni ifodalashning eng muhim vositasidir.

Tanqidiy fikrlash texnologiyasi darsda uch bosqichdan (bosqichlardan) foydalanishni o'z ichiga oladi: qiyinchilik bosqichi, semantik bosqich va fikrlash bosqichi.

Shunday qilib, qo'ng'iroq bosqichi. Ko'pincha o'qituvchi sinfga oldindan tuzilgan va o'ylangan maqsadlar bilan keladi. Talabalarda yangi mavzu bo'yicha ma'lum g'oyalar, unga bo'lgan qiziqishlari turlicha bo'lishi mumkin, lekin bu odatda e'tiborga olinmaydi. Yangi materialni o'rganish bir vaqtning o'zida toza varaqdan olingandek sodir bo'ladi. O'qituvchi o'z mohiyatiga ko'ra o'quv materialiga o'z qarashi va mantiqini yuklaydi, nafaqat o'quvchilarining harakatlarining ketma-ketligini, balki ularning fikrlari ketma-ketligini ham belgilaydi. Hatto yaxshi o'rganilgandek ko'ringan mavzu ham birozdan keyin unutilib qolsa ajab emas. Yangi materialni o'rganishda o'quvchilarning mavjud bilimlariga yangi ma'lumotlar qo'shilishi muhimdir. Keyin nafaqat xotira resurslari jalb qilinadi. Qiyinchilik bosqichida bolalar ega bo'lgan bilimlarni yuzaga chiqarish yoki agar bu bilimlar juda kam bo'lsa, savol va takliflarni shakllantirishga yordam berish kerak. Motiv juftlik yoki guruh ishida ziddiyatli va to'liq bo'lmagan ma'lumotlar almashinuvi bo'lishi mumkin. Ushbu bosqichda tanqidga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Hech kim (na o'qituvchi, na talabalar) bildirilgan nuqtai nazarni, hatto noto'g'ri bo'lib tuyulsa ham, rad etmaydi yoki tuzatmaydi. Shunday qilib, sinov bosqichida texnologiyaning eng muhim funktsiyasi amalga oshiriladi: savollar va taxminlar yordamida maktab o'quvchilarining o'zlari yangi materialni o'rganish uchun muhim aniq maqsadlarni shakllantiradilar.

Agar o’qituvchi sinov bosqichida sinf ishini malakali tashkil qilsa, o’quvchilarni o’z savollarini, taxminlarini, g’oyalarini faol shakllantirishga undasa, ularda yangi narsalarni o’rganishga bo’lgan tabiiy istak paydo bo’ladi. Bolalar matnni o’qiganda, o’qituvchining tushuntirishini tinglaydilar, kino tomosha qiladilar, ular o’zlarini qiziqtirgan savollarga javob topishga harakat qiladilar.

Bu bosqich mazmunni tushunish deb ataladi. RKCHP texnologiyasidan foydalanadigan o’qituvchilar o’quvchilarni yangi material bilan tanishtirishda ularning ishtiroki ulushini ongli ravishda kamaytiradi.

Fikrlash bosqichida o’qituvchi va talabalar sinov bosqichida tuzilgan savol va taxminlarga qaytadilar, yangi materialni u haqida avval bilganlari bilan taqqoslaydilar. Ushbu bosqich o’ylangan fikrlash, tizimlashtirish va yangi ma’lumotlarni baholash bilan tavsiflanadi.

Bugungi kunda ta’limni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo’nalishi uning shaxsga yo’naltirilganligidir. Bu texnologiya o‘qitishni shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyaga aylantirish usullaridan biridir.

Olimlar, biz bolaga baliq emas, balki qarmoqni beramiz, ya’ni uning o’zi «tutib oladi». «Har kim qancha sarmoya kiritsa, shuncha oladi.» O‘zgaruvchan dunyoda o‘quvchilar axborotni tahlil qilib, nima muhimligini hal qila olishlari, yangi g‘oyalar va bilimlarga o‘z munosabatini bildira olishlari, yangi narsaga tushuncha bera olishlari, nomaqbul va keraksiz ma’lumotlarni rad etishlari kerak.

O‘ralashib qolgan mantiq texnikasi o‘quvchilar yangi tushunchaga o‘tish uchun o‘z fikrlarini matndagi g‘oyalar bilan birlashtiradi. Doskaga yozilgan gaplar orasidan o’quvchilar to’g’ri va noto’g’rilarini tanlashlari kerak. Ular bayonot to’g’ri bo’lgan joyga «+» belgisini va ularning fikricha, bu noto’g’ri bo’lgan «-» belgisini qo’yadilar.3-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida «Hayvonlar qanday ovqatlanishadi» mavzusini o’rganayotganda, siz bolalarga bir qator bayonotlarni taklif qilishingiz mumkin, ular orasida to’g’ri va yolg’on bor.

1) Kapalaklar shira yeydi.
2) Shira - o’simliklarning barglariga joylashadigan va undan sharbat so’radigan mayda hasharotlar.
3) Baliqlar orasida yirtqichlar yo’q.
4) Burgut o‘txo‘r qushdir.
5) Sutemizuvchilarning tishlari bor.
6) Cho‘chqa — hamma yeydigan hayvon.

Bayonotlar doskaga yoziladi va sinov bosqichida beriladi. Matnni o‘qib bo‘lgach, tushunish bosqichida o‘quvchilar o‘z natijalarini guruh yoki juftlikda muhokama qiladilar,noto‘g‘ri javoblarni aniqlaydilar va to‘g‘rilaydilar. Fikrlash bosqichida har bir bayonot uchun qo’shimcha savollar berilishi mumkin.

«Baxtni chizish» texnikasida mavhum tushunchalarni, ichki dunyoni vizual tasvirlar orqali tushunishga imkon beradi. Misol uchun, 3-sinfda «Xalq ertaklari» bo'limini o'tgandan so'ng, yovuzlikni chizish uchun topshiriq bering va keyin chizmalaringizni tushuntiring.

Yuqoridagi fikrlar asosida xulosa qilishimiz mumkinki, boshlang'ich maktabda tanqidiy fikrlashni shakllantirish o'rganishni faollashtirish vositasi bo'lib, asosiy umumiy ta'lim vazifalaridan biri - tanqidiy fikrlash darajasini oshirish asosida fikrlashni rivojlantirishni yanada samarali hal qilish imkonini beradi. Biz intellektual faoliyat sifatida tushunadigan kichik maktab o'quvchilarining tanqidiy fikrlashi o'ziga xos tuzilishga ega.

Adabiyotlar:

1. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления / Пер. с англ.
2. Н.М.Никольской; Под ред. (и с предисл.) Н.Д.Виноградова. — М.: «Мир», 1915. - С. 25.
3. ЭлконинД.Б.Психология игры,-М:Владос,1999,-360 с
4. Джени Стил, Керт Мередис, Чарльз Темпл. Проект: Чтение и письмо для развития крытического мышления. Пособия 1-7. Бишкек, 2000.)
5. Mokrausov I.V. O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi [Matn] / I.V. Mokrausov. - Samara: Profi, 2002. - 217 p)
6. Росс К.Личностно ориентированное обучение школьников.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada ta'lim jarayonlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi o'qish va yozish fikrlash vositalari orqali tahlil qilish, taqqoslash, jamlash va baholash uchun xizmat qiladi. Tanqidiy fikrlash jarayonida bunday o'qish yo'naltirilgan, mazmunli, chiziqli bo'lmagan bo'ladi. O'quvchilar yangi materialni faqat satr bo'yicha o'qimaydilar, ular o'zlari savollar tuzadilar va darhol javob izlaydilar, matndagi bo'shliqlarni aniqlaydilar. Yozish esa fikrlarimizni ifodalashning eng muhim vositasidir. Tanqidiy fikrlash texnologiyasi darsda uch bosqichdan (bosqichlardan) foydalanishni o'z ichiga oladi: qiyinchilik bosqichi, semantik bosqich va fikrlash bosqichlarining ahamiyati haqida umumiy takliflar keng bayyon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье технология развития критического мышления в образовательных процессах служит для анализа, сравнения, обобщения и оценки с помощью средств чтения и письма. В процессе критического мышления такое чтение направлено, осмысленно и нелинейно. Студенты не просто читают новый материал построчно, они составляют вопросы и тут же ищут ответы, выявляют пробелы в тексте. Письмо является важнейшим средством выражения своих мыслей. Технология критического мышления предусматривает использование на уроке трех стадий (этапов): этапа трудности, смыслового этапа, широко формулируются общие предположения о важности этапов мышления.

SUMMARY

In this article, the technology for the development of critical thinking in educational processes is used for analysis, comparison, generalization and evaluation using reading and writing tools. In critical thinking, such reading is directed, meaningful, and non-linear. Students do not just read new material line by line, they compose questions and immediately look for answers, identify gaps in the text. Writing is the most important means of expressing one's thoughts. The technology of critical thinking involves the use of three stages (stages) in the lesson: the stage of difficulty, the semantic stage, general assumptions about the importance of the stages of thinking are broadly formulated.

4-5 YOSHDAGI BOLALARNI MARIYA MONTESSORI METODIKASI BO'YICHA AQLIY RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Rayimqulova M. A.
Guliston davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrasi tayanch doktoranti

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim, aqliy rivojlanish, pedagog, ilg'or tajribalar, erkin tarbiya, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya, integratsiya, gumanizm.

Ключевые слова: дошкольное образование, интеллектуальное развитие, педагог, передовой опыт, бесплатное образование, личностно-ориентированное образование, интеграция, гуманизм.

Key words: pre-school education, intellectual development, pedagogue, best practices, free education, person-oriented education, integration, humanism.

Jahonda ta'lim sohasidagi innovatsion rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda maktabgacha ta'lim tizimini kompetensiyaviy talablar asosida takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, YUNESKO tomonidan 2030-yilgacha belgilangan barqaror rivojlanish maqsadlarida bolalarda mustaqil-ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan sifatli ta'lim xizmatlarini tashkil etish dolzarb vazifalar sifatida qayd etilgan. Xalqaro tajribalar maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayon samaradorligini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o'qitish asoslarini joriy etish, ta'lim xizmatlarini differsiyalash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Dunyo miqyosida bolalarni psixofiziologik, intelektual, ijodiy va shaxsiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kreativ texnologiyalarni rivojlantirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim dunyo miqyosida bolalarni psixofizilogik, intellektual, ijodiy va shaxsiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan inovatsion ta'lim muhitini tashkil qilish hamda strategik boshqaruv tamoyillari asosida maktabgacha ta'limning sifat menejmenti mehanizmlarini takomillashtttirish masalalariga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot-metodik tizimini takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlarini differnsiyalash, ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv va muammoli vaziyatli o'qitish usullarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining kasbiy-innovatsion kompetentliligini

rivojlantirish va baholashning samarali shakl va metodlarini amaliyotga joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumki, har qanday bola faqat sof tuyg'ular bilan dunyoga keladi. Hayot, muhit va kattalar ularning ruhiyatini kirlantiradi. Bolalarni aqlli, ahmoq, axloqli, odobsiz, saxiy, qizg'anchoq, kuchli, zaif deya keskin baholash o'ta noto'g'ri yondashuv bo'lib, ularning har biri odam tiynatida u yoki bu darajada mavjud bo'lgan hislardir. Har bir inson cheklanmagan imkoniyatlarga ega va uning ham axloqan, ham ruhan, ham jismonan kamolot sari intilishi tabiiy ravishda, hech kimga, hatto uning o'ziga ham bog'liq bo'lmagan holda amalga oshib boradi.

Agar biz bugungi kunda «Zamonaviy maktablarda o'quvchilarning intellektual rivojlanish darajasi qay ahvolda?» degan savolni bersak, Montessori bizning savolimizga shunday javob berar edi: «Maktab o'qituvchisi o'quvchi intellektining quruvchisi hisolanadi. O'quvchi o'qituvchi imkon bergan darajada shakllanadi. O'qituvchi nimaniki bergan bo'lsa, o'shani biladi. O'qituvchi nimani tushuntirgan bo'lsa, o'quvchi undan ko'p ham, kam ham narsani tushunmaydi. O'quvchilarning muvaffaqiyatlarini maqtashganda bu maqtovlar bevosita o'qituvchiga ham tegishlidir. Sinfning yutug'i — uning muvaffaqiyatidir. Uning mahorati shundaki, o'quvchilarga yetkazishni zarur deb bilgan darsini bolalarning diqqat bilan tinglashlaridir». Aytilgan bu so'zlar ayni haqiqat. Xo'sh, bular boshlang'ich maktabga tegishlimi yoki bolalar bog'chasiga aloqador? O'qituvchi, tarbiyachi, xullas, bolalarni tarbiyalovchilarning barchasi ta'lim-tarbiya jarayonida faoliyat yurituvchi asosiy shaxs hisoblanadilar. Shuningdek, ularning ruhiy rivojlanishida ham cheksiz quvvat manbai hisoblanadi. Bolalarga faqatgina kattalar tomonidan yoki o'z xohishi bilan yoxud belgilangan dasturga ko'ra taqdim etiladigan «taomni» qabul qilishgina qoladi, xolos. Va shu o'rinda «erkinlik», «erkin tarbiya» deb ataluvchi tushunchani yuzaga keltiradi.

«Erkinlik» masalasi qancha ko'p muhokama qilinmasin, bola baribir qaram bo'lib qolmoqda. Hattoki unga yuqori darajada e'tibor ko'rsatilganda ham u erkin emas, balki «qarovsiz»dir. Ya'ni, uning intellekti qarovsiz, «yoqimsiz taomni tanovvul» qilishga majbur. Natijada rivojlanish uchun keng erkinlik beruvchi hissiyotlarga bo'ysunadi. Faqatgina shunchaki harakatlanadigan bola erkin hisoblanmaydi. Balki o'z harakatlarida aniq o'ylangan maqsadga ega bo'lgandagina muayyan tashkil etilgan sharoitda o'z shaxsini rivojlantirishga va shakllantirishga qodir. Shaxsiy rivojlanishi uchun uning o'zi mustaqil ish tanlay oladi. Biror bir ishga uzoq vaqt davomida o'z intilishi bilan katta intellektual, maqsad bilan sho'ng'ib ketadi. Fikrni jamlab predmetlarni (sensor materiallarda) tanlash imkoniyatini, muhokamasi va tuzatish imkoniyatini

qo’lga kiritadi. O’z salohiyatini yuzaga chiqarib, uni yuksaltirish uchun turtki bera oladigan bolagina erkin hisoblanadi.

Bolani shaxsiy intellekt maktabiga joylash bilan biz uning turini muqarrar o’zgartiramiz; «bolalik psixologiyasi» nomida izohlanuvchi bola haqidagi barcha tasavvurlar, agar bolalarni Montessori sharoitida uzoq vaqt kuzatadigan bo’lsak, sezilarli darajada ba’zi bir munosabatlarda tamomila o’zini oqlamaydi.

Uch yoshga yaqin yosh bola birinchi bor bolalar bog’chasiga kelganda unga xuddi hamma narsani yozish mumkin bo’lgan «oppoq qog’oz» degan tasavvur bilan emas, aksincha, tashqi olam ta’sirida to’plangan tartibsiz taassurotlarga ega, deb yondoshishimiz zarur. «Uch yoshli bola kechinmalarida turli chalkashliklardan iborat og’ir bo’shliq mavjud bo’ladi», deydi Montessori. Aksariyat hollarda oxiri uyqu bilan tugaydigan sababsiz injiqliklar va yig’i, uning ustiga yopiriladigan tashqi olamdan olingan hisobsiz taassurotlar hisobiga yuzaga keladi. Hyech kim xayoliga ham keltirmaydiki, sayr bola uchun mehnat hisoblanadi. Ayniqsa, hali uning sezgilari layoqatli bo’lmagani holda ko’rish va eshitish orqali xatolarini to’xtovsiz to’g’rilab boradi. Narsalarni kuzatib ko’zi bilan aniq baholay olmasligi uni o’ta toliqtiradi. o’z yoshligini eslay oladiganlarning hammasi buni tasdiqlashi, yosh bolalarni kuzatuvchi har bir e’tiborli odam buni har qadamda ko’rishi mumkin.

Biz bolaga bu og’ir holatdan chiqib olishga yordam berishimiz kerak, unga dunyoni chalkashlik sifatida emas, balki tabiatan nihoyatda intiluvchanligini hisobga olgan holda, tabiatning qat’iy tartibda ekanini anglashga imkon berishimiz lozim. Bunga yaqinlashish uchun esa bola atrofdan tabiat qoidalari asosida boshlanuvchi uning ichki uyushqoqligi bilan to’g’ridan-to’g’ri aloqador bo’lgan nimadir topishi kerak. Aytaylik, xuddi hasharotdek to’g’ridan-to’g’ri o’z shakl va mohiyatidan kelib chiqib, ranglarning shakli va sifatini topish kerak bo’ladi. Boshqacha aytganda, biz bola uchun aniq belgilangan sharoit yaratib berishimiz va unga intellektual mustaqil mashqlar uchun zarur tashqi vositalarni berishimiz kerak. Bu vositalar tasodifiy yoki o’qituvchi xohishi bilan tanlangan bo’lmasligi kerak. Balki bola uchun aqliy rivojlanishda mustaqil mashqlar obyekti bo’lib xizmat qiluvchi, Montessorining sezgi a’zolarini tarbiyalashga qaratilgan didaktik materallari bo’lishi, tajriba orttirilishi natijasida sekin-asta taqdim etishi kerak.

Dastlab intellektning rivojlanishi uchun faktlarning to’planishi va ularning farqlanishi zarur bo’ladi. Bolaga bu asosda o’z intellektini oshirishga ko’maklashish faqatgina mashqlarda «o’zini-o’zi boshqarish» bilan amalga oshiriladi. «Boshqa bir odam bizning o’rnimizga mashq qilib, bizga mahorat orttirish imkonini berishi aqlga sig’maydigan holatdir», deydi Montessori.

Sensor materiallardagi sezgiga doir mashg'ulotlar bolalarga ajratish va tavsiflash (klassifikasiyalash) imkonini beradi. Hozirgi kunda ba'zi narsa-buyumlarni ularning sifatidan bo'lak boshqa belgilariga qarab ajratish imkoniyati mavjud emas. Montessorining sensor materiallari ham narsa-buyumlar sifatini: o'lchami, shakli, rangi, yuzaning silliqligi va g'adir-budurligi, og'irligi, harorati, hidi, shovqin, ovozini tahlil qiladi va ko'rsatib beradi. Predmetlarning sifatigina bir-biridan farqlanadi, ularning o'zi emas, chunki bu sifatlar predmetning belgisini bildiradi. Misol uchun Montessori materiallaridagi ixtiyoriy predmetni olaylik, u favqulodda oddiy, bola diqqatini o'zida jamlovchi sifatlarga ega. Unda bolaning e'tiborini tortuvchi sifatlar mavjud bo'lib, uni qiynab qo'yuvchi barcha ortiqcha belgilar olib tashlangan. Masalan, balandlik va hajmni farqlash imkonini berish uchun bolaga shunchaki hajman har xil bo'lmagan silindir, kub va prizmalar berish kerak. Qo'ziqorin, tuxum yoki jo'jaxo'roz va shunga o'xshash narsalar berilmaydi. Shaklni farqlash uchun tekis geometrik shakl va jismlardan foydalaniladi. Uychalar, gullar va olmalar bu tarkibga kirmaydi. Rangni farqlashda esa qo'g'irchoq, gul yoki qo'lda yasalgan o'yinchoqlar emas, balki oddiy rangli shoyi qirqimlari kifoya. Ranglar tartibini anglatuvchi yo'nalishda joylashgan bu predmetlar ranglarning sifatiga qarab ham ajratiladi.

Bola mashq qilar ekan, bu sifatlarni farqlab beradi: endilikda u predmetlarning ko'proq yoki kamroq, baland va past, yo'g'on va ingichka, ko'p va kam bo'lishi mumkinligini farqlaydi. Ranglar bo'yalganlik darajasiga qarab turlicha bo'lishini, tovushlar turlicha jarangdorlikda, shakllar bir-biriga o'xshashligi jihatidan turli darajada bo'lishini anglab yetadi. Bola material predmetlarini juftlash va qo'yish bilan sifatlar ayniyatini o'rnatish holatida bo'ladi. Masalan, bola geometrik shaklni kartonga qo'yish, ularni yacheykaga yasoylash, ikkita rangli jadvalni yonma-yon qo'yishni bajaradi. Shuningdek, ikkita kub, prizma yoki tayoqni qo'yadi. Keyinchalik esa individual darslar yoki o'z shaxsiy xulosalariga tayanib, bola sifatlar tafovutini aniqlaydi: uzun-kalta, yorqin-xira, katta-kichik va boshqalar. Va nihoyat, qachonki rangli katakchalar, prizma, tayoq, silindr geometrik shakllar kabi predmetlar turlari bo'yicha ketma-ket joylashganda sifatlar darajasini farqlashni boshlaydi.

Biz har doim bolalarimizdan quyidagi iboralarni eshitamiz: «bu xuddi o'zi», «u bunga o'xshaydi», «judayam o'xshash», «sal-pal o'xshash», «ko'proq», «semizroq», «kengroq», «buxiraroq», «bu rangliroq», «bu baland, bunisi pastroq» va shu kabi. Uning o'ziga ma'lum bo'lmagan, ammo ongda yashirin yotgan va unda zarurat tug'ilgandagina yuzaga chiquvchi aniq so'zlarni ishlatishni boshlaydi.

Sifati bo'yicha farqlanuvchi narsa va buyumlar ma'lum tartib asosida guruhlarga taqsimlanadi. Bunday vaziyatda tevarak-olam bola uchun chalkash tuyulmaydi. Har bitta predmet o'z o'rnida va darajasida bo'ladi. Bola o'zlashtirgan har bir bilim faqatgina «tasavvuriy» bo'lmay, balki «aniq» faktlar asosida egallanadi. Shu taxlitda bola ongida mustahkam va muntazam boyib boruvchi dastlabki tartib o'rnatiladi. Yosh bolaning kelajakda aqliy rivojlanishi asosan dastlabki ichki tartibning o'rnatilishiga bog'liq. Montessori bu o'sishni homila rivojlanishi bilan taqqoslaydi: homilaning o'sishi emas, balki uning tartib bilan rivojlanishi muhimdir. Bu tartibning ahamiyati shundaki, u to'g'ri rivojyaganishni kafolatlaydi. Hamda yashash imkoniyati hisoblanadi. Homila butunlay ulg'aygan, lekin ichki organlari nomutanosib bo'lsa, u hayotga layoqatsiz bo'ladi. «Tirik organizmning ichki takomillashuvini ta'minlaydigan hayotiy impulslarning asosiy sharti ichki tartib uyg'unligi bilan bevosita bog'liqdir. Aynan mana shunda hayot siri yashiringan», deydi Montessori.

Adabiyotlar:

1. Монтессори М. Метод научной педагогики, применяемый к детскому воспитанию в домах ребенка.-М.:Задруга, 1915. – 316 с.

2. Монтессори М. Руководство к моему методу.- М., 1916. – 64 с.

3. Монтессори М. Самовоспитание и самообучение в начальной школе.-М.:Работник просвещения,1922.-162 с.

4. Нигматов З.Г., Хузиахметов А.Н. Теория и методика воспита-ния. - Казань: Таткнигоиздат, 1996. - 182 с.

5. Никандров Н.Д. На пути к гуманной педагогике //Советская педагогика.- 1990.- №9.- С.41-47.

6. Новые идеи в педагогике. Непериодическое издание, выхо-дящее под ред. Г.Г.Зоргенфрея. Сб. № 1. Самоуправление в шко-лах.- СПб:Образование, 1912.-168 с.

7. Образование в мире на пороге XX1 века.- М.: АПН СССР, 1991. - 97 с.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi 4-5 yoshli bolalarni ilg'or xorijiy tajriba hisoblangan Mariya Montessori metodikasi asosida aqliy rivojlantirish yo'llari ochib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье раскрываются пути интеллектуального развития детей 4-5 лет дошкольного возраста на основе методики Марии Монтессори, которая считается передовым зарубежным опытом.

SUMMARY

In this article, the ways of intellectual development of 4-5-year-old children of preschool age based on the Maria Montessori methodology, which is considered an advanced foreign experience, are revealed.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK RIVOJLANISHINI ANIQLASH USULLARI

Xudoyberganova Sh. B.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

**Tayanch so`zlar:** diagnostika, sensomotorika, rivojlanish, mayda matorika, psixologik, baholash mezonlari, savodga o`rgatish, test.

Ключевые слова: диагностика, сенсомоторика развитие, мелкая моторика, психологические, критерии оценки, обучение грамоте, тест.

Key words: diagnosis, sensorimotorics, development, fine motor skills, psychological, assessment criteria, literacy training, test.

«O'yin - bu barcha ijodkorlikning genetik asosi,
manbai, ildizi, uning tayyorgarlik bosqichi».
(L.S.Vygotskiy).

Yosh bolalarda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan davr bog‘cha yoshi davri yoki maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o‘zgarishlari bo‘lishini inobatga olgan holda 3 davrga: (3-4 Yosh) kichik maktabgacha davr, (kichik bog‘cha Yoshi), (4-5 Yosh) o‘rta maktabgacha davr, (o‘rta bog‘cha Yoshi) , (6-7 Yosh) katta maktabgacha davr (katta bog‘cha Yoshi)ga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo‘lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o‘zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘sib borishi, katta Yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog‘i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi.

Bog‘cha Yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o‘zlashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilishi lozim.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog‘cha yoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining

namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi deb ta`kidlagan.

Sensomotorika - bu harakat va hissiyotlarni boshqarish qobiliyati, bu ko'zlar va harakatlarni, eshitish va harakatlarni muvofiqlashtirish.

Diagnostika – bu tibbiyotning kasallik belgilarini aniqdash, diagnoz qo'yish usullari va tamoyillarini o'rganadigan bo'limi.

5-6 yoshli bolalarning psixologik rivojlanishini aniqlash diagnostikasi juda ham kam vaqt talab qiladigan quyidagi psixologik testlarni o`z ichiga oladi:

Ketma-ket rasm (nutq, tafakkur)



Maqsad: Bolaning voqelikni tushunish, tasvirlarni bir-biriga bog`lagan xolda izchil hikoya tuza olish qobiliyatini aniqlash.

Bolaning oldiga rasmlar tartibsiz tarzda terib qo`yiladi.


Tarbiyachi: "Bu rasmlar chalkashib ketgan. Ularni shunday joylashtirginki natijada bir butun xikoya tuzish mumkin bo`lsin."

Baxolash mezonlari:

- bola mustaqil ravshda rasmlarning mantiqiy ketma-ketligini to`g`ri aniqlaydi va izchil hikoya tuzadi – 2 ball.
- bola rasmlar ketma –ketligini aniqlashda xatolarga yo`l qo`yadi, lekin uni (o`zi yoki kattalar yordamida)tuzatadi yoki izchil xikoya tuzishda qiynaladi – 1 ball.
- bola rasmlar ketma –ketligida yanglishadi, xatolarini tushunmaydi yoki xikoyasida rasmdagi ayrim tafsilotlarnigina tasvirlaydi – 0 ball.

Labirantlar (diqqat)

Maqsad: Qo`llanmani tushunish darajasi, diqqatining konsentratsiyasi, hajmi va barqarorligini aniqlash, faoliyatning maqsadga yo`nalganligi va ko`rib qabul qilish jarayonining o`zgachaliklarini aniqlash.




Tarbiyachi: Bolaga rasm beriladi. “Rasmga diqqat bilan qara, bu yerda o`g`il bola va qiz bola, ulardan biri sharning ikkinchisi varrakning ipini ushlab turibdi. Ulardan qaysi biri sharning va qaysi biri varrakning ipini ushlab turganini aniqlashing kerak. Buning uchun qalamchani ip ustida uzmasdan yurg`azishing kerak”. Bola birinchi topshiriqni bajarib bo`lganidan so`ng unga ikkinchi rasm ko`rsatiladi: “Endi mana bu rasmga diqqat bilan qara va kuchukcha bilan olmaxonga uylariga boradigan yo`lni topishga yordam ber”.

Baxolash mezonlari:


- bola vazifani bajaradi va obyekt tomon yo`lni mustaqil topib boradi- 2 ball.
- bola vazifani tushunadi, lekin uni bajarishga ikkilanadi yoki vazifani kattalar yordami bilan bajaradi - 1 ball.
- bola vazifani bajara olmaydi- 0 ball.

Uychasini top (tafakkur)



Maqsad: Vizual- majoziy fikrlashning rivojlanish darajasini, mantiqiy fikrlash elementlari, obyektlarni funksional maqsadlariga ko`ra guruxlash qobiliyatini aniqlash.

Bolaga 4 ta uycha ko`rsatiladi (rasmga qarang). So`ngra bolaga ketma ket rasmlar ko`rsatiladi.



Tarbiyachi: “Diqqat bilan qara va bu rasmga uychasini topib ber” birinchi rasm namuna sifatida psixolog tomonidan qo`yib ko`rsatiladi. Qolgan rasmlarni bola o`zi mustaqil tanlab, uychalarga joylashi kerak. Shundan so`ng bolaga “nega bu rasmlar birga bir uyda yashaydi?” kabi savollar beriladi. Agar topshiriq bolada qiyinchilik tug`dirsa savollar orqali yordam berish mumkin, masalan: “Olma bilan apelsinni bir so`z bilan qanday atash mumkin? javob: mevalar.”

Baxolash mezonlari


- Bola vazifani qabul qiladi va tushunadi, rasmlarni asosiy xususiyatlariga ko`ra tasniflaydi va umumlashtirgan xolda aytib bera oladi -2 ball.
- Bola vazifani yaxshi tushunadi, rasmlarni to`g`ri joylashtiradi, ammo og`zaki ravishda umumlashtira olmaydi yoki vazifani darxol anglamaydi, lekin kattalarning yordamidan so`ng mustaqil ravishda amalga oshiradi -1 ball
- bola topshiriqni to`g`ri tushunmaydi yoki kattalar yordamidan so`ng xam topshiriqni bajara olmaydi – 0 ball.

Bu nimaga o`xshaydi (tasavvur).

Maqsad: bolaning tasavvur darajasini, tafakkurining o`ziga xosligi va moslashuvchanligi darajasini aniqlash.

Bolaga uchta rasmli kartochka navbat bilan ko`rsatiladi.

Tarbiyachi: “Rasmga diqqat bilan qara, u nimaga o`xshaydi?”.



Baxolash mezonlari:

- bola 8 - 9ta o`xshatish ayta olsa (xar bir rasmga 3tadan) – 2 ball.
- bola 5 – 6ta o`xshatish ayta olsa (har bir rasmga 2tadan) – 1 ball.
- bola rasmni tushunmaydi yoki 2 -3ta o`xshatish ayta olsa – 0 ball.

Nima yo`qolib qoldi? (xotira)

Maqsad: noixtiyoriy xotira va diqqatning rivojlanish darajasini, ko`rsatmalarni tushuna olishini aniqlash.

Bolaga xar xil o`yinchoqlar taqdim etiladi va ularning nomini aytishni so`raladi, shundan so`ng boladan ko`zlarini yumib turishni so`raladi va o`yinchoqlardan ikkitasi olib qo`yiladi.

Tarbiyachi: “Bu o`yinchoqlar sen bilan bekinmachoq o`ynamoqchi. Sen ko`zlaringni yumib turasan, o`yinchoqlar yashirinishadi so`ng ko`zlaringni ochib qaysi o`yinchoq yashirinib olganligini topasan”.

Baxolash mezonlari:

- bola 2ta o`yinchoqni to`g`ri topadi - 2 ball.
- bola 1ta o`yinchoqni to`g`ri topadi. - 1 ball.
- bola o`yinchoqni topa olmasa -0 ball

Ushbu maqola orqali maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarni psixologik rivojlanishini aniqlash uchun o`yin metodidan foydalanish samarali foyda beradi. Ko`rinib turibdiki turli xil qizqarli o`yin va metodlar orqali bolajonlarni psixalogik xolatlarini ham aniqlab olishimiz mumkin. Bundan tashqari yuqoridagi o`yinlarimiz orqali bolajonlarni mantiyqiy fikrlashga, sensomotorikalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bolaning rivojlanishi va tarbiyasida o’yin muhim rol o’ynaydi - faoliyatning eng muhim turi hisoblanadi. Bu maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsini, uning axloqiy va irodaviy fazilatlarini shakllantirishning samarali vositasidir. Mamlakatimizdagi eng mashhur o’qituvchi A.S. Makarenko bolalar o’yinlarining rolini shunday tavsiflagan: «Bolaning hayotida o`ynash kattalarda mehnat, xizmat qilish bilan bir xil ma’noga ega. Bola qanday o`yin o`ynaydi, shuning uchun u kata bo`lganida ko`p jihatdan ishda bo`ladi. Shuning uchun kelajakdagi shaxsni tarbiyalash birinchi navbatda o`yinda sodir bo`ladi…”.

Adabiyotlar:

1. Zokirova, S. M. (2016). About the congruent phenomenon in the contrastive linguistics. Sciences of Europe, (8–2 (8)).

2. Zokirova S. M. Contrast analysis of syntactic sloynyx ustanovok. Bulletin of Namangan State University: Vol, 1 (8), 48

3. Kossakovskaya, E. A. Bola hayotidagi o'yinchoq: bolalar bog'chasi o'qituvchisi uchun qo'llanma. / E. A. Kossakovskaya - M .: Ta'lim, 1980 yil.

4. "Ilk qadam" davlat o`quv Dasturi. 2018.07.07.

5. Qodirova F., Toshpo'latova SH, Agzamova M va boshq. "Maktabgacha pedagogika" T.2010

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha ta`lim yoshdagi bolalarni psixologik rivojlanishini aniqlash diagnostikasi hamda rivojlantirish uchun ko`rsatmalar berilgan. Diagnostika juda ham kam vaqt talab qiladigan kichik testlardan iborat bo`lishi lozim.

РЕЗЮМЕ

В статье даны указания по диагностике и развитию психологического развития детей дошкольного возраста. Диагностика должна состоять из небольших тестов, требующих совсем немного времени.

SUMMARY

This article provides instructions for the diagnosis and development of psychological development of children of preschool age. Diagnostics should consist of small tests that require very little time.

MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTLARIDA AQLIY TARBIYA

Ilesova L. A.
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta`lim fakulteti Maktabgacha ta`lim yo`nalishi MAT 21-5 guruh talabasi

Tayanch so‘zlar: bolaning aqliy rivojlanishi, umumiy kognitiv faoliyat, foydali va qiziqarli o‘yinlar, aqliy rivojlanish, aqliy tarbiya, ijtimoiy tarbiya, idrok etish, aql, sezgi, idrok.

Ключевые слова: психическое развитие ребенка, общая познавательная деятельность, полезные и интересные игры, умственное развитие, умственное воспитание, социальное воспитание, восприятие, интеллект, интуиция, восприятие.

Key words: mental development of a child, general cognitive activity, useful and interesting games, mental development, mental education, social education, perception, intellect, intuition, perception.

Bola hayotidagi rivojlanishning juda muhim bosqichi erta va maktabgacha bo’lgan davrdir. Bolalar, ayniqsa maktabgacha yoshda bo’lgan davrda tez rivojlanadilar. Chunki bola hayotining dastlabki 6-7 yilida juda ko’p yutuqlarga erishadi! U qarashni va tinglashni, narsalarni olishni va ular bilan harakat qilishni, turishni, yurishni va boshqalarni o’rganadi. Bu vaqt ichida u o’nlab mahorat sirlarini egallaydi: sanchqi va qoshiqni tutish, qaychi, cho’tka, qalam bilan ishlash, ruchka va boshqa o’quv qurollari bilan harflar yozib, uni o’qishni, atrof muhitni kuzatish va fikr bildirish, o’zi uchun boshqa ko’plab narsalarni kashf qiladi. Tabiiy hodisalar, tovushlar, ranglar, kechagi va bugungi hayoti haqidagi xotiralari orqali juda ko’p ma’lumotni to’plab, ularni hikoya qilishni o’rganadi. U o’zini tutish qoidalari bilan tanishadi. Makon va vaqtni, raqam va harakatlarni taniydi.

Har bir bola yoshligidan aqliy jihatdan to‘g‘ri rivojlanishi uchun unga sog‘lom turmush tarzi kundalik foydali narsalarni o’rgatadigan va ijobiy tasvirlarni ularning xotirasida qoldiradigan tarbiya shartlari kerak. O’yin bolalar uchun juda muhim va aynan ular uchun juda qadrli hamdir. Agar bolaning kundalik turmush tarzida yuqorida keltirganimizdek foydali va aqlni charxlaydigan qiziqarli o‘yinlar bilan shug‘ullanmasa, u tez va yaxshi rivojlana olmaydi. Uch yoshdan katta bolalar o‘z o‘yinlarida ularni o’rab turgan odamlarning hayotini aks ettiradi. Agar biz bolalar o’yinlariga nazar tashlasak, ularning o’yinlarida

ular hayotda kuzatadigan kattalarning munosabatlari, g'amxo'rliklari va tajribalarini ko'rishimiz mumkin.

Bola 5-7 yoshga to'lgach ularning o'yinlari yanada boyib, rang-barang bo'lib boradi. O'yinni birgalikda o'ynash jarayonida ular bir-biridan ko'p narsalarni o'rganadilar. O'yin esa hayolotni, fikrlashni, yuqori insoniy tuyg'ularni, oqilona irodani, milliylikni, insonparvarlik va vatanparvarlikni, tafakkurni rivojlantiradi. O'yin orqali o'z tasavvurlarini namoyish etib, ular o'zlari uchun ajoyib hayotni yaratadilar. Bolalar uchun bunday faoliyat ijodkorlik va kashfiyotlar maydoni, sevimli faoliyat turi. Ular uchun bu ajralmas va eng qiziqarli, zavqlantiruvchi mashg'ulotdir. Faqatgina bu o'yinlar milliylik va o'zbekona mezonlariga mos ravishda, bolani toliqtirmaydigan, jismoniy hamda ruhiy holatiga xos bo'lgan foydalilik, bunyodkorlik g'oyalaridan holi bo'lgan tarzda bo'lishi talab etiladi.

O'yin-bolani shaxs sifatida to'g'ri shakllanishi va ongini, zehnini o'stirish bilan birga nutqini ravon qiluvchi eng asosiy vositadir!

Bola rivojlanishida nutq hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uni o'zlashtirish bolalar o'rtasidagi muloqotni va atrofdagi dunyoni tushunishning eng muhim omili.

Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishi turli xil o'yin va mashg'ulotlarda, amaliy va ijodiy faoliyatga o'zaro bog'liq. Bunday vaqtda birinchi navbatda ota-onalarning e'tibori va ko'magi asosiy ro'l o'ynaydi. Negaki, har bir bola ko'p narsalari oilasida, undagi muhit va o'zaro muomalardan o'rnak oladi.

Aqliy rivojlanish - ota-onalar va pedagog tomonidan bolaning aqliy qobiliyatlari va tafakkurini rivojlantirishda, uning aqliy harakatlari va bilim qobiliyatlarini to'g'ri shakllantirishdir!

Bolaning aqliy jihatdan tarbiyalash va rivojlantirishni mavjud turmush tarzidan, uning hissiyotlaridan va uni ruhiy qiyofasini yaratadigan barcha boshqa xususiyatlardan holi tarzda tasavvur qilish mushkul. Maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy o'sishni soddalashtirilgan holda, zo'riqishlarsiz borliq haqida iloji boricha ko'proq va eng muhimi to'g'ri bilim berish, kognitiv faoliyatning umumiy usullarini (tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish qobiliyatini) rivojlantirish, nutqni rivojlantirish hamda me'yorida kundalik yangi bilimlarni berib borish bilan aqliy tarbiya – bu bolaning har tomonlama taraqqiy topishida sog'lom turmush tarzi va foydali mehnat faoliyati, qiziqarli o'yinlar va o'z vaqtida to'g'ri bilim berish orqali kelajak hayotga tayyorlashning, chin ma'noda shaxs bo'lib yetishishining muhim tarkibiy qismi. Aqliy tarbiya ta'lim, o'yin, mehnat jarayonida, hayotiy vaziyatlarni hal etish, kattalar va tengdoshlar bilan bo'lgan muloqotda, ommaviy axborot vositalari orqali olinadigan axborotlarni qabul qilish va o'zlashtirishda ro'y beradi.

Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biridir!

Aqliy tarbiya bu aqlni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga muntazam ravishda to‘g‘ri pedagogik ijobiy ta‘sir o‘tkazish. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning ahamiyati juda yuqori va unga hech vaqt bee‘tiborlik bilan nazar tashlab bo‘lmaydi. Chunki aql - his-tuyg‘ular va idrok etishdan tortib, fikrlash va tasavvur etishgacha bo‘lgan jarayonlar yig‘indisi.

Aqliy rivojlanish – fikrning kengligida voqealarning turli bog‘lanishida, munosabatlarda teran ko‘ra olish va ularni umumlashtirish qobilyatlarida namoyon bo‘ladi.

Bolaning aqliy rivojlanishida sog‘lom turmush tarzi, to‘g‘ri berilgan tarbiya va ta‘lim samarali ta‘sir ko‘rsatadi.

Bularning hammasi maktabgacha yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko‘nikmalar mazmunini chuqurlashtirish va asta-sekinlik bilan hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq ekanligidan dalolatdir.

Yosh bolalar har doim buyumlar va hodisalar orasida yashaydi. Tevarak atrofdagi buyumlar, atrof-muhit bolaning sezgi organlari – analizatorlariga ta‘sir etadi va dastlabki sezgilarni hosil eta boshlaydi. Bola har kuni biror yangi narsa bilan tanishadi, nimanidir bikib oladi, ushlab ko‘radi, hidlaydi, o‘ziga tortadi, ko‘radi, quloqlari bilan eshitadi. Shu tariqa asta – sekin dunyoni bilib boradi.

Idrok esa juda murakkab jarayon bo‘lib, sezgi asosida paydo bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi ko‘pincha beixtiyor tarzda bo‘lishini ham unutmasligimiz zaruru. Shuningdek bu yoshdagi bolalarda hayol muhim ro‘l o‘ynaydi. Sababi bolaning hayoli hamda hayoliy tasavvurlari u syujetli o‘yinlar o‘ynay boshlaganida, kattallar tomonidan qiziqarli ertaklar aytib bergandayoq dastlabki belgilari namoyon bo‘la boshlaydi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarga ta‘lim, tarbiya berish el padagogikasida ilk bor chex pedagogigi Yan Amos Kamonskuy (1592-1670) tomonidan yaratilgan.

Xulosa va tavsuyalar. Demak, kattalar mehnati va tabiatni kuzatish bolalarda estetik qislarni, shakllantirishga yordamlashadi, ijodiy faoliyat uchun material beradi. Katta yoshdagi bog‘cha bolalariga har bir bayram va tantananing ahamiyatini ularning yoshlariga mos holda tushuntirishadi. Bu o‘rinda tarbiyachining vazifasi — bolalarning hissiyotlarga ta’sir etib, ularda o‘z xalqidan hamda uning qadriyatlaridan g‘ururlanish hissini shakllantirishdan iboratdir. SHunday qilib, bog‘cha bolalarini tabiat, hozirgi davr voqealari bilan tanishtirish orqali ularning aqliy qobiliyati, axloqiy va estetik hislari shakllanib boradi.

Adabiyotlar:

1. Maxmudov, Q. S. O. G. L., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Jo, B. B. O. G. L. (2020). O ‘zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o ‘rni va ularnig turli jihatdan tasniflanishi. Science and Education, 1(Special Issue 3).

2. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o’qitishda kommunikativ yondashuv. Science and Education, 7(7), 215-220.

3. Joraboyev, B. B. O. (2021). Using authentic materials on english lessons. Academic research in educational sciences, 2(2).

4. Joraboyev, B. (2020). Nemis tilida juft otlar va ularning o´ zbek tilida ifodalanishi. Science and Education, 1(Special Issue 4).

5. Журабоев, Б. (2020). Мотивированные люди для удовлетворения своих собственных потребностей. Academic research in educational sciences, (3).

6. Juraboyev, B. B. U. (2021). Problems and solutions for online teaching and learning of foreign languages. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 2).

7. Samarova, S. (2018). Forming Creative Vision of Person as Universal Method

8.O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

РЕЗЮМЕ

Bolaning aqliy va ijtimoiy rivojlanishida sog‘lom turmush tarzi, oiladagi muhit, o‘z vaqtida berilgan to‘g‘ri ta‘lim-tarbiyaning ahamiyatli jihatlari nihoyat muhim. Aqliy tarbiyaning asosiy vazifasi – bu bolalarda tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi bilimlar sistemasi, ilmiy dunyoqarashlarning shakllanishi, aqliy mehnat ma‘daniyatining rivojlantirishdan iborat.

РЕЗЮМЕ

В психическом и социальном развитии ребенка, наконец, важны такие важные аспекты, как здоровый образ жизни, семейное окружение, правильное образование в нужное время. Основной задачей интеллектуального образования является развитие системы знаний о природе и обществе, формирование научных мировоззрений, развитие культуры интеллектуального труда.

SUMMARY

In the mental and social development of the child, finally, such important aspects as a healthy lifestyle, family environment, and the right education at the right time are important. The main task of intellectual education is the development of a system of knowledge about nature and society, the formation of scientific worldviews, and the development of a culture of intellectual labor.

NUTQ O`STIRISHNING AHAMIYATI VA FOYLALARI

Ilesova L. A.
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta`lim fakulteti
Maktabgacha ta`lim yo`nalishi MAT 21-5 guruh talabasi

Tayanch so`zlar: nutq o'stirish, qobiliyat, usul, pedagogik texnologiyalar, bolalar, o'yin, ta'lim-tarbiya, pedagog-tarbiyachi, kompyuter, tafakkur, ijodiy qobiliyat.

Ключевые слова: развитие речи, умение, метод, педагогические технологии, дети, игра, обучение, педагог-воспитатель, компьютер, мышление, творческие способности.

Key words: speech development, skill, method, pedagogical technologies, children, game, learning, teacher-educator, computer, thinking, creativity.

Ma'lumki, mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, bolalarga chuqur bilim berish maktabgacha va boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoniga olib kirildi. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bulgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayerlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi - bolalarni maktabdagi o'qishga tayerlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Shularni hisobga olib,"Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sonli qarori hamda "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"2 tasdiqlandi. Bu qonun hujjatlarida Maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

Mamlakatimizni olib borayotgan mazkur siyosati maktabgacha ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan tarbiyachi-pedagoglardan g‘oyat katta ma’suliyat hamda o‘qitishning yangi texnologiyalaridan keng foydalanishni talab etadi. Shularni hisobga olib, maktabgacha ta’lim muassasalarida bola har tomonlama maktab ta’limiga tayyorlash, ular orasida bola nutqini rivojlantirish masalasi eng asosiylaridan hisoblanadi. Ularning so‘z boyligi oshishi ravon gapirishi va o‘z fikrini to‘lik ifoda etib, aytib bera olishga o‘rgatish masalaning dolzarbligini ko‘rsatib beradi. Nutq o‘stirish metodikasi pedagogik fan sifatida maktabgacha ta’limda bolalar nutqini o‘stirishni puxta egallagan mutaxassis tayyorlashda buyurtmachi sifatida, ilmiy izlanishlar asosida yaratilgan - Bolajon tayanch dasturini o‘quv jarayoniga joriy etish, nutq o‘stirish metodikasi bo‘yicha bilim va malakalarni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatdan mutanosibligini ta’minlaydi, nutq o‘stirish usullarini ishlab beradi. Uni takomillashtirish, eng qulay usulni qo‘llash orqali bolalarga ona tilini amaliy o‘rgatish, nutqda til birliklaridan foydalanish, o‘zaro nutqiy muloqot munosabatida ona tilida fikrni to‘g‘ri, ifodalay olish, tengdoshlari nutqini tinglab tushunish nutqda til birliklarini ajrata bilish (tovush, so‘z) nutq meyyorlarini ishiga mos holda o‘rganib borish, unga amal qilish kabi faoliyatini shakllantiradi. Demak, nutq o‘stirish metodikasi fani maktabgacha ta’limda nutq o‘stirish vazifasini amalga oshiradi, bolalarda ifodali, aniq, lo‘nda va obrazli so‘zlashishni shakllantirish orqali ona tilini amaliy o‘rgatadi, bolalarga ta’lim beradi. Nutq o‘stirish metodikasi fani maktabgacha ta’limda bolalarni og‘zaki nutqini o‘stirish, tengdoshlari va kattalar bilan nutqiy muomala malakalarini shakllantirish orqali nutqda so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish, ya’ni nutq va xulq egasi bo‘lish kabi ma’naviy axloqiy sifatlarni, so‘zlash odobini egallashni shakllantiradi. Nutq o‘stirish metodikasi pedagogik fan sifatida rivojlantiruvchi vazifani bajaradi. Ya’ni usulika bolalar nutqini o‘stirish orqali ularning nutq a’zolarini anatomik-gimnastik mashq qildirish orqali nutqning ravon tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi: bolalar tafakkuri, aqliy faoliyatini rivojlantiradi, ularda nutq odobi, ma’naviy barkamollikni shakllantiradi. Chunki yaxshi rivojlangan nutq tushunarli ta’sirchan bo‘ladi, bola o‘z nutqini to‘zatib boradi. Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof-olam bilan tanishtirish tomoni, balki umumiy psixik rivojlanish ustuni hisoblanadi. Bola nutqining rivojlanishi umuman shaxsni va shu bilan birga barcha psixik jarayonlarni shakllantirish bilan bog‘liqdir. «...Tilni egallash jarayoni - bu faqat va shunchaki bilimlar, mahorat hamda ko‘nikmalarni berish jarayoni emas. Bu eng avvalo tarbiyadir. Qalbni tarbiyalash, aqlni tarbiyalash, fikrlar tuzishni shakllantirish, inson ruhiy qiyofasining eng nozik qirralariga chidam bilan ishlov berishdir»

(K.D.Ushinskiy). Bola nutqiy rivojlanishining, bir tomondan, tashqi ta'sirlar bilan belgilanishi, ikkinchi tomondan esa uning to'satdan yuz berishi, "o'z-o'zidan harakatga kelishi" bilan tavsiflanishini tushunish nutq ontogenezi haqidagi zamonaviy tasavvurlarga xos holatdir. Nutqni rivojlantirishning ana shu qonuniyatlari va mexanizmlarini tushunib yetish ularni batafsil ko'rib chiqishni talab qiladi. "Antonim so'zlar" o'yini Bu o'yin katta va tayyorlov guruhlarda o'tkazilishi mumkin. O'yin mashg'ulot bolalarning mantiqiy tafakkurining rivojlanishiga samarai yordam beradi degan umiddamiz. O'yin induvidual, guruh bilan ham o'tkazilsa ham bo'ladi. O'yin sharti qo'yidagicha: Tarbiyachi bolaga bir so'zni aytadi, bola esa shu so'zning qarama-qarshi ma'no anglatuvchisini topadi. Masalan: katta-kichik, issiq-sovuq, qattiqyumshoq, uzoq-yaqin va xokazolar. Odatda bollar o'yin boshida bir oz qiynaladilar, aytilgan so'zga javoban, antonim emas sinonim so'zlar bilan javob beradilar. Ammo o'yinning mohiyatini tushunib olganlaridan so'ng abstrakt tushunchalarni ham osonlik ilan anglaydilar, hamda tezlik bilan javob berishga xarakat qiladilar. Masalan: chaqqoonyalqov, ishchan-dangasa, odobli-odobsiz va xokazolar. "Avval nima bo'lgan edi" o'yini Bu o'yin shartiga ko'ra bolalar tarbiyachi tomonidan aytilgan narsaning avval nima bo'lganini aytishlari kerak. Masalan: jo'ja-tuxum, ot - toychoq, kapalak - qurt kabilar. Bundan tashqari bittadan ko'p ma'noga ega bo'lgan so'zlardan ham foydalanish mumkin. Masalan: non - un - bug'doy, uy - g'isht - loy, stol - yog'och - daraxt - urug', ko'ylak - mato - ip - paxta - chigit tarzida o'yin davom etaveradi. Bu tarzda tashkil etilgan darsda o'quvchi hech qanday tazyiqsiz erkin fikrlay boshlaydi va o'z fikrlarini ochiq bayon etadi, boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi. Boshlang'ich ta'limda ona tili bolalarda mantiqiy fikrlash, lug'at boyligini oshirish, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish (ya'ni to'g'ri o'qish va yozish)ga, fonetika, leksika, so'z yasalishi va gramatikaga oid bilimlarni o'rganish uchun zamin yaratishga xizmat qilishi lozim. Ma'lumki, ona tili darsida ham lug'at ishlarini o'tkazish bolalarda o'zi uchun notanish bo'lgan so'zni izohi haqida qiziqish paydo bo'ladi. Bu so'zlarning izohini topishda o'quvchining o'zi mustaqil izlanishi maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagi metod bolalarning so'z boyligini oshirish bilan bir qatorda lug'at bilan ishlashga ham o'rgatadi. Darslarda interaktiv usullar qo'llashni shunday tashkil etish kerakki, bunda sinfdagi barcha bolalar faollashishi zarur, ya'ni dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi bolalar tomonidan mustaqil o'rganiladi. O'qituvchi o'quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. Bolalarning sinfda o'zini erkin his qilishi va o'quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o'zining fikrlarini erkin bayon

qila oladi. Tarbiyachi bunday texnologiyani puxta bilishi, hamda uni amaliyotda o‘rganiladigan til materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to‘g‘ri qo‘llay olishi lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik ko‘p qo‘llansa, bolalarning ona tili faniga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Demak, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda MTT, oila, mahalla, maktabning roli juda katta. Ular birgalikda bolaga ham ta’lim va tarbiya beradilar. Uzluksiz ta’limda izchillik esa o‘z navbatida Vatanga sadoqatli, imon-e’tiqoti butun, o‘z mustaqil fikriga ega, har tomonlama qobiliyatli, o‘z kelajagini o‘zii qura oladigan shaxslarni tarbiyalashda dasturul amal hisoblanadi. Bola tarbiayasida mustqil fikrlash uning komil inson darajasida intilib, orzuumidlar va ezgu maqsadlar yo‘lida yashashga undaydi, vijdon oldida soflikni ta’minlaydi. Faqat MTT-oila-maktab hamkorligi yaxshi yo‘lga qo‘yilgandagina, har bir oilada badiiy adabiyotga qiziqish ortgandagina, jamiyatda o‘sish va rivojlanish sezilarli darajada o‘z kuchini ko‘rsatadi. Inson ma’naviyatli va madaniyatli bo‘lib tug‘ilmaydi, u bilim olish jarayonida shakllanadi. Bizning oldimizda turgan eng katta masalalardan bir esa, o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol topgan shaxs sifatida tarbiyalanishi uchun qo‘limizdan keladigan barcha ezgu ishlarni qilishdir, Zero, ertangi kun O‘zbekiston taraqqiyoti bilimli, salohiyatli, oqil va odil shaxslar qo‘lida bo‘lishi har doim muhim vazifa hisoblanib kelingan.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’limning asosiy vazifasi bolalarni maktabda ta’lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Ya’ni, bolalar maktabgacha ta’limda aniq bilimlarnigina emas, fikrlash ko‘nikmasini egallashi, tengdoshlari va kattalarning nutqlarini tushunishlari, ular bilan erkin fikr almashish, hamkorlik asosida faoliyat Ko‘rsatishi talab etiladi. Bolalarning ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurlarini nutq orqali to‘g‘ri ifodalashi o‘zini nazorat qilishi, boshqarishi, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtirish kabi aqliy tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarur. Bu vazifani bajarishda, albatta, ona tilida nutq o‘stirish fanining o‘rni, ahamiyati kattadir. Chunki til kishilarning o‘zaro aloqa vositasi bo‘lib, u barcha kishilar uchun baravar, teng xizmat qiladi, shu bois til ijtimoiy hodisa bo‘lib, jamiyat taraqqiyotidagi o‘zgarishlar, yangilanishlar tilda o‘z aksini topadi. Bola kuzatish va nutq orqali dunyoni, borliqni bilib oladi: tevarak-atrofdagi narsa va buyumlarning, voqea va hodisalarning nomini, sifatlari va belgilarini, xususiyatlarini, o ‘xshash va farqli tomonlarini aytishga o ‘rganadi. Ona tili orqali bolalar o ‘z ajdodlarining tarixini, madaniyatini, qadriyatlarini, urf-odatlarini bilib oladilar, xalq og‘zaki ijodiyoti, badiiy adabiyot, san’at bilan tanishadilar. Shunday qilib, ona tili maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni ruhiy jihatdan rivojlantirishda,

ularning madaniy saviyasini oshirishda, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunib olishlarida, maktabda nuivaffaqiyatli o‘qishlari uchun zamin yaratishda, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga o`rgatishda, aqliy va axloqiy tarbiyani amalga oshirishda, dunyoni, borliqni bilib olishda, xalqimiz madaniy mcrosini o’rganishlarida asosiy vosita bo`lib xizmat qiladi. Bolalar bog’chasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta’Iim va tarbiya beristida eng asosiy vazifalardan biri bolaJarga ona tilini o’rgatish, nutqini rivojlantirish, nutqiy munosabatga. muomalaga o krgatishdir. Nutq o‘stirish uslubiyoti pedagogik fan bo‘lib, m aktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqni shakllantirishga qaratilgan pedagogik qonuniyatlarni o’rganadi. Nutq o‘stirish uslubiyoti fanining asosiy vazifasi— nutq o‘stirish uslubi va uslubiyotlarini, ularning eng samarali vositalarini ilmiy-pcdagogik asoslarda ishlab chiqish va bolalar bog‘chalari tarbiyachilarini ular bilan ta’minlashdan iboratdir. Tarbiyachilar esa o ‘zlashtirilgan uslub va uslubiyot yordamida bolalarda zaruriy nutqiy malaka va ko‘nikmalami rivojlantirishga harakat qiladilar.

Adabiyotlar:

1. R.M.Qodirova. O‘zbekiston bolalar bog‘chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o‘rgatish. -T.: O‘qituvchi, 1993.

2. Babaeva D.R. Nutq o‘stirish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. - T.: TDPU, 2016. 3. F.R.Qodirova. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o‘rgatish metodikasi.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada maktabgacha va boshlang’ich ta’lim yoshidagi bolalarning nutq o’stirish mashg’ulotlari orqali mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning samarali usullari, muhim tomonlari ko’rsatib o’tilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье показаны эффективные методы и важные аспекты формирования способностей самостоятельного мышления детей дошкольного и младшего школьного возраста посредством речевого обучения.

SUMMARY

This article shows effective methods and important aspects of the formation of independent thinking abilities of preschool and primary school children through speech education.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA CHET TILLARIDA NUTQ FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH

Bozorboyeva M. Sh.
Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

Tayanch so`zlar: nutq, chet tili, maktabgacha yoshdagi bola, uzluksiz ta'lim.
Ключевые слова: речь, иностранный язык, дошкольник, непрерывное образование.
Key words: speech, foreign language, preschooler, continuous education.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o‘sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o‘qitish sifatini ta'minlash, chet tillarida erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ushbu yo‘nalishdagi o‘quv dasturlarining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash, chet tillarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini rivojlantirish asosida malaka sertifikatiga ega bo‘lgan o‘quvchilar, talabalar va pedagoglarga imtiyozlar berish, rag‘batlantirish kabi qarorlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilindi.

Ayniqsa bolalar va yoshlar uchun qiziqarli mavzularda maqolalar chop etish hamda teleradiodasturlar tayyorlash, ommaviy axborot vositalarida chet tillarida tashkil etilayotgan dasturlar hajmini va ta'sirchanligini oshirish O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasiga tavsiya etildi.

Keyingi yillarda xorijiy tillarni o'rganishni rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida" PQ-5117-son qarori qabul qilindi..

Bolalar uchun esa mo‘ljallangan xorijiy tildagi televizion asarlarni dublyajsiz, asl tilida, zarur hollarda o‘zbek, ingliz va rus tillariga titrli tarjima qilgan holda efirga uzatishni yo‘lga qo‘yish; mazkur qaror mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyatini yoritishga oid maqolalar, brifinglar, tematik teleko‘rsatuvlar tashkil etish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Demak so'ngi yillarda chet tilini o'rganish inson tafakkurini rivojlantirishning bir usuli emas, balki ijtimoiy faoliyat zarurat bo'lib qoldi. Chet tilini o'qitish

uzluksiz ta'lim tizimining diyarli barcha bosqichlarida ta'limning majburiy tarkibiy qismi sifatida o'qitiladi. Jamiyatda chet tiliga bo'lgan talab, bir tomondan, ota-onalar tomonidan til nafaqat zamonaviy insonni tarbiyalashning omili, jamiyatdagi ijtimoiy va moddiy farovonligining asosi sifatida qaralayotgan bo'lsa - boshqa tomondan chet tilini erta o'rganishni vaqt taqazosi, ijtimoiy faoliyat talabi ekanligida deb ifodalanmoqda. Agar 20 yil oldin tilni bilish faqat ba'zi bir sohalar ishlarida talab qilingan bo'lsa, endilikda kamida bitta xorijiy tilni bilish darajamiz har bir sohada zarurat etib qaralmoqda. Soha mutaxassislarining fikricha chet tilini o'qitishda ko'p yuzaga kelayotgan muammolarning asosiy sababi o'rganuvchilarning yoshi bilan bog'liq hisoblanadi. Ulrning fikricha tilini o'rganishni ancha ertaroq boshlashni tavsiya etiladi ya'ni imkon qadar maktabgacha ta'lim va tarbiya yoshi 3-7 yoshligidan. Maktabgacha ta'lim va tarbiya yoshi chet tilini o'rganishni boshlash uchun juda qulaydir: bu yoshdagi bolalar til hodisalariga nisbatan sezgirligi bilan ajralib turadi, ular bu yoshda o'zlarining nutq tajribalarini, tilning «sirlarini» tushunishga qiziqishadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining poydevori hisoblangan maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlab yosh avlodni chet tillarini mukammal o'rganishiga shart-sharoitlar yaratish maktabgacha yoshdagi bolalarni tillarni o'rganishga qiziqtirish hamda yo'naltirish pedagogik muommolari dolzarb hisoblanmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tiliga o'rgatishning asosiy maqsadlari:

- Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida chet tilida boshlang'ich muloqot qobiliyatlarini shakllantirish;
- O'z maqsadlariga erishish, hayotiy aloqa sharoitida fikr va hissiyotlarini ifoda etish uchun chet tilidan foydalanish qobiliyati;
- Chet tillarini o'rganishga ijobiy munosabat yaratish;
- Dunyo mamlakatlar hayoti va madaniyatiga qiziqish uyg'otish.

Chet tilni o'rganish maktabgacha yoshdagi bolalar yoshidan boshlashning afzalroq bo'lishining yana bir sababi, bola qancha yosh bo'lsa, uning so'z boyligi shuncha kamroq bo'ladi. Ammo shu bilan birga uning nutqini egalashga bo'lgan ehtiyojlari ham kambo'ladi: kichik bolada aloqa sohalari katta yoshdagilarga qaraganda kamroq, u hali murakkab aloqa muammolarini hal qilishi shart emas. Bu shuni anglatadiki, u chet tilini o'zlashtirganda, ona tili va chet tillaridagi imkoniyatlar orasidagi juda katta farqni sezmaydi va uning muvaffaqiyat hissi sezishlari yorqinroq bo'ladi.Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet-tilini o'qitish - bu maktab o'quvchilari va kattalarga qaraganda mutlaqo boshqacha uslubiy yondashuvni talab qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uslubiy jihatdan nochor tashkil etilgan ingliz tili mashg'ulotlari bolalarda uzoq vaqt davomida chet tilidan nafratlanishni va o'z qobiliyatlariga

bo’lgan ishonchsizlikni hosil qilishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan faqat tajribali mutaxassislar ishlashi kerak.

Taniqli rus o’qituvchisi, rus ilmiy pedagogikasining asoschisi **Konstantin Dmitriyevich Ushinskiyning** keng ko’lamli asarlari orasida uning chet tillarini o’rganish bilan bog’liq qarashlari alohida e’tiborga loyiqdir. Ushinskiy nafaqat didaktikaning umumiy qabul qilingan qoidalarini qayd etgan, balki chet tillarini o’qitish kursini to’g’ri tuzish bo’yicha qimmatli tavsiyalar bergan, masalan, darsning tez sur’ati, mashg’ulotdan doimiy foydalanish, haftada chet tili darslari sonini ko’paytirish zarurati va boshqalar. «Ikki yoki hatto to’rt emas, balki haftada olti, yetti, sakkizta dars chet tilini dastlabki o’rganishga tayinlanishi kerak, agar biz ushbu o’rganish orqali biron bir ijobiy natijaga erishmoqchi bo’lsak va boladan vaqtni behuda sarflamasak», deb ta’kidlaydi buyuk pedagog.

K. D. Ushinskiy bir vaqtning o’zida bir nechta chet tillarini o’rganish ikkita quyonni ovlashga o’xshaydi, deb ogohlantiradi: *“Qachonki birinchi o’rganayotgan chet tilida bola katta erkinlikka ega bo’lganida ikkinchi chet tilini o’rganishni boshlanishi kerak”*.

Buyuk Britaniya va AQSh olimlari tomonidan olib borilgan yangi tadqiqot natijalariga ko’ra ikkinchi tilni erta bolalikdan o’rganish ulg’ayganda ong va kognitiv moslashuvchanlikni oshirar ekan.

Erta bolalikdan ikki tilda gapira boshlagan kattalar diqqatli va e’tiborni turli vazifalar o’rtasida tezroq almashtirishga qodir, deb topildi.

Stenford va Kembridj universitetlari, shuningdek Angliya Raskin universiteti va Reding universiteti mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatdiki, ikkinchi tilni erta o’zlashtirgan ikki tilli bolalar ko’proq ma’lumot to’plashar ekan. Bu, o’z navbatida, ularni turli vazifalar o’rtasida tezroq o’tishga o’rgatar va «kognitiv moslashuvchanlikni» rivojlantirar ekan. Tadqiqot nufuzli **Scientific Reports** ilmiy jurnalida chop etilgan.

Buni isbotlash uchun olimlar ikkita tajriba o’tkazdilar, ular davomida ikkinchi tilni erta bolalikdan o’zlashtirgan odamlar va kata yoshda chet tilini o’rganishni boshlaganlar qobiliyatlarini taqqosladilar.

Birinchi tajribada ishtirokchilarga ekrandagi tasvirlarni kuzatib borish taklif qilindi, ulardan biri asta-sekin o’zgarib bordi. Natija shuni ko’rsatdiki, ikkinchi tilni yoshligidan o’rganganlar o’zgarishlarni sezilarli darajada tezroq payqashgan. Ikkinchi tajriba shuni ko’rsatdiki, ular o’zlarining diqqat e’tiborlarini ko’proq nazorat qilishar edi - xususan, ular bir rasmdan ikkinchisiga tezroq o’tishdi.

Tadqiqot mualliflarining ta'kidlashicha, bolalar ikkinchi tilni yoshligidan (0 yoshdan 3 yoshgacha) o'rganganlarida, ularning miyasi ko'proq moslashuvchan, tez o'zlashtiruvchan bo'ladi. Ularning tajribalari shuni ko'rsatadiki, ikkinchi tilni erta o'rganishning foydasi hatto balog'at yoshida ham saqlanib qoladi.

Kanadalik olimlarning yana bir tadqiqotlari esa yuqoridagi tadqiqot topilmalarni tasdiqlaydi. York universiteti mutaxassislari, ikki tilni erta o'zlashtirgan bolalar boshqotirmalarni faqat bitta tilda gapiradigan bolalarga qaraganda tezroq va samaraliroq yechishlarini ta'kidladilar.

Agar siz bolalaringiz ham ikkinchi tilni yoshligidan o'rganishni boshlashlarini istasangiz, buni uyda qilishning bir necha oson usullari mavjud, deb yozadi CNBC. Amerika assotsiatsiyasi til nutqi va eshitish (ASHA) ma'lumotlariga ko'ra, bolalarni boshqa til bilan tanishtirishning samarali imkoniyati qo'shiq aytish, shou tomosha qilish va boshqa tilda musiqa tinglashdir deb maslahat beradi.

Ma'lumki, chet tilini bilish odamlarga aloqa, hissiyotlarning yorqin ifodasi va turli xil his-tuyg'ular palitrasi orqali aloqa muhitini boyitishga yordam beradi. Shubhasiz, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu juda muhim nuqta, chunki maktabgacha yoshda hissiy aqlning shakllanishi sodir bo'ladi, shuningdek, kelajakda ta'lim va ommaviy nutqda muvaffaqiyat qozonish uchun asos yaratiladi. Chet tilini o'rganish jarayoni nafaqat kognitiv qobiliyatlarning rivojlanishiga, balki bolalarning psixologik rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, chet tilini o'qitish jarayonida samaradorlikka erishish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning chet tilidagi nutqini rivojlantirish xususiyatlarini hisobga olish kerak. Bolaning yosh xususiyatlarini, psixologik va hissiy rivojlanishning umumiy darajasini, temperamentning xususiyatlarini, shuningdek fiziologik xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kognitiv rivojlanish darajasi, bolaning o'ziga xos xususiyatlarining o'ziga xos xususiyatlari, sog'liqni saqlash tarixi kabi turli xil omillarni hisobga olgan holda chet tilini o'qitishning sifatli jarayonini tashkil etish muhim va dolzarb vazifadir va maktabgacha ta'lim muassasasining davlat umumiy ta'lim standarti talablariga javob berishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarning chet tilini o'qitish jarayoni bolalarning aqliy va kognitiv rivojlanish darajasini oshirishga qaratilgan, chunki bu shaxsning muvaffaqiyatli shakllanishi uchun o'ziga xos asosdir. Chet tilini o'qitish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar nafaqat chet tilidagi nutq ko'nikmalarini o'rganadilar, balki o'rganilayotgan til mamlakati madaniyati bilan tanishadilar, o'z ona tilida so'zlashuvchilarga ijobiy munosabatni rivojlantiradilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning chet tilidagi nutqini o'qitish

jarayoni nafaqat yangi asosiy aloqalarni shakllantirishga yordam beradi, balki butun dunyoga bo'lgan muhabbatni rivojlantiradi.

Tug'ilgandan ikki yoshgacha bolaning asosiy e'tibor obyekti ona va boshqa yaqin bo'lgan kattalardir, shuning uchun bu davrda chet tilini o'rganish maqbul emas. Bu vaqtda chaqaloq dunyo bilan endigina tanishib va uning nutqi endigina tug'ila boshlaydi. Biroq, uch-to'rt yoshdan boshlab diqqat boshqa odamlarga yo'naltirila boshlaydi. Bolalar atrofdagi kattalarga qiziqishadi va ular, ayniqsa, tengdoshlari bilan muloqotga qiziqishadi. Ushbu davrda bolalar birgalikdagi o'yin faoliyatiga intilishadi. Nutqni rivojlantirish sezilarli yutuqlarga erishmoqda: so'z boyligi sezilarli darajada oshadi, fonemik eshitishning rivojlanishini ko'rsatadigan turli xil qo'shiqlar, qofiyalar, she'riy asarlarga qiziqish kuchayadi. Ko'rib turganimizdek, bu o'zgarishlar chet tilini muvaffaqiyatli o'rganish uchun juda muhim shartlardir.

Bundan tashqari, ushbu yosh davrida maktabgacha yoshdagi bolalarda yangi narsalarni bilishning asosiy usuli bu o'yin. O'yin maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi bola hayotida ta'lim va rivojlanishning asosiy vositasidir. O'yinda o'zini anglay olgan bolalardan muvaffaqiyatli, o'zini o'zi ta'minlaydigan, baxtli, yetuk va o'ziga ishongan kattalar o'sadi.

O'yin jarayoni bolaning miyasi rivojlanishida katta ahamiyatga ega. O'yinning mohiyati shundaki, bu maqsad natija bo'lmagan faoliyatdir. Va aynan shu narsa miyaga kerak-turli xil his-tuyg'ular, rollar, natijaga yo'naltirilmagan barcha narsalar bilan shug'ullanish. Ishda natija har doim muhimdir va muammolardan biri shundaki, natijaga yo'naltirish zamonaviy dunyoda bolalar hayotiga erta va erta kiradi. Va haqiqiy erkin o'yin xavf ostida.

Shunday qilib, xulosa shuki, har qanday ta'lim, shu jumladan chet tilini o'qitish qat'iy ravishda o'yin orqali, o'yin tarzida taqdim etilishi kerak.

Adabiyotlar:

1. 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5117-son qarori

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.05.2021 yildagi 312-son

3. Ushinskiy K.D. Pedagogik hikoyalar: B 6 т. T. 2. Tuzuvchi. C.Ф.Егоров. M.: Педагогика, 1998. 120-133 b

4. https://incrussia.ru/news/bilingual-more-attentive/

5. https:// Соколова Ю.В. Особенности иноязычного речевого развития дошкольников // Современные проблемы науки и образования. – 2022. – № 3. ;

6. Современные проблемы науки и образования. – 2022. – № 3. ;www. cnbc. com/2021/01/22/growing-up-bilingual-can-improve-attentiveness-efficiency-study.html

РЕЗЮМЕ

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tillarida nutq faolligini rivojlantirish yo'llari keng ko'lamli taxlil qilinib, yosh avlodni maktabgacha ta'lim bosqichidan chet tillariga qiziqtirib o'qitilishining

uzluksiz ta’lim tizimida muxim o’rin egallashi va chet el olimlarining chet tillarini o’rganishga bo’lgan qarashlari haqida e’tirof etildi. Qolaversa O`zbekiston Respublikasida qabul qilinayotgan ta’lim tizimida chet tillarini rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlar bunga yaqqol misoli ekanligi keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье был проведен обширный анализ путей развития речевой активности на иностранных языках у детей дошкольного возраста, отмечено важное место в системе непрерывного образования обучения подрастающего поколения с дошкольного этапа интересу к иностранным языкам, а также взгляды зарубежных ученых на изучение иностранных языков. Кроме того, указы и постановления, направленные на развитие иностранных языков в системе образования, принимаемые в Республике Узбекистан.

SUMMARY

The article carried out an extensive analysis of the ways of developing speech activity in foreign languages in preschool children, noted the important place in the system of continuing education of teaching the younger generation from the preschool stage to interest in foreign languages, as well as the views of foreign scientists on the study of foreign languages. In addition, decrees and resolutions aimed at the development of foreign languages in the education system adopted in the Republic of Uzbekistan.

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA TAYANCH TUSHUNCHALARDAN FOYDALANISH -O‘QUVCHILARNING FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Mamadaliyeva N. B.
ADPI Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o’qituvchisi

Tayanch so‘zlar: matematik tushuncha, boshlang‘ich tushuncha, ta’rif, yig‘indi, ayirma, ko‘paytma, bo‘linma, tenglama, tenglamaning ildizi, ayiriluvchi, kamayuvchi, ko‘paytuvchi, bo‘linuvchi, bo‘luvchi.

Ключевые слова: математическая концепция, основная концепция, определение, сложение, вычитание, умножение, деление, уравнение, корень уравнения, вычитатель, вычитатель, множитель, делитель, получатель деления.

Key words: mathematical concept, elementary concept, definition, addition, subtraction, multiplication, division, equation, root of an equation, subtractor, reducer, multiplier, divisor, divisor.

Kirish. So‘ngi yillarda fan va texnikaning jadal suratlar bilan taraqqiy etib borayotganligi Respublikamizda ta’lim tizimini rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimidan mutlaqo qolishmaydigan qilib yangilashni taqozo etdi. Qo‘yilgan bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida 2020-yil yangi taxrirdan “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun” qabul qilindi xamda bugungi kunda uning ijrosi bo‘yicha bir qator ishlar olib borilmoqda. Yangi qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun” ning asosiy maqsadi respublikamizda rivojlangan mamlakatlarda tayyorlanayotgan mutaxassislardan mutlaqo qolishmaydigan, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. Bunday mutaxassislar oliy o‘quv yurtlarida tayyorlansada, unga zamin, asosan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflaridan boshlab yaratiladi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinflarda fanlarni o‘qitishga katta ahamiyat berilishi kerak. Agar o‘quvchilar boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlarni qanchalik puhta o‘zlashtirsalar, ular kelgusida yuqori sinflarda va oliy o‘quv yurtlarida qiynalmaydilar. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlar ichida matematika fani muxum ahamiyatga ega.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida davlat ta’lim standartlarining ikkinchi avlodi joriy etilishi munosabati bilan boshlang‘ich

sinflarda matematikani o‘qitishni yanada rivojlantirish masalasi kun tartibidagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida matematikadan sifatli va samarali ta’lim berish, birinchi navbatda, uni insonparvarlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan faol innovatsion jarayonlarni amalga oshirish bilan harakterlanadi. Bu vazifani mukammal amalga oshirish matematika o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatga qay darajada tayyor ekanligiga bog‘liq. Chunki bugungi kundagi o‘qituvchi turli hil ta’lim sharoitiga o‘quv jarayonini oldindan bashorat qila bilish, loyixalashtirish va uni amalga oshirishda turli xildagi interfaol usullardan foydalana olish malakalariga ega bo‘lishlari kerak.

Qo‘yilgan bu vazifalarning dolzarbligi va uni bajarilishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 aprel PF-5712 sonli “O‘zbekiston Respublikasi halq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risi” dagi Farmonning bajarilishi yo‘lidagi qadam bo‘ladi.

Respublikamiz prezidenti o‘z ma’ruzalarida ilm – fanga alohida urg‘u berib “Eng katta boylik, bilim – ma’rifat, ilmsizlik esa qashshoqlikdir” deb ta’kidladi va boshlang‘ich ta’limni binoning poydevori bilan taqqosladi.

Boshlang‘ich ta’limni bilimlar poydevori deyilishi bejiz emas. Boshlang‘ich sinflardagi matematika ta’limi o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda va rivojlantirishda muxim omil bo‘lib hisoblanadi hamda ularni o‘z fikrlarini mustaqil bayon qilish, egallagan bilimlarini o‘z faoliyatlarida qo‘llash hamda ta’limning keyingi bosqichlarida davom ettirishlari uchun zarur bo‘ladigan tayyorgarligini ta’minlashga hizmat qiladi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchi asosiy e’tiborini o‘quvchilarga matematikadan sifatli ta’lim berishga qaratishi zarur.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Biz matematik ta’lim deyilganda matematika o‘qituvchisi bilan o‘quvchilar orasidagi ongli va aniq maqsadga tomon yo‘naltirilgan bilishga doir faoliyatni tushunamiz. Matematik ta’lim o‘z oldiga uchta maqsad qo‘yadi:

1) O‘quvchilarga dastur asosida o‘rganilishi zarur bo‘lgan bilimlar tizimini berish;

2) Matematik bilimlarni berish orqali o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish;

3) Egallangan bilimlarni amalda qo‘llashga o‘rgatish.

Ta’lim jarayonida bu uch maqsad amalga oshishi uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga har bir o‘rgatilayotgan matematik tushunchani psixologik, pedagogik va didaktik qonuniyatlar asosida makammal tushuntirishi kerak.

Buning natijasida o‘quvchilar ongida bilish deb ataluvchi psixologik jarayon hosil bo‘ladi.

Falsafa kursidan ma’lumki, bilish jarayoni “Jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga demakdir”. Bundan bilish jarayoni tafakkur qilish bilan bog‘liq ekanligi kelib chiqadi. “Tafakkur inson ongida ob’ektiv olamning aktiv aks etishi demakdir”.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda bilish jarayoni ikki xil bo‘ladi:

1) Hissiy bilish (sezgi, idrok, tasavvur);

2) Mantiqiy bilish (tushuncha, xukm va xulosa).

Xar qanday mantiqiy bilish hissiy bilish orqali amalga oshadi. Shuning uchun ham har bir o‘qitilayotgan matematik ob’ektdagi narsalar seziladi, abstrakt nuqtai-nazardan idrok va tasavvur qilinadi so‘ngra ana shu o‘rganilayotgan ob’ektdagi narsa to‘g‘risida ma’lum bir matematik tushuncha hosil bo‘ladi. Masalan, S.Alixonov tushunchaga “Matematik ob’ektdagi narsalarni asosiy xossalarini aks ettiruvchi tafakkur formasiga matematik tushuncha deyiladi” deb ta’rif beradi.

Har bir matematik tushuncha o‘zining ikki tomoni bilan, ya’ni mazmuni va hajmi bilan harakterlanadi. Tushunchaning mazmuni, shu tushunchani ifodalovchi asosiy xossalar to‘plamidan iborat bo‘ladi.

Barcha fanlarda bo‘lgani kabi matematikada ham ta’riflanadigan va ta’rifsiz qabul qilinadigan tushunchalar mavjud. Son, to‘plam, nuqta, to‘g‘ri chiziq, tekislik tushunchalari ta’riflanmaydigan matematik tushunchalardir. Ularni odatda boshlang‘ich tushunchalar deb ataladi. Maktab matematika kursida matematik tushunchalar ikki xil usulda kiritiladi:

1) Aniq – induktiv usul. Bunda o‘quvchilar dastlab o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajargan holda o‘rganilayotgan tushunchaning umumiy xossalarini aniqlaydilar, so‘ngra o‘qituvchi raxbarligida ta’rifni mustaqil holda tuzishga harakat qiladilar. Yangi tushunchani kiritishning bu usulidan quyi sinflarda ko‘proq foydalanish samaraliroq bo‘ladi. Induktiv usul yordamida tushunchalarni kiritish jarayonida muammoli vaziyatlar hosil bo‘ladi va buning natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari shakllanadi.

2) Abstrakt-deduktiv usul. Bu usulda o‘rganiladigan matematik tushuncha uchun ta’rif tayyor holda oldin o‘rganilgan tushunchalarni qo‘llash bilan yechiladigan topshiriqlar yordamida tushuntirilmasdan kiritiladi. Bu usuldan asosan yuqori sinflarda foydalaniladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan matematik tushunchalarni to‘rtta guruxga bo‘lish mumkin.

1-gurux. Bu guruxda sonlar va ular bilan bajariladigan amallar kiritiladi. Ular son, raqam, qo‘shish, qo‘shiluvchi, yig‘inda, ayirish, kamayuvchi, ayiriluvchi, ayirma, ko‘paytirish, ko‘paytma, bo‘linuvchi, bo‘luvchi, bo‘linmalardan iborat.

2-gurux. Bu guruxga algebraik tushunchalar kiritiladi. Ular ifoda, sonli ifoda, o‘zgaruvchili ifoda, tenglama, tensizlik va boshqalardan iborat.

3-gurux. Bu guruxga geometrik tushunchalar kiritiladi. Ular to‘g‘ri chiziq, nur, kesma, uchburchak, to‘rtburchak, to‘g‘ri to‘rtburchak, kvadrat, aylana, doira va xokazolardan iborat.

4-gurux. Bu guruxga miqdorlar va ularni o‘lchash bilan bog‘liq kattaliklar kiritiladi. Ular uzunlik o‘lchovlari (millimetr, santimetr, detsimetr, metr, kilometr), og‘irlik o‘lchovlari (gramm, kilogramm, tonna), vaqt o‘lchovlari (sekund, minut, soat) dan iborat.

Boshlang‘ich sinflarda matematika kursida o‘rganiladigan tushunchalarga ta’rif berilmaydi. Ular asosan misollar yordamida tushuntiriladi. Shunday tushunchalar borki, ular birinchi sinfda o‘rganilsada, keyinchalik boshqa sinflarda, hatto yuqori sinflarda, ba’zilari esa oliy o‘quv yurtlari matematika kursida ham takrorlanadi. Masalan, son tushunchasi, natural son tushunchasi, to‘plam tushunchasi,tenglama va tengsizlik tushunchasi va xokazolar shular jumlasidandir. Boshlang‘ich sinflar matematika kursida o‘rganiladigan matematik tushunchalarni sinflar bo‘yicha bo‘lish masalasi I.N.Antilov va L.S.Shvatsburdlar tomonidan ilgari surilgan.

Yuqorida biz matematik tushunchalarni ikki guruhga , ya’ni ta’riflanadigan va ta’rifsiz qabul qilinadigan tushunchalarga bo‘ldik. Ta’riflanadigan matematik tushunchalar ichida shunday tushunchalar borki, ular deyarli butun kurs davomida uchraydi va ulardan boshqa tushunchalarning mohiyatini ochib berishda tizimli foydalaniladi. Bunday tushunchalarni odatda tayanch tushunchalar deb ataladi.Tayanch tushunchalarga misol sifatida boshlang‘ich matematika kursidan yig‘indi, ayirma, ko‘paytma, bo‘linma, kasr, natural son, tenglama, tengsizlik, burchak, to‘rtburchak va hokazolarni, yuqori sinflar matematika kursidan esa funksiya, sonli ketma-ketlik, sonli ketma-ketlikning limiti, funksiyaning limiti, uzluksizlik, hosila, differensial, integral, differensial tenglama va hokazolarni keltirish mumkin.

Natijalar va muhokama. Matematik ta’limni amalga oshirishda tayanch tushunchalardan tizimli foydalanish asosida o‘quvchilarning, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi va keyinchalik yuqori sinflarda, xatto oliy o‘quv yurtlarida matematikani puxta o‘rganishlari uchun zamin yaratiladi.

Shuning uchun ham biz ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda matematikani o‘qitish jarayonida tayanch tushunchalardan qanday foydalanish mumkinligi haqidagi tajribalarimizni bayon qilamiz.

Ma’lumki, hozirgi kunda o‘quvchilar birinchi sinfdanoq tenglamani yechishadi.Ammo u yerda tenglamadagi xarfni o‘zgaruvchi son deb emas, balki noma’lum son deb aytishadi. Tenglamaning ildizi tushunchasi ham keyinroq kiritiladi.Tenglamadagi xarf o‘rniga turlicha qiymatlar qo‘yish mumkin. Bunda, ba’zan to‘g‘ri tengliklar, ba’zan esa noto‘g‘ri tengliklar hosil bo‘ladi.

Xarf (noma’lum)ning berilgan tenglikni to‘g‘ri tenglikka aylantiradigan qiymatlari tenglamaning ildizlari deyiladi. Masalan, 9+x=14 tenglamadagi x o‘rniga o‘quvchilar 0,1,2,3,4 larni qo‘yib natijada to‘g‘ri tenglik hosil bo‘lmasligini tushunadilar. x o‘rniga 5 sonini qo‘yganda to‘g‘ri tenglik hosil bo‘lishini ko‘radilar. Demak, 5 soni berilgan tenglamaning ildizi ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Bu tenglama qo‘shiluvchilardan biri va yig‘indi ma’lum bo‘lganda, ikkinchi noma’lum qo‘shiluvchini topishga doirdir. Xuddi shunday x·x=36 tenglamada 0,1,2,3,4,5 sonlari tenglamaning chap tomonida 36 dan kichik natija beradi, ya’ni bu holda noto‘g‘ri tengliklar hosil bo‘ladi. x o‘rniga 6 soni qo‘yilganda esa to‘g‘ri tenglik hosil bo‘ladi, ya’ni 6·6= 36. Agar x o‘rniga 6 dan katta sonlar qo‘yilsa, tenglamaning chap tomonida 36 dan katta sonlar hosil bo‘ladi. Demak, tenglamaning faqat bitta ildizi bor. Bu kabi misollar yordamida o‘quvchilarda tenglamaning ildizi tushunchasi shakllantiriladi. Agar o‘quvchi tenglamaning ildizi nima ekanligini yaxshi tushunsa, u eng sodda tenglamalarni ildiz tanlash usuli bilan yecha oladi.

Ayirish va bo‘lish amallari bilan bog‘liq bo‘lgan tenglamalarni yechishda tanlash usuli biroz qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun bu hollarda, xatto qo‘shish va ko‘paytirish amallari bilan bog‘liq tenglamalarda ham ularning ta’riflaridan foydalanish, ya’ni, amallarda qatnashayotgan komponentalardan biri noma’lum bo‘lganda uni topish qoidasidan foydalanish qulay bo‘ladi. Quyida bularga misollar keltiramiz:

1.Tenglamani yeching: 32+x=49.

Yechish: Bu tenglama yig‘indiga doir tenglama bo‘lib, unda qo‘shiluvchilardan biri noma’lum. Bunda quyidagi qoidani qo‘llash qulaydir.

1-qoida. Noma’lum qo‘shiluvchini topish uchun yig‘indidan ma’lum qo‘shiluvchini ayirish kerak.

Bu qoidaga asosan x=49-32, ya’ni x=17.

2. Tenglamani yeching: 1) 65-x=32; 2) x-39=24.

Yechish: 1) Bu tenglamada ayiriluvchi noma’lum. Bunda quyidagi qoidadan foydalaniladi:

2-qoida. Noma'lum ayiriluvchini topish uchun kamayuvchidan ayirmani ayirish kerak.

Bu qoidaga asosan x=65-32,ya'ni x=33.

2) x-39=24 tenglama yechilsin.

Yechish: Bu tenglamada kamayuvchi noma'lum. Bunda quyidagi qoidadan foydalaniladi.

3-qoida. Noma'lum kamayuvchini topish uchun ayirmaga ayiriluvchini qo'shish kerak.

Bu qoidaga asosan x=39+24,ya'ni x=63.

3. Tenglamani yeching: 6x=78.

Yechish: Bu tenglamada ko'paytuvchilardan biri noma'lum. Bunda quyidagi qoidadan foydalaniladi.

4-qoida. Noma'lum ko'paytuvchini topish uchun ko'paytmani ma'lum ko'paytuvchiga bo'lish kerak.

Bu qoidaga asosan x=78:6,ya'ni x=13.

4.Tenglamani yeching: 1) 126:x=21; 2) x:12=13.

Yechish: 1) Bu tenglamada bo'luvchi noma'lum.Bunda quyidagi qoidadan foydalaniladi:

5-qoida. Noma'lum bo'luvchini topish uchun bo'linuvchini topish uchun bo'linuvchini bo'linmaga bo'lish kerak.

Bu qoidaga asosan x=126:21,ya'ni x=6.

2) Bu tenglamada bo'linuvchi noma'lum. Uni yechish uchun quyidagi qoidadan foydalaniladi:

6-qoida. Noma'lum bo'linuvchini topish uchun bo'linuvchini bo'linmaga ko'paytirish kerak.

Bu qoidaga asosan x=12·13,ya'ni x=156.

Bu yerda ko'rib o'tilgan tenglamalarni yechish jarayonida foydalanilgan qoidalarni o'quvchilar yod olishlari shart emas. Lekin bu qoidalarni yetarlicha misollar yordamida o'quvchilar ongida mustaxkam o'rin egallashini ta'minlash kerak. Bu vazifa amalga oshirilgach, noma'lum qo'shiluvchi, ayriluvchi, kamayuvchi, ko'paytuvchi, bo'linuvchi, bo'luvchini topish qoidalarini ikki marta qo'llashni talab qiluvchi tenglamalarni yechishga o'tish mumkin. Quyida ularga misollar keltiramiz:

5. 85-(x+15)=60 tenglamani yeching.

Bu tenglamani o'quvchilar bilan savol-javob shaklida yechishga xarakat qilamiz. U quyidagicha bo'lishi mumkin.

Tenlamaning chap va o'ng tomonlarini ko'rsating. Tenglamaning o'ng qismida noma'lum bormi? Tenglamaning chap qismida qanday ifoda bor?

Kamayuvchini ko‘rsating. U ma’lummi? x ning qiymatini birdaniga topish mumkinmi? Oldin nimani topish kerak? Noma’lum ayriluvchi qanday topiladi?

O‘quvchilar qavs ichida turgan ifodani ayriluvchi deb aytadilar va uni topish qoidasini aytadilar va quyidagini topadilar.

x+15=85-60, x+15=25

Bunda x noma’lum qo‘shiluvchi ekanligini aytadilar va undan ilgari ko‘rilgan qoidani qo‘llab

x=25-15,ya’ni x=10

ni topadilar.

6. 59+(x-12)=85 tenglama yechilsin.

Yechish: Yuqoridagidek mulohazalar yuritib, dastlab x-12=85-59, ya’ni x-12=26 ni topadilar. Bundan esa x=26-12,ya’ni x=14 ni topadilar

7. 420:(160-1000:x)=12 dan x topilsin.

Yechish: Qavs ichidagi ifoda noma’lum qatnashgan ifodadir. Shuning uchun yuqorida ko‘rib o‘tilgan qoidaga ko‘ra uni topiladi. Ya’ni,

160-1000:x=420:12,yoki 160-1000:x=35.

Bu yerdagi noma’lum qatnashgan ifodani ayriluvchi deb qarab uni topiladi.

1000:x=160-35,ya’ni 1000:x=125

Bu yerdan noma’lum bo‘luvchi x ni topish uchun ma’lum qoidadan foydalanamiz. Unga asosan,

x=1000:125,ya’ni x=8.

Xulosa. Bu yerda tenglamalar mavzusi misolida qo‘shiluvchi, yig‘indi, kamayuvchi, ayriluvchi, ayirma, bo‘luvchi, bo‘linma, bo‘linuvchi, tenglama kabi tayanch tushunchalardan foydalanildi. Bunday ko‘rinishdagi tenglamalarni yechish jarayonida o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Ularning bir qator tayanch matematik tushunchalar bo‘yicha bilimlari yanada mustaxkamlanadi hamda ularda keyingi sinflarda uchraydigan tenglamalarni yechish malakalari rivojlanadi, va pirovard natijada talim samaradorligi ortadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712 sonli Farmoni (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 29, 2019 No. PF-5712)

2. O’zbekiston‖ Respublikasining 2020 -yil 23-sentabrdagi 637-sonli‖, Ta’lim to’g’risida‘gi qonuni (Law of the Republic of Uzbekistan dated September 23, 2020 No. 637 on Education)

3. Ю.М.Колягин “Математика ўқитиш методикаси” М.,1980 й. (Yu.M. Kolyagin «Methodology of teaching mathematics» M., 1980.)

4. S.Alixonov “Matematika o‘qitish metodikasi” T.: “O‘qituvchi” 2008.-357 b. (S. Alikhanov «Methodology of teaching mathematics» T.: «Teacher» 2008.-357 p.)

5. И.Н.Антипов, Л.С.Шварцбург “Символы, обозначения и понятия школьного курса математики” М.: “Просвешение”,1978.-63 с. (I.N. Antipov, L.S. Shvartsburg «Symvoly, oboznacheniya i ponyatiya shkolnogo kursa mathematiki» M.: «Prosveshenie», 1978.-63 p.)

6. Н.Я.Виленкин ва бошқ. “IV синфда математика” Т.: “Ўқитувчи”, 1973.-270б. (N. Ya. Vilenkin et al. «Mathematics in class IV» T.: «Teacher», 1973.-270p.)

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflar matematika kursida uchraydigan va o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy omil bo‘lgan tayanch matematik tushunchalar va ulardan o‘qitish jarayonida qanday foydalanish mumkinligi tenglamalar misolida bayon qilingan. Tenglamalarni yechish jarayonida o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Ularning bir qator tayanch matematik tushunchalar bo‘yicha bilimlari yanada mustaxkamlanadi hamda ularda keyingi sinflarda uchraydigan tenglamalarni yechish malakalari rivojlanadi va pirovard natijada talim samaradorligi ortadi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье на примере уравнений описаны основные математические понятия, которые встречаются в курсе математики начальной школы и являются основным фактором развития мыслительных способностей учащихся, и то, как их можно использовать в учебном процессе. В процессе решения уравнений развиваются мыслительные способности учащихся. Их знание ряда основных математических понятий еще более укрепится, и у них разовьются навыки решения уравнений, которые встретятся в более поздних классах, и в конечном итоге повысится эффективность обучения.

SUMMARY

In this article, the basic mathematical concepts that are found in the elementary school mathematics course and are the main factor in the development of students’ thinking skills and how they can be used in the teaching process are described on the example of equations. In the process of solving equations, students’ thinking skills develop. Their knowledge of a number of basic mathematical concepts will be further strengthened, and they will develop the skills of solving equations that will be encountered in later grades, and ultimately, the effectiveness of education will increase.

СҮЎРЕТЛЕЎ ӨНЕРИ ҲӘМ МУЗЫКА

ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА БАДИИЙ АДАБИЁТНИ ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАШУВ АСОСИДА ЎҚИТИШ

Абатов Ж. О.

Бердах номидаги Қорақалпоқ давлат университети ўқитувчиси

Таянч сўзлар: тасвирий санъат, адабиёт, интеграция, дарс, алоқадорлик, санъат асари, тарихий макон, замон ва тасвир алоқадорлиги, пейзаж, портрет, асар қаҳрамони

Ключевые слова: изобразительное искусство, литература, история, интеграция, урок, вовлечение, художественное произведение, историческое пространство, время и вовлечение образа

Key words: fine art, literature, history, integration, lesson, involvement, artwork, historical space, time and image involvement.

Кириш. Санъат асарларини ўрганиш ва ўргатиш тасвирий санъатнинг бош вазифаларидан ҳисобланади. Адабиёт фани адабий-бадиий асарларни ўқиб тушунишни ўргатганидек, тасвирий санъат ўқув предмети ҳам санъат асарини кўриш ва уни тушуниш, таҳлил қилишни талабага, мактаб ўқувчисига ўргатади. Уларда ҳар иккаласида ҳам мавзу, сюжет, ғоя, бадиий услуб, образлар, персонажлардан иборат бўлиб, асардаги воқеанинг даври, воқеаси ўз ифодасини топган бўлади.

Адабиёт ўқитишида ҳам кўргазмалилик принципидан фойдаланилганда, асосан, тасвирий санъат намуналарига мурожаат қилинади.Зеро, “юз маротаба эшитгандан бир маротаба курган афзалдир”– деган мақол хам бежиз эмас. Шу боисдан К.Д.Ушинский, –“расмни кўрганда соқов ҳам тилга киради”, – деган эди. Тасвирий санъатни ўқитишда кўргазмалилик аҳамияти шунчалик юксакки, бу ўқув фанни ўқитишда бирор дарс кўргазмасиз ўтмайди. Бу фанда кўргазмасиз ўтилган дарс – дарс ҳисобланмайди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти “Тасвирий ва амалий санъат соҳаларида миллий меросимизни тиклаш, Камолиддин Беҳзоднинг бой ижодий меросини халқимизга тўла етказиш, соҳа ривожига катта ҳисса қўшган атоқли рассом ва халқ усталари хотирасини абадийлаштириш, ижодий йўналишда олий ўқув юртидан кейинги таълимни ташкил этиш, кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш ҳамда мамлакатимизда тасвирий ва амалий санъат ҳамда дизайн соҳаси самарадорлигини янада ошириш” га доир муҳим қарорни имзолаши тасвирий санъат соҳасининг

долзарблигини, унинг инсон руҳияти, маънавияти, тафаккури учун зарур эканини англатади.

Тасвирий санъатнинг муҳим хусусиятларидан бири – инсон учун фақат борлиқни, табиат ва жамиятдаги воқеа-ҳодисалар ва нарсаларни билдирибгина қолмай, одамларга янги билим, тасаввур ва тушунчалар бериб, маънавий бойитувчи, ижодий юксалишга бошловчи қудратли фактор бўлиб, хизмат қилади.Ёки бир сўз билаи айтганда, «Санъат, - В.Г.Белинский таърифича, – образли тафаккурдир»..

Б. Орипов тасвирий санъат намуналарини тушуниш бўйича кузатувлар олиб борганда қуйидаги ҳолат кузатилган.Ана шу образлар тасвирий санъатда ўзининг яққоллиги, ишонарлилиги, объективлиги, реаллиги билан одамларнинг ақлий фаолиятига тез ва аниқ таъсир кўрсатувчи восита бўлиб хизмат қилади. Аммо тасвирий санъат асарларини ҳамма ҳам тўғри тушунавермайди. Унинг бадиий жиҳатларини тўғри баҳолай олмайди. Бундай кишилар кўргазма залларига, музейларга кириб қолишса тезгина зерикиб қоладилар, Чунки бундай томошабин асарни мароқ билан тушуниб, кўролмайди, ҳис-ҳаяжон ва кучли эҳтирос билан таҳлил этолмайди.

Барча ўқув фанлари тасвирий санъат асарларидан фойдаланади. Аммо бironта фан ўқитувчиси санъат асарини яратилиши, ундаги мавзу, сюжет, ғоя, бадиийлик ҳақида тўлиқ маълумот бера олмайдилар. Шу боисдан бу расмларни нечта дарсда ўтилишидан қатъий назар, бу асарларни тасвирий санъат ўқитувчисини ўзи қайтадан таҳлил қилиб боради. Олий таълим муассасалардаги тасвирий санъат дарсларида санъат жанрларини таҳлили даврида ўқитувчи асосий эътиборни асарни ғоясига, рассомни бадиий услубига беради. Аммо санъат асарларини таҳлил қилишда, албатта, маълум система ва тартиб бўлиши керак. Рангларнинг рамзий маънолари ҳақида ҳам муайян тушунчаларга эга бўлиш лозим. Шунга кўра санъат асарларини таҳлил этишда:

1. Асарни муаллифи ҳакида маълумот берилади.

2.Асарни мавзуси бўйича суҳбат, асар мавзуга, унинг сюжети ва ғоясига жавоб бера оладими?

3.Асарни ғояси–асарда рассом ўзи тасвирлаган сюжет асосида қандай масалани, муаммони кўтариб чиққанлиги;

4.Асарни сюжети–бу асарда тасаввур этилган объект, воқеа ундаги нарсалар, манзара, одамлар ва ҳайвонот дунёси ёки бошқалар ҳақида тўғри, илмий маълумот берилади;

5.Асар яратилишидаги бадиийлик, бадиий услуб, ижодкорни санъат бўйича илми ва истеъдоди, малакаси ҳақида тушунча берилади;

6. Асарни яратилишидаги рассомни тадқиқот ишлари, материал тўплаши, умумлаштириши, қоралама, этюд эскизлар ҳақида маълумот берилади;

7. Асар тақдири– яъни асарни бугунги кундаги аҳволи, сақлаётган ўрни, унинг қайси кўргазмаларда намойиш этилгани ҳақида суҳбат боради.

Санъат асарини бундай таҳлили учун бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиси расм ишлашни, асарни яхши тушуниши ва уни бошқаларга тушунтира олишни билиши зарур.Бизнинг таълим муассасаларимизда малакали рассом-педагогларнинг етишмаслиги оқибатида санъат асарларини таҳлил этилмайди.Таҳлил этилса ҳам нотўғри, тўла бўлмаган ҳолда таҳлил этилади.Хуллас, санъат асарини яхши ўргатилмаслиги санъатимизни халқимиз орасига олиб киришда қийинчиликлар туғдирмоқда.Ҳали ҳозиргача ўзбек хонадонида санъат асарлари жуда кам кўринади.Улар санъат асарини олмайдилар ҳам. Бунинг асосий сабаби бизнинг мактабларимизда санъат асарларни яхши ўргатилмаслигидир. Шунга кўра таълим муассасасидаги тасвирий санъат хоналарига санъат асарлари репродукциялари қўйилади ва улардан кўргазмалари ташкил этилди.

Талабалар томонидан ўқиш учун тасвирий санъат асарларини мақсадли танлаш қуйидаги принциплар билан белгиланади:

- тасвирий санъат асарларининг бадиий-естетик қиммати;
- тасвирий санъат турлари ва жанрларининг хилма-хиллиги,
- халқ амалий санъатининг анъанавий турлари, халқ ижодиётида материалларга бадиий ишлов бериш технологиялари;
- эстетик идрок ва бадиий амалиётнинг бирлиги;
- ҳар бир гуруҳ учун ўқув мақсадларига мувофиқ, ўқитувчи

Тасвирий санъат дарсларида бадиий адабиёт намуналарида фойдаланган ҳолда талабага ўқув топшириқлари бериш мумкин. Бу икки муҳим фанни бир-бирига боғлайди. Масалан,

1-топшириқ. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романида муаллиф Кумуш ва Отабек образларини сўз билан чизади. Сиз уни мўйқалам асосида таърифдан ҳосил бўлган тасаввурларингизга таяниб чизинг.

Кумушбибини қуйидагича таърифлайди: “…қуюқ жинггила кипрак остидаги тимқора кўзлари бир нуқтаға тикилганда, нимадир бир нарсани кўрган каби... қоп-қора камон, ўтиб кеткан нафис, қийиғ қошлари чимирилганда, нимадир бир нарсадан чўчиган каби... тўлган ойдек ғуборсиз оқ юзи бир оз қизилликға айланганда, кимдандир уялган каби... Шу вақт кўрпани қайириб ушлаган оқ нозик қўллари билан латиф бурнининг ўнг

томонида, табиатнинг ниҳоятда уста қўли билан қўндирилган қора холини қашиди ва бошини ёстиқдан олиб ўлтурди”.

Бугун сунъий интеллект ҳам инсон портретини сўз билан ифодаланган таъриф асосида чизиб бермоқда, аммо қўлда ранг билан чизилган расм унга қараганда қиммат баҳоланади. Бунинг сабабини тушуниш учун тасвирий санъат намунларини тушуна олиш кўникмаси шаклланиши керак.

2-топшириқ. Отабек образини асардан келтирилган бадиий портрет асосида чизишга уруниб кўринг.

Асарда Отабек қуйидагича тасвирланади: «Оғир табиатлик, улуғ гавдалик, кўркам ва оқ юзлик, келишган, қора кўзлик, мутаносиб қора қошлиқ ва эндигина мурти сабз урган бир йигит».

Бадиий адабиётда муаллифлар пейзаж санъатидан ҳам унумли фойдаланади. Масалан, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг мемуар асарида жуда кўп учрайди.

3-топшириқ.Асарда Фарғона вилоятига берилган таърифдан фойдаланиб, унинг суратини чизинг.

“Бобурнома”да Фарғонага шундай таъриф берилган: “Фарғона кичик вилоятдир, ғалла ва меваси фаровон. Теварак-атрофи тоғлар билан ўралган, ғарбий тарафида, яъни Самарқанд ва Хўжанд томонида тоғ йўқ. Ушбу ёқдан бошқа ҳеч бир томондан қишда душман кела олмас”.

4-топшириқ.“Бобурнома”да Сайҳун дарёсига берилган таърифдан фойдаланиб, унинг расмини мўйқалам асосида чизиб кўринг.

“Сайҳун дарёси Хўжанд суви номида машҳур, у шарқу шимол тарафдан келиб, вилоятнинг ичи билан ўтиб, ғарб сари оқади; Хўжанднинг шимоли ва Фанокатнинг (ҳозир Шоҳрухия сифатида машҳур) жанубий тарафидан ўтиб, яна шимолга бурилиб, Туркистон сари боради. Туркистондан анча қуйироқда бу дарё бутунлай қумга сингиб кетади, бироңта дарбга қўшилмайди”.

5-топшириқ.“Бобурнома”да Андижон сойиҳақида берилган таърифдан фойдаланиб, унинг расмини мўйқалам асосида чизиб кўринг.

Андижон сойига берилган таъриф эса қуйидагича: “Андижон сойи Ўш маҳаллалари ичидан ўтиб, Андижонга кириб боради. Бу сойнинг иккала томони ҳам боғлар билан обод. Боғлар шундайгина сойга туташиб кетган. Бинафшаси беҳад нафис бўлади. Оқар сувлари бор, баҳори жуда яхши бўлади. Кўп лола ва чечаклар очилади”.

6-топшириқ. Асарда Марғилонга берилган таърифдан фойдаланиб, унинг суратини чизинг.

Марғилоннинг таъриф эса шундай: “Яна бири Марғилондир. Андижоннинг ғарбида. Андижондан етти йиғочлик йўлда. Яхши шаҳарча, неъматларга бой: анори ва ўриги жуда кўп ва яхши”.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, тасвирий санъат ва сўз санъати(адабиёт) бир-биридан ажралмайдиган, бири-иккинчисига илҳом берадиган, тўлдирадиган соҳалар, ўқув предметларидир. Уларни ўқитишда ҳам интеграцион ёндашиш энг тўғри ёндашув бўлди. Мўйқалам соҳибларига ёзувчи, шоирлар ва аксинча, шеър ва бошқа бадиий асарлар рассомларга бирор асар яратишга туртки бўлган ҳолатлар тарихда кўплаб учрайди. Шоирларнинг шеърий китобларига рассомлар махсус суратлар чизиб беради, шунда тасвирий санъат шеърни тўлдиради, тушунишга ёрдам беради.

Тасвирий санъат дарсларида бадиий адабиёт намуналаридан фойдаланиш бўлажак рассомларга илҳом беради. Янги асарларнинг бунёд бўлишига сабабчи бўлади. Машғулотларда бадиий асарлардаги тарихий шахслар, жойлар, нарсалар, ўсимликларга ёзувчи, шоирлар томонидан берилган таърифлар асосида расм чизиш бўйича ўқув топшириқлари ишлаб чиқилиб, синов машғулотларида ҳам фойдаланилса, бўлажак мутахассисларнинг кўникма ва малакаларини, иқтидорини, фантазиясини, тафаккур тарзини баҳолашга эришиш мумкин.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 4 апрелдаги “Тасвирий ва амалий санъат соҳаси самарадорлигини янада оширишга доир чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4688-сон Қарори

2. Ушинский К.Д. Танланганпед.асарлар. Т. 1959 . 56-б.

3. Белинский Н.Г. Танланганасарлар. 3-том. М. 1948 й. 67-бет

4. Орипов Б. Тасвирий санъат ва уни ўқитиш методикаси. – Тошкент. 2004. 176 б.

5. Сокольникова Н.М. С597 Методика преподавания изобразительного искусства: учебник для студ. учреждений высш. проф. образования / Н. М. Сокольникова. — 5-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательский центр «Академия», 2012. — 256 с.,

6. Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар. Роман. –Тошкент. 2020.

7. Заҳириддин Муҳаммад Бобур Бобурнома. Мемуар. –Тошкент, 2021.

РЕЗЮМЕ

Мақолада тасвирий санъат намуналарини талабаларга бадиий адабиёт материаллари асосида тушунтириш, уларга ҳар қандай санъат асарини тушунишга ўргатиш усуллари ҳақида фикр юритилади. Ҳар бир ҳодиса вақтга алоқадор бўлгани боис тасвирий санъат намуналари ҳам муайян даврни, тарихий ёки ижтимоий воқеани ифода этади, шу маънода бадиий-тарихий суратлар, минатюралар, ноёб расмларни тушунишда муайян санъат асари боғлиқ бўлган тарихни ёки умуман тарихий силсилани билиш ҳам талаб қилинади. Мақолада тасвирий санъат намуналарини тушунишда интеграцион ёндашувларни қўллаш масаласи таҳлил қилинган.

РЕЗЮМЕ

В статье размышляется о том, как объяснить студентам примеры изобразительного искусства, научить их понимать любое произведение искусства. Поскольку каждое явление связано со вре-

менем, образцы изобразительного искусства также представляют определенный период, историческое или социальное событие, в этом смысле при понимании исторических картин, миниатюр, уникальных полотен также требуется знать историю, с которой связано конкретное произведение искусства, или исторический диапазон в целом. В статье анализируется проблема применения интегративных подходов к пониманию образцов изобразительного искусства.

SUMMARY

The article reflects on how to explain examples of fine art to students, teach them to understand any work of art. Since each phenomenon is associated with time, samples of fine art also represent a certain period, historical or social event, in this sense, when understanding historical paintings, miniatures, unique canvases, it is also necessary to know the history with which a particular work of art is associated, or the historical range as a whole.. The article analyzes the problem of the application of integrative approaches to the understanding of samples of fine art.

BADIIY KULOLCHILIK MASHG‘ULOTLARIDA TALABALARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Begijonov J.
Andijon davlat universiteti “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: kulolchilik, kreativlik, naqqoshlik, qobiliyat, interfaol metodlar innovatsiya, ta’lim.

Ключевые слова: гончарство, творчество, живопись, умение, интерактивные методы, инновации, образование.

Key words: pottery, creativity, painting, ability, interactive methods, innovation, education.

Badiiy kulolchilik yo‘nalishi talabalarni yuqori bilimli, malakali o‘qituvchi bo‘lib etishishida juda katta rol o‘ynaydi. Badiiy kulolchilik mashg‘ulotlarida yuksak badiiylik milliy an’anani rivojlantirishga, undan foydalanish, undagi kreativ amaliyot uslublarini joriy etish, tabiiy material bilan ishlash, talabalarda qunt va chidam, qadriyat, xalq amaliy san’atining qiziqarli, o‘ziga xos turlariga jalb etish maqsadga muvofiqdir. O‘rta asr badiiy kulolchiligini o‘rgangan talabalar an’anaviy lagan, guldon va yangi shaklli bezak idishlar, portretlar, sovg‘a buyumlar yaratadilar. Ularni bezashda o‘simliksimon naqshlar bilan bir qatorda xayvon shakllari va yozuvli tasvirlardan mohirona foydalanadilar. Sopol material va bo‘yoqlarni o‘rganish yilidagi izlanishlar samarasi sifatida bir qator asarlar maydonga keladi.

Badiiy kulolchilik sharqning eng qadimiy va navqiron san’atidir. Kulolchilik qora loydan mo‘‘jizakor go‘zallik yaratgan SHarqning eng qadimiy va navqiron san’atidir. Bu qora loy sahovat va halollik ehtiyojini o‘z zimmasiga olgan farovonlik, to‘kinlik, rizq–ro‘zi, go‘zallikni eng oliy ko‘rinishi san’atining zaminidir.

Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug‘ullanadi. Ular o‘ziga xos tomonlari bilan bir–biridan farq qiladi. O‘zbek badiiy kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an’analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o‘ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlar sodda bo‘lsa-da, uning ko‘rinishi qismlarining aniqligi, mutanosibligi, saqlanishi, naqshlarning badiiy joylashishi, shakl va

mazmunning birligi, uyg‘unligi o‘zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda. Kulolchilik hunari loydan piyola, kosa, tovoq, ko‘za kabilarni tayyorlaydigan soha bo‘lib, u uzoq tarixga ega. Maxsus tuproqni o‘ta qizdirganda toshsimon bo‘lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan bilganlar. Ular avval loydan idishlar yasab, gulxanda qizdirib pishirganlar.

Tuproq jahonning hamma erlarida bo‘lgani uchun kulolchilik keng tarqalgan bo‘lib, dastlab bu hunar bilan ayollar shug‘ullanganlar. Kulolchilik tarixi miloddan avvalgi 3 ming yillikning boshlarida ixtiro qilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar shug‘ullana boshlaganlar. Keyinchalik loydan yasalgan idish–tovoqlarni maxsus o‘choq hamda xumdonlarda pishirganlar.

Neolit davrida idishlarning tagi uchlik qilib yasalib erga sanchib qo‘yilgan. Enolit davrida esa SHarq mamlakatlarida hamda qadimgi Gretsiyada nafis kulolchilik idishlari rivoj etgan va me’morchilikda sopoldan foydalana boshlashgan. VIII-XII asrlarda kulolchilik O‘rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyob va O‘rta Osiyo mamlakatlaridan topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab berdi. O‘sha davrda O‘rta Osiyo madaniyati tez sur’atda rivojlandi. YAngi ko‘tarilish davri bo‘ldi. Ko‘pgina olim, yozuvchi va mutafakkirlar etishib chiqdi.

VIII—XII asrlarda kulolchilik O‘rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyobda va O‘rta Osiyoning boshqa erlarida topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab berdi. O‘sha davrda O‘rta Osiyo madaniyati tez sur’atlar bilan rivojlandi. YAngi ko‘tarilish davri bo‘ldi. Ko‘pgina olim, yozuvchi va mutafakkirlar, ya’ni Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Firdavsiy, Ro‘dakiylar etishib chiqdi. Butun dunyoga mashhur bo‘lgan me’morchilik yodgorliklari bunyod etildi. Buxoroda Ismoil Somoniy maqbarasi qurildi.

XIII asrda mo‘g‘ullar bosqinchiligi oqibatida Buxoro, Samarqand, Urganch, Mavr, Balx yong‘in ostida qoldi. Oqibatda kulolchilik san’ati rivojiga putur ketdi. XIV asrdan boshlab O‘rta Osiyo hududida kulolchilik tez sur’atlar bilan rivojlandi. A.Temur kulolchilik amaliy san’atini rivojlantirishda juda katta xizmat qildi. Bosib olingan joylardan ustalarni olib kelib, ular uchun rastalar ochtirdi. Mashhur go‘zal, nafis binolar, qasrlar, saroylar qurdirdi. Amir Temur vafotidan so‘ng o‘zaro ichki janglar oqibatida Temuriylar xonligida markazlashgan xonlik kuchsizlanib ketdi.

Natijada Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklari paydo bo‘ldi. O‘rta Osiyoda bir necha feodal davlatning bunday ajralishi natijasida o‘zaro aloqa susayib ketishiga sabab bo‘ldi. SHuning uchun ham kulolchilik turli erlarda turlicha rivojlandi. XIX asrga kelib kulolchilik mamlakatlari tashkil bo‘la boshladi. O‘rta Osiyoda suvga bo‘lgan ehtiyoj katta bo‘lgani uchun sopol idishlarni tez

sur’atlar bilan ishlab chiqarishga ehtiyoj sezildi. Asrlar osha ularning shakli va bezagi nafislashib bordi. Ustalar turli-tuman kulolchilik buyumlarini yasashdan tashqari ularni yuksak did bilan bezay boshladilar.

XIX asrda arzon baho chinni ishlab chiqarilishi va Rossiyadan chinni idishlarni ko‘plab olib keltirilishi O‘rta Osiyo hududida sopol buyumlar ishlashni birmuncha pasaytirib yubordi. Lyokin arzon sopol idishlarni me’morchilikda keng foydalanilishi kulolchilikning rivojlanishiga to‘sqinlik qila olmadi.

XIX asrda O‘rta Osiyoda tojik va o‘zbek xalqlari o‘rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib G‘ijduvon, Panjikent, Samarqand, SHahrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo‘ldi. Ular sopol idishlarini sirlab bezatishning o‘ziga xos uslublarini vujudga keltirdilar. Ayniqsa, ishlab chiqarilayotgan kulolchilik mahsulotlarining sifatliligi, chiroyliligi, naqshlarining nafis va ta’sirchanligi bilan shuhrat qozondilar. 1930 yilda Toshkentda eksperimental kulolchilik va Samarqandda kulolchilik ustaxonalari ochildi. 1932 yilda Toshkentda o‘quv-ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etilib u erda xalq amaliy san’ati ustalari, shu qatori kulollar tayyorlaydigan kurslar tashkil etildi (1943 yilda SHahrisabzda o‘quv-ishlab chiqarish badiiy kombinati ishga tushdi). Kulolchilik sir-asrorlarini mashhur kulollar yoshlarga sitqidildan o‘rgatdilar. Bular rishtonlik Uzoq SHermatov, Xolmat YUnusov, g‘ijduvonlik Muhammad Siddiq, Usmon Umarov, toshkentlik Turob Miraliev, shahrisabzlik Rustam Egamberdiev, Karim Hazratqulov va boshqalar edi.

Hozirgi kunda kulolchilik faniga yanada e’tibor kuchaymoqda. Poytaxtimizning barcha qo‘shimcha ta’lim muassasalarida to‘garaklar ishlab turibdi. O‘zbekiston Badiiy Akademiyasiga qarashli Respublika rassomlik kollejida, K.Behzod nomidagi rassomchilik va dizayn institutida, Nizomiy nomli TDPU “San’at” fakultetining amaliy san’at kafedrasida bu fan sirlari talabalarga o‘rgatilib kelmoqda. Bu ustalar yaratgan kulolchilik san’at asarlari ham muzeylardan joy olishiga ishonchimiz komildir.

Rishton O‘zbekistondagi sirlangan sopol buyumlari ishlanadigan eng mashhur va qadimiy markazlardan biri. XIX asr oxiri XX asr boshlarida aholisining deyarli hammasi kulollardan iborat edi. Farg‘ona vodiysidagi barcha kulolchilik markazlari azaldan Rishton kulolchilik ta’siri ostida bo‘lgan. Ushbu tumanda har qanday turdagi buyumlarni yasash uchun yaroqli bo‘lgan, alohida navli kulolchilik gilining mavjudligi bunga asos bo‘la oladi.

Qizg‘ish-sarg‘ish rangli ajoyib gil Rishtonning deyarli butun hududida 1–1,5 m chuqurlikda qatlam bo‘lib joylashgan. Gilning yaxshi sifatliligi mahalliy ustalarning uni O‘zbekistonning boshqa tumanlaridagi kulollardan farqli ravishda oldindan tozalab, boshqa turdagi tuproqlarga aralashmagan holda

ishlab chiqarishga jalb qilish imkonini beradi. Kulollar Rishton yaqinidagi tog‘lardan har xil bo‘yoqlar, kvarsli xum va olovbardosh gillarni qazib olishgan.

1960 yillarda yuqorida eslatib o‘tilgan moviy sopol buyumlari ishlab chiqariladigan an’anaviy markazlar barham topa boshladi. Ana shunday sharoitda San’atshunoslarning Butunittifoq konferensiyasi (Farg‘ona, 1974 yil) qabul qilingan moviy ishkorli sopol idishlari ishlab chiqarish an’analarini saqlab qolish haqidagi qarori amaliy ahamiyat kasb etdi. Ushbu qaror ustalarga ma’qul tushdi. Ular oldingi ishlab chiqarishga qaytib, buyumlarni bezashning an’anaviy shakllari va usullarini qayta tiklay boshladilar.

Keyingi 20 yil ichida Rishton sopoli an’anaviy badiiy va texnologik usullar asosida yana qayta tiklandi. Ishqorli sir tayyorlash ham yo‘lga qo‘yildi. Rishton sopolchiligining mahalliy badiiy xususiyatlari ko‘p jihatdan buyumlarga naqsh berilishida ko‘zga tashlanadi.

Kreativ shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulot – bu belgilangan xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish emas, balki to‘liq namoyon bo‘lishi uchun sharoit yaratish va shunga mos ravishda talabalar shaxsiyatining ijodiy funksiyalarini rivojlantirish. Ta’lim falsafasi kreativ yondashuvni mavzu toifalari, erkinlik, o‘z-o‘zini rivojlantirish, muloqotning yaxlitligi, shaxsning o‘zini namoyon qilish shakli sifatida o‘rganadi. Bizning tadqiqotimizda ushbu yondashuv pedagogika fani doirasida ta’limning maqsadi va mazmuni toifalari, dekorativ-amaliy san’atni o‘qitish usullari, xususan badiiy kulolchilik va ularga kiritilgan o‘ziga xos texnologiyalar, ta’lim jarayonining samaradorligini, talabaning kreativ kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan mezonlar orqali ko‘rib chiqiladi.

Shaxsning ushbu asosiy shaxsiy kompetensiyalari ularning rivojlanishini ta’minlaydigan pedagogik vositalarning ma’lum asosiy xususiyatlarini nazarda tutadi. Kreativ kompetensiyani rivojlantirish uchun ijodiy erkinlik va raqobatbardoshlik uchun sharoit yaratish kerak, refleksiv funksiya shaxs va unga ochiladigan madaniyat va san’at olami o‘rtasidagi o‘zaro muloqot sharoitida talab qilinadi va rivojlanadi. Kreativ shaxsga yo‘naltirilgan pedagogikaning mohiyati – sharoit, imkoniyat, tanlov maydonini yaratish va natijada shaxsning kreativ ehtiyojlarini namoyon etish va rivojlantirishdan iborat.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – 43 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. www.lex.uz

3. Azimov I.M. O‘zbekiston naqshu nigorlari. T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. - 142 b.

4. Bulatov S.S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. – T.: Mehnat, 1991. – 384 b.

5. Bulatov M.S. Geometricheskaya garmonizatsiya v arxitekture Sredney Azii IX-XV vv.
6. Zohidov P.SH. Zeb ichra ziynat. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985. - 118 b.
7. Zohidov P.SH. Me’mor san’ati. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985. - 118 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada kulolchilik mashg’ulotlari jarayonida kreativlik, pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish, talabalarning innovatsion faoliyati, interfaol ta’lim, innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описаны факторы, развивающие креативность, творческую компетентность педагогов, инновационную деятельность учащихся, интерактивное обучение, инновационные образовательные и информационно-коммуникационные технологии, творческие способности учащихся на занятиях по гончарному делу.

SUMMARY

This article describes factors that develop creativity, creative competence of pedagogues, innovative activities of students, interactive education, innovative education and information and communication technologies, and creative abilities of students during pottery classes.

“USTOZ-SHOGIRD” AN’ANALARI VA UNGA TARIXIY VA ZAMONAVIY QARASHLAR

Ruziyev N. M.
Andijon davlat universiteti Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: ustoz-shogird, ta’lim, tadqiqot, bilim, ko‘nikma, zamonaviy ta’lim, ijtimoiy guruh, modellar, intellektual salohiyat, an’ana.

Ключевые слова: магистрант, образование, исследование, знание, умение, современное образование, социальная группа, модели, интеллектуальный потенциал, традиция.

Key word: master-student, education, research, knowledge, skill, modern education, social group, models, intellectual potential, tradition.

Ayni paytda mamlakatimiz ta’lim va ijtimoiy-madaniy sohadagi tub o‘zgarishlarga intilmoqda, bunga ehtiyoj fikrlash, maqsadlarni belgilash va harakatlar shakllarining o‘zgarishi, shuningdek, iqtisodiy sektorning istiqbollari bilan bog‘liq.

Ushbu sohalarni uyg‘un va tizimli ravishda o‘zgartirishning ahamiyati ta’lim tizimida o‘z aksini topgan bo‘lib, unda barcha ta’lim muassasalari oldiga ikkita asosiy maqsad qo‘yilgan: ta’limining global raqobatbardoshligini ta’minlash va xalqlarning ma’naviy-axloqiy qadriyatlari va madaniy an’analariga asoslangan barkamol rivojlangan va ijtimoiy mas’uliyatli shaxsni tarbiyalash.

Ushbu maqsadlarga ko‘nikmalar, iste’dodlar va kompetensiyalarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish tizimini yaratmasdan erishish mumkin emas. Ushbu tizim, shuningdek, barcha talabalarni o‘z taqdirini o‘zi belgilash va kasbiy yo‘naltirish muammosini hal qilishga hissa qo‘shishi kerak.

Yuqorida aytib o‘tilgan maqsad va vazifalarga javob beradigan eng samarali strategiya “Ustoz-shogird” metodologiyasidan foydalanish bo‘lib, uning doirasida turli darajadagi va ta’lim shaklidagi talabalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash mumkin.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan o‘tkazilgan tantanali marosimda so‘zlagan nutqida ta’lim sifatini oshirishda “Ustoz-shogird” tizimini qaror toptirish zarurligi haqida to‘xtalib, “Bugun har bir o‘qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta’lim va ilm-fan sohasidagi eng so‘nggi ijobiy yangiliklarni o‘quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so‘z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning

eng ilg‘or vakillari bo‘lishlari kerak. Bunday ustozlar qo‘lida ta’lim olgan farzandlarimiz biz orzu qilgan O‘zbekistonning yorug‘ kelajagini bunyod etishga qodir avlod bo‘lib kamol topadi”, deb ta’kidladi.

O‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, pedagogik mahoratini oshirib borishida “Ustoz-shogird” usuli kutilgan natija berishi shubhasiz. Zero ustoz-shogirdlik azaldan xalqimizning tabiatiga xos xususiyat bo‘lib, uni tizimga aylantirish ta’lim samaradorligini oshirishda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham “Ustoz-shogird” an’anasini ta’lim-tarbiya tizimida mustahkam qaror toptirish juda muhimdir. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”da “Ustoz – shogird” an’analarini tiklash ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani amalga oshirishning muhim vazifasi sifatida belgilanganligi ayni muddao bo‘ldi .

“Ustoz-shogird” tizimida mafkuraviy tayyorgarlik masalalari g‘oyat muhimdir. Shogirdning siyosiy ongi, mafkuraviy tayyorgarligi, tafakkur madaniyati qancha kuchli bo‘lsa, uning kelgusida “ustozdan ham o‘zib ketishi” uchun mustahkam zamin hozirlanadi. Bunday zaminni yaratish uchun esa ustozning o‘zi kuchli bilim va saviyaga ega bo‘lishi lozim. Buyuk Arastu “oldinga ketganlarni quvib etadigan va ortda qolganlarni kutmaydigan shogird har narsaga ulguradi” , deb bejiz aytmagan.

“Ustoz-shogird” an’anasi faqat ta’limni rivojlantirishga qaratilgan tor doiradagi usul emas, u eng avval, shaxsni barkamol qilish orqali jamiyatni farovon, saodatli qilishdan iborat ezgu g‘oyadir. Ayniqsa, bu g‘oya islom falsafasidan oziqlanganda yanada to‘laqonli ma’no kasb etadi. Buyuk ajdodlarimiz Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Alisher Navoiy asarlarida, Imom Buxoriy hadislari-yu, Bahouddin Naqshbandning “Dil va yoru, dast ba kor» tamoyilida bu ezgu g‘oyaga doir qimmatli hikmatlar mujassam. Mutafakkir ajdodlarimiz ijodida ko‘plab ustozlik timsollari yaratildi.

Darhaqiqat, ta’lim tizimi taraqqiyoti davomida Sharq va G‘arb davlatlarida intellektual salohiyatning o‘sishi o‘ziga xos ravishda rivojlandi. Bu jarayon Qadimgi Hindistonda braxman va gurular, Xitoyda Konfutsiy, Yunonistonda Suqrot maktabi, Aflotun akademiyasi, Arastu litseyi, o‘rta asrlar Sharqida Bag‘dod Ma’mun akademiyasi yoki Xorazm Ma’mun akademiyasida ta’lim tizimining yangi ilg‘or an’analarini shakllantirdi.

“Ustoz-shogird” an’analarining o‘lmas qadriyatlarini asrlar davomida shogirdlar tomonidan e’zozlanishini Suqrot va uning shogirdlari timsolida tahlil etish mumkin. Uning “Kuch – bilimda”, “Qanchalik ko‘p bilsam, shunchalik ko‘p bilmasligimni bildim”, “O‘z-o‘zingni angla” aforizmlari bugungi kunda ham o‘ta dolzarb. Suqrotchilar maktablari eramizdan avvalgi V asrda uning shogird va izdoshlari tomonidan shakllantirilgan yunon falsafiy maktablari: Aflotun

akademiyasi, Megar maktabi, Elida-eretreya maktabi, Keren maktabi va kiniklar oqimi shular jumlasidandir.

Ustozga hurmat va ehtirom oliy qadriyat sifatida Aflotun asarlarida yorqin ifoda etiladi. Uning "Suqrotchilar dialogi"da alloma ustozi qarashlarini haqqoniy aks ettirishga, g'oyalarini tizimli va mufassal targ'ib qilishga harakat qiladi. O'zi tashkil etgan akademiyada qariyb qirq yil davomida rahbarlik qilar ekan, ustozi qarashlari targ'ibotini ham muttasil olib boradi. Aflotun akademiyasining 900 yildan ortiqroq faoliyati davomida bu an'ana saqlanib qolganligi Suqrot butun insoniyatning ma'naviy ustoziga bejizga aylanmaganligini ko'rsatadi.

VIII-XI hamda XV asrlar insoniyat tarixida Sharq Uyg'onish davri sifatida e'tirof etiladi. Bu davrda mamlakatimiz hududlarida yashab ijod etgan olimlarning ilmiy tadqiqotlari Bag'dod, Marv va Xorazmdagi ilmiy-ma'rifiy markazlarda olib borildi. O'rta asrlarda tashkil etilgan ilmiy maktablarda dunyoviy va diniy fanlar rivojiga vatandoshlarimiz ulkan hissa qo'shdilar. Natijada "ustoz–shogird" an'analarining davomiyligi asosida mazkur ilmiy maktablarda buxoriylar, farg'oniylar, xorazmiylar, termiziylar, samarqandiylar avlodi ulkan ilmiy yangiliklari bilan insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Suqrotning asosiy didaktik yutug'i – ustoz tomonidan o'ylab qo'yilgan savollar yordamida haqiqatga eltuvchi dialogik tortishuv. Ustoz shogirdning kuchli ruhiy jihatlarini uyg'otishi va uning o'zini yaratib olishiga ko'maklashishi kerak.

Aflotunning fikricha, ustozlik vazifasini, eng avvalo, yoshi katta kishilarga ishonish mumkin. Bu borada J.J.Russoning fikricha, ustozning eng asosiy va qiyin san'ati – shogird bilan hech narsa qilmaslikni bilishdir.

XX asr boshlarida ustozlik muammolari haqida K.D.Ushinskiy ham o'z fikrlarini bayon etgan. U tajribalilik bilan maqtanmaslik, o'z tarbiyaviy faoliyati yillarini sanab g'ururlanmaslik kerakligini ta'kidlab, kasbiy tajriba nazariy tayyorgarlik yo'qligini qoplab yuboradi, degan xato fikrga bormaslikni maslahat beradi.

Sharq xalqlarining yozma yodgorliklari "Panchatantra", "Kalila va Dimna", "Avesto" kitoblarida, Konfutsiy "Hikmatlari"da, Abu Homid G'azzoliyning "Ilm kitobi" asarida, Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniya" asarida "Ustoz–shogird" an'analarining sharqona qadriyatlari ifodalangan.

Ma'lumki, ta'lim tizimi ustoz va shogirdlar faoliyatini o'z ichiga oladi. Ustozning faoliyati va shogirdlar faoliyati o'zaro bog'liq, ammo ustozning o'quv faoliyati va shogirdlarning tarbiyaviy ishlari taniqli farqlar bilan ajralib turadi. Masalan, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning guruh shaklida ustoz, qoida tariqasida, barcha shogirdlar bilan bir vaqtda ishlaydi. SHogirdlar tomonidan ustozning ko'rsatmalarini o'zlashtirish, bilim, ko'nikma, shaxs fazilatlari, dunyoqarashini shakllantirish har bir shogird uchun uning aqliy va jismoniy

rivojlanishi, dastlabki tayyorgarligi, o‘rganishga qiziqishi, irodali fazilatlari va boshqa xususiyatlariga qarab individual ravishda sodir bo‘ladi. Bularning barchasi ustozdan har bir shogirdning shaxsiy xususiyatlari va farqlarini iloji boricha hisobga oladigan o‘quv faoliyatining bunday usullaridan foydalanishni talab qiladi, ya’ni darsdagi har bir shogirdning faoliyatiga qo‘yiladigan talablar uning imkoniyatlariga mos keladigan bo‘lsa, o‘quv jarayonining bunday sharoitlarini yaratish o‘z samarasini beradi.

Bugungi kunda Hasan Basriyning “Olimlar bo‘lmaganda odamlar hayvonlardek bo‘lib qolishardi”, “Olimlar yulduzlarga o‘xshaydi. Agar ko‘rinib tursa, odamlar ular yordami bilan o‘zlariga yo‘l topishadi. Agar ular ko‘zdan yo‘qolib, o‘zlari zulmatda qolishsa, qayoqqa yurishni bilmay hayron qolishadi”, degan fikri juda ahamiyatlidir.

Adabiyotlar:

1. Faxriddin, Rizouddin ibn. Ilmning o‘n to‘rt qanoti / Shogirdlik odobi /tarj. Jamalov Sagdulla. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2018. – 88 b.

2. Ron J. Aql vitaminlari. – Toshkent: FUTURE-BOOKS, 2021. – 383 b.

3. Rtveladze E. Taraqqiyotning mangulik chashmasi //. http://www.adolatgzt.uz/society/ munosabat / 4390

4. To‘raev B. Uchinchi muallim – O‘zbekiston falsafasi yutuqlarini targ‘ib qilgan vakil // https://uza.uz/uz/posts/uchinchi-muallim-ozbekistonfalsafasi-yutuqlarini-targib-qilgan-vakil_332585

5. Tursun, Ahmad Muhammad Hasan Basriy. – Toshkent: Qaqnus media, 2019. – 55 b.

6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. – Toshkent: Hilol-nashr, 2016. – 456 b.

7. Sharafiddinov O. Domlalar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009. – 280 b.

8. SHermuhamedova N. Falsafa. – Toshkent: Idris Abdurauf Nashr, 2021. – 663 b.

РЕЗЮМЕ

Maqolada qator Ustoz-shogird qadryatlari bo‘yicha faoliyat yuritgan va o’zining an’anasiga ega bo‘lgan mutaffakkirlar haqida so‘z boradi. Ma’lumki, ta’lim tizimi ustoz va shogirdlar faoliyatini o‘z ichiga oladi. Ustozning faoliyati va shogirdlar faoliyati o‘zaro bog‘liq, ammo ustozning o‘quv faoliyati va shogirdlarning tarbiyaviy ishlari taniqli farqlar bilan ajralib turadi. Masalan, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishning guruh shaklida ustoz, qoida tariqasida, barcha shogirdlar bilan bir vaqtda ishlashi haqdida ma’lumotlar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассказывается о ряде мыслителей, которые работали в соответствии с ценностями Мастера-ученика и имели свою традицию. Известно, что система образования включает в себя деятельность учителей и учащихся. Деятельность учителя и деятельность учащихся взаимосвязаны, но учебная деятельность учителя и воспитательная работа учащихся отличаются известными отличиями. Например, дается информация об организации практических занятий в форме группы с преподавателем, как правило, работающим одновременно со всеми обучающимися.

SUMMARY

The article talks about a number of thinkers who worked according to the Master-disciple values and had their own tradition. It is known that the educational system includes the activities of teachers and students. The activity of the teacher and the activity of the students are interrelated, but the educational activity of the teacher and the educational work of the students are distinguished by well-known differences. For example, information is given about the organization of practical training in the form of a group with the teacher, as a rule, working simultaneously with all the students.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI MUSIQA DARSIDA BUXORO BOLALAR FOLKLOR QO‘SHIQLARINI O‘RGATISHNING AHAMIYATI

Rajabov T. I.
Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi dotsenti,p.f.f.d.(PhD)

Tayanch so‘zlar: musiqa ta’limi, tarbiya, madaniy meros, ma’naviy tarbiya, tasavvur, folklor qo‘shiqlari, qadriyat, ritm, his-tuyg‘u.

Ключевые слова: музыкальное образование, воспитание, культурное наследие, духовное воспитание, воображение, народные песни, значение, ритм, чувство.

Key words: musical education, education, cultural heritage, spiritual education, imagination, folk songs, meaning, rhythm, feeling.

Respublikamizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma’naviy etuk kishilar bo‘lib etishishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ta’limning barcha bo‘g‘inlarida bo‘lgani kabi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchi-yoshlarni ta’limni ilk bosqichidan boshlab har jihatdan etuk qilib, ya’ni jismoniy, aqliy, axloqiy, ma’nan sog‘lom qilib tarbiyalash, ayniqsa ularda milliy g‘urur, milliy ong, nafosatni uyg‘un kamol toptirishga alohida etibor berib kelinmoqda. CHunki, milliy ong, milliy g‘urur va tafakkur eng avvalo, milliy qadriyatimiz sanalmish-tilimiz, tariximiz, xalqimizning uzoq tarixiy taraqqiyoti mobaynida shakllangan o‘ziga xos madaniy va moddiy boyliklarini o‘rganish, ularga mehr qo‘yish, asrab avaylash va rivojlantirish negizida tarkib topadi. SHuning uchun ham xalqimizning milliy qadriyatlari tizimida muhim o‘rin tutuvchi xalq musiqasining yoshlar tarbiyasida tutadigan o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Musiqa darslarida o‘quvchilarni qo‘shiq kuylashga o‘rgatish, turli janr, xarakter, mavzulardagi zamonaviy, folklor qo‘shiqlari, kompozitorlik ijodi namunalari, qardosh va chet el musiqalari bilan tanishtirib borish asosan musiqiy asarni tinglash orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda o‘quvchi musiqa savodi, yoki, qo‘shiq kuylash, bolalar cholg‘ularida ijro etish, musiqaga mos ritmik va raqs harakatlarni bajarish bo‘lmasin avvalo, musiqa tinglaydi va so‘ngra amaliy faoliyatga kirishadi, nazariy, amaliy bilim ko‘nikma, malakalari va eng muhimi musiqani idrok etishi ya’ni, musiqiy idroki rivojlanib boradi.

Musiqa ta’limi va tarbiyasi yo‘lga qo‘yilgan ta’lim muassasalaridagi o‘quv-tarbiya jarayonlarini kuzatish va tadqiqot muammosi yuzasidan olib brogan izlanishlarimizda shu narsa ayon bo‘ldiki, musiqa ta’limi va tarbiyasida, o‘quvchi-yoshlarni musiqiy madaniyatini qay darajada shakllanganligini belgilashda ularni musiqani idrok etish malakalari asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. Chunki, musiqiy qobiliyatlar, kerakli darajadagi bilim, ko‘nikma va malakalar musiqani qanday, qanaqa, qay tarzda idrok etilishi orqali namayon bo‘ladi, ya’ni biz o‘quvchining musiqiy bilim, ko‘nikma va malakalarini qay darajada rivojlanganligini o‘quvchining musiqa mazmuni, mohiyatini, xarakteri, kayfiyatini, musiqiy obrazni, voqeylikni, muallif g‘oyasini, kechinmalarini his etishi, saviyasi past va yuksak ijod namunasi bo‘lgan asarlarni farqlashi, baho berishi, munosabat bildira olishi, asarlarni tinglab tahlil qila olish, kabi ko‘plab fazilatlarni amalda namayon qilishlariga qarab bilishimiz mumkin. Bu fazilatlar esa umumiy tarzda o‘quvchining musiqiy idrokini muayyan darajasini belgilovchi sifatlarini tashkil etadi.


Xalq donishmandligining ko‘zgusi bo‘lgan o‘zbek xalq musiqa merosi o‘zining tarbiyaviy imkoniyatlari bilan boshqa san’at turlariga nisbatan alohida jozibadorlik va ta’sirchanlik kasb etadi. Xalqimiz o‘zining ijtimoiy, ma’naviy taraqqiyotining har bir bosqichida, uning turfa ko‘rinishlari, urf-odat va marosimlariga atab juda ko‘plab qo‘shiqlar namunalarini yaratishgan. Bu esa uzoq o‘tmishdan madaniy va ma’rifiy jihatdan o‘ziga xos an’anaga aylanib kelgan xalq hayotining turli qirralarini badiiy estetik ifodasi sifatida an’anaviylik asosida avloddan- avlodga o‘tib, kishilar tarbiyasiga bevosita yoki bilvosita kuchli, badiiy-emosional ta’sirini ko‘rsatib kelgan. Bizga ma’lum bo‘lishicha o‘zbek xalqining boy musiqa merosi xazinasida kata yoshdagi kishilar dunyoqarashi bilan kichik yoshdagi bolalar ma’naviy olamini o‘zida mujassamlashtirgan bolalar folklor qo‘shiqlari (aksariyat o‘yin bilan uzviy bog‘liq holda ijro etiluvchi) ham salmoqli o‘rin tutadi. Bunday qo‘shiqlar mazmunida bolalarning o‘ziga xos quvnoq, o‘yinqaroq, soda va beg‘ubor hayoti, dunyoqarashlari, bolalarbop o‘yinlar, aytishuvlar va muayyan voqelik bilan bog‘liq jarayonlarni ifoda etilishi bilan ajralib turadi. Bolalar folklor qo‘shiqlarini o‘rganish va tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ular ham xalq musiqasining ommaviy turlari singari badiiy va g‘oyaviy mazmunga ega bo‘lib, sodda shakli, ijro uslubi, nihoyatda ixcham, o‘yin-raqs xarakteriga egadir. Bunday qo‘shiq namunalari o‘zining bolalarning ruhiy, aqliy, badiiy tafakkuri, va dunyoqarashiga mos soddaligi, kuylashga oson va qulayligi, bolalar diqqatini o‘ziga tez jalb qila olish xususiyatlari bilan ulardan ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarda keng foydalanish uchun qulaylik to‘g‘diradi. SHuning uchun

ham maktabgacha ta’lim muassasalari hamda umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘quvchi-yoshlarda milliy musiqa san’atimizga qiziqish va ishtiyoq o‘yg‘otish, bolalar folklor qo‘shiqlarini o‘rganish, kuylash jarayonida ularning g‘oyaviy-badiiy mazmunini anglash, idrok etish, tasavvur etish bilan ularga o‘z munosabatini bildira olish, ya’ni tavsif berishga o‘rgatib borish, shu asosda bolalarda musiqa san’atining asta-sekinlik bilan jiddiy va murakkab turlari ham ijodiy, faol munosabatni shakllantirish mumkin. Bu esa bugungi kunda musiqa ta’limi va tarbiyasi uchun mas’ul tarbiyachilar, pedagoglar va to‘garaklar rahbarlari oldidagi eng muhim va axamiyatga mollik vazifalardan hisoblanadi.

Ma’lumki, umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida musiqiy-estetik tarbiyaning dastlabki asoslariga zamin yaratiladi. Bu bosqich ta’lim tizimining eng mas’uliyatli bo‘g‘ini hisoblanadi. Ayni shu bosqichda o‘quvchilar musiqa san’atining insonlar hayotidagi mavqei, ahamiyati, uning badiiy ifoda tili, janrlari, milliy xalq cholg‘ulari, xalq musiqa ijodidagi turli marosim, mavsum, urf-odat va an’analar bilan bog‘liq namunalari bilan yaqindan tanishib boradilar va ular haqida ilk nazariy ma’lumotlarga, bilim va tushunchalarga ega bo‘ladilar.

Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflari uchun chiqarilgan darsliklar va fan dasturiga ko‘plab xalq og‘zaki musiqa ijodiyotiga mansub qo‘shiq aytimlar bilan birgalikda bolalar folkloriga oid namunalar ham kiritilgan. Ta’limning ilk davrlaridan bolalarga bunday namunalarni o‘rgatish, ijro ettirish jarayonida ularga og‘zaki an’anadagi milliy folklor musiqasi, uning etakchi janrlari, tuzilishi va an’anaviy ijro uslublari haqida eng zarur tushunchalarni berish asosiy maqsad qilib qo‘yilganligini alohida ta’kidlash lozim.

O‘zbek folklorshunosligida qo‘shiqshunoslik alohida tarmoq bo‘lib, u uch yo‘nalishda qaror topgan: birinchisi – xalq qo‘shiqlarini yozib olish, to‘plash; ikkinchisi – kitobat etish, nashr qilish; uchinchisi – ilmiy-estetik jihatdan tahlil qilish. SHu mantiqdan qaralsa, o‘zbek xalq qo‘shiqlarini to‘plash va kitobat yoxud ayrim kitoblarga darch qilish olis tarixga ega. Bu tarix Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridan boshlangan. Bunga ham salkam 950 yil bo‘layapti. Rost, bu jarayon uzluksizlik kasb etmadi. Aniqrog‘i, ilmiy yo‘nalish tusiga kirmadi, stixiyali davom etdi. SHunga qaramay, Mahmud Qoshg‘ariy ilk bor 209 ta to‘rtlik, beshlik, oltilik, va boshqa shakllardagi turkiy, jumladan, o‘zbek xalq qo‘shiqlarining ichki shakllariga mansub ”qo‘shug‘”, “yig‘i-yo‘qlov”, “to‘rtlik”, “qarg‘oq”, “alqish”, “yir” kabi turlarini farqlab, ularni ifodalovchi ilmiy atamalarni takomilga kiritdi. SHuningdek, Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimatu-ul-adab” (“Adab debochasi”) kitobida



“qo‘shiq”, “qo‘shiqchi” istilohlarining lug‘aviy va istilohiy ma’nolarini izohlab, folklorshunoslik ilmining taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shdi. Alisher Navoiy ham “Mezon-ul avzon” asarida aruz nazariyasi haqidagi qarashlarini ifodalay turib, ”Budi budoy” qo‘shig‘i munosabati bilan aruzdan farq qiluvchi vazn ham

mavjudligini qayd etdi. Garchi u mazkur vazn nomini qayd etmagan esa-da, undan xalq qo‘shiqlarining vazni barmoq bo‘lgani ayonlashadi.

O‘zbek xalq qo‘shiqlaridan ayrim namunalarni yozib olib, vaznini belgilash sohasida Abulg‘oziy Bahodirxon, Qul Ubaydiy va Abdulqodir Savdolarning ham alohida xizmatlari mavjud. Abdulg‘oziy Bahodirxon “SHajarai tarokima” asarida xalq o‘rtasida keng yoyilgan Qo‘rqut otaning Salur Qazan Alpni maqtagan qo‘shig‘ini o‘z kitobida keltirib o‘tgan bo‘lsa Qul Ubaydiy xalq yor-yorlari vaznida o‘ndan ziyod qo‘shiqlar yozdi. Abdulqodir Savdo esa, “Muzhika” asarida ilk bor buxoroliklar irimlariga mansub o‘zbekcha aytimlarni keltirib, g‘oyaviy mazmunini izohladi. Professor O.Safarovning aniqlashicha, o‘zbek xalq qo‘shiqlarini turli maqsadlarda yozib olishda XIX asrning II yarmida rus orientalistlari er-xotin Nalivkinlar va N.Burzinskiy ayrim ishlarni amalga oshirganlar. CHunonchi, er-xotin Nalivkinlar ”Oq terakmi, ko‘k terak”, “YO ramazon”, N. Burzinskiy esa “Boychechak”, “YO ramazon”, “Barot keldi”, “Bodroq sotuvchi qo‘shig‘i”, “No‘xat sho‘rva sotuvchi qo‘shig‘i”ni yozib olganlar. Qolaversa, XX asrning 20-yillarida o‘zbek xalq qo‘shiqlaridan bir qator namunalarini etnografik maqsadlarda E.Peshcherova ham yozib olgan va o‘rgangani haqida professor O.Safarov ma’lumot keltiradi. XX asrning 20-yillarida o‘zbek xalq qo‘shiqlarini yozib olish va nashr etishda Elbek va G‘ulom Zafariylarning faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Ular Toshkent vohasidan yozib olgan qo‘shiqlari asosida “Ashulalar” to‘plamini tuzib, dastlab 1929 yilda, so‘ngra 1935 yilda bir qadar to‘ldirib chop etdilar. Atoqli folklorshunos Hodi Zarif ham o‘zi to‘plagan xalq qo‘shiqlarining bir qancha namunalarini ikki kitobdan iborat “O‘ebek folklori” xrestomatiyasining 1-jildida e’lon qildi.

SHuni ham aytish kerakki, xalq qo‘shiqlari turli joylarda turlicha ijro etiladi. CHunonchi, Farg‘ona vodiysidagi yor-yor ijrosi Buxorodagidan va o‘z navbatida, Xorazmdagi yor-yor bularning har ikkalasidan farq qiladi. Bu farq yor-yor ohangidagina emas, hatto naqarotida ham seziladi. Farg‘ona va Toshkent vohasida “yor-yor” naqaroti (radifi) ommaviyroqdir. Katta qo‘shiq deyilguvchi jo‘rsiz ijro etiladigan qo‘shiq, asosan, Farg‘ona vodiysi va Toshkent atroflarida uchrasa-da, O‘zbekistonning boshqa joylari uchun xos emas. Farg‘ona qo‘shiq ijrochiligida dutor va doira jo‘rligi nisbatan faol bo‘lsa, Buxoroda tanbur va doira, Xorazmda esa tor, garmon hamda doira shunday mavqega ega.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni mazmunida umumta’lim maktablarida musiqa ta’limi tarbiyasiga ijodkorlik bilan yondoshish zarurligi alohida ta’kidlanadi. Unda o‘z milliy madaniyatini to‘g‘ri

anglagan, xalqning o‘tmishi va bugunini teran his eta oladigan barkamol avlodni tarbiyalashda adabiyot va san’atning roli va ahamiyatiga yuqori baho berilgan.

Xalqimizning folklor kuy-qo‘shiqlari zamirida kishilarni mardlikka, halollik va poklikka, vatanni sevish, ardoqlash, ota- onani hurmat qilish, kattalarga hurmat, ko‘rsatish kabi ezgu ishlarga chorlovchi tuyg‘ular mujassamdir. Albatta bu kabi ijodiy va mas’uliyatli vazifalarni amalga oshirish uchun hozirgi vaqtda musiqa ta’limi amaliyotida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchi-murabbiylarning xalq musiqasi bo‘yicha bilim, saviyasi, nazariy va amaliy ijrochilik malakalari talab darajasida bo‘lmogi lozim. Zero, musiqa madaniyati darslarining mazmundor va sifatli kechishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, xalq musiqa ijodiga mansub namunalarni chuqur tahlil qila olish, ularni eng avvalo o‘zi badiiy jihatdan etuk tarzda ijro eta olishi va qiziqarli tarzda darslarni uyushtira olish kabi ko‘plab omillarga bog‘liqdir.

Umumta’lim maktablarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalq musiqa merosi, shu jumladan bolalar folklor qo‘shiqlari bilan izchil va zarur ma’lumotlar bilan birga tanishtirib borish eng birinchi galda musiqa o‘qituvchilaridan o‘z kasbiga fidoyilikni, xalqimizning milliy musiqa san’atiga chuqur muhabbat, izlanuvchanlik kabi yuksak pedagogik mahorat kabilarni talab qiladi. SHu o‘rinda o‘quvchilarga tegishli xalq qo‘shiqlarini kuylatish, musiqa asarlarini jamoaviy tinglash va tahlil qilish o‘z navbatida bir qator pedagogik va metodik vazifalarni ijobiy hal etilishiga ko‘p jihatdan bog‘liqligini ham ta’kidlab o‘tishni o‘rinli deb bildik. O‘zimizning kuzatuv va tahlillarimiz xulosalariga ko‘ra bir qator tavsiyalarimizni ilgari surishni lozim deb topdik.

1. Milliy musiqiy namunalar (qo‘shiq, ashula, bolalar folklori, mumtoz va dostonchilik qo‘shiqlari) bilan o‘quvchilarni izchil tanishtirib borishni ta’limning barcha bo‘g‘inlarida yo‘lga qo‘yish lozim. Bu borada pedagog kadrlar tayyorlovchi pedagogika oliy o‘quv yurtlarida bu masala jiddiy o‘rganib chiqilishi maqsadga muvofiq.

2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa san’atining an’anaviy (milliy) va zamonaviy yo‘nalishlari bo‘yicha badiiy havaskorlik tugaraklari ishini yaxshi yo‘lga qo‘yish va o‘quvchilarni imkon qadar ularga keng jalb qilish;

3. Pedagogika oliy o‘quv yurtlarining “musiqiy ta’lim” mutaxassisligi yo‘nalishida bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarini xalq musiqasi, an’anaviy mumtoz qo‘shiqchilik, folklor qo‘shiqlari bo‘yicha chuqur bilim va ijrochilik malakalarini egallashlari uchun maxsus kurslar, tanlov fanlari, tugaraklar, qo‘shimcha mutaxassislik fanlarini tashkil qilish va yo‘lga qo‘yish;

4. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari va pedagogika oliy o‘quv yurtlari, hamda ko‘plab maktablarda faoliyat yuritayotgan musuqa o‘qituvchilarining

san’at kollejlari, pedagogik oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari ekanligini hisobga olgan holda ularni qayta tayyorlash va maktab musiqa ta’limi bo‘yicha malaka oshirishlarini yo‘lga qo‘yish lozim. Bunda ularni xalq musiqasi shu jumladan bolalar folklori bo‘yicha kerakli nazariy va amaliy ijrochilik faoliyatiga tayyorlash lozim. O‘qitiladigan kurslarda folklor san’atining ijrochilik an’analari, turli hududlardagi o‘ziga xoslik xususiyatlari, ularning qanday holatda, kimlar tomonidan ijro etilishi, kerak bo‘lsa mashxur ijrochilari va hozirda faoliyat yuritayotgan taniqli folklor tomoshalari (bunday jamoalar hozirgi kunda deyarli barcha viloyarlarda mavjud) ijrolarini video yozuvlarda ko‘rsatish, suhbat, ma’ruzalar, ma’ruza- konsertlar, ayrim aytimlar, namunalarni tinglash, tahlil qilish, savo- javoblar, munozaralar, ko‘rik- tanlovlar o‘tkazib turish o‘ylaymizki bu borada o‘zining ijobiy samarasini beradi.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoev Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.Toshkent “O’zbekiston” – 2017y.

2. O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida .O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1-ilova: “2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi”. Xalq so’zi gazetasi. 2017 yil 8 fevral soni va Internet resurs: www.lex.uz.

3. Mirzaev T. O‘zbek folklorida lapar. – O‘TA, 1998, 4-son. Navro‘z// Qo‘shiqlar, afsonalar, odatlar, irimlar, Tuzuvchilar: T.Mirzaev, M.Jo‘raev –T.: “Fan”

4.Toshmatov O‘.Folklor qo‘shiqlari.T:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.-B.6.

5. Safarov O.O‘zbek bolalar folklori.T:”O‘qituvchi” 1985.-B.5.

6. Musaqulov A. Terma kitobda: “O‘zbek folklori ocherklari”, 1-tom. –T.: “Fan”, 262-272-b. yana: O‘zbek xalq lirikasi. –T.: “Fan”, 1995; O‘zbek xalq lirikasining tarixiy asoslari va badiiyati. DDA. –T.: 1995; Ostonasi tillodan // To‘y qo‘shiqlari (Tuzuvchilar M.Mirzaev, A.Musaqulov) – T.: “Fan”, 1998.

7. Rajabov T. Educational importance of folk songs in primary education //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – T. 1. – №. 01. – C. 72-79.

8. Раджабов Т.И., Орипов Н.О. Обучение фольклорным песням бухарских детей в системе непрерывного образования как долзарбская методологическая проблема // Европейский журнал инноваций в неформальном образовании. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 409-412.

9. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O’zbek Xalq Musiqa Merosda O’quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi //Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145.

10. Ражабов Т. И. Усовершенствование научно-методических возможностей обучения бухарским детским фольклорным песням в средней общеобразовательной школе //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-2 (77). – С. 84-86.

11. Раджабов Т.И., Рутамова М.Ф. Формирование духовно-нравственных качеств учащихся через народные песни в системе непрерывного образования – актуальная педагогическая проблема // Европейский журнал инноваций в неформальном образовании. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 404-408.

12. Ражабов Т. И. Ўқувчи-ёшларга ўзбек миллий мусиқа фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1094-1103.

13. Ражабов Т. И. Халқ қўшиқлари орқали ўқувчи-ёшларда миллий тафаккурни шакллантириш омили //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 364-368.

14. Раджабов Т.И., Раджабов Д.И. Формирование духовно-нравственных качеств учащихся через народные песни – актуальная педагогическая проблема // европейский журнал инноваций в неформальном образовании. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 331-335.

15. Rajabov T. I. The role of bukhara folklore songs in youth education in the system of continuous education //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 884-889.

16. Ибодович Р.Т. Эстетическое воспитание школьников через национальные ценности (на примере бухарского детского фольклора) //Европейский журнал исследований и размышлений в области педагогических наук. – 2020. – Т. 8. – С. 237-240.

17. Тўхтасин Р. И. Ўзбек халқ қўшиқлари ва ижролари ҳақида //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – №. Special issue. – С. 64-71.

18. Ибодович Р.Т. Воспитательное значение детских народных песен на занятиях музыкальной культуры //Европейский научный журнал. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 139-141.

19. Исаев С. и соавт. Влияние применения удобрений на урожайность хлопчатника сорта Бухара-102 на засоленных хлопковых полях Узбекистана //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – Т. 258. – С. 03015.

20. Rajabov T. I. O ‘kuvchi-yoshlarga o ‘zbek milliy musiqa folklori namunalari vositasida estetik tarbiya berish //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1094-1103.

21. Isaev S., Rajabov T., Dolidudko A. Influence of inorganic fertilizers on cotton crop yield in saline soils //Bulletin of Science and Practice. – 2018.

22. Rajabov T. I. ticheskaya klassifikatsiya uzbekskoy detskoy narodnoy muzыki i igr //Nauka, obrazovanie i kultura. – 2020. – Т. 3. – С. 47.

23. Rajabov T. I., Ibodov U. R. Obespechenie natsionalnogo naslediya v obuchenii pesnyam buxarskogo detskogo folklora na urokax muzыki //Vestnik nauki i obrazovaniya. – 2020. – С. 21-2.

24. Ражабов Т. И. Мактабда мусиқа таълимида фольклор қўшиқларининг ўрни //Тошкент давлат педагогика университети. Илмий-назарий ва методик журнал. Тошкент. – 2016. – С. 122-126.

25. Ibodovich T. R. Practical situation of teaching uzbek musical folklore in the continuous education system //International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI. – Т. 10. – С. 708-716.

РЕЗЮМЕ

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ruhiy-hissiy ta’sir etishning asosiy vositalaridan biri folklor qo‘shiqlarini o‘rgatishning ahamiyati xususida fikr yuritiladi. Folklor qo‘shiqlarini tinglash orqali o‘quvchilarda musiqiy tasavvurlar shakllanishida psixologik omillarning ahamiyati ajdodlarimizning o‘lmas asarlarida ta’kidlangan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается значение обучения фольклорным песням как одному из основных средств психолого-эмоционального воздействия на учащихся начальной школы. В бессмертных произведениях наших предков подчеркивается значение психологических факторов в формировании музыкальных представлений у учащихся при прослушивании фольклорных песен.

SUMMARY

The article discusses the importance of teaching folklore songs as one of the main means of psychological and emotional impact on elementary school students. In the immortal works of our ancestors, the importance of psychological factors in the formation of musical ideas in students when listening to folk songs is emphasized.

ВОЗМОЖНОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОМУ МУЗЫКАЛЬНОМУ ФОЛЬКЛОРУ

Ражабов Т. И.
доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент кафедры музыкального исполнения и культуры, Бухарского государственного университета

Tayanch sozlar: o‘zbek musiqa folklori xalq qo‘shiqlari bayramlar laparlar an’analar.
Ключевые слова: узбекский музыкальный фольклор, народные песни, лапар, обряды, праздники, обычаи и традиции.
Key words: uzbek musical folklore, folk songs, lapar, rituals, holidays, customs and traditions.

Воспитание подрастающего поколения как всесторонне зрелого, духовно высокого, совершенного человека в духе этих ценностей стало одной из важнейших задач, стоящих перед педагогической наукой в нашей стране с повышенным вниманием к духовному наследию, национальным и общечеловеческим ценностям. Согласно народным песням музыкального наследия и жизни его зрелых проявлений, творческой деятельности, преподавание народных песен в общеобразовательных школах приобретает важное значение для повышения эффективности.

Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиеев призывает «Мобилизовать все силы и возможности нашего государства и общества для того, чтобы наша молодежь, обладая независимым мышлением, высоким интеллектуальным и духовным потенциалом, могла развиваться, становиться счастливыми людьми, не уступающими своим сверстникам ни в какой сфере». Особое место в формировании у молодежи самостоятельного мышления, высокого интеллектуального и духовного потенциала занимают традиции, бесценные ценности и культура наших предков, духовно-нравственные качества, национально-музыкальное наследие, в частности, народные песни.

С появлением человеческого общества у тюркских народов, как и у других народов, в древности сложилась вера в многобожие, анимистический и тотемистический образ мышления, ставший основой воспитания,

коллективной реализации. В основе веры первобытных людей в мифологические понятия, (феи, гиганты, демоны, призраки, сатанинские и милосердные духи), а также мотивов стремления к подчинению на основе божественной силы явлений природы, не зависящих от человеческого разума и мышления, лежат такие общечеловеческие духовно-нравственные ценности, как трудолюбие, человечность, солидарность.

В непосредственной связи с развитием общества, развитием человеческого сознания учебно-воспитательный процесс совершенствовался, приобретая непрерывный, непрерывно-исторический характер.

Исторические источники свидетельствуют о том, что в эпоху палеолита (около 40-41 тыс. лет до н. э.) в северной части Земли проводились тотемические «медвежьи праздники», позднее - «трудовые игры», «праздники органиста», обряды «перехода в мужественность», такие праздники, как «вялая жена», «чай Момо», «Курбан-байрам», сопровождавшиеся радостями, проводился как символ добра, сытости, достатка.

С изменением социального, духовного и культурного уклада жизни народа народные песни обогатились и по форме, и по содержанию, стали средством воспитания, выражающим его культурный образ жизни, стремления к мечте.

Далее следуют праздники «Навруз», «Мехрджан», «Цветы», игры «Красный цветок», «Дарвишана» «Опастность», «Ийд аль-фитр» (малый ИЙД или Ийд аль-Кабр), «Ийд аль-Кабр» к народным традициям также были добавлены национальные обычаи и ценности, такие как (большой ийд или Курбан-байрам). Естественная сила влияния каждого праздника, обряда подкрепляется традициями, образами, которые служат для раскрытия содержания этой традиции.

Древними образцами узбекских народных песен являются песни о труде и о времени года. практическая деятельность певцов напрямую связана с охотой, скотоводством, земледелием, ремеслами, и они жили на основе древних обычаев, обрядов и верований трудящихся. Большинство примеров сезонных ритуальных песен связаны с весенним сезоном и ритуалами в нем. Главный сезонный обряд весны - это Навруз. Проведение праздника Навруз решается на протяжении многих веков. Исторические источники сообщают, что в далеком прошлом праздник Навруз широко отмечался во времена Сасанидов (XI–VI века). Свидетельством этих взглядов являются песни основоположника системы Восточной классической музыки Борбада Марвази, посвященные празднику цветов, весны, красок, Навруза. Детское творчество заслуживает внимания на церемониях по

случаю праздника Навруз. Дети посещали церемонии вместе со взрослыми. Поэтому сочинение игр – песен, подходящих для детской натуры, таких как «Ромашка», «Пришел аист», «Белый тополь – голубой тополь». Стоит также сказать, что эти ритуалы были сценическими и исполнялись коллективом.

С годами эти ритуалы хоть и утратили свои позиции, но приобрели определенное значение в развитии общественной художественной мысли. Трудовые песни с сезонными обрядовыми песнями очень близки друг к другу, можно увидеть, что весна – это время, когда в землю вступает действие, то есть когда начинается трудовой процесс крестьянства. Начало этих родов показано в ритуале «Рога». Деревенские жители собираются и выводят в поле пару лучших волов деревни с ярмом плуга. Благие намерения заключались в том, чтобы в наступающем году быть добрым, щедрым, чтобы женщины пекли различные пирожные, смазывали бычьи рога маслом от испеченных пирожных и благословляли место, где он коснулся ногами.

Есть несколько народных песен, написанных для детей или в которых содержание песни адресовано детям. «Алла», «Кукла», «Белый тополь, голубой тополь», «Дождик», «Фиалка», «Наш сад» и другие.

- Особое место в устном народном творчестве Узбекистана занимают эпосы. В содержание былин входят былины о тех, кто прожил тяжелую жизнь в прошлом, боролся против ханов и беков, почитал народных героев, защищал Родину, отстаивал интересы народа. К ним относятся «Сын гор», «Алпомиш», «Шахсанам», «Орзигул», «Сладкое и сахар», «Лайли и Меджнун», «Фархад и Ширин». Из музыкальных инструментов особое место в придании ещё большей привлекательности и полировки содержанию былин занимают струнные, духовые и барабанные.

-Есть в народе и песни о угнетении. Это «Угнетение от Хана», «Мучение от Хана», «Николай кровавый палач», «Уходил твой поезд», «Тысяча проклятий» и другие народные песни. Народные обычаи и традиции так же долговечны, как и сам наш народ, пример доброй души прекрасен. В каждом краю нашей страны есть свои обряды, семейно–бытовые и трудовые традиции, успокаивающая песня «Алла», исходящие из источника любви наших матерей. Изучение многовековых ценностей обрядов народа, крылатых мечтаний, ставших зеркалом духовности, древних обычаев и традиций, совершенствовавшихся в результате многовековой творческой деятельности фольклорных исполнителей, позволит глубже понять суть наших национальных ценностей.

Песни о труде связаны с различными трудовыми процессами. Например, при молотьбе пели песни «Хоп майда», «курей-курей», «чурей-чурей», при доении коров, овец, коз и кормлении телят, ягнят, козлов. Было создано огромное количество образцов народных песен, связанных с образом жизни человека, различными тайнами, обычаями, сезонными делами, ритуалами и праздниками .

Украшение стола, приготовление сумаляка, халисы, очистка каналов, посадка первого саженца, поминовение усопших, оказание милости родителям и пожилым людям, инвалидам, посещение, обмен сладостями, дарение друг другу подарков, зажигание факелов, походы к ручьям, традиции, связанные с праздником Навруз, такие обычаи стали обычным явлением. Также в праздник Навруз готовят напиток семи видов (пшеницы, ячменя, гороха, овса, риса, маша, фасоли), которые делятся с соседями. Все эти привычки имеют символическое значение. Народ через эти обряды указывает на обилие дождей в новом году (если осадков много, урожай будет обильным, а корма для скота-обильными); наличие мира, процветания, доброты между людьми, гуманной стабилизации.

По случаю народных праздников проводились выборы художественно-эстетического характера. На сейлах внутреннее чувство народа, черты характера, выражающие его личность, выражались на основе словесных сценариев, живого общения. По случаю каждого праздника или церемонии сейл проводились красочно по содержанию с песнями, ялами и т. д., соответствующими форме этого праздника.

В прошлом сейл проводился на площадях Регистан в городах, на больших площадях за городом и на холмах, а также на площадях, которые длились от недели до одного, а иногда и до двух месяцев. Молодые и старые, женщины, дети, весь народ специально готовились к празднику, шили новую одежду, стирали и залатывали старую, подметали дворы и улицы, готовили вкусные блюда, сладости.

Ремесленники вывозили из прилавков произведения прикладного искусства для продажи, крестьяне-фрукты, деликатесы, торговцы-редкие товары. На стойбищах ставили палатки с порядком в зависимости от звания и происхождения. Люди торговали, развлекались, смотрели. На праздниках проводились скачки, организованные государственными и народными старейшинами, состязания борцов, наездников, праздники искусств, выступления музыканта, хафиза, танцора, клоуна, повязки на глаза, привратников, медведя, козы, обезьяны, змеи, петуха, барана, верблюда. На празд-

никах и сейлах также показывали кукольные игры, сделанные из разных предметов.

Непосредственное участие инструменталистов и певцов во всех проводимых праздниках и сейлах внесло в эти мероприятия воодушевляющий дух и торжественность. В частности, народные песни и народные танцы, исполняемые в большом количестве, сыграли важную роль в том, чтобы люди могли свободно дышать и петь.

В народных песнях жизнь отражается через художественные символы, и благодаря этому в душе человека возникают эстетические чувства, волнения, приподнятое настроение, сострадание, счастье, радость, печаль, тоска, ненависть. Вот почему к народным песням одинаково относятся люди всех возрастов.

С того дня, как ребенок только появился на свет, он слышит материнскую славу, милую Аллу. Эта песня, созданная специально для детей, проникает в сознание человека с грудным молоком. Позже он становится все шире, красочные тона, разнообразные символы дополняются словами.

Создана целая система детских песен, состоящая из восклицаний-аплодисментов, щекотки, ласки, осуждения, отвлечения, прикосновений, насмешек, связанных с рождением ребенка, периодом колыбели ребенка, взрослением, физическим и речевым совершенством, молодостью и обрезанием, страстями взросления.

Песня Аллы вышла на арену как средство формирования в личности ребенка самых ранних зародышей чувства любви к нации, родине, народу. С помощью Аллы ребенок приучается к чтению национального языка и национальной музыке, в ней укореняется национальный дух. По мере взросления ребенка развивается и уровень его духовного мышления, благодаря народным театрам различных форм и содержания обостряется ум, растет речь, расширяется кругозор, возрастает его духовная потребность и интерес.

Колыбельная матери имеет универсальную ценность. Алла — это распространенный традиционный жанр колыбельных. В мире нет народа, нации, на языке которых бы не пела Алла... Такие песни, называемые у русских «байки» или «баюшки», известны у туркмен под названием «хувдили», у татар» «элли-белли», у каракалпаков «хейя-хейя», у турок «нинни», у персов «лоло», у узбеков и таджиков «Алла». Алла-святая песня, в чем-то благожелательная, но в чем-то грустная, посвященная любви мировых матерей.

Алишер Навои называет произношение «Алла» «Мелодией»;

Кўзининг нози элдан элтиб уйқу,
Анга уйқу кетурмакка навогў .

То есть алла намекает, что именно магическая сила заставляет детей засыпать. Абу Али ибн Сина, указывая на важность ученых в воспитании детей, обращает наше внимание в этом вопросе не только на физический, но и на психический фактор; «чтобы укрепить духовно-физическое развитие ребенка, необходимо применить к нему две вещи. Одина - это музыка и Алла, которые имеют привычку медленно трясти ребенка, а другой-усыплять его. В зависимости от количества принятия этих двух у ребенка разовьется талант к физическому воспитанию своим телом и талант к музыке своим духом» .

Великий Хаким советует, чтобы говорящая мать Алла была свободна от негативных мнений, таких как гнев, грусть, паника, когда она играет мелодию. Так что алла вызывает чувства привязанности и в сердце мамы, которая её поёт.

Kuch qobiliyatlarini tarbiyalash uslublariga quyidagilar kiradi:o‘rtacha 1) og‘irlikdagi yuklamalar bilan mashqni qayta bajarish uslubi(xususan, kuch qobiliyatlari va kuch chidamkorligini tarbiyalash va takomillashtirish uchun zarur qayta kuch uslubi); 2) unchalik katta bo‘lmagan yuklama bilan mashqlarini qayta bajarish uslubi, biroq tezlik maksimal qiymatda (bola yoshida, xususan, kuch qobiliyatlarini tarbiyalashning dinamik kuch uslubi, o‘z navbatida, bu tennischilarda kuch tayyorgarligining yetakchi yo‘nalishi bo‘lib qoladi). Izometrik kuch uslubi

Kuchni qayta ishlatish uslubi yuklamalar bilan 2 – 3 marta, gohida undan ortiq mashqlar seriyasini o‘z ichiga oladi, yuklamaning hajmi har bir mashqda maksimal mumkin bo‘lgan mashqning 60 – 80 % qismini tashkil etadi. Qayta bajarilishlar soni 10 – 12 tadan oshmasligi kerak [4]. Ohirgi qaytarilishlar – kuchni tarbiyalash uchun yanada, samaraliroq. Ushbu uslub yordamida, nafaqat ayrim mushaklarda kuchning ortishiga, balki kuchga chidamkorlikni tarbiyalashga ham ta’sir o‘tkazish mumkin.

Maksimal kuchlar uslubi jismonan yaxshi tayyorlangan 17-18 yoshli tennischilarda qo‘llanishi mumkin. Mashqlarda 1–2 ta qayta bajarishga imkon beradigan yuklamalar tanlanadi. Ishning umumiy hajmi katta qaytarishlar soni evaziga erishiladi. Seriyalar soni 5 tadan 10 tagacha, mashqlar orasidagi tanaffus

2 – 3 daqiqa. Ushbu uslub doirasida yuklamalarni variyasiyalash mumkin: 2 – 3 chiqish – asosiy vaznga, 1–2 chiqishlar – kamaytirilgan vaznga. Izometrik kuch uslubimaksimal kuch qobiliyatlarini tarbiyalashda va ushlab turishda qo‘llanishi mumkin. Izometrik mashg‘ulot maksimal kuchlanish momentini yengish imkoniyatini beradi [5]. Masalan, “zarba momenti” hajmini uzaytiradi. Buning uchun xarakteri bo‘yicha tennisga yaqin mashqlarni tanlash lozim. Bir mashqda bajariladigan mashqlar soni 6–8 ta bo‘lishi va har biri, 2 – 3 martadan qaytarilishi lozim.

Izometrik kuchlanish momenti maksimal qiymatiga 5 – 6 soniyada yetishi kerak bo‘ladi. Ayniqsa, F.Agashin ishlab chiqgan “ikkilamchi zarbalar” uslubini ham qo‘llash maqsadga muvofiq. Mashqlar kompleksini qayta qo‘llash yoki dastlabki holatni o‘zgartirishni 4 – 6 haftasidan so‘ng amalga oshirsa bo‘ladi.

Barcha zarba harakatlarni, harakatlanish va sakrashlarni bajarish uchun tennischilarga, nafaqat kuch qobiliyatlari, balki tezkor – kuch qobiliyatlari ham zarur. Xususan, kuch qobiliyatlari tezkor – kuch qobiliyatlarini tarbiyalashga asos bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Ландсдорп Р, Форхенд Ландсдорпа. Хватка // Пер. с англ. К.Мужецкая. – Томск: СТЦ, 2004. – 117-118 с.

2. Фокс А. Победные матчи: тактика //Пер. с англ. К.Мужецкая. – Томск: СТЦ, 07.11.2003. 19-с.

3. Зациорский В.М. Физические качества спортсмена: основы теории и методики воспитания. – М.: Советский спорт, 2009. 200--b.

4. Голенко В.А., СкородумоваА.П., Тарпищев Ш.А. Школа тенниса. – М.: “Дедалус”, 2001. 65-с.

5. Безверхов В.П., Акрамов Ж.А. Теннис. Программа и учебное пособие для ДЮСШ. – Т.: Лидер Пресс, 2007. 151-с.

РЕЗЮМЕ

Maqolada yosh tennischilarning mashg‘ulot jarayonlarida jismoniy sifatlarni tarbiyalash va tayyorgarlik vositalarini to‘g‘ri tanlsh, shu bilan bir qatorda kuch qobiliyatlarini rivojlantirish va takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Turli yoshdagi tennis bilan shug‘ullanuvchilar uchun kuch qobiliyatini rivojlantirishga ko‘maklashuvchi mashqlar beriladi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются вопросы физической культуры и подготовки младших теннисистов в тренировочном процессе, а также развития и совершенствования их силовых способностей. Теннисисты разных возрастов пройдут тренинг, чтобы помочь им развить свои навыки.

SUMMARY

The article deals with the issues of physical training and preparation of younger tennis players in the training process, as well as the development and improvement of their power capabilities. Tennis players of different ages will be given training to help them develop their skills.

JISMONIY MADANIYATNING TASHKIL ETISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Zokirov D.
O'zDJTSUFF o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: pedagogik texnologiyalar, o'yin uslubi, mashqlar, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari.

Ключевые слова: педагогические технологии, методика игры, упражнения, физкультминутки.

Key words: pedagogical technologies, methods of play, exercises, physical training minutes.

Ma'lumki, darsda ishtirok etayotgan talabalarning hammasi bir xil qobiliyat yoki jismoniy rivojlanishga ega emasligini shu o'rinda yana bir bor yodga olib o'tamiz. Chunki ishlab chiqmoqchi bo'lgan tavsiyalar, metodik ko'rsatmalar va yangiliklar aynan shunga bog'liq.

O'qituvchi faoliyati talabalarga bilim berish hamda bilimlarning egallanish jarayoni harakat malakalari va ko'nikmalarining shakllanishi boshqarib turishga qaratilgan. Shu ma'noda o'qitishning har bir shakli o'qituvchining o'qitish jarayonidagi yetakchilik qilish ahamiyati tamoyilini amalga oshiradi.

O'qituvchining yetakchilik ahamiyatini tahlil qilishni ketma-ket, uning o'qitish jarayonidagi harakatlarini quyidagi bloklar bo'yicha ko'rib chiqish orqali bajarish mumkin:

- o'qitish maqsadini aniqlash;
- o'qitishning xususiy vazifalari tizimini aniqlash;
- o'quvchilar tayyorgarligining boshlang'ich darajasini aniqlash, ya'ni ularning qobiliyatlariga, o'zlashtira olish imkoniyatlariga qarab guruhlarga ajratish;
- o'qitish mezonlarini aniqlash;
- o'zlashtirishni baholash uslublarini aniqlash;
- zarur jihozlarni tayyorlash (ko'rgazmali qurollar)
- o'qitish qo'llanmasi va inventarlarni tayyorlash;
- o'qitishni butunligicha va elementlari bo'yicha baholash;
- o'qitishga zarur bo'lgan hollarda tuzatishlar kiritish.

Harakatlarga maqsadli o‘rgatish o‘qituvchidan o‘qitish uslublari tavsiflarini bilishni talab etadi. Hamma uslublar shartli ravishda uchta asosiy guruhga bo‘linadi: so‘zdan foydalanish (so‘z uslublari, ko‘rgazmali qabul qilish uslublari va amaliy uslublar).

O‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan so‘zdan foydalanish uslublari butun o‘quv jarayonini faollashtiradi, harakatlanishlar to‘g’risida yanada to‘liq hamda aniq tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi. Ushbu uslublar orqali o‘qituvchi o‘quv mashg’ulotining o‘zlashtirishini tahlil qiladi va baholaydi.

Ko‘rgazmali qabul qilish uslublari o‘rganilayotgan harakatlarning ko‘z bilan ko‘rish va eshitish orqali qabul qilinishini ta’minlaydi.

Ko‘rgazmali qabul qilish harakatlari yanada tez, chuqur va mustahkam egallab olishga yordam beradi, o‘rganilayotgan harakatlarga qiziqish uyg’otadi.

Ko‘rgazmali o‘rgatish alohida yoki guruhli tarzda o‘tkazilishi mumkin. Butun bir sinfga guruhli bir vaqtning o‘zida ko‘rgazmali o‘rgatish va alohida ya’ni o‘zlashtira olish qobiliyati sust o‘quvchilarga individual ko‘rgazmali o‘rgatish.

Amaliy uslublar o‘quvchilarning faol harakat faoliyatiga bog’liq. Ularni shartli ravishda ikkita guruhga bo‘lamiz: qat’iy va qisman tartiblashtirilgan mashqlar uslublari, harakat shakllari, yuklama o‘lchamlari, uning o‘sib borishi, dam olish bilan almashlab turilishi va boshqalarni qat’iy tartiblashtirilgan holda harakatlarni ko‘p marta takrorlash bilan tavsiflanadi. Buning natijasida kerakli o‘quv ko‘nikma va malakalar asta-sekin shakllanib, alohida harakatlarni tanlab o‘zlashtirish imkoniyati tug’iladi.

Guruhlarga bo‘lib o’rganish uslubi dastlab harakatning alohida qismlarini o‘rganishni, keyinchalik esa kerakli darajada butun holiga birlashtirishni nazarda tutadi.

Butunligicha, o‘rganish uslubi o‘qitishning yakuniy maqsadiga qarab, harakat qanday ko‘rinishda bo‘lsa, uni shundayligicha o‘rganishni ko‘zda tutadi. qisman tartiblashtirilgan mashqlar uslubi o‘quvchilar oldiga qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun harakatlarni nisbatan erkin tanlashga ruxsat beradi. O‘yin uslubi harakatlarning qat’iy tartiblashtirilishi, ularni bajarishdagi mumkin bo‘lgan shartlarning yo‘qligi bilan tavsiflanadi; ijodiy qobiliyatlarni mustaqil namoyon qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, mashg’ulotlarning ko‘tarinki ruhda o‘tishini ta’minlaydi.

Musobaqa (bellashuv) uslubi maxsus tashkil qilingan bellashuv, bahs-munozara faoliyatini nazarda tutadi. O‘zaro bunday bellashuvni tashkil etish quyidagicha tavsiflanadi, ya’ni tez o‘zlashtira oladigan o‘quvchilar bir guruh. Bellashuvga tez o‘zlashtiradigan o’quvchilar jamoasi bilan o‘rta

oʻzlashtiradigan oʻquvchilar jamoasini qoʻyamiz. Past oʻzlashtiradigan oʻquvchilar jamoasi kuzatuvchi guruh. Bu guruh bellashuvdagi ikki guruhning oʻyin uslublarini, jismoniy harakatlarini, taktika, texnik tomonlarini, sport mahoratlarini kuzatadilar. Bu kuzatish orqali oʻzlarining malaka va koʻnikma, mashgʼulotga nisbatan ruhiy tayyogarlik tomonlarini tarbiyalab oladilar. Deylik bellashuvda oʻrta oʻzlashtiradigan oʻquvchilar jamoasi gʼolib chiqdi. Ana endi past oʻzlashtiradigan oʻquvchilar guruhi bilan oʻrta oʻzlashtiradigan oʻquvchilar guruhini bellashuvga qoʻyamiz. Bu yerda tez oʻzlashtira oladigan oʻquvchilar guruhi oʻqituvi bilan birgalikda tuzatuvchi (jamoa) guruh hisoblanadi va aksincha deylik tez oʻzlashtira oladigan oʻquvchilar guruhi gʼolib chiqdi. Bunday holatda oʻrta va past oʻzlashtiradigan guruhlarni 50% ga 50% ikkiga boʻlib maxsus oʻrgatuvchi va oʻrganuvchi guruh sifatida bellashuvga qoʻyamiz. Shu tariqa past oʻzlashtiradigan oʻquvchilar guruhida oʻquv koʻnikma va malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirib boramiz.

Guruhlarga boʻlib oʻrgatish bosqichining asosiy vazifasi harakat malakasini shakllantirish hamda uni koʻnikmaga oʻtgunga qadar takomillashtirishdan iborat. Bu bosqichda alohida mashgʼulot shakllarining vaqt, makon va kuch tavsiflari aniqlanadi. Agar oldingi bosqichda harakat malakasini shakllantirish uchun zarur boʻlgan shart - sharoitlar yaratilgan boʻlsa, ikkinchi bosqichda uning hosil boʻlishi yuzaga keladi. Oldinga qoʻyilgan maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- oʻrganayotgan mashq texnikasini egallash va qismlarini aniqlab olish;
- oʻrganayotgan harakatlarning qonuniyatlarini tushunishni chuqurlashtirish;
- bajarilishi zarur boʻlgan amallarning ketma-ketligini batafsil gapirib turish bilan oʻrganilayotgan harakatlarni bajarish;
- oʻquv mashgʼulot bellashuvlaridagi oʻrganilayotgan mashq elementlarini aniq erkin va butunligicha bajarilishiga erishish.

Yana bir tavsiya. Deyaylik, jismoniy tarbiya darsimizda milliy va haraktli oʻyinlarni tashkil qilmoqchimiz. Bu maqsadimizni amalga oshirish uchun quyidagilarni nazarda tutish lozim:

- talabalarning jismoniy barkamolligiga, salomatligining yaxshilanishiga, chiniqishiga tana aʼzolari va umumiy ish qobiliyatining oʻsishiga yordam berish;
- oʻquvchi- talabalarda hayotiy faoliyatda yordam beradigan aqliy va irodaviy fazilatlarni tarkib toptirish;
- oʻquvchi yoshlarni turli oʼyinlar va jismoniy mashqlarga qiziqtirish, sogʼlom turmush kun tartibiga rioya qilishga odatlantirish;

– talabalarda harakatli va milliy o‘yinlarni mustaqil holda tashkil etish va o‘tkazish uchun zarur o‘quv ko‘nikma va malakalarni hosil qilish.

Yana bir muhim tomoni milliy va harakatli o‘yinlarni o‘tazishda talabaning tashkilotchi va tarbiyachi sifatidagi vazifasi juda mas’uliyatlidir. Milliy va harakatli o‘yinlar avvalambor to‘g’ri tanlanishi, o‘quvchi – talabalarda o‘z sheriklariga, raqiblariga o‘rtoqlarcha yordam, jamoatchilik, vatanparvarlik hislarini ijtimoiy–foydali mehnatda tashkil qilinishini va o‘tkazilishi kerak.

O‘qituvchi-murabbiy mashg’ulotni o‘tkazish jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan, pedagogikaning didaktikasi va uning tamoyillaridan foydalana olishi va doimo ularni amalga oshirishga erishishi lozim. O‘qituvchi mashg‘ulot oldidan o‘quvchilarga har bir o‘yinning mazmuni, vazifasi va qoidalarini tushuntirib berishi shart. Bu esa o‘quvchilarda o‘yinga ongli munoasabatda bo‘lishni, uni to‘g’ri o’rganib olishni, o‘z xatolari va yutuqlarini to‘g’ri tushunish hamda harakatlarni o‘rtoqlarinikiga qiyoslab tahlil qilish imkonini beradi. Bo‘lishi mumkin qaysidir o‘quvchida mashg’ulotga nisbatan qiziqish bo‘lmaydi-da, mashqni xuddi bir o‘qituvchi topshirig’ini bajarayotganday bajaradi. Bunday holat unchalik samara bermaydi. Xuddi mana shunday holat yuz berganda o‘quvchini alohida chaqirib amaliy ko‘mak berish, uning mashg’ulotga bo‘lgan qiziqishini orttirish zarur.

Adabiyotlar:

1. Usmonxujaev T., Tursunov O‘. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti T., “O‘qituvchi” 2004

2. Usmonxujaev.T., va boshq. Bolalar va o‘smirlar sport mashg’ulotlari nazariyasi va uslubiyoti T., Ilm Ziyo 2006

3.Yarashov.K.D. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. T., Abu Ali Ibn Sino nomidagi Tibbiyot nashriyoti. 2002

4.www.ziyonet.uz

РЕЗЮМЕ

Maqolada o‘qituvchi faoliyatida talabalarga bilim berish hamda bilimlarning egallanish jarayoni harakat malakalari va ko‘nikmalarining shakllanishi boshqarib turishga qaratilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье основное внимание уделяется предоставлению знаний учащимся и управлению формированием двигательных умений и навыков в деятельности учителя.

SUMMARY

The article focuses on providing knowledge to students and managing the formation of motor skills in the teacher’s activity.

JISMONIY TAYYORGARLIKLARINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY TARAQQIYOTI

Majidov R.
O‘zDJTSUFF o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: jismoniy tarbiya, sport, saralash, jismoniy tayyorgarlik, mashg‘ulot, texnologiya, metodika, yuklama.

Ключевые слова: физическая культура, спорт, квалификация, селекция, физическая подготовка, технология, методика, нагрузка.

Key words: physical culture, sport, qualification, selection, physical training, technology, method, load.

Bugungi kunda yuqori natijalar sporti umuman millatga xos irsiy qobiliyati, jamiyatning darajasi hamda ijtimoiy tuzilishini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Jismoniy tayyorgarlik texnalogiyalarini har tomonlama takomillashtirish yo‘llari to‘g‘risidagi ilmiy qarashlarning yangi tizimini yaratish va amalga oshirish hisobiga yuqori malakali sportchilarni tayyorlash nazariyasi hamda usuliyatini yangilash lozim.

Hozirgi zamonda sport yutuqlariga erishishning sharti yuqori malakali sportchilar tayyorlashni yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishdan iborat. Mamlakatimizning terma jamoalariga nomzodlar qatorini yosh iqtidorli sportchilar zaxirasi bilan to‘ldirib borish kerak. Yaqin zaxiradagi sportchilarni aniqlash chog‘ida, sportchining kelgusi sport natijalari, yoshlararo xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatli qatnashish ko‘rsatkichlariga e’tibor beriladi. Yaqin zaxirani baholashda sportchining yoshi, mashg‘ulot va bellashuvlar staji, model ko‘rsatkichlariga muvofiqligi kabi ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratiladi. Bu borada sport taraqqiyotining bugungi bosqichida biz shunday xususiyatlarni ko‘ramizki, ular sportchini tayyorlash jarayoniga jiddiy ta’sir ko‘rsatadilar va murabbiy bilan sportchi oldiga yangidan-yangi murakkab vazifa va topshiriqlarni qo‘yadilar bu vazifa va topshiriqlarni esa, o‘z navbatida, mashq jarayonini tashkil qilishning eng munosib shakl va usullarini izlab topishga majbur etadi: - bugungi sportchilar erishgan yuksak ko‘rsatkichlar darajasini yanada yuksaltirish uchun, olamni eng yuqori malakali sportchilar tayyorlash uslubini, shuningdek, sportchini tayyorlashda

uzoq yillardan beri qo‘llanilib kelayotgan bugungi tashkiliy-metodik usulni ham batamom takomillashtirish talab qilinadi; - eng yirik sport musobaqalarida erishilgan yutuqlarning natijalari tobora oshib borayotgani sababli, musobaqa kurashlari nihoyatda keskinlashib ketdi. Bu hol sportchilarning texnik va amaliy mahoratini samaradorligi, barqarorligi va ustuvorligiga, ularning ketmaket bo‘lib turadigan mas’uliyatli startlar sharoitida axloqiy irodaviy va ruhiy tayyorgarligiga bo‘lgan talabni benihoya oshiradi; - mashq yuklamalarining hajmi shu qadar kattalashib, og‘irlashib ketdiki, uni yillik sikl doirasida, har bir bosqichi ichiga oqilona singdirish masalasi ko‘ndalang qilib qo‘yildi. Shu bilan birga unga mashg‘ulot samaradorligini oshrishning birdan bir usuli deb e’tirof etilgan munosabatda bo‘lish zarurati tug‘ildi, zero, bunday mashqlar sportchida energiya zaxirasining sarflanishi va qayta tiklanishi o‘rtasidagi aniq munosabatga suyangan holda, uning organizm faoliyatidagi moslanish imkoniyatlarini to‘la amalga oshirish uchun eng maqbul sharoitni ko‘zda tutadi. Mashqning metodik masalalarini hal qilishda fanning vazifasi oshdi yuqori malakali sportchilarni tayyorlab yetkazish, sportchi organizmidagi hayotni ta’minlovchi funksional uslublarga to‘la qonli ta’sir ko‘rsatish va bunday uslublarni o‘ta yuksak faoliyat darajasiga ko‘tarish bilan bevosita bog‘liqdirki, endilikda sportchini zamonaviy usulda tayyorlab yetkazishning o‘ta murakkab muammolarini ilmiy-metodik ma’lumotlarsiz, faqat sog‘lom aql va hissiyotga suyangan holda hal qilib bo‘lmaydi. Ilmiy texnik jarayonni va ilg‘or tajribalarni amaliyotga kiritish sportchilarni tayyorlash natijalarini aniqlaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sport rekordlarining doimiy ravishda o‘sishi, yuqori malakali sportchilarni yoki butun jamoanining yutuqlarini ilmiy asoslashda, tayyorgarlikni tashkil qilish shakliga, qiziqarli uslubiy yechimlarni hayotga kiritish, sport fani yutuqlarini, shuningdek, ko‘pchilik aralash fanlarning o‘rni yildan-yilga o‘smoqda. Shu sababli sport yutuqlarining ilmiy-texnik jarayonini sport fani tayyorgaligining bir qismi deb hisoblanadi. Bu ishga boshqa soha mutaxassislarini: pedagoglar, psixologlar, bioximiklar, fiziologlar, injenerlar, matematiklar, shifokorlarni jalb qilish sportchilar tayyorgarligini oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish to`g`risidagi Konsepsiya 2019 13-fevral.

2. O‘zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. “O‘zbekiston”, Toshkent, 1997 yil.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 16 oktyabrdagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim davlat standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan majlisi materiallaridan “O‘zbekiston ovozi” gazetasi, 2007 y 12 fevral.

5. Бордовская Н.В. Диалектика педагогического Исследова-ния. –М.; 2001.

6. Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo‘llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2008, 3-48 bet.

7. Селевко Г. Современные образовательные технологии: Учеб. пособ. –М. 1998 год.

8. Кузнецова. Н. Формирование систем понятий в современном обучении. –Л. 1985 год.

9. Левина М. Технологии профессионального педагогического образования. – М., 2001 г.

10. Материалы Республиканской научно-практической конфе-ренции «Проблемы формирования и совершенствования содер-жания содержания среднего специального, профессионального образования» Ташкент. 2001 г.

РЕЗЮМЕ

Maqolada jismoniy tarbiya va sportning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilinib, zamon talablari doirasida jismoniy tayyorgarlikni tashkil qilish masalalari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье анализируется значение физического воспитания и спорта в развитии общества, а также рассматриваются вопросы организации физического воспитания в контексте современных требований.

SUMMARY

The article analyzes the importance of physical education and sport in the development of society, and also examines the organization of physical education in the context of modern requirements.

BOLALAR VA O‘SMIRLAR SPORT MAKTABLARIDA SPORTCHILARNI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Zokirov D.
O‘zDJTSUFF o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: o‘yin – tarixiy, bolalar, aqliy va jismoniy kuch, o‘yinchoqlar, ijtimoiy tarbiya vositasi, o‘yinning tuzilishi, o‘yin texnologiyalari, o‘yin uslublari.

Ключевые слова: история-игры, дети, умственная и физическая сила, игрушки, средства социального воспитания, игровая структура, игровые технологии, игровые стили.

Key words: history-games, children, mental and physical strength, toys, social education tools, play structure, play technologies, play styles.

O‘yin - tarixiy tashkil topgan ijtimoiy voqea, mustaqil faoliyat turi, kishiga xosdir. O‘yin madaniyati elementi sifatida jamiyatni barcha madaniyati va kishilarning har xil extiyojlari bilan rivojlanadi: ma’naviy, aqliy va jismoniy kuchni rivojlanishida katta o‘rin egallaydi. O‘yin faoliyati juda ham turli-tumandir: o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan bolalar o‘yinlari, stol o‘yini, doira bo‘lib o‘ynaladigan o‘yin, harakatli o‘yinlar, sport o‘yinlari. O‘yin o‘zi-o‘zini bilish vositasi, o‘yin-kulgi, dam olish, jismoniy va umumiy ijtimoiy tarbiya vositasi, sport vositasi bo‘lishi mumkin. O‘yin o‘qitish usuli, bosh avlodning tajribasini kichiklarga uzatish sifatida qadimdan beri foydalanib kelgan,va o‘quv jarayonini bolalarni faollashtiruvchi va jadallashturiuvchi vositasi sifatida foydalangan.

O‘yinlar halq pedagogikasida - maktabgacha yoshdagi va maktabdan tashqari muassasalarda keng qo‘llaniladi. Yaqin vaqtlargacha o‘quv jarayonida o‘yinlardan foydalanish ancha paytgacha cheklangan edi, shu sabab ayrim mashg‘ulotlar bolalr uchun zerikarli va qiziq bo‘lmag kolgan. O‘yin texnologiya jismoniy tarbiyada va sportda qo‘llaniladigan o‘yinlar uchun xos ko‘pgina belgilarga ega. O‘yin nafaqat jismoniy tarbiyaning vositasi (ya’ni jismoniy mashqlarning o‘ziga xos tizimlari bilan), balki tarbiya va ta’limning samarali uslubi hamdir. Shuning uchun o‘yin uslubi tabiatini tushunish umuman o‘yinning mohiyatini tushunish demakdir.

O‘yin tarixning eng dastlabki bosqichlarida yuzaga kelgan va butun jamiyat madaniyati bilan birgalikda rivojlanib, kishilarning dam olishiga, vaqtlarini quvnoq o‘tkazishlariga, bilimlariga bilim qo‘shishga, ma’naviy va jismoniy tarbiyasiga, ularning turli ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilib keldi va xizmat qilmoqda. Lekin o‘yin azaldan pedagogik vazifani ado etib kelgan va tarbiyaning asosiy vositasi va metodlaridan biri bo‘lib qolmoqda. O‘yin uslubining eng xarakterli belgilari quyidagilardan iborat:

Faoliyatni obrazli yoki shartli syujet (o‘yinning maqsadi, rejasi) asosida tashkil etish, bunda vaziyatning doimo va ko‘pincha kutilmaganda o‘zgarishi bilan muayyan maqsadga erishish nazarda tutiladi.

Maqsadga erishish usullarining xilma-xilligi va faoliyatning majmuali xususiyatga ega bo‘lishi. O‘yinda maqsadga erishish mumkinligi, odatda, biror-bir harakat usuli bilan qat’iy bog‘liq bo‘lmaydi. O‘yin qoidasi doirasida yutishning xilma-xil yo‘llari mavjuddir. O‘yinda harakatlarning bajarilish sharoitlarida kurash olib borishning shartlari haddan tashqari o‘zgaruvchan. Demak, o‘yinchilar vujudga kelgan vazifalarni yechishning turli xil usullarini egallashlari kerak. Ularda shakllangan ko‘nikmalar esa o‘zgaruvchan sharoitlarga muvofiqlashganligi bilan farqm qilishi kerak.

Shug‘ullanuvchilarning bemalol mustaqil harakat qilishiga, ularning tashabbus va chaqqonlik ko‘rsatishlariga, topqir bo‘lishlariga, harakat faoliyatlariga yuksak talablar qo‘yish.

O‘yin harakatlarida hissiy ko‘tarinkilik va raqobatbardoshlikning yorqin ifodalanishi. Uslublar odamlar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro munosabatlarni qayta tiklashga imkon beradi. Shu sababli o‘yin uslubida o‘yinchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar sinchkovlik bilan reglamentatsiya qilinadi va tartibga tushiriladi.

Ko‘p hollarda o‘yinchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat biror predmet, masalan: koptok, bayroqcha vah.k. yordami bilan amalga oshiriladi. Unutmaslik kerakki, o‘yin uslubiga xos jihat qayd qilingan belgilarning hammasi yoki ko‘pchiligining mavjudligidir.Undan ta’limning samarasini tekshirish va umumiy jismoniy tayyorlik darajasini oshirish vositasi sifatida foydalaniladi. O‘yin uslubidan to‘g‘ri foydalanish ongli intizomni, o‘zini tuta bilish, dadillik, matonat, tashabbuskorlik, faollik, va jamoatchilik xususiyatlarini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

O‘yinning tuzilishi o‘z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi:

– maqsadlarni qo‘yish.
– rejalashtirish.
– amalga oshirish (maqsadni).

– natijani tahlil qilish.

O‘yin intizomi - har bir o‘yinchi faoliyatining jamoa faoliyatiga bo‘ysunishi, bo‘lajak o‘yinda rejalashtirilgan taktik ko‘rsatmalarni amalga oshirish, o‘yin qoidalari va umuminsoniy xislatlarga amal qilish va hokazo. O‘yinli faoliyatning motivatsiyasi eng ixtiyoriyligi, tanlash imkoniyati va musobaqa elementlarining borligi, ehtiyojlarni qondirish, o‘zini anglash va o‘zini safarbar qilish bilan ta’minlanadi. O‘yinli texnologiyani o‘yin muhiti aniqlab beradi.

O‘quv jarayonida o‘yinlarining turli modifikatsiyalaridan foydalaniladi:

– immitatsion o‘yinlar - mashg‘ulotlarda birorta tashkilot, korxona yoki bo‘limlarning faoliyatlari immitatsiya qilinadi.
– opersion o‘yinlar - u aniq maxsus amallarni bajarishni mashq qilishga yordam beradi. Bu turdagi o‘yinlar haqiqiy holatni immitatsiya qilingan sharoitlarda olib boriladi.

Rollarni bajarish o‘yini - bunday o‘yinlarda o‘zini tutish taktikasi, birorta shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarish o‘quvlari shakllanadi. Shunday qilib o‘yin sport mashg‘ulotlarada qo‘yidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

– ijtimoiylashtirish funksiyasi. O‘yin talabani ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo‘shilish uchun kuchli vositadir.

Millatlararo kommunikatsiya funksiyasi. O‘yin talabaga umuminsoniy qadriyatlar, boshqa millatlarning madaniyatini o‘zlashtirish imkonini beradi. Chunki o‘yinlar milliy va shu bilan bir vaqtda internatsional va millatlararo.

O‘yinda talabani o‘zini namoyon qilish funksiyasi, ya’ni o‘yin inson amaliyotining paligoni sifatida.

Komunikativlik funksiyasi.

Diagnostik funksiyasi. O‘yin pedagogga talabalarga turli xil qobiliyatlarni (aqliy, ruhiy va ijodiy va h.k.) aniqlashga yordam beradi.

O‘yinning terapevtlik funksiyasi. U talabaning hulqida, muammosida va o‘qishda paydo bo‘ladigan turli xildagi qiyinchiliklarni yengish vositasi sifatida foydalanishda namoyon bo‘ladi.

Tuzatish (korreksiya) funksiyasi. Talabaning shaxsiy strukturasi ko‘rsatkichlari ijobiy o‘zgarishlar qo‘shimchalar kiritish.

Ko‘ngilochar funksiyasi.

Adabiyotlar:

1. Бордовская Н.В. Диалектика педагогического Исследова-ния. –М.; 2001.
2. Селевко Г. Современные образовательные технологии: Учеб. пособ. –М. 1998 год.
3. Кузнецова. Н. Формирование систем понятий в современном обучении. –Л. 1985 год.
4. Левина М. Технологии профессионального педагогического образования. – М., 2001 г.

РЕЗЮМЕ

Maqolada o‘yinlarning xilma-xil harakat ko‘nikmalari va sifatlarning majmuali namoyon bo‘lishi, o‘yinda muvaffaqqiyatga erishish uchun o‘quvchiga bir qancha harakatlar majmuasidan (yugurish, sakrashlar, uloqtirish va x.k.) foydalanishga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatib o‘tilgan. Bularning hammasi o‘yinchilarning organizmiga majmuali ta’sir o‘tkazishni muhokama qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье показано комплексное проявление различных двигательных навыков и игровых качеств, тот факт, что для достижения успеха в игре учащемуся необходимо использовать несколько комплексов действий (бег, прыжки, метания и др.). Все это обсуждалось для комплексного воздействия на организм игровиков.

SUMMARY

The article shows the complex manifestation of various motor skills and playing qualities, the fact that in order to achieve success in the game, the student needs to use several sets of actions (running, jumping, throwing, etc.). All this was discussed for a complex effect on the body of gamers.

JANGNING INDIVIDUAL TIPOLOGIK USLUBLARIDAGI FARQLARNI HISOBGA OLGAN HOLDA YUQORI MALAKALI BOKSCHILARNING SPORT TAYYORGARLIGINI INDIVIDUALLASHTIRISH

Dilmuradov Sh.
Jahon iqisodiyoti va diplomatiya universiteti
O'zbek va rus tillari kafedrasi
Jismoniy madaniyat va sport fani professor v.b.

Таянч сўзлар: individuallik, duel o'tkazishning individual tipologik uslubi, bokschilarning sportga tayyorgarligi.

Ключевые слова: индивидуальность, индивидуально-типологический стиль ведения поединка, спортивная подготовка боксеров.

Key words: individuality, individual typological style of wrestling, sports training of boxers.

Zamonaviy elita sportida sportchilarning sportga tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar darajasi ortib bormoqda. SHuning uchun ham yuqori malakali sportchilar faoliyatining cheklovchi tomonlarini topish mashg'ulot jarayonini tashkil etishning yetakchi muammolaridan biridir. Boks bo'yicha ko'pchilik tadqiqotchilar va mutaxassislarning fikricha, mashg'ulotlar metodologiyasining keyingi rivojlanishi individuallashtirish printsipi rolining oshishi bilan bog'liq. Ushbu yo'nalishda sport nazariyasi va metodologiyasini takomillashtirishning dolzarbligi va dolzarbligi to'plangan nazariy va tadqiqot materiallari va sport amaliyotidagi katta tajribadan dalolat beradi, bu sportga tayyorgarlik tarkibida ham, uzoq muddatli sport turlarining umumiy tizimida ham muhim individual xususiyatlarni ochib beradi. sportchilarni muddatli tayyorlash.

Ushbu tadqiqotimiz obyekti yuqori malakali bokschilarning maxsus sport tayyorgarligi bo'lib, mavzu - boksning turli uslublari bo'lgan bokschilar uchun o'quv vositalarini individuallashtirish jarayonidir.

Tadqiqotimizning maqsadi - texnik, maxsus jismoniy va intellektual-psixologik yordam vositalarini individuallashtirish usullarini asoslash yuqori malakali bokschilarni tayyorlash.

Tadqiqotimizning vazifalari:

1) bokschilarning sport faoliyatini individuallashtirish nazariyasidagi ilmiy pozitsiyalarni o'rganish;

2) yuqori malakali bokschilarning texnik-taktik, maxsus jismoniy va intellektual-psixologik tayyorgarligi ko'rsatkichlarining rivojlanish darajasini aniqlash;

3) korrelyatsiya tahlili asosida bokschilarning sportga tayyorgarligi ko'rsatkichlari, turli jang uslublari va ularning jangovar harakatlari samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash;

4) boks musobaqasini o'tkazish uslublarini hisobga olgan holda bokschilarning mashg'ulot jarayonini individuallashtirish yo'llarini aniqlash.

Tadqiqotimizning gipotezasi quyidagi farazga asoslanadi: yuqori malakali bokschilarning sportga tayyorgarligi parametrlarini o'rganish va aniqlangan ko'rsatkichlarning jangovar harakatlar samaradorligi bilan bog'liqligi bizga individuallashtirish usullarini aniqlashga imkon beradi. bokschilarning boks musobaqasini o'tkazishning individual uslubini hisobga olgan holda texnik-taktik, maxsus jismoniy va intellektual-psixologik tayyorgarlik vositalari.

«Individuallik» ta'riflarining ilmiy ma'nosini rivojlantirish inson faoliyatining turli turlarini tashkil etishda keng ma'lum bo'lgan va qo'llaniladigan ilmiy yondashuvni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qildi - bu individual yondashuv.

Olimlarning individual yondashuvni aniqlash bo'yicha fikrlarining bir xilligi, ushbu ilmiy yondashuvni sport amaliyotida qo'llash tekisligi har xil bo'lishi mumkinligi, xususan, tashkiliy, tarkibiy yoki protsessual jihat bo'lishi mumkinligi bilan izohlanadi. Biroq, har qanday holatda, shaxsni rivojlantirishning maqbul vositalarini izlashning rezonans nuqtasi bu ishtirokchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishdir.

Boks amaliyotida mashg'ulot jarayonini individuallashtirish ko'rsatkichlaridan biri bu raqobat kurashini o'tkazishning shakllangan individual-tipologik uslubidir. Masalan, tipologik yondashuv nuqtai nazaridan uslubni takomillashtirish dastlab ma'lum bir uslubga xos bo'lgan usullarni amalga oshirish sifatini oshirish orqali amalga oshirilishi kerak. Boshqa pozitsiyaga ko'ra, aksincha, bokschilarning texnik mahoratining o'zgaruvchanligini kengaytirish va shu bilan individual uslubni rivojlantirishga yordam berish kerak. Ayrim xususiyatlarni (xususiyatlarni) o'lchashga asoslangan demensial yondashuv bokschilarning tayyorgarligining individual turlarini yaxshilashga qaratilgan bir qator tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qildi. Duel o'tkazishning individual uslubini shakllantirishning maqsadli yondashuvi nuqtai nazaridan, raqobat faoliyatining shartlari va vaziyatlarini taqlid qiluvchi maxsus motorli vazifalar tizimi taklif etiladi. Shunday qilib, ilmiy ishlarni nazariy tahlil qilish boksdagi sport faoliyatining individual uslubi muammosi

murakkab, xilma-xil va muammoli xarakterga ega ekanligini ta'kidlash imkonini beradi. Ushbu tadqiqotda biz texnik, maxsus jismoniy va intellektual-psixologik kabi mashg'ulotlarda qo'llaniladigan mashg'ulot vositalarini individuallashtirish orqali bokschining individual uslubini takomillashtirish imkoniyatlarini asoslashga harakat qildik.

Bokschilarning taktik mahoratining o'ziga xosligi quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlandi: jangovar masofalardan foydalanish hamda ustunlikdagi hujum va himoya usullari.

Bokschilarning jangovar harakatlarining samaradorlik koeffitsientlari o'rtasida statistik jihatdan sezilarli farqning yo'qligi, turli xil uslubdagi sportchilar orasida ham juda muvaffaqiyatli, ham etarli darajada samarali bo'lmaganlar bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Ya'ni, sportchining ma'lum bir uslubga mansubligi musobaqa faoliyatining muvaffaqiyatini bashorat qilish uchun asos bo'la olmaydi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini o'rganar ekanmiz, kuch, tezlik, tezlik-kuch sifatlari, alohida chidamlilik va koordinatsiya kabi sifatlarga tashxis qo'ydik. Ushbu sifatlarning diagnostikasi uzoq va qisqa zarba harakatlarini (to'g'ri, yon, pastdan zarbalar) bajarish jarayonida amalga oshirildi.

Shunday qilib, texnik tayyorgarlikni individuallashtirish masalasiga qaytsak, shuni ta'kidlash kerakki, uni takomillashtirish boshqa usullarni ishlab chiqish orqali emas, balki intellektual va psixologik tayyorgarlikni oshirish orqali amalga oshirilishi kerak.

Tadqiqotimizning natijalari yuqori malakali bokschilarning texnik, maxsus jismoniy va intellektual-psixologik tayyorgarligini rivojlantirish vositalarini tanlashda tayyorgarlik jarayonini individuallashtirish yo'llarini belgilash imkonini beradi. Xususan, individuallashtirish tamoyiliga muvofiq o'quv-mashg'ulot majmualarining tuzilmasini belgilashda bokschilarning tipik jangovar harakatlarining mavjud namunasini hisobga olish, bokschiga xos bo'lgan zarba berish harakatlarini bevosita bajarishda alohida jismoniy sifatlarni rivojlantirish zarur. , hamda bokschilarning intellektual va psixologik tayyorgarligini rivojlantirish.

Muayyan jang uslubi bilan ajralib turadigan bokschilarning jangovar samaradorligi ma'lum maxsus jismoniy fazilatlarning rivojlanish darajasi bilan bog'liq. Shu sababli, bu sifatlarning rivojlanishi sportchining individual uslubini yaxshilaydi, deb taxmin qilish mumkin. Va bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, kuch, tezlik, maxsus chidamlilik yoki muvofiqlashtirishni rivojlantirish nafaqat umumiy jismoniy mashqlar orqali, balki ko'proq darajada sportchiga xos bo'lgan tipik, ya'ni zarba beruvchi harakatlarni bajarishda amalga oshirilishi kerak: bitta, ketma-ket, uzun, qisqa, to'g'ridan-to'g'ri, lateral va boshqalar. Shuningdek,

maxsus jismoniy fazilatlarni rivojlantirish uchun vositalarni tanlashda, odatiy zarba harakatlarini bajarishda, ayniqsa, asab tizimining xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Jang uslubining shakli va mazmunining rivojlanishi dialektikdir: dastlab antropometrik xususiyatlar, jismoniy tayyorgarlik, sport tajribasi sportchini ma'lum bir texnik va taktik harakatlarni o'zlashtirishga moyil qiladi. Keyinchalik, sportchiga xos uslubni qo'llash samaradorligi darajasi kurashning mazmunli sifat tomonini aks ettiruvchi sport fazilatlarini rivojlantirish bilan belgilanadi. Agar sportchiga xos bo'lgan jismoniy sifatlarning past namoyon bo'lishi kuzatilsa, bu raqobatbardosh natija samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun jismoniy tarbiya vositalarini individuallashtirish sportchi uslubiga xos bo'lgan zarba harakatlarini bajarishda maxsus jismoniy sifatlarni takomillashtirishni o'z ichiga olishi kerak.

Shuning uchun bokschilarning mashg'ulot jarayonini individuallashtirishning asosiy jihati sportchining texnik harakatlarining individual profilini qurishdir. Ya'ni, kuzatishlar asosida sport dueli taktikasida qaysi zarba harakatlari ko'proq qo'llanilishi, qaysi masofadan hujum harakatlari amalga oshirilishini aniqlash kerak.Bokschining individual uslubini belgilaydigan odatiy vosita afzalliklarini aniqlagandan so'ng, maxsus jismoniy fazilatlarni rivojlantirish uchun vositalarni tanlashga o'tish kerak. Jismoniy sifatlarni yaxshilash umumiy va maxsus jismoniy mashqlarni qo'llash orqali amalga oshirilishi kerak.

Maxsus jismoniy mashq sifatida biz turli og'irlikdagi manjetlar ko'rinishidagi qo'l og'irliklaridan foydalangan holda boks bo'yicha odatiy jangovar harakatlarni bajarishni taklif qilamiz. Og'irliklarni tanlashda asab tizimining turini hisobga olish kerak, chunki u asosan muayyan jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan jismoniy mehnat rejimini belgilaydi. Ilmiy va uslubiy adabiyotlarda asab tizimining turi boks musobaqasini o'tkazishning ma'lum bir uslubining rivojlanishini oldindan belgilab beradigan ma'lumotlar mavjud.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki: Yuqori malakali bokschilarning texnik, maxsus jismoniy va intellektual-psixologik tayyorgarligini rivojlantirish vositalarini tanlashda tayyorgarlik jarayonini individuallashtirish yo'llarini aniqlash imkonini beradi. Xususan, individuallashtirish tamoyiliga muvofiq o'quv-mashg'ulot majmualarining tuzilmasini belgilashda bokschilarning tipik jangovar harakatlarining mavjud namunasini hisobga olish, bokschiga xos bo'lgan zarba berish harakatlarini bevosita bajarishda alohida jismoniy sifatlarni rivojlantirish zarur hamda bokschilarning intellektual va psixologik tayyorgarligini rivojlantirish kerak bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Tishchenko, A.V. Boks janglarini o'tkazish uslublarining parametrlari va ularning jangovar harakatlar samaradorligi ko'rsatkichlari bilan aloqasi / A.V. Tishchenko // Omsk ilmiy byulleteni. - 2011. - No 4 (99). - S. 179-182.

2. Tishchenko, A.V. Har xil individual jang uslubiga ega bokschilarning zarba va mudofaa texnikasining miqdoriy parametrlari va ularning jangovar harakatlar samaradorligi ko'rsatkichlari bilan aloqasi / A.V. Tishchenko, Yu.V. Yatsin // Jismoniy tarbiya, sport va turizmning dolzarb muammolari: USTU / Ufa davlat aviatsiya texnika universitetining 80 yilligiga bag'ishlangan VI Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. - Ufa, 2012. - S. 201-204.

3. Таймазов, В.А. Индивидуальная подготовка боксеров в спорте высших достижений : дис. ... д-ра пед. наук : 13 00 04 / Таймазов В.А. - СПб., 1997. - 338 с.

4. Дергунов Н. И., Ендропов О. В., Калайджян А. А. Специальная подготовка и комплексный контроль в единоборствах (на примере бокса). Новосибирск: Изд-во НГПУ, 2008. - 250 с.

5. Кузьмин В. А., Кудрявцев М. Д. Специфика и особенности занятий физической культурой со студентами различного уровня двигательной подготовленности (на при -мере бокса): монография. Красноярск: Сибирский федеральный университет, 2018.172 с.

6. Махов С. Ю. Тактика ведения боя одного против нескольких нападающих // Наука-2020. 2020. № 1 (37). С. 105-113.

7. Abdukhamidov, R. N. (2021). Improving psychophysiological training of teenage boxers with the help of improvised means of games. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).

8. Абдухамидов, Р. Н. (2021). Самарали восита ва усуллар ёрдамида ўсмир боксчиларнинг психофизиологик тайёргарлигини такомиллаштириш. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1).

9. Халмухамедов, Р. Д., Абдухамидов, Р. Н., Каримов, Ш. Қ., & Усмонхўжаев, С. Т. (2021). Современные проблемы судейства в боксе. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1).

10. Ражабов, Г. К. (2021). Показатели тактико-технических действий высококвалифицированных боксеров в соревновательных боях в условиях отсутствия и возникновения стрессовых факторов (ПОМЕХ). Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1).

11. Ражабов, Ғ. Қ. (2021). Малакали боксчиларнинг турли экстремал шароитларида мусобақа фаолияти натижадорлиги. Academic research in educational sciences, 2(1), 161-169.

12. Халмухамедов, Р. Д., Қаландаров, Д. Ш., Умаров, Қ. А., & Маткаримов, Ғ. Р. (2021). Тайёрлов машқлар ёрдамида малакали боксчиларнинг техник-тактик маҳоратини такомиллаштириш. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1).

13. Mahmudov, A. M. (2021). Pedagogical and psychological basis of formation of management skills in leadership in the field of physical training and sports. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training, 25-29.

РЕЗЮМЕ

Yuqori malakali bokschilarning jangovar samaradorligi ko'rsatkichlari va ularning sportga tayyorgarligi parametrlarining korrelyatsion tahlili asosida sportchilarning texnik-taktik, maxsus jismoniy va intellektual-psixologik tayyorgarligi vositalarini individuallashtirish yo'llari aniqlanadi.

РЕЗЮМЕ

На основе корреляционного анализа показателей боеспособности боксеров высокой квалификации и параметров их спортивной подготовки определены пути индивидуализации технико-тактической, специальной физической и интеллектуально-психологической подготовки спортсменов.

SUMMARY

On the basis of the correlation analysis of the indicators of the combat capability of highly qualified boxers and the parameters of their sports training, the ways of individualization of the technical-tactical, special physical and intellectual-psychological training of athletes are determined.

YUQORI MALAKALI BOKSCHILARNING INDIVIDUAL JANG USLUBINI HISOBGA OLGAN HOLDA MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIGI

Dilmuradov Sh.
Jahon iqisodiyoti va diplomatiya universiteti
O'zbek va rus tillari kafedrasi
Jismoniy madaniyat va sport fani professor v.b.

Таянч сўзлар: yuqori malakali bokschilar, musobaqa faoliyati xususiyatlari, texniktaktik tayyorgarligi, harakatlarni takomillashtirish.

Ключевые слова: боксеры высокой квалификации, соревновательные характеристики, технико-тактическая подготовка, совершенствование движений.

Key words: highly qualified boxers, competitive characteristics, technical and tactical training, movement improvement.

So‘nggi yillarda boks ommaviy talabga ko‘proq moslashib, noprofessionallar uchun o‘z eshiklarini ochmoqda. O‘rta bo‘g‘in fuqarolari uchun boks to‘garaklarining ommaviyligi ortib bormoqda, buni mamlakatimizning yirik shaharlarida tobora ko‘proq to‘garaklar va boks markazlari ochilayotgani ko‘rsatmoqda.

Malakali bokschini tarbiyalash bokschilar har tomonlama tayyorgarligining murakkab va ko‘p mehnat talab etiladigan jarayoni hisoblanadi. Sportda yuqori natijalarga erishish uchun oqilona texnikani egallash va uni harakat malakalarida mustahkamlash birinchi darajali ahamiyatga ega. Boks texnikasi – bu jangni muvaffaqiyatli olib borish uchun bokschiga zarur bo‘lgan maxsus usullar majmuasi. U bokschiga turli jangovar vaziyatlarda muayyan taktik vazifalarni jang olib borish qoidalari doirasida hal etish imkonini beradi. Ringda olishuv paytida vaziyatning to‘xtovsiz almashinuvi sodir bo‘ladi, jangovar faoliyatning o‘zgarib turadigan sharoitlarida harakatlarning turli xil variantlari unga xosdir. Ushbu sharoitlarda zarur natijalarga erishish maqsadida, bokschi juda ko‘p texnika usullari to‘plamiga ega bo‘lishi lozim.

Mamlakatimizda yoshlarning boksga bo‘lgan ommaviy qiziqishini inobatga olib, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) tizimini

yanada takomillashtirish, soha mutaxassislarini tayyorlash va ularning moddiy rag‘batlantirilishini yaxshilash.

Zamonaviy sportning yuqori saviyasi mashg‘ulot jarayonining uslub va vositalarini takomillashtirish bilan bir qatorda sportchining qobiliyat va imkoniyatlarini har tomonlama o‘rganish, belgi va sifatlarini aniqlash, rivojlantirishga asoslangan yanada chuqurroq individual yondashuvni taqozo etadi. yuqori sport natijalariga erishishga eng katta hissa qo’shadi. Sport natijalarining o’sishi bilan mashg’ulot jarayonini individuallashtirishga qo’yiladigan talablar keskin ortib borishi xarakterlidir. Individual yondashuv individuallikni bilishni, ya’ni bir shaxsni boshqalardan ajratib turadigan va o’z ichiga olgan maxsus, noyob narsani o’z ichiga oladi: ijtimoiy, jismoniy va aqliy, tug’ma va orttirilgan xususiyatlar.

Individual yondashuv zamonaviy pedagogikada ta’lim va tarbiyaning eng muhim tamoyillaridan biri sifatida qaraladi. Sport mashg’ulotlarida bunday tamoyilni amalga oshirish mashg’ulot yuklamalarini sportchilarning individual xususiyatlariga sinchkovlik bilan moslashtirishni va shu bilan uning qobiliyatlarini maksimal darajada ochish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni talab qiladi. Shu munosabat bilan bokschilarning raqobatbardosh faoliyati muvaffaqiyatini belgilovchi individual antropometrik va jismoniy xususiyatlarni aniqlash alohida ma’no kasb etadi.

Bunday tadqiqot, ayniqsa, eng muhim musobaqalarga bevosita tayyorgarlik ko’rish haqida gap ketganda, ko’p qirrali tahlil va turli xil aniq usul va vositalar to’plamini talab qiladi. Buning sababi shundaki, musobaqadan oldingi mashg’ulotlarni rejalashtirishda yo’l qo’yilgan strategik xatolar yoki bokschilarning antropometrik xususiyatlari va jismoniy sifatlariga mos kelmaydigan vosita va usullarni tanlash sport yutuqlari darajasiga bevosita ta’sir qiladi va asosan sportchi sifatida etakchilik qiladi. va murabbiy umidsizlikka tushdi.

Demak, sportchilarning individual xususiyatlari va qobiliyatlarini tashxislash qanchalik muhim rol o’ynashi aniq.

Bugungi zamonaviy sport turlarida nafaqat o‘quv-mashg‘ulot yuklamalarining yuqori shiddatliligi, balki musobaqa faoliyati janglarida bajaralidigan maxsus ish hajmlar bilan ham ajralib turadi. Zamonaviy boksda xalqaro turnirlar, Osiyo, Jahon chempionatlari va Olimpiya o‘yinlarida yuqori sport yutuqlarini namoyish etmoqda. Dunyoning eng kuchli bokschilarning janglari dinamikligi va faolligi, ko‘plab kutilmagan va qiyin hujum vaziyatlari, turli mukammallashtirilgan texnikalar va oqilona taktika tanlashi bilan ajralib turadi.

Yuqori malakali bokschilarning texnik-taktik tayyorgarligini o‘rgatish usuliyati malakali bokschilarning musobaqa faoliyati ko‘rsatkichlari va talablari asosini hisobga olgan holda o‘quv-mashg‘ulotlarni tahlil qilish orqali yangicha pedagogik texnologiyalarni talab etadi.

Zamonaviy boks musobaqalarida g‘alabaga erishish darajasi, bokschilarning ringdagi harakatlarining shiddatini ortishi ularning umumiy jismoniy va maxsus tayyorgarligi darajasiga talablarni oshirdi. Malakali bokschilarning jismoniy, texnik va psixologik tayyorgarligi bo‘yicha juda ko‘p tadqiqotlar mavjud harakatlarga o‘rganish va takomillashtirishga unchalik e’tibor berilgan.

Sport amaliyotidan bizga ma’lumki yuqori malakali bokschilarning porloq kelajagi sport mashg‘ulotlarini ilmiy jihatdan isbotlangan o’quv reja asosida to’g‘ri tashkil qilinganligi hamda uning sifatiga bevosita bog‘liqdir. Binobarin, o’zbek boksini jahon maydoniga olib chiqish, uni raqobatbardosh pog‘onaga ko’tarish o’quv-mashg‘ulotlarni ilmiy asosda tashkil qilish va bu borada samarali pedagogik texnologiyalar joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqori malakali bokschilarning o’quv-mashg‘ulotlarni musobaqa faoliyati talabalari asosida maqsadga muvofiq tashkiliy va uslubiy jarayonlarni ilmiy asosda amalga oshirilishi talab qilinadi.

